

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



B.E. TAGAEV

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Kitob
mudd**

**Ol
mi**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

B.E.TAGAEV

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

DARSLIK

**Toshkent
“Ma‘rifat”
2023**

UO'K: 338.2(575.1)(075)
KBK: 65.7(50')ya7
T 31

Tagaev B.E. O'zbekiston iqtisodiyoti. Darslik.
T.: "Ma'rifat", 2023. 352 bet.

Darslik iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalarda murakkab iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va tushunishlari uchun fundamental bilim va vositalarni beradi, mamlakatdagi iqtisodiy jarayonlarning nazariy va amaliy jihatlarini tizimli tavsiflaydi. Iqtisodiy nazariyalar, modellar va tushunchalar, iqtisodiy faoliyat tamoyillari empirik misollar asosida ochib berilgan hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat va islohotlar, mamlakatning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishini rag'batlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan.

O'zbekiston iqtisodiyoti darsligi talabalarda tanqidiy fikrlashni, iqtisodiy masalalarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi va bu ularda turli nuqtai nazarlarni baholash va o'z fikrlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

UO'K: 338.2(575.1)(075)
KBK: 65.7(50')ya7
T 31

Taqrizchilar:

T.M.Ahmedov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
A.M.Sodiqov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

ISBN: 978-9910-9405-1-4
© "Ma'rifat" nashriyoti, Toshkent, 2023 y.

MUNDARIJA

Kirish	5
1–Bob. "O'zbekiston iqtisodiyoti" fanining ilmiy asoslari.....	7
1. "O'zbekiston iqtisodiyoti" fanining mazmuni va predmeti	7
2. Milliy iqtisodiyot tizimlari va iqtisodiy rivojlanish modellari	14
3. O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanish asoslari va bosqichlari...	24
4. O'zbekistonning mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining shakllanishi	32
5. Milliy iqtisodiyot va uni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar.....	41
6. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish.....	48
2–Bob. Iqtisodiy salohiyat va rivojlanish omillari	62
7. Yalpi iqtisodiy salohiyat	62
8. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishining geoiqtisodiy omillari va tabiiy resurs salohiyati.....	70
9. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish, ilmiy-texnika va innovasiya salohiyati	80
10 O'zbekistonning demografik va mehnat salohiyati. Mehnat bozori va bandlik	88
11 O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holati va jahon iqtisodiy tizimida tutgan o'rni	99
3–Bob. Tarmoqlar kompleksi	111
12 Sanoat kompleksining shakllanishi va rivojlanishi	111
13 Agrosanoat kompleksi	122
14 Xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyasi	132
15 Turizm milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'1	140
16 Iste'mol bozori kompleksi va uni tartibga solish	147
17 Transport infratuzilmasi va axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasini rivojlantirish	155
18 Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investisiya siyosati. Qurilish majmui	169

DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI ARM
№ 34415

4-Bob. Milliy iqtisodiyotni tartibga solish	183
19 O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy tarkibi	183
20 Institutional o'zgarishlar va bozor infratuzilmasining shakllanishi.....	194
21 Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes	203
22 Raqobat va monopoliya. Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish	210
23 O'zbekistonning ijtimoiy rivojlanishi. Inson kapitali sifatini oshirish.....	219
24 O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati va jahon xo'jalik tizimiga integrasiyalashuvi	233
25 Iqtisodiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish	244
26 Milliy iqtisodiyotni pul-kredit va soliq-byudjet siyosati orqali tartibga solish	252
5-Bob. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi strategiyasi.	266
27 Milliy iqtisodiyot rivojlanishini prognozlashtirish, modellashtirish, stragegik rejalashirish va dasturlash	266
28 Milliy iqtisodiyotning boshqaruv tizimi.....	277
29 O'zbekistonning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi.....	287
30 Milliy iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik. Yashirin iqtisodiyot	295
Foydalanilgan adabiyotlar	309
Glossariy	311
Ilovalar	341

KIRISH

Bugungi kunda insoniyat hayotidagi jadal ilmiy-texnologik o'zgarishlar va raqamli transformasiya jamiyat hayoti va iqtisodiyotni butunlay o'zgartirdi hamda mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va farovonligining asosiy omili – inson resurslarini, inson kapitalini rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Bu esa postindustrial jamiyatni barpo etish, raqamli iqtisodiyotga o'tish va bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishda inson kapitali sifatini oshirish, mehnat bozorida tobora intellektual ish joylarining kengayishi, ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni barpo etish bilan ifodalanadi.

Zamonaviy milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash sanoati, yuqori qo'shilgan qiymatga ega, iste'mol uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarishning ustuvorligi, ijtimoiy mehnatning tobora intellektuallashuvi hamda iqtisodiyotning raqamlashtirilishi bilan ajralib turadi.

Milliy iqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi bo'lib, uning faoliyati aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Har qanday davlatning milliy iqtisodiyoti murakkab iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-tashkiliy, ilmiy-texnikaviy tizimdir.

O'zbekiston iqtisodiyoti fani iqtisodiy nazariya, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, statistika va jahon iqtisodiyotini o'rganish jarayonida olingan bilimlarni konkretlashtiradigan kompleks o'quv fanidir. Ushbu fanni o'rganishdan maqsad – O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida iqtisodiyoti, uning shakllanishi, muammolari va rivojlanish istiqbollari haqida tizimli bilimni shakllantirishdir. Talabalar bu bilimlarni iqtisodiy nazariya asoslari asosida to'liq o'zlashtirishlari, ularni amaliyotda qo'llay olishlari, iqtisodiyotni rivojlantirish muammolarini ko'ra bilish va tahlil qilishlari, ularni hal etish yo'llari va mexanizmlarini asoslab bera olishlari kerak.

Darslik respublika iqtisodiyotining shakllanish jarayonlari, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish, mamlakatning iqtisodiy salohiyati, tarmoq va hududlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish usullarining nazariy-uslubiy, tashkiliy va amaliy asoslarini tizimli ravishda

o'rganadi. Shuningdek, davlatning iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmlari, qisqa, o'rta va uzoq muddatli prognozlash va dasturlash tizimi, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, tarkibiy islohot va institusional o'zgarishlarni ochib berishga alohida e'tibor qaratadi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonining ko'plab asosiy muammolari tarmoq, hudud va ishlab chiqarish kesimida ko'rib chiqiladi hamda mamlakat iqtisodiyoti, uni rivojlantirish muammolari to'g'risidagi aniq bilimlarni nafaqat makro balki mezo va mikro darajada olish imkonini beradi.

Xususan, darslikda O'zbekistonda 2017 yildan davlat, jamiyat hayotini tubdan yangilash, shu jumladan iqtisodiyotni liberallashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, uning raqobatdoshligini oshirish, xususiyashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirish, investisiyaviy muhitni yaxshilash hamda jahon iqtisodiyotiga integrasiyasini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar alohida joy olgan.

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiyoti murakkab iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va institusional jihatdan o'ziga xos bo'lgan tizimni ifodalaydi. Iqtisodiyotning turli sektorlarida korxonalarni joylashtirish vazifalarini hal etish, tarmoq va hududiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish hamda davlatning oqilona tartibga solishdagi o'rni tadqiq etish "Milliy iqtisodiyot" fanining vazifalaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarining aholi turmush darajasi va sifatiga, investisiya siyosatining iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ta'siri, iqtisodiyot va uning ayrim tarmoqlari, hududlarning raqobatbardoshlik darajasi, ustunliklarini belgilovchi omillarga davlat ta'sirining asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

Bugungi kunda bilimga asoslangan asrda har qanday mamlakatning barqaror taraqqiyoti ilm-fan, ta'lim va inson kapitalining sifatini oshirishni talab etadi hamda inson resurslarini rivojlantirishga kiritilgan sarmoya uzoq muddatli strategiyada eng samarali investisiya hisoblanadi.

1–Bob. "O'zbekiston iqtisodiyoti" fanining ilmiy asoslari

1. "O'zbekiston iqtisodiyoti" fanining mazmuni va predmeti

"Milliy iqtisodiyot" mamlakat iqtisodiyoti, ishlab chiqaruvchi kuchlari, iqtisodiy munosabatlar, mamlakatning iqtisodiy o'sish xususiyatlari, iqtisodiyotni boshqarishning ijtimoiy–madaniy an'analari va qadriyatlariga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganadi. Milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish sharoitlari va uning natijalari o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro bog'liq ichki jarayonlarga ega bo'lgan yagona iqtisodiy organizm sifatida mamlakatning yagona iqtisodiy tizimi sifatida shakllanadi.

Milliy iqtisodiyot fan sifatida o'zining ilmiy tadqiqot ob'yekti, predmeti va vositalariga ega. *Tadqiqot predmeti* – takror ishlab chiqarishning ijtimoiy–iqtisodiy jarayonlari, iqtisodiy tizimning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi qonuniyatlari, uning tarkibiy va funksional elementlari, salohiyati va mexanizmlaridir. *Tadqiqot ob'yekti* – mamlakatning milliy iqtisodiy tizimi. U bir qator iqtisodiy fanlar tomonidan o'rganiladi: nazariy (siyosiy) iqtisod, iqtisodiy tarix, iqtisodiy statistika, ekonometrika, matematik modellashirish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya va boshqalar.

Milliy iqtisodiyot – bu suverenitet, yaxlitlik, ijtimoiy va milliy yo'nalish tamoyillariga (uslubiy imperativlarga) javob beradigan mamlakat iqtisodiy tizimi. Milliy iqtisodiyot murakkab tizim sifatida tashkiliy, tarkibiy, funksional, institusional va boshqa quyi tizimlar, tarkibiy qismlar va xususiyatlar majmuini o'z ichiga oladi. Tashkiliy jihatdan bu xo'jalik yurituvchi sub'yektlar: tashkilotlar, muassasalar, korxonalar, tarmoqlar, hududlar, ularning o'zaro munosabatlari va munosabatlari majmuidir.

Tarkibiy jihatdan bu iqtisodiy komplekslar: sanoat, agrosanoat majmuasi, yoqilg'i–energetika kompleksi, qurilish kompleksi va boshqalar.

Funksional nuqtai nazardan, bu salohiyatlar to'plami: tabiiy resurs, demografik va mehnat, ilmiy va innovasion, ishlab chiqarish, ekologik va boshqalar.

Institusional nuqtai nazardan, bu bozor va milliy bozor segmentlari: ishlab chiqarish omillari bozori, tovar va xizmatlar bozori, valyuta bozori, fond bozori, intellektual mulk bozori, uy–joy bozori institutlar to'plami va boshqalar.

Faoliyat va boshqaruv darajalariga ko'ra milliy iqtisodiyot makrodaraja (butun iqtisodiyot), mezodaraja (tarmoqlar, hududlar) va mikrodarajaga (birlamchi ishlab chiqarish bo'g'ini korxonalar va tashkilotlari) bo'linadi.

Milliy bozorning barcha tarkibiy qismlari. komplekslari, salohiyati, segmentlarini quyidagilar tashkil qiladi:

- mulkchilik shakllari va huquqlari;
- iqtisodiy, takror ishlab chiqarishga jalb qilingan har xil turdagi resurslarning moddiy oqimlari harakati jarayon va xarajatlar bo'lgan xom ashyo, energiya, kapital, ishchi kuchi shaklida iqtisodiy aylanmada ishtirok etadi;
- moliyaviy oqimlar (pul taklifi – naqd pul va naqd bo'lmagan pullar). barcha turdagi qimmatli qog'ozlar harakati (aksiyalar, obligasiyalar, veksellar va boshqalar);

Milliy iqtisodiyotning eng muhim belgilari uning samaradorligi va raqobatbardoshligi, jahon iqtisodiy munosabatlari tizimida, jahon iqtisodiyotida o'rni va roli aks ettiruvchi rivojlanishining holati, tendensiyalari, qonuniyatlaridir.

Iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlatning iqtisodiy dastaklar vositasida tartibga solish – moliya, kredit, soliq, valyuta siyosati, narxlarni nazorat qilish hamda bilvosita ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini yordamida amalga oshiriladi. Xuddi shu yo'l bilan O'zbekistonda haqiqiy bozor munosabatlariga o'tish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Milliy iqtisodiyotning xususiyati va uning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish uning quyi tizimlarini ajratishni talab qiladi (1-jadval).

1-jadval

Milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismlari	
Tarkibiy qismlar (komponentlar)	Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar
1 Davlat	Hukumat, Markaziy bank, soliq inspeksiyasi va boshqa davlat organlari
2 Hududlar	Viloyat, shahar, tumanlar
3 Tarmoq	Korxonalar va tashkilotlar
4 Uy xo'jaliklari, inson	Inson ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) – umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, bozor baholarida mamlakatda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarilgan va yakuniy iste'mol, jamg'arish va sof eksport uchun mo'ljallangan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymatini ifodalaydi. YAIMni uchta usul bilan hisoblash mumkin: ishlab chiqarish usuli, daromaddan foydalanish usuli va daromad manbalari bo'yicha YAIMni shakllantirish usuli.

Mamlakatlarni erishilgan iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha guruhlash BMT tomonidan taklif qilingan. U ushbu guruhlashni har bir darajaga mos keladigan iqtisodiy muammolar turi bilan birlashtirdi. BMT uchta davlat guruhini ajratdi:

- rivojlangan mamlakatlar;
- rivojlanayotgan mamlakatlar;
- o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar (ma'muriy-buyruqbozlikdan bozor iqtisodiyotiga).

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishini tartibga solish va boshqarish uchun ko'rsatkichlar tizimi va ularning monitoringini tashkil etish zarur. Bu ko'rsatkichlar axborot bilan ta'minlanishi, kuzatish, o'lchash, qayd etish va nazorat qilish uchun oson bo'lishi kerak. Ular ishonchli, ob'yektiv, solishtiriladigan va taqqoslanadigan, barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va iqtisodiyot ishtirokchilari uchun majburiy bo'lishi kerak.

Kuzatiladigan va hisobga olinadigan ko'rsatkichlar tizimiga qo'yiladigan muhim talab – ularning vaqt va makonda o'zgarish dinamikasini aniqlash imkonini beruvchi, taqqoslanadigan baholarda tabiiy va xarajat o'lchovlarida masshtab va hajmning mutlaq qiymatlari bo'yicha jamlash, solishtirish va taqqoslash imkoniyati hisoblanadi.

Iqtisodiyotni boshqarish jarayonida, birinchidan, barcha alohida turdagi iqtisodiy ob'yektlarni (ishlab chiqarish, korxonalar, tarmoqlar, korporasiyalar va boshqalar) yagona milliy iqtisodiyotga birlashtirish yoki jamlash zarurati tug'iladi.

Institutni inson faoliyatining turli sohalarini tartibga soluvchi rasmiy va norasmiy normalar, tamoyillar, qonunlar, qoidalarning barqaror to'plami sifatida ta'riflash eng maqbuldir. Xususan, ijtimoiy munosabatlar va ularni tashkiliy va tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalar, jumladan, davlat organlari,

muassasalar, tashkilotlar orqali ijtimoiy rol va maqomlar tizimiga tashkil etish. Institut ijtimoiy nazorat funksiyasini ham bajaradi.

Iqtisodiyotni o'z ichiga olgan murakkab ijtimoiy tizimlarning o'ziga xos xususiyati *ularning umumiy ijtimoiy va umumiy iqtisodiy qonunlarga* muvofiq munosabatlar va institutlar makonida o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatidir.

Mikroiqtisodiyot iqtisodiy nazariyaning tarkibiy qismi bo'lib, odamlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni o'rganadi va ularning iqtisodiy faoliyatining umumiy qonuniyatlarini belgilaydi.

Mikroiqtisodiyot – bu alohida iqtisodiy sub'ektlarning xatti-harakatlarini o'rganadigan qarorlar qabul qilish fanidir. Uning asosiy muammolari:

- narxlar va muayyan tovarlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish hajmlari;
- alohida bozorlarning holati;
- resurslarni muqobil maqsadlar o'rtasida taqsimlash.

Mikroiqtisodiyot nisbiy narxlarni, ya'ni alohida tovarlar narxlar o'rtasidagi munosabatni, makroiqtisodiyot esa narxlarning mutlaq darajasini o'rganadi.

Mikroiqtisodiyotning bevosita predmeti: cheklangan resurslardan samarali foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar; iqtisodiy tanlov sharoitida alohida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan qarorlar qabul qilish.

Makroiqtisodiyot iqtisodiyot nazariyasining butun iqtisodiyotning yaxlit iqtisodiy tizimning, iqtisodiy hodisalarning umumiyligini o'rganadigan bo'limi.

Milliy iqtisodiyotda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar birgalikda takror ishlab chiqarishning yagona jarayonini tashkil etib, to'rt bosqichni: ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash, iste'molni qamrab oladi. Ularning faoliyati va pirovard natijasi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar va makro parametrlar, jumladan, ijtimoiy mahsulot harakatini tavsiflovchi jamg'arish va iste'mol majmui bilan baholanadi.

Ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan iqtisodiyot, ma'lumki, ishlab chiqarish, taqsimlash va foydalanishdan iborat bo'lgan inson mehnati mahsulotlarining aylanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu aylanma mablag'lar

harakati orqali amalga oshiriladi, buning natijasida barcha mahsulotlar pul ko'rinishida baholanadi, bozorda sotiladi, ya'ni tovarlarga aylanadi. Shunga ko'ra, mahsulot aylanishi bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish va taqsimlash bosqichida alohida iqtisodiyot sub'yektlari tomonidan o'zlashtiriladigan va keyinchalik ular tomonidan foydalaniladigan daromadlarning aylanishi bilan birga sodir bo'ladi.

Makroiqtisodiyotning asosiy muammolari odatda quyidagilarni kiritish mumkin:

- muayyan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish hajmlari;
- ayrim bozorlarning holati;
- xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan qarorlar qabul qilish, ular tomonidan muayyan iqtisodiy harakatlarni amalga oshirish tamoyillari;
- mavjud moddiy ne'matlarning cheklangan miqdori sharoitida mumkin bo'lgan muqobil variantlarni tanlash.

Milliy hisoblar tizimi (MHT) iqtisodiy nazariya tamoyillari asosida aniq hisoblarni yuritish va makro darajadagi qoidalarga muvofiq iqtisodiy faoliyatni hisoblash bo'yicha xalqaro miqyosda kelishilgan standart tavsiyalar to'plamidir.

Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatdagi makroiqtisodiy jarayonlarni tavsiflash va tahlil qilish va eng muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni: mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, umumiy daromadlar va xarajatlarni bog'lash uchun ishlatiladigan o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar va tasniflar tizimi (masalan, jadvallar shaklida) taqdim etadi. YAIMni barcha asosiy bosqichlarda namoyon qilish imkonini beradi: ishlab chiqarish, taqsimlash, foydalanish. MHT ma'lum bir vaqtning o'zida iqtisodiyot holatining lahza tasvirini emas, balki amalda hisoblar ketma-ket vaqt davomida tuziladi va shu bilan iqtisodiy ko'rsatkichlarni kuzatish, tahlil qilish va baholash uchun zarur bo'lgan doimiy ma'lumotlar oqimini ta'minlaydi. MHT nafaqat ma'lum vaqt oralig'idagi iqtisodiy faoliyat, balki ma'lum bir davrda iqtisodiyotning aktivlari va majburiyatlari darajalari va shu tariqa mamlakat aholisining boyligi to'g'risida ham ma'lumot beradi. Bundan tashqari, MHT ma'lum bir mamlakatning milliy iqtisodiyoti va dunyoning qolgan qismi o'rtasidagi aloqalarni aks ettiruvchi tashqi hisobni ham o'z ichiga oladi. Soliq tizimini baholash uchun birinchi marta

makroiqtisodiy hisoblar ingliz iqtisodchisi Uilyam Petti tomonidan shakllantirilgan.

MHT bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi, jumladan:

- ishlab chiqarish hajmini ma'lum vaqt oralig'ida o'lchash
- iqtisodiyotdagi mavjud tendensiyalarni aniqlash
- davlatning iqtisodiy siyosatini tashkil etish.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlari va manfaatlariga mos kelishi kerak. Ular iqtisodiy tizimni rivojlantirishning maqsadli va ustuvor yo'nalishlarini belgilash va asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maqsad nafaqat alohida shaxslar, balki tashkilotlar, assosiasiyalar, firmalar, korporasiyalar, mintaqalar, davlatlar, ularning guruhlari, butun dunyo hamjamiyati uchun zarurdir. Maqsad va vazifalarga e'tibor qaratmasdan turib, hech qanday darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy va iqtisodiy tizimning mavjudligi va faoliyat yuritishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Maqsadni asoslash, maqsadlarni belgilash va unga erishish bosqichlari, ularni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar va zarur resurslarni aniqlash rejalashtirish va boshqarish jarayonining boshlang'ich nuqtasi, boshlanishi hisoblanadi.

Maqsaddan farqli o'laroq, iqtisodiy tizimni, shuningdek, uning alohida quyi tizimlarini rivojlantirishning maqsadli yo'nalishlari uning tashqi iqtisodiy makondagi o'rni aniqlash imkonini beradi. Ular qo'yilgan maqsad sari harakatning umumiy yo'nalishini uning parametrlari va holatini miqdoriy aniqlamasdan beradi. Faoliyatning ushbu yo'nalishi aholi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ehtiyojlari va manfaatlaridan kelib chiqqan holda, jahon iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan o'xshash tizimlarning rivojlanish tendensiyalarini, uning globallashtirishini, innovatsiyalarni rag'batlantirishni, ta'limni rivojlantirishni, xavfsizlikni ta'minlashni va hokazolarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Xulosa

O'zbekiston iqtisodiyoti iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar tizimi bo'lib, uning faoliyati aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Har qanday davlatning milliy iqtisodiyoti murakkab iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, ilmiy-texnikaviy tizimdir. U o'zining faoliyati davomida to'plangan individual salohiyatlaridan iborat jamlangan iqtisodiy samaraga

ega. Ular orasida tabiiy resurs, ishlab chiqarish, mehnat, ilmiy-texnikaviy va boshqalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Mamlakat milliy iqtisodiy tizimining rivojlanishi uning milliy bozorini yaratish va takomillashtirishga olib keladi, uning doirasida uning alohida segmentlari: tovarlar va kapital bozori, xizmatlar bozori, mehnat bozori, ko'chmas mulk bozori, fond bozori, intellektual mulk bozori, ishlab chiqarish vositalari bozori va boshqalar shakllanadi va faoliyat yuritadi.

Turli mamlakatlarda sezilarli darajada farq qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy modellar, aholining mentaliteti, ichki va xalqaro munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari hamda hokimiyatning xalq oldidagi mas'uliyat tizimi ham mavjud.

Asosiy atama va tushunchalar

Milliy iqtisodiyot
Iqtisodiyot modeli
Yalpi ichki mahsulot
Iqtisodiyotning tizimli modeli
Milliy hisoblar tizimi
Makroiqtisodiy tizim
Mikroiqtisodiy tizim

Nazorat savollari

1. Milliy iqtisodiyot fani nimani o'rganadi.
2. O'zbekiston milliy iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari va tuzilishi qanday?
3. Milliy iqtisodiyotni shakllantirishning shart-sharoitlari mazmuni va maqsadi nimadan iborat?
4. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tarkibiy tuzilish maqsadi va belgilari.
5. Liberal bozor modeli va tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti o'rtasidagi farqlar
6. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tizimi.
7. Milliy iqtisodiyot faoliyatida qanday makroiqtisodiy nisbatlar muhim rol o'ynaydi? Uning makro va mikroiqtisodiy tizimlarining o'zaro aloqalari qanday?

8. MHTning maqsadi, vazifalari va mazmuni nimadan iborat?

2. Milliy iqtisodiyot tizimlari va iqtisodiy rivojlanish modellari

Milliy iqtisodiyotlar o'ziga xos qonuniyatlar va xususiyatlarga ega bo'lgan iqtisodiy tizimlar yig'indisidir. Aksariyat milliy iqtisodiyotlarda bir xil turdagi umumiy ko'rinishga ega takrorlanadigan barqaror qonuniyatlar namoyon bo'ladi. Mamlakatga sun'iy ravishda, boshqa turdagi iqtisodiy tizimga ega bo'lgan qonuniyatlar ko'pincha ildiz otmaydi va katta yo'qotishlarga olib keladi. Samarali iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda har xil turdagi milliy iqtisodiyotlarning ishlash mexanizmlari mantiqini tushunish muhim ahamiyatga ega va shuning uchun har bir mamlakat o'ziga xos iqtisodiy mexanizmi va uni rivojlantirishning eng maqbul yo'nalishini aniqlashga intiladi.

Eng samarali yo'lni izlash esa agarda u boshqa mamlakatlar rivojlanishidagi jahon tajribasiga asoslansa, yanada muvaffaqiyatli bo'ladi. Rivojlanish turlarini tasniflash (klassifikasiya), har bir iqtisodiy tizimga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi. Mezon asosida qurilgan tasnif har bir turni va uning iqtisodiy mexanizmini aniqlash jarayonini osonlashtiradi.

Iqtisodiy tizim – bu iqtisodiy mahsulotni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan asosiy iqtisodiy munosabatlarning shakli va mazmunini belgilovchi prinsiplar, qoidalar va munosabatlarning amaldagi majmuidir.

Boshqacha aytganda, iqtisodiy tizim – bu dunyoda, davlatda, mamlakatda (mintaqada) yoki jamiyatda vujudga kelgan mulkiy munosabatlar va iqtisodiy mexanizm asosida sodir bo'ladigan barcha iqtisodiy jarayonlarning yig'indisidir.

Barcha iqtisodiy tizimlarda ishlab chiqarish muayyan iqtisodiy resurslarni talab qiladi va xo'jalik faoliyati natijalari taqsimlanadi, almashinadi va iste'mol qilinadi.

Iqtisodiy tizimning maqsadi ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni maksimal darajada samarali tashkil etishdan iborat.

Iqtisodiy tizimning turi quyidagilarni tavsiflaydi:

- mulkchilik shakllari;
- cheklangan resurslarni taqsimlash usullari;
- iqtisodiyotni tartibga solish usullari.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyada iqtisodiy tizimlarning 4 turi mavjud:

1. **An'anaviy iqtisodiyot** – eng qadimgi iqtisodiy tizim bo'lib, unda an'analar va urf-odatlar yaratish, almashish va taqsimlashda katta rol o'ynaydi. Unda qo'l mehnati ham keng tarqalgan.

2. **Buyruqbozlik–ma'muriy** (rejali, buyruqbozlik, davlat, direktiv) iqtisodiyot – bu deyarli barcha iqtisodiy resurslar davlatga tegishli bo'lgan, iqtisodiyot davlat rejasi orqali boshqariladigan tizimdir.

3. **Bozor iqtisodiyoti** – erkin tadbirkorlik, raqobat, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtasidagi shartnoma munosabatlari tamoyillariga asoslangan tizim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashuvi cheklangan.

Shuni ta'kidlash lozimki, zamonaviy dunyoda yaqqol bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan misollar yo'q, bugungi kun davlatlarida ko'pincha aralash iqtisodiy tizim ustunlik qiladi.

4. **Aralash iqtisodiyot** – bu turli iqtisodiy tizimlarning elementlari birlashtirilgan tizimdir. Unda davlat va xususiy sektor barcha resurslar va moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishda muhim rol o'ynaydi.

Milliy iqtisodiy tizimlarning turlari. «Milliy iqtisodiyot» tushunchasi «iqtisodiy tizim» atamasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u iqtisodiy tizimning ushbu turini aniqlashtiradi, uning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, mamlakatning geografik joylashuvi, xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki, xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki, iqtisodiy tizimning madaniy, tarixiy an'analar va boshqa omillarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Tizim deganda tasnifi tahlil mezoniga bog'liq bo'lgan murakkab va o'zaro bog'liq elementlar to'plami tushuniladi. Milliy iqtisodiy tizimlarning tipologiyasi har xil bo'lishi mumkin:

1) ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra yuqori darajada rivojlangan, rivojlanayotgan va rivojlanmagan milliy iqtisodiyotlar ajratiladi;

2) iqtisodiyot tuzilishiga ko'ra – agrar, industrial, postindustrial jamiyatlar;

3) mamlakat hududining kattaligi bo'yicha – kichik davlatlar, o'rtta mamlakatlar, katta va eng katta davlatlar;

4) mintaqa bo'yicha – Osiyo–Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari, Yevropa mamlakatlari, Afrika va boshqalar;

5) milliylik asosida – Avstriya, Belarus, Bolgariya, Vengriya, Yaponiya va boshqalar iqtisodiyoti;

6) jahon iqtisodiyotida ishtirok etish darajasiga ko'ra – yopiq va ochiq turlar;

7) rivojlanganlik darajasiga ko'ra rivojlangan yoki rivojlanayotgan;

8) davlatning iqtisodiyotga aralashuvi turi va chegaralariga ko'ra – erkin yoki liberal, ma'muriy–buyruqbozlik, aralash;

9) muvofiqlashtirish mexanizmiga ko'ra – an'anaviy, bozor va buyruqbozlik (rejali).

Tizimlarning bunday tipologiyasi milliy iqtisodiyotlarning asosiy belgilarini, tayanch elementlarini aniqlashga, tizimlar faoliyatining shakllari va mexanizmlarining umumiylikni aniqlashtirishga imkon beradi. Iqtisodiy tizimning har bir turi muayyan sharoitlarda amalga oshirilib, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Iqtisodiy tizimlarning zamonaviy modellari shunday shakllanadi. Ijtimoiy–iqtisodiy model deganda mamlakat va mintaqaning o'ziga xos tabiiy sharoitlarida iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning faoliyati tamoyillari, yo'nalishlari, hayotiylikni belgilovchi iqtisodiy institutlar kompleksi tushuniladi.

Model farqlarining shakllanish omillari quyidagilardir:

- milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasi;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish darajasi va xarakteri;
- milliy iqtisodiyot ustuvorliklarini tanlash;
- aholi mentalitetining xususiyatlari;
- davlat va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning o'zaro hamkorligi shakllari;
- jamiyatning turli guruhleri va qatlamlari manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmlari;
- iqtisodiyotni moliyalashtirish manbalari va ko'lam;

– bozor muhitining rivojlanish darajasi va tashkil etish shakllari va boshqalar.

Modellarni farqlash mezonlariga makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ham kirishi mumkin:

- YAIM hajmi, tuzilishi va dinamikasi;
- aholi jon boshiga YAIM hajmi;
- iste'mol narxlari indeksi;
- mehnat unumdorligi darajasi va boshqalar.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda modellarni «ijtimoiylik» mezoni bo'yicha tahlil qilishga keng tarqalgan yondashuv mavjud bo'lib, unga ko'ra liberal, ijtimoiy yo'naltirilgan va sosial–demokratik model guruhleri mavjud. Bozor modellarining ushbu guruhleri bir–biridan farq qiladi:

- mulkchilik tuzilishi;
- ijtimoiy siyosatning yo'nalishi;
- qayta taqsimlash jarayonlarida davlatning ishtiroki;
- davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki chegarasi.

Zamonaviy bozor modellaridan quyidagilar ajralib turadi: Amerika, Yaponiya, turli Yevropa modellari (2–jadval).

2–jadval

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining milliy modellari

Mezonlar	Liberal model	Ijtimoiy yo'naltirilgan model	Korporativ model
Davlat dasturlarining maqsadli yo'naltirilganligi	Tadbirkorlik uchun sharoitlar yaratish	Fuqarolar manfaatini himoya qilish qilish	Yirik biznes manfaatlarini himoya qilish
Iqtisodiyotni tartibga solish tamoyillari	Taktik usullardan foydalanish	Uzoq muddatli dasturlash	Asosiy ustuvorliklarni aniqlash
Iqtisodiyotda davlat sektorining ulushi	10% atrofida	30% atrofida	Qisman
Mos keluvchi davlatlar	AQSH	Germaniya, Shvesiya	Yaponiya

Amerika iqtisodiy modeli erkin xususiy tadbirkorlikka, shaxsiy manfaat va boylikka intilishga asoslangan. U yuqori individual faollik va mas'uliyat

DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI ARM
№ 34415

bilan ajralib turadi. Davlat aholining kam ta'minlangan qatlamini qisman imtiyoz va nafaqalar asosida qo'llab-quvvatlaydi.

Yapon modeli milliy ustuvorliklarga tayanish, yuqori intizom, mehnat unumdorligi, iqtisodiyotni davlat dasturi asosida rivojlantirish kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Eng mashhur Yevropa mamlakatlari modellari orasida:

- nemis (ijtimoiy bozor iqtisodiyoti modeli);
- fransuz (davlat ishtiroki modeli);
- shved ("farovonlik davlati" modeli).

Yevropa davlatlari quyidagi yo'nalishlarda yagona umumevropa modelini yaratishga bosqichma-bosqich o'tmoqda:


- yagona ichki bozorni yaratish;
- iqtisodiy va valyuta ittifoqini shakllantirish;
- moliya siyosatini uyg'unlashtirish;
- ijtimoiy modellarning yaqinlashishi;
- tadbirkorlik faoliyati uchun yagona shart-sharoitlarni ta'minlash va raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash;
- iqtisodiyotni tartibga solishning yagona qoidalari va mexanizmlarini qabul qilish.

Milliy modelning samaradorligi uning hayotiyliigi, muammolarga mos javob bera olishi va moslashuvchanligi bilan belgilanadi. Oxir oqibat, modelning samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar bilan to'liq baholanadi:

- YAIM o'sishi;
- aholi farovonligi;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligi.

Bozor iqtisodiyotida har bir mamlakat o'zining iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda, milliy iqtisodiyotning o'ziga xos modelini yaratadi. Biroq bu shunchaki mexanik nusxa ko'chirish emas balki iqtisodiyotning tizimli modelini qurishning asosiy vazifasi - samarali boshqaruv turini ta'minlovchi institutlar, tarkibiy qismlar, munosabatlar asosida iqtisodiyotning asosiy modelini aniqlashdan iborat (2-rasm).

Iqtisodiyotning mavjud modellari ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o'ziga xosligini, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni, turli mamlakatlarning raqobatdosh ustunliklarini, an'analar va strategiyalarni hisobga olgan holda quriladi. Eng mashhur bozor modellari:



2-rasm. Iqtisodiy tizim modelini tashkil etuvchi elementlar

Liberal model tadbirkorlik faoliyatini, aholining eng faol qismining sa'y-harakatlarini har tomonlama rag'batlantirish tizimiga qurilgan. Ushbu model "iqtisodiy inson" ning shaxsiy muvaffaqiyatiga erishishga qaratilgan. U monetarizm tamoyillariga asoslanadi, Yevropa esa Keyns maktabi an'analariga ko'proq moyil.

Ijtimoiy davlat dasturlarini moliyalashtirish darajasining pasayishi iqtisodiyotni tiklashning zaruriy sharti sifatida e'tirof etiladi, chunki bu fuqarolarning qaram bo'lib qolishining oldini oladi va ularning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishni faollashtiradi. Samarali bozor sharoitida ishlaydigan odam davlat yordamisiz pul topish va o'z muammolarini (uy-joy, tibbiy va boshqalar) hal qila oladi. Aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun qisman imtiyoz va nafaqalar berish orqali maqbul turmush darajasi yaratiladi. Biroq, daromadlarni tenglashtirish muammosi qo'yilmaydi.

Liberal model proteksionistik choralarga muhtoj bo'lmagan kuchli ishlab chiqaruvchiga qaratilgan. Shuning uchun bunday model liberal deb ataladi. U tashqi savdo va valyuta munosabatlari sohasida proteksionistik

chora-tadbirlardan (bojlar, importni miqdoriy cheklashlar, valyuta intervensiyalari, devalvasiya va boshqalar) voz kechish zarurligini targ'ib qiladi.

AQSH amal qilgan liberal model o'z rivojlanishining boshidanoq ilmiy-texnika taraqqiyotiga yo'naltirilgan. Bu mamlakatda qimmat ishchi kuchi sharoitida juda muhim bo'lgan ish haqi fondini tejash imkonini berdi. Shu asosda mamlakatda ilmiy-texnika taraqqiyotini muqarrar jarayon sifatida qabul qiladigan tadbirkorlik mentaliteti shakllandi. Jahon bozorlarida ilmiy-texnika taraqqiyotidagi yetakchilik AQSH biznesiga qo'shimcha imtiyozlar olish imkonini berdi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti rivojlangan va insonlarga investisiyalar kiritish asosida qurilgan AQSH milliy boyligining taxminan **3/4 qismini inson kapitali** tashkil qiladi. AQSH juda katta ichki bozorga va yuqori raqobatbardosh ishlab chiqaruvchilarga ega bo'lgan yirik ochiq iqtisodiyot sifatida shakllangan. AQSHning ishbilarmonlik faolligi boshqa mamlakatlardagi iqtisodiy tendensiyani belgilaydi. AQSHning jahon iqtisodiy munosabatlaridagi yetakchi o'rni ham tashqi savdo, ham ssuda kapitali, portfel va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar eksportiga tegishli. AQSHning iqtisodiy salohiyati xorijiy sarmoyalarning kuchli oqimini jalb qiladi. AQSHning milliy puli o'z mohiyatiga ko'ra mamlakatga qo'shimcha daromad keltiradigan jahon puli funksiyasini bajara boshladi.

Yevropa rivojlanish modeli ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot tamoyillaridan izchil foydalaniladi. U ijtimoiy keskinlikning oldini olish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan. Ushbu funksiyani bajarish uchun progressiv soliqqa tortish orqali daromadlarni qayta taqsimlash faol qo'llaniladi. Ijtimoiy dasturlar orqali davlat byudjetiga tushadigan yuqori ijtimoiy yuk Amerika rivojlanish modeli bilan solishtirganda soliqqa tortishning yuqori og'ir yuk ekanligiga olib keladi.

Yevropa rivojlanish modeli mamlakatda turmush darajasining izchil o'sishiga, keyingi investisiyalar uchun zarur bo'lgan jamg'arma jarayonlarining ko'payishiga yordam berdi. Shu tariqa mamlakatda investisiya muhitining asosi - uning barqaror iqtisodiy o'sishining garovi shakllandi.

Farovonlikning o'sishi bilan aholi ijtimoiy tuzilmasini o'zgartiradi. Aholining marginallashtiruvining iqtisodiy asoslari asta-sekin yuvilib, o'rta sinf deb ataladigan qatlam o'sib boradi. U soliqlarning asosiy to'lovchisi va shu tariqa davlatning moliyaviy tayanchiga aylanadi.

Bunday modelga amal qilish davlat byudjetiga maksimal ruxsat etilgan ijtimoiy yukni asoslashni talab qiladi. Ijtimoiy ta'minot mehnat motivatsiyasini va malaka oshirish istagini yo'qotmasligi kerak. Soliqqa tortishning jiddiyligi investisiya rag'batlarini susaytirmasligi kerak.

Yevropa taraqqiyot modeli iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol roliga asoslanadi. Davlat strategik rivojlanishni boshqarish mas'uliyatini yuklanadi. Davlat narxlarga, bojlarga, texnik standartlarga faol ta'sir ko'rsatadi. bozorga faqat salbiy jarayonlar mumkin bo'lgan joylarda cheklovlar qo'yadi.

Yaponiya rivojlanish modeli yuqori darajada rivojlangan eksportga yo'naltirilgan mamlakat uchun mo'ljallangan. Yaponiyaning sanoatdagi transformasiya o'z-o'zidan sodir bo'lmagan, u o'ylangan chora-tadbirlar tizimiga, davlat tuzilmalari va biznesning birgalikdagi faoliyati asosida shakllangan ustuvor yo'nalishlarga bo'ysungan. Natijada, Yaponiyada strukturaviy muvozanatni hisobga olgan holda, nisbatan birlashtirilgan texnologik tartib yaratilgan.

Yaponiyaning tarkibiy siyosati ikkita vazifani birlashtirgan: mamlakat iqtisodiy salohiyatini texnik va texnologik qayta jihozlash va tarmoqlararo muvozanatga erishish. O'zbekiston ham bu ikki jarayonni birga hamohang olib borishi talab etiladi.

Muvaffaqiyatga erishish yo'li malakasiz ishchi kuchida emas, balki uning malakasini oshirish va uzluksiz o'rganish jarayonida yotadi. O'zbekiston ham iqtisodiy o'sishning ushbu uzoq muddatli omilini hisobga olishi kerak.

Aralash iqtisodiy tuzilmaning ustunligi mavjud. "Aralash iqtisodiyot" atamasining o'zi yagona talqinga ega emas. Uning dastlabki va eng keng tarqalgan talqini iqtisodiyotning turli tarmoqlari (xususiy va davlat) va mulkchilik shakllarining xilma-xilligi kombinatsiyasiga qaratilgan. Ikkinchi talqin bozor va davlat tomonidan tartibga solishni birlashtirish muammosini ta'kidlaydi. Uchinchisi kapital (xususiy tadbirkorlik) va ijtimoiylik (davlatning ijtimoiy kafolatlari) kombinatsiyasiga asoslanadi. Aralash

iqtisodiyotning bu talqinlari bir–biriga zid emas, ular uning mavjudligining turli tomonlarini aks ettiradi. Zamonaviy aralash iqtisodiyot butun tizim hisoblanadi. Uni tashkil etuvchi elementlar ishlab chiqaruvchi kuchlarning shunday rivojlanish darajasiga va ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyotning shunday tendensiyalariga asoslanadiki, ular bozorni davlat tomonidan tartibga solish. xususiy tashabbusni ijtimoiy kafolatlar bilan qo‘shishni ob‘yektiv ravishda talab qiladi. Aralash tizimni rivojlantirishga qaratilgan umumiy yo‘nalish yagonalikni va standartlashtirishni anglatmaydi.

Hozirgi vaqtda vertikal integrasiyalashgan yirik kompaniyalar – transmilliy korporasiyalarning (TMK) tashkiliy tuzilmalari ustunlik qilmoqda. **TMKning ta‘rifi:** xalqaro biznes muhim bo‘lgan; xorijiy aktivlari umumiy hajmining taxminan 25–30% ni tashkil etadigan va ikki yoki undan ortiq mamlakatlarda filiallariga ega kompaniyadir. Umuman olganda, TMKlar jahon sanoat ishlab chiqarishining 50% ga yaqinini ta‘minlaydi. Jahon savdosining 70% dan ortig‘i TMKlar hissasiga to‘g‘ri keladi va bu savdoning 40%i TMKlar doirasida amalga oshiriladi. Ular bozor narxlarida emas, balki bozor bosimi ostida shakllanmaydigan transfer narxlarida deb ataladigan narxlar va korporasiyaning uzoq muddatli siyosatiga asosan amalga oshiriladi.

Transmilliy korporasiyalar globallashtirishda va jahon ilmiy–tadqiqot va ishlanmalarida muhim rol o‘ynaydi. TMKlar ro‘yxatga olingan patentlarning 80% dan ortig‘i va ilmiy–tadqiqot ishlarini moliyalashtirishning 80% ga yaqinini tashkil qiladi.

TMKlar nafaqat Siemens, Microsoft yoki Apple kabi ishlab chiqarish kompaniyalari, balki transmilliy banklar, telekommunikasiya kompaniyalari, sug‘urta kompaniyalari, auditorlik kompaniyalari, investisiya va pensiya jamg‘armalaridir.

O‘zbekistonda ham xorijiy TMKlardan Sosa–Sola, GM, Nestle, Samsung, Lukoil va boshqalarni ko‘rish mumkin. Dunyoning turli mamlakatlarda Shimoliy Amerika, G‘arbiy Yevropa, Yaponiya, Koreya Respublikasi va Xitoy korporasiyalarining 200 mingdan ortiq filiallari mavjud. TMKlarning xorijdagi iqtisodiy salohiyatini oshirishning dominant usuli yangi filiallar ochish emas, balki mavjud korxonalar, jumladan, kuchsizroq raqobatchilarga qo‘shilishdir. Zamonaviy TMKlar quyidagi tendensiyalar bilan ajralib turadi:

- Ular jahon iqtisodiyoti, xalqaro mehnat taqsimoti jarayonlari rivojlanishining faol ishtirokchilaridir.

- Ular kapital harakatining milliy chegaralarda sodir bo‘layotgan jarayonlardan nisbiy mustaqilligi bilan tavsiflanadi.

- Ular jahon xo‘jalik munosabatlarini ob‘yektiv tartibga soladilar, yuqori foyda olish maqsadida o‘z operasiyalarini amalga oshiradilar.

TMK kabi bo‘lish istagi ko‘plab kompaniyalarni doimiy ravishda korporativ boshqaruv darajasini yaxshilashga, moliyaviy ochiqlik darajasini kengaytirishga va moliyaviy resurslar harakatining “kulrang sxemalaridan” voz kechishga majbur qiladi. TMKlarni qo‘llab–quvvatlash turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: huquqiy va siyosiy ko‘makdan tortib, milliy iqtisodiyot (shu jumladan O‘zbekiston) hududida bunday kompaniyalarning asosiy ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qolishni rag‘batlantiradigan ma‘lum investisiyalarni rag‘batlantirishgacha. Aks holda, ishlab chiqarish quvvatlarining bir qismini dunyoning boshqa mintaqalariga o‘tkazish milliy iqtisodiyotdagi vaziyatning sezilarli darajada yomonlashuviga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Har bir mamlakatning iqtisodiy modeli uzoq tarixiy jarayonning natijasi bo‘lib, uning davomida model elementlarining nisbati tarkib topadi va ularning o‘zaro harakat qilish mexanizmi shakllanadi. Shuning uchun ham har bir milliy iqtisodiyot tizimi o‘ziga xos bo‘lib, uning yutuqlarini mexanik ravishda ko‘chirgan holda tatbiq etish ko‘zlangan natijalarni bermaydi.

Mamlakat modellarining o‘ziga xos xususiyati ularning barchasi bozor iqtisodiyoti modellaridir. Shu bilan birga, bironta ham milliy iqtisodiy tizim butnalar sof bozor asoslariga ega emas. Davlat tomonidan tartibga solish iqtisodiyotning zamonaviy tashkil etilishi va faoliyatining zaruriy atributidir. U xususiy mulk asoslarini inkor etmaydi va bozor mexanizmining ishlashini buzmaydi.

Bugungi kunda iqtisodiy modellar “aralash iqtisodiyot” ning variantlari bo‘lib, uni davlat ta‘siridan ozod bo‘lgan sof bozorga yoki raqobatbardosh xatti–harakatlardan mahrum bo‘lgan sof rejali iqtisodiyot deb bo‘lmaydi. Bunday tizimning zaruriy siyosiy atributi rivojlangan fuqarolik jamiyatidir.

Asosiy atama va tushunchalar

Milliy iqtisodiyot tizimlari
Iqtisodiy rivojlanish modellari
Liberal model
Yevropa taraqqiyot modeli
Germaniya modeli
Yaponiya modeli
Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot
Sanoati rivojlangan mamlakatlar
Transmilliy korporasiyalar
Postindustrial mamlakatlar

Nazorat savollari

1. Qanday milliy iqtisodiy tizimlar mavjud?
2. Aralash iqtisodiyot nima? Iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda davlat qanday rol o'ynaydi?
3. Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi va jahon bozorlarida egallagan o'rniga qarab milliy iqtisodiyotlarning xo'jalik yuritish mexanizmidagi farqning sabablari.
4. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida transmilliy korporasiyalar qanday rol o'ynaydi?
5. Liberal bozor modeli va tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti o'rtasidagi farqlar.
6. Turli tizimdagi milliy iqtisodiyotlarning globalashuv jarayonlarining ortishiga tayyorlik darajasi.

3. O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanish asoslari va bosqichlari

Milliy iqtisodiyot alohida mamlakatning o'ziga xos tarixiy holati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o'rganadi. Milliy iqtisodiyotni o'rganish uchun uning rivojlanishining asosiy bosqichlarini ajratib ko'rsatish kerak. Tarixiy o'tmish hamisha hozirgi zamon taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridanoq bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'lini tanlab, uni izchil amalga oshirdi.

Shu bois MDH dagi boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, ishlab chiqarish va aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishi, davlatning ichki va tashqi qarzlari haddan ziyod oshib ketishiga yo'l qo'ymadi.

Mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy yo'nalishi bozor iqtisodiyotini shakllantirish hamda rivojlantirish deb belgilandi. Bu jarayonlarning negizida bozorga o'tish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyili asos qilindi va davlatning asosiy islohotchi sifatida faol ishtiroki ta'minlandi. Qisqa muddatda xususiy mulkchilikka ham munosabat o'zgardi. U mulkning boshqa shakllari qatorida to'la e'tirof etildi, korxonalar va bo'sh yotgan binolarni xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirildi va huquqiy himoyaga olindi. Bozor munosabatlarini shakllantirish, tadbirkorlik va tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish, korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish va aksiyalashtirish jarayonlarini rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratuvchi qonunlar qabul qilindi.

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillarida bozor iqtisodiyotiga o'tish strategiyasi va "o'zbek modeli" deb atalgan quyidagi beshta muhim prinsiplarga asoslandi:

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi;
2. Davlat – bosh islohotchi;
3. Qonun ustuvorligi;
4. Kuchli ijtimoiy siyosat;
5. Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish.

Iqtisodiyot siyosatga nisbatan ustuvor bo'lishi zarur – bu tamoyil iqtisodiy faoliyat ijtimoiy hayotning birlamchi asosi ekanligidan kelib chiqadi. Iqtisodiyot qanday bo'lsa, ijtimoiy hayotning boshqa tomonlari ham shunga yarasha bo'lishini tarix tasdiqlagan. Ushbu tamoyil iqtisodiyotga ortiqcha siyosiy tus berilmaslikdan yiroq. Chunki uni mafkuraga, turli siyosiy partiyalar va harakatlarning manfaatlariga bo'ysundirilishi iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlar yo'lida g'ov bo'lishini sovet jamiyati ko'rsatdi.

Markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot o'ta siyusiylashtirib yuborilgan edi. Iqtisodiy maqbullikdan siyosiy kon'yunkturaviy manfaatlarning ustun kelishi sobiq ittifoq iqtisodiyotini parokandalik yoqasiga, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning jiddiy buzilishiga, ishlab chiqarishning texnik

jihatidan qoloqligiga olib keldi. Iqtisodiyot faqat unga xos bo'lgan ichki qonuniyatlar asosida rivojlanishi zarur.

Davlat bosh islohotchi bo'lmog'i kerak – bu bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun zarur bo'lgan islohotlar keng jamoatchilik ishtirokida, davlat ishlab chiqqan dasturlar asosida, uning bevosita ishtiroki va rahbarligida amalga oshirilishini belgilaydi. Chunki davlatning boshqaruv sohasidagi roli inkor etilsa, ma'muriy–buyruqbozlik tizimidan iqtisodiyotning bozor tamoyillariga o'tishini ta'minlash qiyin kechishi inobatga olindi. Bunda bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartibga soluvchi mexanizmlari tobora katta rol o'ynaydi, davlatda, faqat iqtisodiy dastur va rag'batlantirish vazifalari qoladi, degan tamoyilga tayanildi.

“Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmag” tamoyili asosida amalga oshirilgan islohotlar tufayli turli yo'qotishlarga yo'l qo'yilmadi. Barcha sohalar mutanosib holda isloh qilindi va rivojlantirildi hamda yangi jamiyatning mustahkam asoslari yaratildi.

“O'zbek modeli”ning eng muhim va ustuvor tamoyillaridan biri – kuchli ijtimoiy siyosatdir. Bozor islohotlari ushbu tamoyil asosida amalga oshirilgani natijada eng og'ir o'tish davrida ham jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni saqlashga erishildi.

Iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlatning iqtisodiy dastaklar vositasida tartibga solish – moliya, kredit, soliq, valyuta siyosati, narxlarni nazorat qilish hamda bilvosita ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari yordamida amalga oshirilishi belgilab olindi. Xuddi shu yo'l bilan O'zbekistonda haqiqiy bozor munosabatlariga o'tish va u uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Buni raqamlarda ko'rish mumkin: 1991–1995 yillarda O'zbekistonda YAIMning pasayishi, MDH davlatlari o'rtasida eng kam ko'rsatkichni – 18,8 foizni tashkil etdi. Holbuki, bu raqam Rossiyada – 53 foiz, Ukrainada – 52 foiz, Belorussiyada – 54,6 foiz, Qozog'istonda esa 75,4 foizga teng bo'lgan.

O'zbekiston kishi boshiga YAIM ishlab chiqarish bo'yicha sobiq ittifoqda 12–o'rinda, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish ko'rsatkichi bo'yicha o'rtacha darajadan ikki marta past bo'lgan. Sanoatdagi mehnat unumdorligi bo'yicha respublikamiz 40%, qishloq xo'jalikdagi mehnat unumdorligi bo'yicha 2 barobar orqada bo'lgan.

1991–1992 yillarda mamlakatimiz YAIMning kichik biznes va xususiy tadbirkorlar tomonidan 1,5–2,0 foizigina ishlab chiqarilar edi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlaridan boshlab kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi ham ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosini tashkil etdi. O'z vaqtida bu borada yuritilgan oqilona siyosat mamlakatimizda jahon moliyaviy–iqtisodiy inqirozini yengil kechishining omili bo'lib xizmat qildi.

Islohotlarning dastlabki davridan boshlab, bozor iqtisodiyotiga bosqichma–bosqich o'tish bo'yicha islohotlarni izchil amalga oshirildi va aholi turmush sharoitining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik hamda iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qaratilgan mamlakat iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash bo'yicha chora–tadbirlar amalga oshirildi. Bozor munosabatlarini astas–syekin shakllantirish tufayli mamlakat iqtisodiyotida 1995 yil tub o'zgarish ro'y berib, iqtisodiy ko'rsatkichlar tanazzuli to'xtadi, sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda ham ma'lum darajada o'sishga erishildi.

Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida iqtisodiyotda nodavlat sektori va xususiy mulk hamda mulkdorlar roli oshdi. YAIM tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yilda 31%, 1991 yilda 1,5 foizni tashkil etgan.

Milliy iqtisodiyotning shakllanishi, faoliyat yuritishi va rivojlanishining samaradorligi ham tizimli shart va tamoyillar majmui bilan ta'minlanadi. Mamlakat, uning hududlari va iqtisodiyot tarmoqlari uchun mulkiy munosabatlarni, iqtisodiyotni boshqarishning tashkiliy–huquqiy shakllarini, real sektorning, moliya tizimining faoliyatini tartibga soluvchi yagona institusional–huquqiy muhitini, takror ishlab chiqarish jarayonida bozor institutlarini yaratish shular jumlasidandir. Bunday muassasalar tizimi, huquqiy normalar va mexanizmlar O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Fuqarolik, Bank, Soliq, Mehnat, Bojxona va boshqa kodekslar hamda O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz 1996 yildan barqaror iqtisodiy o'sishga erishdi. YAIMning yillik o'sishi 1996 yilda 1,7%ni, 1997 yilda 5,2%ni, 1998 va 1999 yillarda 4,4%, 2000 yilda 3,8%, 2001 va 2002 yillarda 4,2%ni, 2003 yilda 4,4%, 2004 yilda 7,7%, 2005 yilda 7,0%, 2006 yilda 7,3% ni tashkil etdi. 2007 yilda YAIMning yillik o'sishi 9,5%, 2008 yilda 9%, 2009 yilda 8,1%, 2010 yilda 8,5%, 2011 yilda 8,3%, 2012 yilda 8,2%, 2013 yilda 8,0%,

2014 yilda 8,1%, 2015 yilda 8,0% va 2022 yilda 5,7%ni tashkil qilgan (3-jadval).

3-jadval

**O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
(o'tgan yilga nisbatan, %)**

Ko'rsatkichlar	1991	1995	2000	2005	2010	2015	2020	2022
Yalpi ichki mahsulot	99.5	99.1	103.8	107.0	108.8	108.0	102.0	105.7
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	101.5	100.1	101.8	105.8	105.5	108.3	102.5	105.5
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	98.9	102.2	103.1	106.2	106.8	107.0		103.6
Xizmatlar			105.4	107.6	109.6	107.6	101.1	108.5
Qurilish ishlari	96.6	95.8	103.0	107.8	108.1	118.0	109.5	106.6
Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar	105.0	104.0	101.0	107.0	109.2	109.5	95.6	100.9

Ushbu davrda inflyasiya darajasi ham pasayib bordi. O'rtacha yillik inflyasiya 1996 yilda 64,3%ni tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda 28,2%, 2002 yilda 21,6%, 2003 yilda 3,8%, 2004 yilda 3,7%, 2005 yilda 7,8%, 2007 yilda 6,8%, 2008 yilda 7,8%, 2009 yilda 7,4%, 2010 va 2011 yillarda 7,3%, 2012 yilda 7%, 2013 yilda 6,8%, 2014 yilda 6,1%, 2015 yilda 5,6%ni tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida paxta ekin maydonlari va paxta xom ashyosini yetishtirish hajmlari kamaytirilib, ozuqabop ekinlar maydonlari va hajmlari keskin oshirildi. 2015 yilda 1991 yilga nisbatan bug'doy yetishtirish 1,9 mln. tonnadan 7,5 mln tonnaga, ya'ni 393,1% ga, mevalar 0,5 mln. tonnadan 2,7 mln. tonnaga, 528,6% ga, uzum 480,5 ming tonnadan 1556,0 ming tonnaga, ya'ni 323,8% ga, poliz ekinlari 925,8 ming tonnadan 1850,0 ming tonnaga, ya'ni 199,8% ga, sabzavotlar 3324,1 ming tonnadan 9923,0 ming tonnaga, ya'ni 298,5% ga, kartoshka 355,7 ming tonnadan 2670,0 ming tonnaga, ya'ni 705,0% ga oshdi.

Qishloqda bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasi yangidan barpo etildi. Qishloq xo'jaligida xom ashyoni kompleks qayta ishlashga ixtisoslashgan ko'plab agrofirma faoliyat ko'rsatmoqda. 2015 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxonalar, 77800 tonna sig'imga ega bo'lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va

modernizatsiya qilindi. Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga yetkazildi.

O'zbekiston tashqi savdo tarkibida sifat jihatdan tub ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. 2000 yilda umumiy eksport hajmida xomashyo bo'lmagan tovarlar ulushi 46%ni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda bu ko'rsatkich 70 foizdan oshdi. Respublika uchun an'anaviy eksport hisoblangan paxta tolasining bu boradagi ulushi 1990 yildagi 59,7%dan 2014 yilda 7,7%ga tushdi. Kichik biznes korxonalarini mahsulotlarining eksport hajmi 10 barobardan ortiq o'sdi. Import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 4,5 barobarga qisqardi va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga katta e'tibor berilganligini anglatadi. Import tarkibida mashina va asbob-uskunalar ulushi 1990 yildagi 12,1%dan 2014 yilda 39,7%ga o'sdi.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sish sur'atiga soliq yukining bosqichma-bosqich pasaytirib borilgani o'z samarasini berdi. 1998-2015 yillarda jami byudjet daromadlari bo'yicha hisoblangan soliq yuki 39,0%dan 20%ga, davlat byudjeti daromadlari bo'yicha YAIMga nisbatan esa 32,2%dan 20% ga kamaydi. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foydasi) solig'i stavkasi 1995 yildagi 38%dan 2015 yilda 7,5%ga, yagona ijtimoiy to'lov 40%dan 25%ga, mikrofirma, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari uchun yagona ijtimoiy to'lovning amaldagi 25% stavkasi 15%ga pasaytirildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalardan olinadigan yagona soliq to'lovi (byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar bilan birga) 2002 yildagi 12,2%dan 2015 yilda 6%ga (sanoat va qurilishda, ulgurji va chakana savdo aylanmasiga 5%ga) pasaytirildi.

Bank tizimi mustahkamlandi, banklarning kapitallashuv darajasi oshirildi. Biroq, mamlakatda pul muomalasining davlat tomonidan qattiq boshqarilishi va nazorat qilinishi, milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan erkin muomalasining mavjud emasligi nafaqat tashqi savdo balki ichki bozorda ham rivojlanishga katta salbiy to'siq bo'ldi. So'mning Markaziy bank tomonidan rasmiy belgilangan kursi va bozor (qora bozor) o'rtasidagi tafovuti deyarli 2 martani tashkil etishi yashirin "norasmiy" iqtisodiyotning kengayishi, salbiy holatlarning paydo bo'lishi va iqtisodiyot ko'rsatkichlaridagi real holatni aks ettirmadi hamda statistik ma'lumotlarning buzilishiga sabab bo'ldi.

2000 yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 31.0%dan, 2021 yilda 54,9%ga yetdi va jami band aholining 77 foizi ushbu sohada mehnat faoliyati yuritdi. 2000 yilda sanoatda kichik biznesning ulushi 14 foiz bo'lgani holda, 2021 yilda bu ko'rsatkich 27 foizga yetdi.

Sobiq ittifoq parchalanishi bilan iqtisodiy aloqalar uzila boshladi, ishlab chiqarish pasaydi, turmush darajasi va ijtimoiy himoya keskin pasaydi. O'zbekiston o'zining geografik joylashuvi tufayli transport izolyasiyasining eng qiyin sharoitiga tushib qoldi. Eng qisqa vaqt ichida milliy davlatchilik, mudofaa, diplomatiya, milliy valyuta (1994 yil 1 iyulda joriy etilgan) yaratish, energetika va oziq-ovqat xavfsizligiga erishish, ularning tovarlari bilan jahon bozorlariga yo'l olish zarur edi.

Mustaqillikka erishish arafasida mamlakatimizga o'rtacha 3 mln. tonna g'alla import qilingan va 1990 yilda O'zbekistonda bor-yo'g'i 2 mln. tonna g'alla yig'ib olingan va zarur oziq-ovqat mahsulotlarining keskin tanqisligi kuzatilgan edi.

O'zbekistonda markazlashgan rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish bir vaqtning o'zida iqtisodiyotni barqarorlashtirish, inflyasiya va ishsizlikni yengish, aholi bandligining maqbul darajasiga va mahalliy mahsulotlarning yuqori sifatiga erishish zarur bo'lgan davrda amalga oshirildi. Bu maqsadlarda Keynschilik, institusionalizm, neoklassik, monetarizm va boshqalar nazariyalariga asoslangan iqtisodiy maktablarning ilmiy tavsiyalaridan foydalanildi.

Mamlakatimizda tanlangan bozor islohotlari modeli uchun, masalan, yuqorida qayd etilgan maktablarning tavsiyalari, raqobat muhitini shakllantirish; milliy valyutaning barqarorligini, ichki narxlarning mavjud darajasini, to'lov va tashqi savdo balanslarini, oltin-valyuta zaxiralari darajasini ta'minlash; yalpi talabni rag'batlantirish; mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatdan optimal himoya qilish; atrof-muhitni muhofaza qilish; ishsizlik darajasini tartibga solish va boshqalar foydalanildi.

O'zbekiston iqtisodiyoti asosan xom-ashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi bois qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish ulushi juda kam edi. Masalan, mamlakatda paxta yetishtiradigan yetakchi bo'lgan O'zbekiston o'z hududida yetishtirilgan xom-ashyoning 8

foizinigina qayta ishlar edi. Tabiiyki, bu aholining turmush darajasida, ayniqsa iste'molida aks etar edi.

Xulosa

Bozor munosabatlariga o'tish va islohotlarni amalga oshirishda davlat bosh mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi va bosh islohotchi bo'ldi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishda asosiy tamoyil ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish bo'ldi.

Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirish, qayta ishlangan hamda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni ko'paytirish asosida barcha tarmoq va sanoat korxonalarining faoliyatini davom ettirish hamda tashqi bozordagi pozitsiyasini mustahkamlash imkoniga erishildi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va yangilash, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirildi.

Ko'p ukladli iqtisodiyot vujudga keldi, davlat mulkini xususiylashtirish amalga oshirildi, mulkdorlar sinfi paydo bo'ldi va barqaror makroiqtisodiy o'sishga asos solindi.

Asosiy atama va tushunchalar

Rejali iqtisodiyot
Tarkibiy o'zgarishlar
Davlat bosh islohotchi
Rivojlanishning besh tamoyili
Tashqi savdo
Qishloq xo'jaligi
Bank tizimi
Ijtimoiy siyosat

Nazorat savollari

1. Milliy iqtisodiyotni shakllantirishning zaruriy shartlarining mazmuni va maqsadi nimadan iborat? Ular qanday tasniflanadi?
2. O'zbekiston milliy iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlarini aniqlash mezonini qanday?

3. Iqtisodiyotning milliy modelini shakllantirishda umumiylik, o'ziga xoslik nimalarda namoyon bo'ladi?

4. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim turi deganda nima tushuniladi?

5. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi va uning o'ziga xosligi.

4. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining shakllanishi

O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilikni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim mustahkam poydevor hamda zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechildi, bozor munosabatlariga o'tish maqsadida islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Jumladan, pul-kredit siyosatining nisbatan samarali olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyasiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Shu bilan birga, yurtimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasidagi keskin o'zgarishlar, globalashuv sharoitida raqobatning tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etdi.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, yurtimizni modernizasiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida o'rtacha muddatga mo'ljallangan strategiyani ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Bu esa, o'z navbatida xalqimiz va tadbirkorlarimizni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama

o'rganishni, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish asosida ushbu muammolar yechimiga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar va maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash hamda ularni amalga erishishga mo'ljallangan hujjat qabul qilishga sabab bo'ldi.

Natijada, 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi va u quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oldi:

1) **Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga** yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizasiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish.

2) **Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga** yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash.

3) **Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga** yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizasiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investisiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish.

4) **Ijtimoiy sohani rivojlantirishga** yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohaslarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

5) **xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga** yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

2017–2021 yillar Harakatlar strategiyasi doirasida jahon tendensiyalari va ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda, eng muhimi, xalqimizning ehtiyoji, intilish va orzularini hisobga olgan holda mamlakatimizni transformatsiya qilish boshlandi. So'nggi besh yil davomida amalga oshirilgan islohotlarning ahamiyatini baholash qiyin. Barcha sohalarda tub o'zgarishlar ro'y berdi, eng murakkab muammolarni hal etishda ijobiy siljishlar kuzatildi, ko'rilgan ko'plab chora-tadbirlar xalqaro hamjamiyat tomonidan yutuq sifatida baholandi. Davlatimizning jahon miqyosidagi mavqei mustahkamlandi, jahon reytinglarida mavqei yaxshilangani, xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotgani, O'zbekistonning xalqaro tashabbuslari muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

2017–2021 yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha ushbu davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohaslarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ortiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat tashkilotlarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish sohasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni yo'lga qo'yish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha samarali choralar amalga oshirildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanli, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash, uy-joy qurish ishlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

2017–2021 yillardagi islohotlar natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratilganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va davlatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida yangi Strategiya ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'ldi.

Keng jamoatchilik muhokamasidan so'ng O'zbekiston 2022-2026 yillarga mo'ljallangan besh yillik rivojlanish strategiyasini qabul qilindi.

U O'zbekistonning besh yil ichida erishmoqchi bo'lgan yetti ustuvor yo'nalishi va yuzta maqsaddan iborat (4-jadval). Mazkur strategik hujjat mamlakatimizda barcha sohalarda yanada islohotlarni amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Strategiya yuqori o'rta daromadli davlatlar qatoriga qo'shilish uchun asos yaratishi kerak bo'lgan turli chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Mamlakatda aniq raqamlarda maqsadli vazifalar belgilab berildi va maqsadlarga erishish mexanizmlari joriy etildi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan boshqa ko'plab ustuvor yo'nalishlar qatorida iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, aksariyat sohalarda xususiylashtirish, raqobatni rivojlantirish, monopoliyaga barham berish, xorijiy sarmoyalarni ko'proq jalb etish, narxlarni barqarorlashtirish,

“drayver” tizimini rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash, hududlarga koʻproq vakolatlar beruvchi nomarkazlashtirish kiradi.

4-jadval

**2022–2026 yillarga moʻljallangan
Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi yoʻnalishlari**

I.	Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish
II.	Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish
III.	Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash
IV.	Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish
V.	Maʼnaviy taraqqiyotni taʼminlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish
VI.	Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish
VII.	Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish

Shu bilan birga, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan, energetika, mashinasozlik, konchilik, qishloq xoʻjaligi va boshqalarda barqaror yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash orqali 2030 yilga borib aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini keyingi besh yilda 1.6 barobarga, aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan daromadlarni esa 4000 AQSH dollariga yetkazish hamda bosqichma-bosqich 5 foizga tushirish maqsad qilib olingan.

Sanoat siyosatidagi qayd etilgan islohotlarni hisobga olgan holda shuni mumkinki, mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarish hajmini 40 foizga oshirish hisobiga milliy iqtisodiyot barqarorligini taʼminlash va yalpi ichki mahsulotdagi sanoat ulushini oshirish davom ettiriladi. Buning uchun ustuvor yoʻnalishlar belgilanib, ularning har biri esa oʻz maqsadlarini oʻz ichiga oladi. Bu metallurgiya sohasida oltin qazib olishni 26 foizga, kumushni 42 foizga, mis va qora metallardan mahsulotlar ishlab chiqarishni 2 barobarga oshirish bilan bogʻliq yirik investisiya loyihalarini amalga oshirish orqali boʻladi. Kimyo va gaz-kimyo sanoatini rivojlantirish hamda tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish hisobiga kimyo sanoatida ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi 2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. Bundan tashqari, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini joriy hajmlarga nisbatan 2 barobar, charm-poyabzal sanoatida ishlab

chiqarishni 3.2 barobar, farmasevtika sanoatida 3 barobar va mebel sanoatida 2.8 barobar oshirish rejalashtirilgan.

Bu prognozlarining barchasi iqtisodiyotni uzluksiz elektr energiyasi bilan taʼminlashni talab qiladi. Shu bois, boshqa rejalashtirilgan tadbirlar bilan bir qatorda barcha sohalarda yashil texnologiyalarni faol joriy etish, energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, atmosferaga zararli gazlar chiqarilishini 10 foizga kamaytirish taklif etilgan. Masalan, 2026 yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarishni yana 40 mlrd. kVt/soatga oshirish, uning umumiy hajmini 110 mlrd kVt/soatga yetkazish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, hukumat 2026 yilga borib, energiya ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi qayta tiklanadigan energiya ulushini 25 foizga yetkazish hisobiga qariyb 3 mlrd. kub metr tabiiy gazni tejashni maqsad qilgan. Bu borada atmosferaga zararli gazlar chiqarilishini 8 million tonnaga kamaytirish ham ustuvor vazifa hisoblanadi.

Yana bir muhim maqsad – raqamli iqtisodiyotni rivojlanishning asosiy omiliga aylantirish. Raqamli iqtisodiyot hajmini kamida 2,5 barobar oshirishga qaratilgan ishlarning amalga oshirilishi ham mamlakatimizning ushbu yangi sohadagi salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan maqsaddir.

Rejalashtirilgan islohotlar doimiy sarmoya oqimini taqozo etadi, bu esa tegishli investisiya muhitini yaratish va qonun ustuvorligini taʼminlashni talab qiladi. Shunga koʻra, kelgusi besh yil ichida zarur boʻlgan 120 mlrd. AQSH dollarini, jumladan, 70 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi xorijiy sarmoyani jalb qilish boʻyicha chora koʻrish hukumat oldida turgan yana bir muhim vazifadir. Bundan tashqari, mamlakat kapital bozorini isloh qilishni rejalashtirmoqda. Kelgusi besh yilda kapital bozori hajmini 200 mln. AQSH dollaridan 7 mlrd. AQSH dollariga yetkazish orqali iqtisodiyotdagi moliyaviy resurslarni oshirish zarur.

Rejalashtirilgan islohotlar doimiy sarmoya oqimini taqozo etadi, bu esa tegishli investisiya muhitini yaratish va qonun ustuvorligini taʼminlashni taqozo etadi. Shunga koʻra, kelgusi besh yil ichida zarur boʻlgan 120 mlrd. AQSH dollarini, jumladan, 70 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi xorijiy sarmoyani jalb qilish boʻyicha chora koʻrish hukumat oldida turgan yana bir muhim vazifadir. Bundan tashqari, mamlakat kapital bozorini isloh qilishni rejalashtirmoqda. Kelgusi besh yilda kapital bozori hajmini 200 million

AQSH dollaridan 7 mlrd. AQSH dollariga yetkazish orqali iqtisodiyotdagi moliyaviy resurslarni oshirish zarur.

Bank tizimini transformasiya qilishni yakunlash, 2025 yilga borib xususiy banklar aktivlari ulushini 20 foizdan 60 foizga yetkazish – bank sektorini isloh qilish va sifatli bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish maqsad qilib qo'yilgan.

O'zbekiston 2026 yilga borib barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun eksport hajmini 30 mlrd. AQSH dollariga yetkazishni rejalashtirgan. Shu bois eksportdagi xususiy sektor ulushini 60 foizga yetkazish ustuvor vazifa hisoblanadi. Davlat eksport qiluvchi korxonalariga tashkiliy-moliyaviy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish orqali ularning sonini 6500 tadan 15 mingtaga ko'paytirishga tayyor. Shuningdek, dunyoning 115 ta davlatidan 150 tagacha tovarlar eksporti geografiyasini kengaytirish kutilgan.

Tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida 2026 yilga borib tadbirkorlik sub'yektlariga soliq yukini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 27.5 foizdan 25 foizga va QQS stavkasini 15 foizdan 12 foizga kamaytirish. shuningdek, telekommunikasiya, bank va moliya sohalari uchun foyda solig'ini 2026 yilga borib 20 dan 15 foizgacha kamaytirish rejalashtirilgan.

Hukumat hududlarni rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida nomarkazlashtirish islohotlari orqali hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishni rejalashtirgan. Qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotga katta hissa qo'shayotganini hisobga olsak, qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atlarini kamida 5 foiz darajasida saqlab qolish, bu esa fermerlar daromadini kamida ikki barobar oshirishga olib kelishi kutilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda tuman va mahallalarni rivojlantirishda yanada tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish rejalashtirilgan. Mahallalarning asosiy ixtisoslashuviga qarab, xoh qishloq xo'jaligi, xoh to'qimachilik sanoati yoki boshqa sohalar bo'ladimi, davlat rejalari har bir mahallaning xususiyatlarini alohida hisobga olgan holda haydovchi hududlarni qo'shimcha ravishda qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonlarini jadallashtirish ham O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridandir. GSP+ tizimi bo'yicha Yevropa mamlakatlariga tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida quyidagi asosiy g'oyalar aks etgan:

- barqaror iqtisodiy rivojlanish orqali yuqori o'rta daromadli mamlakatlar qatoriga qo'shilish;

- xalq ehtiyojlari va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini yaratish;

- aholi uchun qulay ekologik sharoitlar yaratish;

- xalqqa xizmat qiluvchi adolatli va zamonaviy davlat qurish;

- davlat suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasi beshta ustuvor yo'nalish va yuzta maqsadli vazifalarni o'z ichiga olgan (4.1-jadval).

4.1-jadval

“O'zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy yonalishlari

I.	Har bir insonning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish
II.	Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash
III.	Suvni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish
IV.	Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalqqa xizmat qilishga qaratilgan davlat boshqaruvini tashkil etish
V.	“Xavfsiz va tinch davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida iqtisodiy o'zgarishlarning bir qancha ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan. Ushbu tadbirlarning barchasini amalga oshirish yuqori salohiyat va katta resurslardan foydalanishni talab qiladi. Shu bois, Strategiyada belgilangan ko'plab maqsadlarda hamkorlar bilan hamkorlik qilish va jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvga ustuvor ahamiyat beriladi.

Xulosa

O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lami islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi hamda aholining munosib hayot kechirishi, ularning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechildi, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyasiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan keskin o'zgarishlar, xususan jahon bozori kon'yunkturasi, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgan davrda mamlakatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish zarurligini, jamiyatning barcha soha va tarmoqlarida izchil islohotlarni o'tkazishni talab etadi.

Asosiy atama va tushunchalar

Strategiya
Konsepsiya
Qonun ustuvorligi
Iqtisodiy islohotlar
Iqtisodiyotni rivojlantirish

Nazorat savollari

1. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish omillari
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining qabul qilinish sabablari
3. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari va amalga oshirilgan ishlar
4. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yo'nalishlari
5. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadli ko'rsatkichlari

5. Milliy iqtisodiyot va uni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar

Milliy iqtisodiyot – bu huquqiy va institusional maydonda tuzilgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va ularning munosabatlari birligi.

Davlat jamiyat vakili sifatida iqtisodiyotning asosiy maqsadlarini belgilaydi hamda uni o'z institutlari va funksiyalari orqali amalga oshiradi. Iqtisodiyotning asosiy maqsadi xalqning hayotiy faolligini ta'minlash, uning o'sib borayotgan moddiy, ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini qondirish, farovonlik darajasini oshirish hisoblanadi iborat. Shu sababli mamlakat iqtisodiy tizimining asosiy funksiyalari moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol qilishdir.

Iqtisodiyotni yaxlit tizim sifatida makroiqtisodiyot kursida – butun, yaxlit iqtisodiyot haqidagi fan) o'rganadi. U milliy iqtisodiyotning umumiy tuzilishi va xususiyatlarini, uning tarmoqlararo komplekslari va imkoniyatlarini, shuningdek, davlat sektori, uy xo'jaliklari va xususiy sektor kabi agregatlarni qamrab oladi.

Milliy iqtisodiyotning maqsad va yo'nalishlari asosiy makroiqtisodiy va umumlashtiruvchi **ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi**. Ular YAIM, milliy daromadning o'sish sur'atlari va ishlab chiqarish hajmlarini, umuman iqtisodiyot va uning tarmoqlari (sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, transport va aloqa, savdo va umumiy ovqatlanish, aholiga pullik xizmat ko'rsatish, ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar va boshqalar) bo'yicha ko'rsatkichlar, milliy hisoblarning umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari, tashqi savdo aylanmasi, milliy boyliklarning o'sishi, hajmi va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ushbu ko'rsatkichlarning yig'indisi nafaqat milliy iqtisodiyotning iqtisodiy natijalarini tahlil qilish, balki jamiyatning ijtimoiy holatini, iqtisodiyotning alohida tarmoq va sohalarining rivojlanish darajasini (aholi daromadlari va xarajatlari, ijtimoiy himoya, uy xo'jaliklarining ahvoli va ularning iqtisodiy hayotdagi ishtiroki, tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo holati, sanoat, qurilish, transport va boshqalarning rivojlanish darajasi) baholash imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, yuqoridagi va boshqa ko'rsatkichlar orqali milliy mahsulotni takror ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi moddiy, mehnat, moliyaviy, tabiiy va boshqa resurslar hajmini aniqlash mumkin.

Maqsadlarni asoslab berish, ijtimoiy-iqtisodiy tizimni rivojlantirish xarajatlari va **natijalarini baholash** uchun **quyidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va agregatlardan foydalaniladi**: milliy daromad (MD); yakuniy mahsulot (YAM); oraliq mahsulot (OM); yalpi ichki mahsulot (YAIM); yalpi hududiy mahsulot (YAHM); yalpi milliy mahsulot (YAMM); yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ); sof milliy mahsulot (SMM).

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishini tartibga solish va boshqarish uchun ko'rsatkichlar tizimi va ularning monitoringini tashkil etish zarur. Bu ko'rsatkichlar axborot bilan ta'minlanishi, kuzatish, o'lchash, qayd etish va nazorat qilish uchun oson bo'lishi kerak. Ular ishonchli, ob'yektiv, solishtiriladigan va taqqoslanadigan, barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va iqtisodiyot ishtirokchilari uchun majburiy bo'lishi kerak.

Kuzatiladigan va hisobga olingan ko'rsatkichlar tizimiga qo'yiladigan muhim talab – ularning vaqt va makonda o'zgarish dinamikasini aniqlash, nisbatlar, taqqoslash va solishtirishlarni aniqlash imkonini beradigan qiyosiy hisob-kitoblarda neutral va xarajat ko'rinishida masshtab va hajmning mutlaq qiymatlari bo'yicha agregasiyalash (jamlash) imkoniyatidir.

Iqtisodiyotni boshqarish jarayonida, birinchidan, barcha turdagi iqtisodiy ob'yektlarni (ishlab chiqarish, korxonalar, tarmoqlar, korporasiyalar va boshqalar) milliy iqtisodiy tizimga birlashtirish yoki jamlash zarurati tug'iladi. Ikkinchidan, har xil tovarlar (don, paxta, avtomobil, meva-sabzavot, boshqa tovarlar va xizmatlar) uchun yuz minglab narxlarni yagona umumiy narxga yoki narx darajasiga birlashtirish yoki agregasiyalash lozim. Turli tovar va xizmatlar uchun barcha narxlarning birlashtirilishi hamda tovar va xizmatlarning butun miqdorini milliy ishlab chiqarishning real hajmiga birlashtirish agregasiya deb ataladi.

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiyoti jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadi, uning rivojlanishining turli maqsadlari va ehtiyojlariga erishish uchun ko'plab turdagi resurslarning aylanishiga hissa qo'shadi.

Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YAIM yakuniy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishning turli bosqichlarida qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida aniqlanadi. Ayrim korxonalar va tarmoqlar miqyosida qo'shilgan qiymat tovar va xizmatlarning sotish bahosi bilan ularni ishlab

chiqarish uchun foydalanilgan xom ashyo va materiallarni sotib olishga sarflangan xarajatlar o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi.

Mamlakat miqyosida $YAIM = YAICH - OI$

Bu yerda,

YAIM – yalpi ichki mahsulot;

YAICH – yalpi ishlab chiqarish;

OI – oraliq iste'mol;

Xarajatlar usuli yakuniy foydalanish usuli deb ham yuritilib, unda YAIMni hisoblash uchun yakuniy mahsulotlarni sotib olishga qilingan barcha xarajatlar o'zaro qo'shib chiqiladi:

$YAIM = C + G + I + X_n$

Bu yerda:

Uy xo'jaliklarining pirovard iste'mol xarajatlari (S):

a) uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlari sotib olishga;

b) kundalik foydalaniladigan iste'mol buyumlari sotib olishga;

v) iste'mol xizmatlari to'loviga.

Tovar va xizmatlarni xarid qilishi uchun davlatning joriy xarajatlari (G):

Bu guruh xarajatlariga mahalliy va markaziy boshqaruv hokimiyati idoralari tomonidan korxonalarining pirovard mahsulotlar va resurslar xaridi, davlat korxonalarida band bo'lgan xodimlarga to'lanadigan mehnat haqi xarajatlari kiritiladi. Biroq, bu xarajatlarga davlatning transfert to'lovlari kiritilmaydi

Yalpi investisiya xarajatlari (I):

a) asbob-uskunalar, mashinalarni yakuniy sotib olishga;

b) korxonalar, inshootlar, turar-joy binolarini qurishga sarflangan;

v) moddiy aylanma mablag'lar zahiralarning o'zgarishi.

Sof eksport (X_n): mamlakatning eksport va import operatsiyalari bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi farq.

YAIMni daromadlar bo'yicha aniqlashda yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida rezident-ishlab chiqarish birliklari tomonidan, qo'shilgan qiymatlar hisobidan, to'langan birlamchi daromadlar qo'shib chiqiladi

$YAIM = T_n + W + R$

Bu yerda:

Tn – bilvosita soliqlar (qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, bojxona bojlari) va subsidiyalar hajmlari o‘rtasidagi farq;

W – xususiy va davlat kompaniyalarining yollanma ishchilarga hisoblagan barcha turdagi mehnat haqi to‘lovlarining nominal miqdori va unga qo‘shuv – ish beruvchilar tomonidan ish haqi fondiga nisbatan hisoblanib to‘lanadigan

ijtimoiy sug‘urta ajratmalari.

R – korporasiyalarning sof foydasi (R1) + nokorporativ korxonalar sof daromadlari (R2) + amortizasiya (A);

MHTga ko‘ra milliy iqtisodiyot rivojlanishini tahlil etish uchun YAIM ko‘rsatkichidan tashqari yana bir qator ko‘rsatkichlardan ham foydalaniladi. Bular – yalpi milliy daromad (YAMD), yalpi egalikdagi milliy daromad (YAEMD), sof ichki mahsulot (SIM), sof milliy mahsulot (SMM), sof milliy daromad (SMD), shaxsiy daromad (SHD), shaxsiy ixtiyordagi daromad (SHID) ko‘rsatkichlaridir.

YAIM va YAMD ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farqni quyidagi formula ko‘rinishida tasvirlash mumkin:

YAMD = YAIM + mamlakat rezidentlari tomonidan xorijdan olingan omil daromadlari – norezidentlarning mamlakatdan xorijga jo‘natgan omil daromadlari.

YAEMD = YAMD + mamlakatga xorijdan olingan transfertlar – chet el mamlakatlariga berilgan transfertlar.

Sof ichki mahsulot (SIM) va Sof milliy daromad (SMD) ko‘rsatkichlari YAIM va YAMD ko‘rsatkichlaridan amortizasiya (asosiy kapital iste‘moli) summasi miqdoriga farq qiladi.

$$SIM = YAIM - A$$

$$SMD = YAMD - A$$

Sof milliy daromadni aniqlash uchun sof ichki mahsulotdan bilvosita soliqlarni ayiramiz:

$$MD = SIM - \text{bilvosita soliqlar}$$

Shaxsiy daromadni aniqlash formulasi quyidagicha:

SHD = SMD – ISA (ijtimoiy sug‘urta ajratmalari) + T (bilvosita soliqlar) + korporasiya foydasiga soliqlar) + (Korporasiyalarning taqsimlanmagan foydasi + biznesning foiz daromadlari] + transfert to‘lovlari + foizlar ko‘rinishida olingan shaxsiy daromad.

Shaxsiy daromaddan aholi to‘laydigan daromad solig‘i, mulk solig‘i va ayrim nosoliq to‘lovlarini ayirib tashlab shaxsiy ixtiyordagi daromad (SHID) ko‘rsatkichi topiladi.

SHID uy xo‘jaliklari tomonidan iste‘mol (C) va jamg‘arish (S) uchun yo‘naltiriladi:

$$SHID = C + S$$

iqtisodiyotda doimiy inflyasiya jarayonining mavjudligi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni taqqoslama baholarda hisoblashni zarur qilib ko‘yadi. Chunki, inflyasiya iqtisodiyotning real holatini buzib ko‘rsatadi. iqtisodiyotni tahlil qilish, muammolarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bu vazifani bajarish uchun joriy baholarda hisoblangan nominal ko‘rsatkichlardan emas, balki taqqoslama (bazis) baholarda hisoblangan real ko‘rsatkichlardan foydalanish zarur.

Milliy iqtisodiyot faoliyatining umumlashtiruvchi yakuni yalpi ichki mahsulot (YAIM) ko‘rsatkichi bilan tavsiflanadi. Uni ishlab chiqarish bosqichida va mahsulotlardan foydalanish bosqichida hisoblash mumkin. Ishlab chiqarish bosqichida YAIM yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi sifatida hisoblanadi. YAQQ yalpi mahsulot va oraliqdagi iste‘mol o‘rtasidagi farqni ifodalaydi. Mahsulotdan foydalanish bosqichida YAIM yakuniy iste‘mol, yalpi kapital shakllanishi (investisiya) va eksport–import saldo (qoldiq) summasi sifatida hisoblanadi.

Makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot o‘zaro chambarchas bog‘liqlikda bo‘lib, real iqtisodiy muhitda bir–biriga ta‘sir qiladi.

Makroiqtisodiyotning asosiy muammolariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- muayyan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste‘mol qilish hajmlari;
- ayrim bozorlarning holati;
- xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar tomonidan qarorlar qabul qilish, ular tomonidan muayyan iqtisodiy harakatlarni amalga oshirish tamoyillari;
- mavjud moddiy ne‘matlarning cheklangan miqdori sharoitida mumkin bo‘lgan muqobil variantlarni tanlash.

Agregat – bu bir institusional birlik – xo‘jalik yurituvchi sub‘yekt sifatida qaraladigan ixtisoslashtirilgan iqtisodiy birliklar yig‘indisidir.

Makroiqtisodiyotning o'rganish ob'yekti mamlakat iqtisodiyoti uchun yig'ma, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar: milliy boylik, yalpi ichki mahsulot (YAIM), yalpi milliy mahsulot (YAMM), milliy daromad (MD), umumiy davlat va xususiy investisiyalar, muomalada bo'lgan jami pul miqdori. Shu bilan birga, makroiqtisodiyot mamlakatdagi o'rtacha daromadlar, ish haqi, bandlik, mehnat unumdorligi kabi iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganadi. Bundan tashqari, makroiqtisodiy vaziyatni tahlil qilish uchun inflyasiya sur'ati, bandlik darajasi, ishsizlik, valyuta kursi va boshqa ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

Ouken qonuni – tabiiy ishsizlik darajasidan yuqori va mamlakat yalpi milliy mahsulotining hajmi o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligi to'g'risidagi iqtisodiy qonundur. Unga ko'ra, haqiqiy YAIM o'zining tabiiy darajasidan oshib ketgan har 2% ishsizlik darajasini tabiiy ishsizlik darajasiga nisbatan 1% ga kamaytiradi. Real YaMMning tabiiy darajasidan 2% ga qisqarishi ishsizlik darajasining tabiiy ishsizlik darajasiga nisbatan 1% ga oshiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlari va manfaatlariga mos kelishi kerak. Ular iqtisodiy tizimni rivojlantirishning maqsadli va ustuvor yo'nalishlarini belgilash va asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maqsad nafaqat alohida shaxslar, balki tashkilotlar, assosiasiyalar, firmalar, korporasiyalar, mintaqalar, davlatlar, ularning guruhlari, butun dunyo hamjamiyati uchun zarurdir. Maqsad va vazifalarga e'tibor qaratmasdan turib, hech qanday darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy va iqtisodiy tizimning mavjudligi va faoliyat yuritishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Maqsadni asoslash, maqsadlarni belgilash va unga erishish bosqichlari, ularni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar va zarur resurslarni aniqlash rejalashtirish va boshqarish jarayonining boshlang'ich nuqtasi, boshlanishi hisoblanadi. Bunda, avvalambor davlat boshqaruvi hamda ilmiy ishlanma va tadqiqotlarni amalga oshirish tizimida quyidagi chegaralarni belgilash lozim: maqsad, maqsadni belgilash, maqsadli ko'rsatkichlar va ustuvorlik.

Ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan iqtisodiyot ma'lumki, ishlab chiqarish, taqsimlash va foydalanishdan iborat bo'lgan inson mehnati mahsulotlarining aylanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu aylanma mablag'lar harakati orqali amalga oshiriladi, buning natijasida barcha mahsulotlar pul ko'rinishida baholanadi, bozorda sotiladi, ya'ni tovarlarga aylanadi. Shunga

ko'ra, mahsulot aylanishi bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish va taqsimlash bosqichida alohida iqtisodiyot sub'yektlari tomonidan o'zlashtiriladigan va keyinchalik ular tomonidan foydalaniladigan daromadlarning aylanishi bilan birga sodir bo'ladi.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari **inson taraqqiyoti indeksi va aholi jon boshiga YAIM hisoblanadi**. O'sish va rivojlanish bir-biri bilan bog'liq, ammo iqtisodiyotning rivojlanishi uzoq muddatli istiqbolda uning o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Milliy iqtisodiyot – bu davlat miqyosidagi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi bo'lib, uning faoliyati xalq ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Har qanday davlatning milliy iqtisodiyoti murakkab iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, ilmiy-texnikaviy tizimdir. U o'zining faoliyati davomida to'plangan alohida salohiyatga ega resurslarni, ya'ni tabiiy resurs, ishlab chiqarish, inson resurslari, ilmiy-texnikaviy va boshqalarni kiritish mumkin.

Milliy iqtisodiy tizimning faoliyatini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar odatda milliy ishlab chiqarish, inflyasiya va ishsizlik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Milliy ishlab chiqarish darajasi va dinamikasining asosiy ko'rsatkichi yalpi ichki mahsulot (YAIM) hisoblanadi.

Asosiy atama va tushunchalar

Yalpi ichki mahsulot
Yalpi milliy mahsulot
Milliy daromad
Yalpi hududiy mahsulot
Milliy hisoblar tizimi
Oraliq mahsulot
Yalpi qo'shilgan qiymat
Sof milliy mahsulot

Nazorat savollari

1. O'zbekiston iqtisodiyotining xususiyatlari va tuzilishi qanday?

2. YAIM, YAMM, MD asosiy makroko'rsatkichlar qanday vazifani bajaradi? Ularning farqi nimada?

3. YAIM ishlab chiqarish bosqichida qanday aniqlanadi?

4. Milliy hisoblar tizimi (MHT) nima? Uning maqsadi, vazifalari va mazmuni nimadan iborat?

5. Milliy iqtisodiyot faoliyatida qanday makroiqtisodiy mutansobiliklar asosiy rol o'ynaydi?

6. Uning makro va mikroiqtisodiy tizimlari qanday o'zaro ta'sir qiladi?

7. Iqtisodiy o'sishni baholash va uni amalga oshirish usuli.

6. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish

Milliy iqtisodiyotni barqaror va samarali rivojlantirish juda murakkab jarayon sifatida keng va har tomonlama o'ylangan iqtisodiy siyosatga asoslanadi. Milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hajmi, ularning o'sishi bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali, mikro va makroiqtisodiy darajada aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Makroiqtisodiy barqarorlik – bu tizimda ijobiy dinamika uchun shart-sharoitlarni to'plash va davlat ta'sirining tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlari va bozorni o'zini-o'zi tashkil etish orqali iqtisodiyotni progressiv muvozanat holatiga o'tkazish jarayonidir.

Iqtisodiy o'sish – bu ijtimoiy mahsulot va uni ishlab chiqarish omillarining miqdoriy o'sishi va sifat jihatidan yaxshilanishi. Bu ko'rib chiqilayotgan iqtisodiy tizimda (mamlakatda, mintaqada, jahonda) tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmining o'sishi va sifatining oshishida ifodalanadi. Iqtisodiy o'sishning o'lchovi – bu butun real YaIMning yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIMning o'sishi.

Makroiqtisodiyot milliy iqtisodiyot bilan birgalikda jahon iqtisodiyotini ham o'z ichiga oladi. Milliy iqtisodiyotning asosiy vazifasi mamlakat aholisining doimiy ravishda o'sib boruvchi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish bo'lib, ushbu masalaning nechog'li samarali hal etilayotgani makroiqtisodiy tahlil yordamida aniqlanadi. **Makroiqtisodiy tahlilning maqsadi** – takror ishlab chiqarish jarayonini ob'yektiv tarzda aks

ettiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanish asosida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida paydo bo'ladigan holatlarni ochib berishdir.

Makroiqtisodiy muammolarga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

• Iqtisodiy o'sish, iqtisodiy sikllar: Iqtisodiy o'sish nima? Iqtisodiy o'sish sur'atlarini qanday aniqlash mumkin? Qanday omillar iqtisodiy o'sishga ta'sir qilishi mumkin? Iqtisodiy o'sish ko'rib chiqilayotgan mamlakat rivojlanishiga qanday ta'sir qiladi?

• Ishsizlik: ishsizlar kimlar? Ishsizlik iqtisodiyot uchun ijobiy yoki salbiy omil hisoblanadi? Ishsizlik bilan qanday kurashish mumkin? Mamlakatdagi ishsizlikning turli darajalarini qanday aniqlash mumkin? Ishsizlikning ta'siri qanday?

• Umumiy narx darajasi: Umumiy narx darajasi deganda nima tushuniladi? Narxlar darajasining o'zgarishi iqtisodiyot holatiga qanday ta'sir qiladi? Inflyasiya nima? Qanday inflyasiya foydali va qaysi biri zarar?

• Pul muomalasi, foiz stavkasi darajasi: pulning makroiqtisodiyotdagi o'rni qanday? Umumiy foiz stavkasiga nima ta'sir qiladi va u iqtisodiyotga nima ta'sir qiladi?

• Davlat byudjeti: davlat o'z daromadlari va xarajatlarini qanday tartibga soladi? Jamiyat farovonligi yoki mamlakatda biznesning rivojlanishi kabi mezonlar davlat byudjetidagi o'zgarishlarga qanday bog'liq?

• Savdo balansi: mamlakat boshqa davlatlar bilan qanday qilib xalqaro savdo qiladi? Eksport va importning o'zgarishi valyuta kursiga, ko'rib chiqilayotgan mamlakatning rivojlanishiga, jahon iqtisodiyotining holatiga qanday ta'sir qiladi?

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Makroiqtisodiyotning asosiy predmeti bu – iqtisodiy o'sish, iqtisodiy sikllar; ishsizlik; umumiy narx darajasi; pul aylanmasi, foiz stavkasi darajasi; davlat byudjeti va savdo balansi hisoblanadi.

Butun mamlakat iqtisodiyotining (yoki uning yirik tarmoqlarining) faoliyat yuritishini o'rganish uchun, avvalambor, mavjud iqtisodiy ma'lumotlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlar deb ataladi va buni —jadvalda ko'rish mumkin. Iqtisodiy tizimning mavjudligi va rivojlanishining qonuniyatlari asosida faoliyat yuritish jarayonlari ular o'rtasidagi barqaror miqdoriy aloqalarda o'z aksini topadi.

Makroiqtisodiy tizimga quyidagilar tegishli:

- tuzilmasi bo'yicha – tarmoqlararo komplekslar (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va aloqa, tashqi iqtisodiy kompleks, moliya tizimi, qurilish va asosiy kapitalga investisiyalar, ijtimoiy soha);

- maqsad va funksiyalari bo'yicha – milliy iqtisodiyotning samaradorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash, ahodi farovonligini oshirish, takror ishlab chiqarish, iqtisodiyotning tarmoq, texnologik, hududiy tuzilmalarining progressiv mutanosibligini saqlash;

- institusional tuzilma nuqtai nazaridan – umummilliy bozor institutlarini yaratish, milliy qonunchilikni takomillashtirish, bozor va umuminsoniy qadriyatlarni iqtisodiy hayotga joriy etish;

- boshqaruv tizimiga ko'ra – oliy davlat hokimiyati organlari, vazirliklar, idoralar, tarmoqlararo xususiyatiga ko'ra korxonalar.

(Statistika tizimida bu daraja MHTning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi).

MHT deganda mamlakat miqyosida sodir bo'layotgan iqtisodiy va sosial jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi hamda ushbu ko'rsatkichlarni hisoblash metodologiyasi va usullari tushuniladi

Mamlakat iqtisodiy salohiyatini eng umumlashtirib ifodalaydigan ko'rsatkich MHTda yalpi ichki mahsulot (YAIM) hisoblanadi. YAIM uch xil usulda hisoblanadi:

1. Ishlab chiqarish usuli.
2. Xarajatlar usuli.
3. Daromadlar usuli

Mikroiqtisodiyot nuqtai nazaridan iqtisodiy faoliyatning har bir sub'yekti quyidagi savollarni hal qiladi: nima, qanday, kim uchun va qanday miqdorda ishlab chiqarish, shuningdek, joriy iste'mol uchun qancha resurslarni ajratish va kelajakka nimani qoldirish kerakligi; ya'ni jamg'arma va investisiyalarni yo'naltirish.

Mikroiqtisodiyot iqtisodiy qarorlar qanday va nima uchun individual darajada qabul qilinishini o'rganadi: iste'molchilar tovarlar va xizmatlar narxlari, shuningdek, daromadlar darajasidan kelib chiqib, qanday qilib sotib olish qarorlarini qabul qiladilar; firmalar ishlab chiqarishni texnologiya darajasini hisobga olgan holda, shuningdek, ishlab chiqarish materiallari, tayyor mahsulot va xizmatlar narxlarini hisobga olgan holda ishlab

chiqarishni qanday rejalashtiradi; xodimlar qayerda va qancha ishlash kerakligini qanday hal qiladilar, individual qarorlar narx darajasini belgilovchi umumiy bozor muvozanatini qanday yaratadi va hokazo.

Mehnat bozori – bu ishchi kuchini yollash va taklif qilish bilan bog'liq ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar tizimi, ya'ni o'ziga xos tovar – mehnatni sotuvchi va xaridor, xodimlar va ish beruvchilar o'rtasida narx hajmi va mehnat sharoitlarini muvofiqlashtirishni ta'minlaydigan mexanizmdir. Mehnat haqi – bu yollangan xodimning ish haqi hisoblanadi.

Keng ma'noda mehnat bozori – bu jamiyatdagi ijtimoiy–iqtisodiy va huquqiy munosabatlar, me'yorlar va institutlar, mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning normal uzluksiz jarayonini va mehnatdan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan tizimdir.

Mehnat bozorida ishchi kuchining oldi–sotdisi amalga oshiriladi. Ish joyining egasi ishchi kuchini sotib olishi natijasida ishlab chiqarish jarayonida xo'jalik yuritish faoliyatning asosiy omillarini birlashtirish uchun iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi. Shunday qilib, mehnat bozori – bu iqtisodiy faol aholining iqtisodiy faoliyat sohaslarida tarmoq, hududiy, demografik va kasbiy–malaka kesimida ishchi kuchiga yalpi talab va taklifning ish o'rinlariga joylashtirish bilan bog'liq harakatdir.

Har bir bozorlar segmentlar deb ataladigan qismlarga bo'lingan. Mehnat bozorining tuzilishi kasbiy malaka va ijtimoiy guruhlarning nisbati bilan tavsiflanadi, unga ko'ra talab va taklif tahlil qilinadi. Mehnat bozorining segmentasiyasi uning tuzilmasining eng muhim xususiyati hisoblanib, u ish o'rinlari va xizmatchilarning nisbatan barqaror tarmoqlarga bo'linishini, ishchi kuchining mobilligini cheklashini belgilaydi.

Mehnat bozorlarining segmentasiyasi kelib chiqishi

Demografik xususiyatlarga ko'ra: ayollar mehnat bozori, yoshlar mehnat bozori, pensionerlar va pensiya yoshidagi odamlarning mehnat bozori bilan tavsiflanadi.

Aholi bandligi – bu fuqarolarning qonunga zid bo'lmagan, shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va ularga daromad, mehnat daromadlari keltiradigan faoliyati.

Bandlik – ijtimoiy–iqtisodiy kategoriya bo'lib, iqtisodiy faol aholining ijtimoiy mehnatdagi ishtirokini tavsiflaydi; aholining mehnat faoliyatidagi ishtiroki, uning mehnatga qo'shilish darajasi, xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasi va ish o'rinlari va daromadlarni shakllantirish bo'yicha munosabatlar majmui. Ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalarida xodimlar mehnatidan foydalanishga oid ijtimoiy–iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Alohida bir xodim misolida – to'liq bandlik (u to'liq ish haftasida ishlaganda), to'liqsiz ish kuni, uy mehnati, asosiy (asosiy ish joyi), ikkilamchi (to'liq bo'lmagan kunlik), mavsumiy, vaqtinchalik va boshqa shakllarga ajratiladi.

Bandlik – bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hodisa balki aholining munosib turmush darajasi va sifatini ta'minlash, shaxs kamoloti va uning kasbiy imkoniyatlarini ochib berishda muhim o'rin tutadi. Hayot sifati deganda, insonning o'z yashash sharoitlarini sub'yektiv idrok etishi, o'z faoliyatiga, jamiyatdagi o'rniga, o'z mayllarini ro'yobga chiqarish va iste'dodlarni yuzaga chiqarish imkoniyatlariga baho berish tushuniladi.

Ishsizlik – bu ijtimoiy–iqtisodiy hodisa bo'lib, unda mehnat resurslarining bir qismi (ishchi kuchi, iqtisodiy faol aholi) iqtisodiyotda ish bilan band bo'lmaydi, ish topa olmaydi, o'z daromadiga ega bo'lmaydi va zahiradagi ishchi kuchiga aylanadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT)

ta'rifiga ko'ra, ishsiz deganda ishi yo'q, uni qidirayotgan va darhol ishga kirishishga tayyor bo'lgan shaxs tushuniladi.

NEET (Not in Education, Employment, or Training) – ta'lim, bandlik yoki o'qishda band bo'lmalik ko'rsatkichi XMT mehnat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, yoshlarning mehnat bozoridagi ahvolidan asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Unda dunyoda 15–24–yoshda bo'lgan 621 mln. yoshlar bo'lib, ularning deyarli 90 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi va O'zbekistonda ham bu dolzarb muammo hisoblanadi.

O'zbekistonda 2021 yilda ishsizlik darajasi 9,6 foizni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,9 foizga kamaygan. Iqtisodiyotda jami bandlarning tarmoq va sohalar bo'yicha bandligi esa tarkibiy iqtisodiy islohotlar natijasida o'zgarish tendensiyasini kuzatish mumkin (10.2–jadval).

10.2–jadval

O'zbekiston mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari (ming kishi)

Ko'rsatkichlar	2010	2015	2020	2021	2022
Iqtisodiy faol aholi	12286,6	13767,7	14797,4	14980,7	15038,9
Ish bilan band aholi	11628,4	13058,3	13236,4	13538,9	13706,2
<i>shu jumladan, tarmoqlar bo'yicha</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3118,1	3601,7	3499,2	3502,1	3438,7
Sanoat	1605,7	1768,7	1809,5	1883,3	1810,6
Qurilish	1033,7	1222,2	1305,6	1286,8	1314,3
Savdo	1235,6	1413,8	1405,4	1537,2	1525,2
Tashish va saqlash	509,9	614,7	610,5	648,5	633,1
Ta'lim	1102,0	1105,3	1158,2	1178,3	1268,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	596,2	601,5	669,5	659,0	671,3
Boshqa turlari	2427,2	2730,4	2778,5	2843,6	3044,3
<i>mulkchilik turlari bo'yicha taqsimlash</i>					
Davlat sektori	2410,2	2341,3	2483,1	2609,0	2540,0
Nodavlat sektori	9218,2	10717,0	10753,3	10929,9	11166,2
Mehnat idoralarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar	16,2	2,7	37,1	98,7	49,0

2022 yilning 1 yanvar holatida mehnat resurslari soni 19 345,0 ming kishini tashkil etib, 2020 yilning shu davriga nisbatan 101,1 foizga yoki 202,6 ming kishiga oshgan. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar soni 13 538,9 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 foizga (299,3 ming kishiga) oshgan.

Ishga muhtoj bo'lganlarning umumiy soni 1 413,7 ming kishini, ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi orasida 9,6 foizni tashkil etdi. 16–30 yoshgacha bo'lganlar orasida ishsizlik darajasi – 15,1 foiz, ayollar orasida ishsizlik darajasi esa – 13,3 foiz bo'ldi.

Migrasiya – bu aholining hududiy jihatdan ko'chishi, shu jumladan yashash joyining o'zgarishi. Migrasiya so'zi lotincha “migratio” (ko'chib o'tmoq) so'zidan olingan bo'lib, u odamlarning doimiy yoki vaqtinchalik yashash uchun bir hududdan ikkinchi bir hududga ko'chishini bildiradi.

2021 yilda rasmiy sektorda band aholi soni 6124,3, norasmiy sektorda band bo'lganlar soni 5943,9 ming kishini tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan mehnat migrantlari soni o'rtacha 1,5 mln. kishini tashkil etgan.

Jahonda norasmiy mehnat munosabatlari keng tarqalgan bo'lib, dastlab, u faqat rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan voqelik deb hisoblangan. Ushbu hodisani o'rganish norasmiy (yashirin) iqtisodiyotni tushunish bo'yicha tadqiqotlarning kengayishi bilan yangicha tus oldi.

Dunyoda 2 mlrd. kishi (ish bilan band bo'lganlarning 61 foizi) norasmiy band va ularning 93 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri kelib, ular mehnat huquqlari va ijtimoiy himoyaga ega emas.

Mehnat bozori institusional muhitning sifatiga sezgir, ya'ni uning o'zgarishi iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy sektorlari ko'lamiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Norasmiy bandlik quyidagi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

- ishsizlik darajasi bilan;
- aholi jon boshiga YAHM darajasi bilan;
- aholi jon boshiga investisiyalar darajasi bilan;
- kichik biznesning rivojlanish darajasi bilan;
- o'rtacha oylik ish haqi bilan.

2021 yilda respublika bo'yicha mavjud 592,6 mingta ish beruvchi, shu jumladan vazirlik, tashkilot va korxonalar tomonidan 5,1 mln.nafar xodim to'g'risida ma'lumotlar “YAMMT” IDAKga kiritilib elektron bazasi shakllantirilgan.

Mazkur tizim orqali 267,6 mingta, shundan davlat tashkilotlarida 90,2 mingta, xususiy sub'yektlarda 177,4 mingta bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlangan.

Mazkur bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar ish.mehnat.uz va ish.mehnat.uz saytlarida ommaga e'lon qilib borilmoqda.

Shuningdek, aholini vakant ish o'rinlariga ishga joylashtirish maqsadida respublika bo'yicha 2021 yilda 2358 marotaba bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari o'tkazilgan.

Ushbu yarmarkalarda 73 146 ta korxonalar va tashkilotlar 567,2 ming bo'sh ish o'rinlari bilan ishtirok etgan.

Xulosa

O'zbekiston yosh aholiga ega bo'lib, bolalar, o'smirlar va yoshlar salmog'i yuqori. O'zbekiston aholisi nisbatan past migrasiya harakatchanligi bilan ajralib turadi. Aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar katta ijtimoiy–iqtisodiy ahamiyatga ega. Demografik va iqtisodiy o'sishning qulay nisbati ma'lum darajada aholining samaralarga ega. Mehnat salohiyati bog'liq bo'lib, bu ma'lum iqtisodiy samaralarga ega. Mehnat salohiyati oshdi, mehnatga layoqatli aholi uchun demografik yuk kamaydi, bu esa iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va turmush darajasini oshirishning haqiqiy sharti bo'ldi.

Mehnat bozori – bu o'ziga xos bo'lgan tovar, ya'ni ishchi kuchini sotish va sotib olish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi bo'lib, unda mehnatning ish haqiga almashinuvi amlaga oshiriladi. Uning o'ziga xos xususiyati va mexanizmi – bilim, malaka (ma'lumot) va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ishchi kuchini yollash va personalni tanlash huquqidir.

Keng ma'noda mehnat bozori – bu jamiyatdagi ijtimoiy–iqtisodiy va huquqiy munosabatlar tizimi, me'yorlar va institutlar, mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning normal uzluksiz jarayonini va mehnatdan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Mehnat bozoridagi munosabatlar ijtimoiy va davlat institutlari (bandlik siyosati, kasaba uyushmalari, qonun hujjatlari va boshqalar) tomonidan tartibga solinadi.

Mehnat bozori har qanday iqtisodiy tizimning muhim qismidir, chunki uning holati ko'p jihatdan ushbu tizimning iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilaydi. Shu bilan birga, mehnat bozori hukumat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy elementi hisoblanadi. Mehnat bozoriga bir vaqtning o'zida mintaqa yoki umuman davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosati ta'sir qiladi.

Mehnat bozorida ishlab chiqarish vositalarining egasi va ishchi kuchi egasi uchrashadi. Ular o'rtasida ishchi kuchi egasi o'zini emas, balki muayyan turdagi mehnatni sotib olish, xodimning mehnatidan foydalanish shartlari va davomiyligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Bu munosabatlar talab va taklif qonunlari tufayli bir-biriga ziddir. Ayirboshlash jarayonida ularning vaqtinchalik muvozanat holati o'rnatiladi, bu ma'lum darajadagi bandlik va ish haqi bilan ifodalanadi. Mehnat bozorining o'ziga xos xususiyati – ishchi kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan doim ortiq bo'lishidir.

Asosiy atama va tushunchalar

Demografik salohiyat

Mehnat salohiyati

Demografik siyosat

Demografik ko'rsatkichlar

Tug'ilganda o'rtacha umr ko'rish

Mehnat resurslari

Iqtisodiy faol aholi

Aholi bandligi

Mehnatga layoqatli aholi

Nazorat savollari

1. O'zbekistonda demografik holatning o'ziga xos xususiyatlari
2. Demografik o'sishning hududlar bo'yicha farqlanishi
3. Demografik jarayonlarning mehnat bozoriga ta'siri
4. Mehnat resurslarining ijtimoiy-demografik guruhlarini
5. Iqtisodiy faol va nafaol aholi

6. Mehnat bozorining segmentlari

7. Mehnat migrasiyasi kelib chiqishining asosiy sabablari

8. Ishsizlik nima va uning kelib chiqish sabablari, turlari

9. Norasmiy bandlik nima va uning darajasini qisqartirishning usullari

11. O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holati va jahon iqtisodiy tizimida tutgan o'rni

O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi va uning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi O'zbekistonning bundan buyon mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borishini, hech kimning vositachiligisiz o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yishini anglatar edi. Shu bilan birga, chinakam iqtisodiy mustaqillikka erishish yo'lida hali ham bir qator ob'yektiv qiyinchiliklarni bartaraf etish, socialistik tuzumdan meros bo'lib qolgan bir qator muammolarni hal qilish kerak edi.

Markazlashgan rejalashtirish va ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv uslubidan bozor iqtisodiyotiga o'tish amaldagi boshqaruv mexanizmini modernizatsiya qilish yoki takomillashtirish emas, balki prinsipial jihatdan yangi mexanizmi yaratishni bildiradi. Bu bir sifat holatidan ikkinchisiga o'tish va odamlar uchun mutlaqo yangi hayot falsafasidir.

O'zbekistonda bir tizimdan ikkinchisiga o'tish evolyusion tarzda amalga oshirildi. Bu esa iqtisodiy rivojlanishning barqaror, bosqichma-bosqich, mamlakatni maqsad sari harakatga keltirishi, vaziyatni va umuman bozor munosabatlarining butun barqaror rivojlanishini ta'minlaydi deb hisoblandi. Bozor iqtisodiyoti tegishli infratuzilma va huquqiy bazani emas, balki qadriyatlar tizimidagi chuqur o'zgarishlarni, iqtisodiy xavfsizlikni himoya qilish va ishbilarmonlik munosabatlarini rag'batlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Iqtisodiyotning bozor sharoitiga bosqichma-bosqich o'tishi va uni yanada erkinlashtirish, davlat vakolatlarining bir qismini xususiy mulkka o'tkazish orqali davlat xarajatlarini optimallashtirish, yangi ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, shuningdek, xususiy sektorning moliyaviy holatini mustahkamlash va uning daromadlilikini oshirish. Iqtisodiyotdagi ulush, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston iqtisodiyotining o'tgan davrdagi rivojlanishining asosiy omillari makroiqtisodiy barqarorlik va tarkibiy o'zgarishlar bo'ldi. Mamlakat hukumati tomonidan iqtisodiyotni liberallashtirish borasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida 2005 yildan davlat byudjeti va tashqi savlo balansini profisit bilan bajarildi. Yillik kapital qo'yilmalar hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 foizdan oshdi va bu esa kelgusida iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratdi.

Iqtisodiyotning bozor sharoitiga bosqichma-bosqich o'tishi va uni yanada erkinlashtirish, davlat vakolatlarining bir qismini xususiy mulkka o'tkazish orqali davlat xarajatlarini optimallashtirish, yangi ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, shuningdek, xususiy sektorning moliyaviy holatini mustahkamlash va uning daromadlilikini oshirish. iqtisodiyotdagi ulush, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston iqtisodiyoti tubdan, tizimli va izchil islohotga, davlat institutlarining butun tizimini o'zgartirish zarurligi yaqqol namoyon bo'ldi. Asosiy vazifa samarali bozor mexanizmlarining normal ishlashi uchun sharoit yaratish edi.

Mamlakatda yangi Prezidentning hokimiyatga kelishi O'zbekistonda tub iqtisodiy islohotlarni boshlab berdi. Ulardan eng asosiylari:

- valyuta kurslarini unifikatsiya qilish, valyuta bozorini liberallashtirish, joriy operatsiyalar uchun konvertatsiyani joriy etish (2017 yil, sentyabr);
- tovarlar va odamlarning transchegaraviy olib o'tishidagi bir qator ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish (birinchi navbatda, O'zbekiston qo'shnilari bilan) va bojxonada to'lovlarini kamaytirish (2017-18);
- bank sektori va pul muomalasini isloh qilish (2017-18);
- tub soliq islohoti (2019);
- biznes yuritish uchun bir qator ma'muriy to'siqlarni qisqartirish.

2017 yildan boshlab O'zbekiston hukumati proteksionizmni faol ravishda bartaraf etish, milliy valyutaning erkin konvertatsiyasini ta'minlash, yuqori bojxonada to'lovlari va tarifsiz to'siqlar, shuningdek, odamlar va kapitalning erkin chegaraviy harakatidagi rasmiy va norasmiy to'siqlarni olib tashlandi. Bu o'zgarishlarning barchasi O'zbekistonga xalqaro mehnat taqsimotida to'liq ishtirok etish va raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni yaratish imkoniyatini berdi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, 2017 yilda mamlakatda joriy operatsiyalar uchun erkin konvertatsiyani joriy qilindi, tovarlar va odamlarning harakatlanishidagi qator ma'muriy to'siqlarni bartaraf etildi, bojxonada to'lovlarini pasaytirildi va bu O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarning eng muhim yutuqlari hisoblanadi.

2017 yilgacha bank-kredit sektori O'zbekiston iqtisodiyotining eng tartibga solinadigan tarmoqlaridan biri bo'lgan. Banklar hech qanday tijorat mustaqilligiga ega emas edi, ularning faoliyati, jumladan, foiz stavkalarini belgilash Markaziy bank tomonidan qattiq tartibga solingan, muqobil kredit tashkilotlari esa juda cheklangan edi. Pul tizimi qat'iy cheklangan, naqd pul muomalasida jiddiy cheklovlar mavjud edi, bu esa har xil turdagi pullarning turli qiymatlarini paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

2017 yildan O'zbekistonda bank sektorini tartibga solish va tijoratlashtirish jarayoni kuzatilmogda. Markaziy bank o'z faoliyatini tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish, pul muomalasi va valyuta bozorini tartibga solish bo'yicha sezilarli darajada qayta tashkil etdi. Banklar mijozlarga yo'naltirilgan bo'ldi, tannarx sezilarli darajada pasaydi, sifati yaxshilandi va bank xizmatlari ko'lami kengaydi. Xorijiy valyutani sotib olish va naqd pul muomalasiga qo'yilgan ma'muriy cheklovlar bekor qilindi.

Biroq, bank aktivlarining 80 foizdan ortig'i hali ham davlatga tegishli, hukumat imtiyozli kreditlarni banklar orqali, asosan, davlat korxonalariga faol ravishda berishini bartaraf etish masalasi dolzarbdir. Kredit sohasida raqobat rivojlantirish, unga yangi o'yinchilarning kirishini chekllovchi to'siqlarni olib tashlash, bank sektori bo'lmagan mikromoliya tashkilotlari va lombardlar soni oshirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida⁴ quyidagi maqsadlar qo'yilgan:

- bank tizimiga zamonaviy yechimlarni joriy qilishga, moliyaviy va inson resurslari samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan moliyaviy barqaror va nufuzli investorlarni jalb qilish;

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF-5992-son Farmoni

- imtiyozli va subsidiyalashgan kreditlarni qisqartirish, kreditlashni pul-kredit siyosati signallari asosida faqat bozor shartlarida amalga oshirishga o'tish;

- kredit resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatlarini oshirish maqsadida banklarning davlat mablag'lariga bo'lgan qaramligini pasaytirish;

- banklarning samarali infratuzilmasini yaratish, bank faoliyatida zamonaviy texnologik yechimlarni keng joriy etish.

Bugungi kunda banklarni to'liq xususiyashtirish, uni bugungi kun talablariga javob beradigan, shu jumladan iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi va aholi uchun samarali faoliyat yuritadigan bo'lishini ta'minlash vazifasi qo'yildi.

2022 yilda O'zbekiston Respublikasi YAImi hajmi joriy narxlarda 888 341,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021 yil bilan taqqoslaganda 5,7 % ga o'sdi.

2022 yilda aholi jon boshiga hisoblangan YAImi hajmi joriy narxlarda 24 919,7 ming so'mni (yoki 2 254,9 AQSH dollari ekvivalentida) tashkil etdi.

2022 yilda YAImi tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. YAImi (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 39,6 % dan 41,5 % ga, qurilish tarmog'ining ulushi 6,6 % dan 6,7 % ga oshdi. Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 26,5 % dan 25,1 % ga kamaydi. Sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi esa 33,4 % ni tashkil etdi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida xizmatlar sohasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda.

2018 yilga nisbatan (150,9 trln. so'm) 2022 yilda (357,6 trln. so'm) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 206,7 trln. so'mga oshdi. 2018 yildan 2022 yilga qadar bo'lgan davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati 175,9 % ga yetdi.

O'zbekistonda bozorga kirish va undan chiqish yo'lidagi to'siqlarning bartaraf etilishi, biznes yuritish qoidalarining soddalashtirilishi, davlatning narx belgilashni bosqichma-bosqich bekor qilishi, xususiy mulkka egalik huquqining mustahkamlanishi hamda davlat korxonalari sektoridagi

faoliyatning samarasizligini yengib o'tish uchun ularni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Korxonalarin moliyaviy bozorlarga, xomashyo va boshqa manbalarga kirish imkoniyati kengaydi, raqobatning kuchayishi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishni rag'batlantirishga qaratilgan hujjatlar qabul qilindi.

Shuningdek, 2017 yildan norasmiy cheklovlar, davlat idoralarining samarasiz faoliyati, shaffof bo'lmagan qonun-qoidalar va mulkka egalik qilish bo'yicha huquqning tegishli darajada himoya qilinmasligini bartaraf etish uchun qonun hujjatlari ishlab chiqildi.

2017 yildan boshlab mamlakatimizda iqtisodiyotini liberallashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar xususan, biznes yuritish yo'lidagi xorijiy valyuta konvertatsiyasi yetishmasligi, yuqori import bojlari va soliq stavkalari kabi cheklovlarni bartaraf etildi. Davlat o'zining iqtisodiyotdagi rolini maqbullashtirishni davom ettirishni va xususiy sektorni rivojlantirish maqsadida qolgan to'siqlarni bartaraf etishni davom etmoqda. Ushbu cheklovlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- investisiya muhitini yaxshilash;
- soliq ma'muriyatchiligidagi islohotlarni to'liq amalga oshirish;
- davlat byudjeti operatsiyalarining, ayniqsa, davlat korxonalariga beriladigan samarasiz yashirin subsidiyalar shaffofligini ta'minlash;
- yerdan foydalanish huquqi hamda sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligida mulkka egalik qilish huquqini isloh qilish;
- davlat monopolistik korxonalarini tarkibiy jihatdan (tizimli) qayta qurish, korporativ boshqaruv va moliyaviy hisobotga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish;
- davlatning eksportga yo'naltirilganlikni qo'llab-quvvatlashi (jumladan, ISO standarti bo'yicha sertifikatlash, ekspert xatarlarini kamaytirish, diversifikatsiyalash, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish).

Mamlakatimiz 1991 yilda mustaqillikka erishgan kundan boshlab bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli davlat barpo etish yo'lidan borib, bozorga o'tishning besh tamoyilga asoslandi va ulardan birinchisi iqtisodiyotning davlatdan ustunligi edi. Davlat iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat

erkinligini kafolatlab, xususiy mulkni va tadbirkorlar, kichik va o'rtabiznesni huquqiy himoya qilishga huquqiy asosini yaratdi.

O'tgan asrning 90 yillari boshidan 2000 yillarning o'rtalarigacha paxta ekinlari maydoni 1900 dan 1400 ming gektargacha sezilarli darajada qisqardi va o'z o'rnini boshqa ekinlarga bo'shatib berdi. Bu jarayon 2017-2022 yillarda ham davom etib, paxta ekinlarini qisqartirish va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va aholi ehtiyojlari uchun ajratilmoqda.

Mamlakatimiz g'alla mustaqilligiga erishish harakati o'tgan asrning 90 yillari boshida boshlagan. 2000 yillarning o'rtalariga kelib, sug'oriladigan yerlardagi bug'doy ekinlari 200 ming gektardan 5,5 barobarga oshib, 1,1 mln. gektarga yetdi. 2020 yilda boshqoli don ekinlari maydoni bir yarim mln gektardan ortiqni tashkil etdi va barcha toifadagi fermer xo'jaliklari tomonidan 7,566 million tonna g'alla yetishtirildi.

2017 yil sentyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra mamlakatda yuridik va jismoniy shaxslarning valyutani erkin konvertasiya qilishlari mumkinligi ta'minlandi. Bu esa respublikada iqtisodiyotning yaxshilanishiga, valyuta aylanmasining, eksport va importning o'sishiga, xorijiy sarmoyalarning jalb etilishiga olib keldi.

2019 yil O'zbekistonda "Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deb e'lon qilinishi mamlakatga xorijiy kapitalni jalb qilishni boshlab berdi. 2021-2023 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining Investisiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari tasdiqlandi, unda markazlashgan va markazlashtirilmagan investisiyalarni o'z ichiga olgan miqdorda rivojlantirish ko'zda tutilgan 928,7 trln so'm, shu jumladan, 37,5 mlrd AQSH dollari miqdorida xorijiy investisiyalarni o'zlashtirish hamda 2021 yilda respublika davlat kafolati ostida xorijiy kreditlarni, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar va kreditlarni jalb qilgan holda amalga oshiriladigan investisiya loyihalari maqsadli dasturi tasdiqlandi.

"2019-2030 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" qabul qilindi. Ushbu strategiya energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni ko'paytirish, resurslar samaradorligini oshirish

va ekinlar hosildorligini oshirish, yerlarning degradasiyasini kamaytirish orqali mamlakatda issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan.

2019 yilda "Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorning qabul qilinishi mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, milliy mahsulotni yaratish va jahon bozorlariga olib chiqishga xizmat qildi. So'nggi yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lami me'yoriy hujjatlar qabul qilinishi natijasida turizmni rivojlantirishni boshqarishning institusional tizimi shakllantirildi, turizmni rivojlantirish bo'yicha respublikamizning barcha hududlarida turizm boshqarmasining tarkibiy bo'linmalari tashkil etilishi hududlarning ulkan turizm salohiyatidan samarali foydalanish imkonini yaratdi. So'nggi yillarda turizm milliy iqtisodiyotning o'sish nuqtalaridan biriga aylandi.

2017 yildan Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini o'rnatildi, chegaralarni va nazorat-o'tkazish punktlari ochildi, Markaziy Osiyo davlatlari bilan istisnosiz barcha masalalar bo'yicha konstruktiv muloqot olib borish yo'lga qo'yildi.

Prezident Sh. Mirziyoyev siyosati natijasida erishilgan muvaffaqiyatli islohotlardan biri eng yaqin qo'shnilar Qirg'iziston va Tojikiston bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlari o'rnatilishidir. 2018 yil oktyabr oyida ikki davlat o'rtasidagi davlat chegarasining 85 foizini tartibga solish bo'yicha O'zbekiston-Qirg'iziston kelishuvi kuchga kirdi. Tojikiston bilan chegara va suv-energetika masalalari bo'yicha ham muloqot davom ettirildi. 2017 yil aprel oyida 1992 yilda to'xtatilgan poytaxtlar o'rtasidagi havo qatnovi qayta tiklandi, oradan bir yil o'tib, 2018 yilning mart oyida yetti yillik tanaffusdan so'ng ikki davlatning janubiy hududlari yana temir yo'l orqali bog'landi. Ikki davlat fuqarolarining 30 kungacha bo'lgan muddatga o'zaro vizasiz sayohatlari to'g'risidagi hukumatlararo kelishuv ham kuchga kirdi. 2018 yilda Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi, unda dolzarb muammolarning amaliy yechimiga o'zaro hamkorlik qilish, muntazam uchrashuvlar va muzokaralar asosida o'zaro manfaatli munosabatlarga mustahkam poydevor yaratildi.

Gender tengligi masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va Respublika gender komissiyasi tashkil etildi. O'zbekiston Hukumatining 2022 yil 21 fevralda "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish

sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shuningdek, Barqaror rivojlanishning beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida O'zbekistonda "Gender tengligini ta'minlash va barcha ayollar va qizlarning huquqlarini kengaytirish"ga qaratilgan to'qqizta maqsad ishlab chiqildi. O'zbekiston ayollarni har qanday kamsitish va ta'qiblardan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy himoya qilishni nazarda tutuvchi barcha yirik xalqaro shartnomalarga qo'shildi. Mamlakatimizda genderga oid qonunlar, Prezident va hukumatning 20 dan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi. Xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlik va oilaviy zo'rvonlikning oldini olish bo'yicha ishlarni kuchaytirishni nazarda tutuvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Davlat tizimini isloh qilish, professional parlamentga o'tish bo'yicha hujjatlar qabul qilindi. O'zbekistonda davlat hokimiyati tizimi uchta mustaqil tarmoqqa bo'lingan: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud. Oliy davlat vakillik organi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblanadi. Ijro etuvchi hokimiyatni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasida sud tizimi O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoiy ishlar sudlaridan iborat.

2005 yildan boshlab ikki palatali Oliy Majlis parlamenti (Senat va Qonunchilik palatasi) o'z faoliyatini boshladi. Aynan professional ikki palatali parlamentga o'tish respublika davlat boshqaruvidagi asosiy islohotlardan biri sanaladi, bu esa hokimiyatning barcha uch tarmog'ini muvozanatlashtirishga qaratilgan.

2020 yilda ilk bor O'zbekistonda kambag'allik statistikasini rasmiy tan olish va uni kamaytirishga kompleks yondashuvni shakllantirish boshlandi. 2020 yil yanvar oyida O'zbekiston Prezidenti parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida hududlar, ayniqsa, qishloqlar aholisining aksariyati yetarlicha daromad manbalariga ega emasligini ta'kidlab, barcha mamlakatlardagi kabi bizda ham aholining kam ta'minlangan qatlamlari borligini qayd etdi. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, bu ko'rsatkich 12-15% ni va bu mamlakatning 4-5 mln. aholisini tashkil qilishini bildiradi. Natijada

O'zbekiston Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda ishlab chiqishni rejalashtirayotgan Kambag'allikni qisqartirish dasturiga 700 mln. AQSH dollar ajratilishi, kambag'allik mezonlarini belgilash metodologiyasi, inflyasiya darajasini hisobga olgan holda ish haqi, pensiya va nafaqalar kelgusida oshirilishi hamda ijtimoiy himoya qilish konsepsiyasini ishlab chiqilishi ma'lum qilindi.

2022 yil 27 iyulda O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi qabul qilindi. 2023 yil 1 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezident huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. U fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini ta'minlash va ijtimoiy xizmatlar sifatini tubdan oshirish maqsadida yaratildi. Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi. U o'z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

O'zbekiston 2001 yil 15 iyun kuni Shanxay forumiga qo'shilganidan keyin Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) ta'sischilaridan biriga aylandi. Bu O'zbekistonga ishtirokchi davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash imkonini beradi.

Ta'lim tizimi isloh qilindi, nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bir qator hujjatlar qabul qilindi. 2021 yilda davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv hamda moliyaviy mustaqilligini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Natijada, talabalar qabul qilish kvotasi, o'quv rejaları, o'quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta'lim tilini hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarida ta'lim olish shaklini, o'qish davomiyligi muddatlarini, to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash vakolati berildi.

O'zbekistonda oliy ma'lumotni nafaqat mahalliy oliy o'quv yurtlarida olish mumkin. Xorijda ta'lim olish maqsadida chet tillarini jadal o'rganayotgan abituriyentlar soni ortib bormoqda. Biroq, so'nggi yillarda ta'lim uchun uzoqqa borish kerak emas. O'zbekistonda har yili bosqichma-bosqich o'tkazilayotgan ta'lim yarmarkalari xorijiy universitetlar filiallari o'z xizmatlarini taklif qilmoqda. 2023 yilda mamlakatimizda Rossiya Federasiyasining bir qancha oliy o'quv yurtlari filiallari, Buyuk Britaniya,

Koreya Respublikasi, Singapur, Italiya, AQSH, Hindiston va boshqa bir qator mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarining ham filiallari va qo'shma dasturlar faoliyat yuritmoqda.

2020 yilda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining qabul qilinishi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishining maqsadli ko'rsatkichlarini belgilab berdi.

Jumladan, iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operasion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026 yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish, dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 mln AQSH dollariga yetkazish mo'ljallangan.

Iqtisodiyotda energiya samaradorligini darajasini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, texnologiyalarni yangilashni jadallashtirish, «yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirish uchun innovasion yechimlarni joriy etishda kichik biznes ishtirokining ulushini kengaytirish orqali mamlakatni barqaror rivojlantirish sohasida ustuvor milliy maqsadlar va vazifalarga erishish maqsadida "2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi qabul qilindi.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tishining asosiy maqsad – texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; davlat investitsiyalari va xarajatlarini ustuvor yo'nalishlariga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan «yashil» mezonlarni kiritish; davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish asosida "yashil" iqtisodiyotga o'tish hisoblanadi.

Xulosa

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh

etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashini hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha zarur choralar amalga oshirildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholining ish bilan band bo'lishlariga qaratilgan barcha huquqiy va tashkiliy choralar ko'rildi va tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Asosiy atama va tushunchalar

Bozor islohotlari
Tarkibiy islohotlar
Infratuzilma
Ijtimoiy soha
Real sektor
Elektron hukumat
Raqamli iqtisodiyot
Yashil iqtisodiyot

Nazorat savollari

1. Iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni o'tkazishning asosiy sabablari va natijalari
2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirish omillari
3. Yalpi ichki mahsulot tarkibining o'zgarishi va xususiy sektorning shakllanishi
4. Iqtisodiyotni raqamlashtirishning ahamiyati va maqsadli ko'rsatkichlari

5. Milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimiga integrasiyalashuvi
6. Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini ta'minlash va "yashil iqtisodiyot"ga o'tishga qaratilgan chora-tadbirlar

3-Bob. Tarmoqlar kompleksi

12. Sanoat kompleksining shakllanishi va rivojlanishi

Sanoat – xomashyo va yoqilg'i qazib olish bilan shug'ullanuvchi korxonalar: energiya va asboblarni ishlab chiqarish (iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun ham, sanoatning o'zi uchun ham); sanoat yoki qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan materiallar va mahsulotlarni qayta ishlash; iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kompleksidir.

O'zbekistonning mustaqillikka qadar markazlashtirilgan ma'murny-buyruqbozlik tizimi davrida ishlab chiqarish asosan agrar xomashyo xususiyatiga ega bo'lib, sanoat yaxshi rivojlanmagan. 1990 yilda mamlakatda yaratilgan milliy daromadda sanoatning ulushi – 25,7% foiz, qishloq xo'jaligi – 44,2%, qurilish, – 14,1%, transport va aloqa – 4,7% va boshqa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini – 11,1% ni tashkil qilgan. Sanoat mahsulotining asosiy qismi yengil va o'zgaruvchan sanoat mahsulotlaridan iborat bo'lib, ularning ulushiga ushbu tarmoq mahsulotining 56 foizi to'g'ri kelgan. O'zbekistonda barcha sanoat mahsulotlari tarkibida mashinasozlik sanoatining hisssasi 20% ga ham yetmagan.

O'zbekistonning iqtisodiy siyosati ishlab chiqarishni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega yuqori texnologiyali mahsulotlar yaratish, shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirish va jahon bozorida o'rinni mustahkamlashga qaratilgan. Faol investitsiya siyosatini amalga oshirish, sanoat tarmoqlari va ishlab chiqarish infratuzilmasini texnik modernizatsiya qilish O'zbekiston uchun avtomobilsozlik, gaz–kimyo, elektrotexnika, mashinasozlik, qurilish materiallari sanoati, farmasevtika, mebel sanoati va boshqa yangi yuqori texnologiyali tarmoqlarni yaratishni ta'minlash imkonini berdi.

O'zbekistonda sanoat siyosati eksportga yo'naltirilgan holda amalga oshirilmoqda. Bugungi kunga kelib xomashyo bo'lmagan tovarlar ishlab chiqarish raqobatbardosh bo'lib, tobora eksport qilishga qaratilmoqda. Chunki aynan yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar eksporti, ayniqsa, murakkab ilmiy–fanni talab qiluvchi eksport eng katta daromad keltiradi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash rivojlanishning sifat jihatidan yangi darajasiga ko'tarilishning eng muhim

sharti sifatida. O'zbekistonda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilingan. Shu tufayli yengil sanoatni rivojlantirish va mamlakat iqtisodiyotini tubdan qayta qurish va unda yengil sanoatni o'rnini oshirish katta ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar tufayli sanoat bo'yicha mehnat unumdorligining jadal o'sishiga erishildi. Bunga birinchi navbatda, eksport qiluvchi korxonalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning barqaror faoliyatini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektorida resurs bazasini kengaytirish va investitsion faollikni oshirish, iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar sabab bo'ldi.

2017 yildan o'ndan ortiq turdagi strategik foydali qazilmalarni o'zlashtirish uchun soliq stavkalari pasaytirildi, yer solig'i bekor qilindi, maxsus texnikalar bojxona to'lovlaridan ozod etildi. Xomashyoni chuqur qayta ishlash bo'yicha bir qator aniq loyihalar tayyorlandi. Jumladan, O'zbekistonda yiliga 150 ming tonna mis qazib olinadi va uning atigi 70 ming tonnasi qayta ishlanadi. Yaqin yillarda mis ishlab chiqarish hajmini 500 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilgan. Mis klasterini barpo etish va uning hududida mis folgasi, elektrodvigatellar, quyosh panellari, kabel-o'tkazgich mahsulotlari va boshqa yuqori qo'shilgan qiymatli tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha loyihalar amalga oshirila boshlandi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmi so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'ldi, jumladan mazkur ko'rsatkich 2022 yilda 551,1 trln. so'mni tashkil etib, 2018 yilga (235,3 trln. so'm) nisbatan 315,8 trln. so'mga oshgan. Bu jarayonda mamlakatimizda sanoat salohiyatini rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlari doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlararo va tarmoq bo'g'inlari, hududlar, komplekslar, korxonalar va tashkilotlarni o'z ichiga olgan murakkab funksional va hududiy ishlab chiqarish tuzilmasiga ega. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida yangi tuzilmalar – konsernlar, moliyaviy va sanoat guruhlarini,

xolding kompaniyalari, erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar, va boshqalar paydo bo'ldi.

Sanoat siyosati import o'rnini bosuvchi va natijada mahalliy ishlab chiqarish hajmini (**ishlab chiqarishni mahalliyashtirish**) ko'paytirishi kerak bo'lgan O'zbekiston mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan.

2017–2022 yillarda sanoatni rivojlantirish natijasida O'zbekistonda:

- qo'shimcha 19 ta erkin iqtisodiy zona va 400 dan ziyod kichik sanoat zonasi tashkil etilib, ularning infratuzilmasiga 10 trillion so'm yo'naltirildi;
- to'qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, charm, farmasevtika, elektrotexnika kabi sohalarni "drayver"ga aylantirish uchun 3 mlrd. AQSH doll. miqdorida moliyaviy resurslar ajratildi;

- sanoatni zarur xomashyo bilan ta'minlash maqsadida geologiya-qidiruv ishlari 3 barobarga ko'paytirilib, 600 tadan ziyod yangi kon aniqlandi;

- sanoat korxonalarini soni 2 barobar ko'payib, 100 mingga yetdi, ishlab chiqarish hajmi 1,4 baravarga ko'paydi.

2017-2022 yillarda sanoatning YAIMdagi ulushi 21,1 foizdan 26,7 foizga oshdi va bu davrda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi o'sish 141,3 foizni tashkil qildi. Bunday barqaror o'sish sanoat ulushining YAIMda o'rtishiga va doimiy ish o'rnlarining yaratilishiga olib keldi.

O'zbekiston sanoatining 83,2 foizini ishlab chiqaradigan sanoat tarmog'i tashkil etadi va bu yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, xom-ashyoni qayta ishlash darajasini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tarmoqlarni rivojlantirish kompleks dasturlarini amalga oshirish natijasidir.

2017-2022 yillarda barcha tarmoqlardagi dasturlarga 31 mlrd. AQSH doll. miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilindi va natijada ushbu davrda sanoat 1,4 barobar, eksport 1,5 barobarga oshdi.

Hududlar misolida Jizzax viloyatida yangi sanoat korxonalarini qariyb 5 mlrd. AQSH doll. investitsiya jalb qilingan va natijada 2 mingga yaqin yangi korxonalar tashkil qilinib, ishlab chiqarish hajmi qariyb 2 baravarga oshgan.

2022 yilda O'zbekistonda 98,8 mingta sanoat korxonalarini faoliyat yuritgan, shundan 16,8 mingtasi (17,0 % i) Toshkent shahriga, 11,1 mingtasi

(11,2 %) Farg'ona viloyatiga, 10,0 mingtasi (10,1 %) Toshkent viloyatiga, 9,9 mingtasi (10,0 %) Andijon viloyatiga va 8,9 mingtasi (9,0 %) Samarqand viloyatiga to'g'ri kelgan.

2022 yilda respublika korxonalaridan 551,1 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bugungi kunda respublikada 91,2 mingta sanoat korxonalarini faoliyat yuritgan, shundan 16,1 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,7 % i) Toshkent shahriga, 10,0 mingtasi (11,0 %) Farg'ona viloyatiga, 9,3 mingtasi (10,3 %) Andijon viloyatiga, 9,3 mingtasi (10,2 %) Toshkent viloyatiga va 8,1 mingtasi (8,8 %) Samarqand viloyatiga to'g'ri kelgan.

Sanoat kompleksi iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlararo kompleksi sifatida (2022 yilda uning ulushi YAIMda 25,7 foizni, ish bilan band aholining 13 foizi) iqtisodiyotni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning ko'lamini, tuzilishini va hududiy tashkil etilishini belgilaydi.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Toshkent shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 19,5%), Toshkent viloyati (15,3 %), Andijon (11,8 %), Navoiy (9,9 %), Qashqadaryo (6,2 %), Farg'ona (5,6 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, priseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 19,4 foiz, metallurgiya sanoatining ulushi – 26,0 foiz, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,8 foiz, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,9 foiz, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,9 foizni tashkil etdi. Bu esa, so'nggi yillarda mamlakatimizda sanoat tarkibini diversifikatsiya qilish borasidagi amalga oshirilgan chora-tadbirlarning ijobiy natijasi sifatida ko'rish mumkin (12-jadval).

Dunyoning ayrim mamlakatlari iqtisodiyotining tarmoq strukturasi, ularning iqtisodiy rivojlanish darajasini solishtirish uchun uch tarmoqqa bo'lingan Milliy hisob tizimi (MHT) qo'llaniladi. Birinchisi tog'-kon, o'simlikchilik, chorvachilik, o'rmon xo'jaligi, ovchilik, baliqchilik kiradi. Ikkinchisi qayta ishlash tarmoqlari, qurilish va mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha boshqa faoliyatni qamrab oladi. Uchinchi sektorga iqtisodiy

faoliyatning barcha boshqa tarmoqlari (ya'ni xizmat ishlab ko'rsatish) kiradi.

12-jadval

Ishlab chiqarish sanoatining tarkibi⁵, (%)

Ko'rsatkichlar	2010	2015	2020	2021	2022
Ishlab chiqaradigan sanoat	100	100	100	100	100
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	19,2	23,6	13,8	12,9	12,5
Ichimliklar ishlab chiqarish	3,2	3,2	2,4	2,7	3,5
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	1,4	1,1	0,6	0,6	0,6
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	16,9	16,9	12,0	13,8	13,6
Kiyim ishlab chiqarish	2,0	2,0	3,4	3,6	3,7
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ish/ch	0,5	0,8	0,7	0,8	0,9
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	6,8	6,4	6,9	7,4	7,3
Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish	0,6	1,0	0,8	1,0	0,7
Rezina va plastmassa buyumlar ish/ch	2,0	2,4	2,3	2,2	2,0
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ish/ch	5,7	6,2	5,3	5,5	4,9
Metallurgiya sanoati	12,8	10,8	26,0	25,6	23,3
Tayyormetall buyumlar ishlab chiqarish	2,0	2,5	2,3	2,9	2,7
Kompyuter, elektron va optik mahsulotlar ish/ch	1,5	0,6	1,1	1,6	1,4
elektr uskunalar ishlab chiqarish	1,4	2,0	2,8	3,0	3,1
Avtotransport vositalariga pritseplar ish/ch	12,4	10,0	11,0	8,5	11,2
Mebel ishlab chiqarish	0,6	0,8	0,7	0,8	0,9

Iqtisodiyotning har xil turlariga mansub bo'lgan dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida bir xil holat kuzatilmoqda: aholi jon boshiga daromadning oshishi bilan birinchi (asosan qishloq xo'jaligi) tarmoq mamlakat iqtisodiyotida o'zining yetakchi rolini asta-sekin yo'qotib, avval sanoat keyin esa xizmat ko'rsatish sohasiga o'tmoqda. Ushbu ikkita asosiy tarkibiy o'zgarish odatda har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishining zarur bosqichlari sifatida ko'rib chiqiladi – sanoatlashtirish va postsanoatlashgan.

Sanoat milliy iqtisodiyotda takror ishlab chiqarishni kengaytirishning asosi bo'lib xizmat qiladi. U ishlab chiqarish vositalarini o'zi uchun ham, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun ham doimiy ravishda takror ishlab

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

chiqaradi. Ayniqsa, og'ir sanoatning o'rni katta chunki u sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa, savdning barcha tarmoqlarini zarur texnika va texnologiyalar bilan ta'minlaydi. Sanoat ta'sirida iqtisodiy aloqalarning murakkab tizimi rivojlanadi, shaharlar o'sib boradi qishloq xo'jaligi xom ashyo bazalari, aloqa yo'llari shakllanadi va yangi xom ashyo, yoqilg'i, energiya manbalari o'zlashtiriladi.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan solishtirganda sanoat yuqori raqobatdosh ustunlikka ega. O'zbekistonda mamlakat eksportida va valyuta tushumlari hajmi, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish, innovasion faoliyatni amalga oshirish, fan va texnika yutuqlarini amaliyotga joriy etish va iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha yetakchilik qilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga 2022 yilda Navoiy viloyatida (80,5 mln. so'm), Toshkent shahrida (36,9 mln. so'm) hamda Toshkent viloyatida (31,3 mln. so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (15,5 mln so'm) sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Mamlakatimiz sanoatining taraqqiyoti yuqori malakali ishchi kadrlar, muhandis va texnik xodimlar safini kengaytirdi. 2022 yilda O'zbekiston sanoatida 1,6 mln.ga yaqin xodim mehnat faoliyati yuritib, ulardan 650 ming nafari oliy, 950 ming nafardan ortig'i o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli xodimlardir.

Yengil sanoat – qishloq xo'jaligi va kimyo xomashyosini qayta ishlovchi, gazlama, kiyim–kechak, poyabzal va boshqa iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlar va ishlab chiqarish majmui. Yengil sanoatni iste'mol tovarlari, xizmatlarini ishlab chiqaradigan barcha tarmoqlar va ishlab chiqaruvchilarni birlashtiradigan va aholi hayot faoliyatini ta'minlaydigan yuqori darajadagi tarmoqlararo kompleksning bo'g'ini sifatida ko'rish mumkin.

Iqtisodiyotning ushbu tarmog'i xom ashyoni birlamchi qayta ishlashni ham, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ham amalga oshiradi. Yengil sanoat korxonalari tomonidan texnik va maxsus maqsadlar uchun mahsulotlar ham ishlab chiqariladi, ular mebel, aviasiya, avtomobilsozlik, kimyo, elektrotexnika, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlarida qo'llaniladi. Yengil sanoatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu qo'yilgan sarmoyani

tez qaytishidir. Sanoatning texnologik xususiyatlari mahsulot assortimentini minimal xarajatlar bilan tez o'zgartirish imkonini beradi, bu esa ishlab chiqarishning yuqori harakatchanligini ta'minlaydi.

Yengil sanoatga to'qimachilik, tikish, teri, mo'ynali kiyimlar, poyafzal quyi tarmoqlari kiradi. Yengil sanoat mamlakat sanoat kompleksining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U bir qancha yirik tarmoqlarni va aholi ehtiyojlarini moddiy ta'minlash bilan bevosita shug'ullanuvchi ishlab chiqaruvchilarni birlashtiradi. Nooziq-ovqat tovarlari umumiy aylanmasida yengil sanoat mahsulotlarining ulushi katta va bundan tashqari, tarmoqda sanoat maqsadlarida mahsulotning bir qismi ham ishlab chiqariladi. Yengil sanoat mahsulotlarining salmoqli qismi (barcha ishlab chiqarishning salmoqli qismi) eksport qilinadi.

Kimyo sanoatida so'nggi besh yilda umumiy qiymati 2 mlrd. 100 mln. dollarlik 16 ta investisiya loyihasi amalga oshirilib, 3 mingta yangi ish o'rni yaratildi. Sohaga jalb qilingan xususiy sektor tomonidan 45 mln. dollarga teng 8 ta loyiha ishga tushirildi.

2017–2021 yillarda kimyo sanoatida ishlab chiqarish 1,5 barobarga, eksport hajmi 190 mln. dollardan 310 mln. dollarga oshdi. Korxonalarining sof foydasi 8 barobardan ortib, 2021 yil yakuni bilan 1 trln. so'mdan oshdi.

2022 yilda Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanida qisqa vaqtda gigant korxonalar — sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqaradigan "Uzbekistan GTL" zavodi ishga tushdi. Bunday yirik kompleks jahonda faqat 4 ta davlatda – Qatar, Nigeriya, Janubiy Afrika Respublikasi va Malayziyada mavjud.

Ushbu korxonalar yiliga 3,6 mlrd. metr kub tabiiy gazni qayta ishlaydi, qiymati 1 mlrd. dollardan ziyod bo'lgan 1,5 mln. tonna tayyor suyuq mahsulotlar ishlab chiqariladi, shuningdek, 307 ming tonna aviakerosin, 724 ming tonna dizel yoqilg'isi, 437 ming tonna nafta, 53 ming tonna suyultirilgan gaz tayyorlash quvvatiga ega. Ushbu mahsulotlar hisobiga, yiliga 500 mln. dollarlik import o'rni qoplanadi, 200 mln. dollarlik eksport va 2 trln. so'mlik soliq tushumlari ta'minlanadi. Yana shunday texnologik imkoniyat borki, majmua beshta rejimda ishlay oladi. Qaysi mahsulotga ko'proq buyurtma bo'lsa, shunga moslashib, o'sha tovar hajmi oshiriladi. Zavod ishga tushganidan keyin jami 1 ming 300 ta mutaxassis yuqori daromadli, doimiy ish o'rniga ega bo'ladi.

Kelgusi besh yilda (2023–2027) sohada quyidagi ishlarni amalga oshirish koʻzda tutilgan, jumalan “Xomashyodan – tayyor mahsulotgacha” tamoyili asosida drayver sohalarda klaster tizimi rivojlantiriladi. Bunda:

- YAIM hajmi 1,6, sanoat hajmi 1,4 barobar oshiriladi;
- “drayver” sohalari rivojlantiriladi;
- sanoat klasterlari tizimi rivojlantiriladi;
- mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 2 marta koʻpayadi;
- Navoiy, Olmaliq va Bekobod metallurgiya korxonalarida qator yirik loyihalar amalga oshiriladi;
- tabiiy gazni qayta ishlash 8 foizdan 20 foizga yetkaziladi;
- kimyo texnologiyasi klasterlari tashkil etiladi;
- kimyo sohasida ilmiy va taʼlim klasteri tashkil etiladi;
- yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari pasaytiriladi;
- yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari pasaytiriladi.

Oʻzbekistonda yoqilgʻi sanoati yer qaʼrida topilgan va qazib olinayotgan koʻmir, neft, gaz konlari negizida shakllangan va respublikada 160 dan ortiq neft va gaz konlari ochilgan. Yoqilgʻi sanoati respublika yoqilgʻi–energetika majmuasining asosiy tarmogʻini tashkil etadi va barcha turdagi yoqilgʻini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va yetkazib berish, neft mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridan iborat. Yoqilgʻi sanoatining yirik korxonalari Toshkent, Fargʻona, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan.

Neft sanoati yoqilgʻi sanoatining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi va neftni qayta ishlash korxonalaridan tashkil topadi. Yoqilgʻi sanoatining eng muhim tarmoqlaridan biri gaz sanoati hisoblanadi. Gaz yoqilgʻining juda arzon turi, iqtisodiyotning barcha sohalarida keng foydalanish mumkinligi hamda ekologik jihatdan ustunligi tufayli unga boʻlgan talab kundan–kunga oʻsib bormoqda. Agar 1940 yilda respublikada atigi 0,7 mln. m³ tabiiy gaz qazib olingan boʻlsa, hozirgi paytda u 57 mlrd. m³ ni tashkil etadi. Gazning respublikada qazib olinayotgan yoqilgʻi balansidagi hissasi 90,1 foizga teng.

Respublika qurilish materiallari ishlab chiqaradigan koʻp tarmoqli sanoatga ega. Toʻqimachilik va yengilsanoati koʻp tarmoqli industrial

kompleks boʻlib, bugungi kunda undan samarali foydalanishda klasterlar tashkil qilinmoqda va sohani rivojlantirishga oid bir qator hukumat qarorlari qabul qilinmoqda.

Respublikada oziq–ovqat sanoatida istiqbolli loyihalar ishga tushirildi va soʻnggi yillarda yillik quvvati 475 ming tonna boʻlgan 130 dan ortiq meva–sabzavot va uzumni qayta ishlash korxonalar va 145 ta yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilib, meva–sabzavot va uzumni qaytash ishlash 2,5 baravarga oshdi.

2022 yildan xomashyoni olib kelib, bojxona hududida qayta ishlab, eksport qiladigan korxonalar qator imtiyoz va yengilliklar berilgan. Jumladan, ularning loyihalari uchun texnik–iqtisodiy asos, mahsulot sertifikatini, bojxona toʻlovlari taʼminoti talab etilmaydi, ularga ruxsatnoma berish muddati 3 barobar qisqargan va olib kelingan dastgohlar uchun bojxona bojlari undirilmaydi.

2019–2021 yillarda toʻqimachilik yoʻnalishidagi 2 mingta korxonalar xalqaro sertifikat olgani hisobiga ularning eksporti 1,5 barobarga oshgan. Yengil sanoat tarmogʻida korxonalar sonining ortishi kuchli raqobat muhitini vujudga keltirdi.

Mamlakatimizda xomashyoni qayta ishlash asosida bozor talablariga mos toʻqimachilik, tikuv–trikotaj, charm–poyabzal va moʻynachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning 2020–2025 yillarga moʻljallangan maqsadli parametrlari tasdiqlangan⁶.

Yengil sanoat Oʻzbekiston iqtisodiyoti uchun strategik soha boʻlgani holda aholi bandligining yuqori darajasini, iqtisodiy va sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qoʻshilishini taʼminlaydi.

Hududlar kesimida yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining katta qismi Toshkent shahri (tarmoqning respublikadagi hajmiga nisbatan 14,1%), Andijon (11,7%), Fargʻona (11,7%) va Samarqand (9,1%) viloyatlari korxonalariga hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Oʻzbekiston iqtisodiyotida (2021 yil) yengil sanoatning rolini quyidagi raqmlarda koʻrish mumkin:

- YAIMdagi ulushi 8,8 foiz;
- sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida 14,8 foiz;

⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish chora–tadbirlari toʻgʻrisidagi” PQ–4453–son qarori

Kelgusi besh yilda (2023–2027) sohada quyidagi ishlarni amalga oshirish koʻzda tutilgan, jumalan “Xomashyodan – tayyor mahsulotgacha” tamoyili asosida drayver sohalarda klaster tizimi rivojlantiriladi. Bunda:

- YAIM hajmi 1,6, sanoat hajmi 1,4 barobar oshiriladi;
- “drayver” sohalari rivojlantiriladi;
- sanoat klasterlari tizimi rivojlantiriladi;
- mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 2 marta koʻpayadi;
- Navoiy, Olmaliq va Bekobod metallurgiya korxonalarida qator yirik loyihalar amalga oshiriladi;
- tabiiy gazni qayta ishlash 8 foizdan 20 foizga yetkaziladi;
- kimyo texnologiyasi klasterlari tashkil etiladi;
- kimyo sohasida ilmiy va taʼlim klasteri tashkil etiladi;
- yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari pasaytiriladi;
- yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari pasaytiriladi.

Oʻzbekistonda yoqilgʻi sanoati yer qaʼrida topilgan va qazib olinayotgan koʻmir, neft, gaz konlari negizida shakllangan va respublikada 160 dan ortiq neft va gaz konlari ochilgan. Yoqilgʻi sanoati respublika yoqilgʻi–energetika majmuasining asosiy tarmogʻini tashkil etadi va barcha turdagi yoqilgʻini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va yetkazib berish, neft mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridan iborat. Yoqilgʻi sanoatining yirik korxonalari Toshkent, Fargʻona, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan.

Neft sanoati yoqilgʻi sanoatining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi va neftni qayta ishlash korxonalaridan tashkil topadi. Yoqilgʻi sanoatining eng muhim tarmoqlaridan biri gaz sanoati hisoblanadi. Gaz yoqilgʻining juda arzon turi, iqtisodiyotning barcha sohalarida keng foydalanish mumkinligi hamda ekologik jihatdan ustunligi tufayli unga boʻlgan talab kundan–kunga oʻsib bormoqda. Agar 1940 yilda respublikada atigi 0,7 mln. m³ tabiiy gaz qazib olingan boʻlsa, hozirgi paytda u 57 mlrd. m³ ni tashkil etadi. Gazning respublikada qazib olinayotgan yoqilgʻi balansidagi hissasi 90,1 foizga teng.

Respublika qurilish materiallari ishlab chiqaradigan koʻp tarmoqli sanoatga ega. Toʻqimachilik va yengilsanoati koʻp tarmoqli industrial

kompleks boʻlib, bugungi kunda undan samarali foydalanishda klasterlar tashkil qilinmoqda va sohani rivojlantirishga oid bir qator hukumat qarorlari qabul qilinmoqda.

Respublikada **oziq–ovqat sanoatida** istiqbolli loyihalar ishga tushirildi va soʻnggi yillarda yillik quvvati 475 ming tonna boʻlgan 130 dan ortiq meva–sabzavot va uzumni qayta ishlash korxonalar va 145 ta yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilib, meva–sabzavot va uzumni qaytash ishlash 2,5 baravarga oshdi.

2022 yildan xomashyoni olib kelib, bojxona hududida qayta ishlab, eksport qiladigan korxonalarga qator imtiyoz va yengilliklar berilgan. Jumladan, ularning loyihalari uchun texnik–iqtisodiy asos, mahsulot sertifikatini, bojxona toʻlovlari taʼminoti talab etilmaydi, ularga ruxsatnoma berish muddati 3 barobar qisqargan va olib kelingan dastgohlar uchun bojxona bojlari undirilmaydi.

2019–2021 yillarda toʻqimachilik yoʻnalishidagi 2 mingta korxonalar xalqaro sertifikat olgani hisobiga ularning eksporti 1,5 barobarga oshgan. Yengil sanoat tarmogʻida korxonalar sonining ortishi kuchli raqobat muhitini vujudga keltirdi.

Mamlakatimizda xomashyoni qayta ishlash asosida bozor talablariga mos toʻqimachilik, tikuv–trikotaj, charm–poyabzal va moʻynachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning 2020–2025 yillarga moʻljallangan maqsadli parametrlari tasdiqlangan⁶.

Yengil sanoat Oʻzbekiston iqtisodiyoti uchun strategik soha boʻlgani holda aholi bandligining yuqori darajasini, iqtisodiy va sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qoʻshilishini taʼminlaydi.

Hududlar kesimida yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining katta qismi Toshkent shahri (tarmoqning respublikadagi hajmiga nisbatan 14,1%), Andijon (11,7%), Fargʻona (11,7%) va Samarqand (9,1%) viloyatlari korxonalari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Oʻzbekiston iqtisodiyotida (2021 yil) **yengil sanoatning rolini** quyidagi raqmlarda koʻrish mumkin:

- YAIMdagi ulushi 8,8 foiz;
- sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida 14,8 foiz;

⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish chora–tadbirlari toʻgʻrisidagi” PQ–4453–son qarori

- nooziq–ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida 44 foiz;
- 8 ming to'qimachilik korxonalarini faoliyat yuritmoqda;
- yengil sanoat korxonalarida 500 mingdan ortiq kishi band.

Agar 1991 yilda paxta tolasini qayta ishlash 7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatkich 40 foiz va 2021 yilda esa respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta tolasini **100 foiz qayta ishlashga erishildi**.

Sanoatga yuqori samarali zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2021 yilda mahsulot eksporti 3,0 mlrd. AQSH dollari tashkil etgan bo'lsa, 1995 yilda bu ko'rsatkich atigi 7 million AQSH dollari bo'lgan.

2030 yilgacha bo'lgan davrda YAIM o'sishi sur'atiga qayta ishlovchi sanoatning ulushi hissasini 2018 yildagi 21,9 foizdan 2030 yilda 35,4 foizgacha, sanoatda 47,6 foizdan 89,6 foizgacha ko'paytirish, paxtani chuqur qayta ishlash darajasini 100 foizgacha yetkazish hamda milliy iqtisodiyot tarkibida sanoatning ulushini 40 foizga yetkazish bo'yicha aniq maqsadli dasturlarni amalga oshirish vazifasi belgilangan.

2022 – 2026 yillarda milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va YAIMda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish vazifasi qo'yilgan⁷. Ushbu belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun sanoatda tarkibiy o'zgarishlarni rag'batlantirish, shu jumladan, resurs, energiya tejovchi, ekologik toza, innovasion texnologiyalarni joriy etish asosida ishlab chiqarishni modernizasiya qilish va texnik qayta jihozlash; mahalliy xomashyodan foydalanadigan tarmoqlarni yanada rivojlantirish zarur.

Xulosa

Respublikada sanoatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, sanoat tarmog'i yuqori rivojlanish salohiyatiga ega. Aksariyat mamlakatlar tajribasi, aynan sanoatning faol rivojlanishi tufayli yuqori iqtisodiy o'sishga erishish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish mumkinligini tasdiqladi.

Sanoatni rivojlantirishning xomashyo eksport modeli asta–sekin o'z salohiyatini yo'qotmoqda va iqtisodiyotning va butun mamlakatning

barqaror va muvozanatli rivojlanishiga tahdid solishi mumkinligi ayon bo'ldi.

Strategik tarmoqlarni rivojlantirish borasidagi sa'y–harakatlar ijobiy samaralar berdi. 2017–2022 yillarda sanoatning yalpi qo'shilgan qiymatining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 105,4 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, mamlakatimiz YAIMda sanoatning ulushi 2010 yilda 20,1 foizdan 2021 yilda 27,8 foizga, qurilishning ulushi 5,8 foizdan 6,7 foizga oshdi.

Yengil sanoat – turli xil xom ashyolardan asosan xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari yig'indisi bo'lib, YAIM ishlab chiqarishda muhim o'rinlardan birini egallaydi va mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Unda to'qimachilik sanoati alohida ahamiyatga ega bo'lib, u katta kapital talab qilmaydi va ko'p mehnat talab qiladiga soha hisoblanadi. Xususan, sohaga jalb qilingan 1 mln. AQSH doll. miqdoridagi investisiyalar evaziga qo'shimcha 45–50 ta ish o'rni yaratish mumkin. Yoqilg'i–energetika tarmog'iga kiritilgan sarmoyalar esa atigi 8–10 ta mashinasozlikda 12–15 tagacha ish o'rni yaratish imkonini beradi.

Asosiy atama va tushunchalar

Farmasevtika sanoati
Yengil sanoat
To'qimachilik sanoati
Avtomobil sanoati
Tadbirkorlik muhiti
Tog'–kon sanoati
Neft sanoati
Energiya resurslari
Klaster

Nazorat savollari

1. Sanoatning rivojlanganlik darajasi iqtisodiyot uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega?
2. O'zbekiston sanoat tarkibida so'nggi yillarda qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
3. O'zbekistonning mavjud tabiiy resurslari asosida qaysi sanoat tarmog'ini rivojlantirish muhim?

⁷ 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

4. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida sanoatning o'rnini tavsiflab bering.

5. Yengil sanoat kompleksining mamlakat iqtisodiyotida tutgan ahamiyati nimada?

6. O'zbekistonda yengil sanoat kompleksining qaysi tarmoqlari istiqbolli va eksportga mo'ljallangan?

7. O'zbekistonda yengil sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

13. Agrosanoat kompleksi

Agrosanoat kompleksi – iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi xom ashyosini ishlab chiqarish va qayta ishlash, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'yintirish hamda oziq-ovqat va xomashyo eksportini ta'minlovchi tarmoqlar majmuidir. Agrosanoat kompleksi O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi va mamlakat YAIMning to'rtidan bir qismini tashkil qiladi.

Agrosanoat kompleksining asosiy bo'g'ini qishloq xo'jaligi bo'lib, u barcha mahsulotlarning aksariyat qismini ishlab chiqaradi. Rivojlangan mamlakatlarda agrosanoat kompleksining yakuniy mahsulotini yaratishda qishloq xo'jaligining roli ancha past.

Qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash oziq-ovqat sanoati tomonidan amalga oshiriladi; zig'ir va junni birlamchi qayta ishlash bilan bog'liq yengil sanoatning kichik tarmoqlari; un tegirmoni va yem sanoati.

Qishloq xo'jaligi va agrosanoat kompleksining boshqa bo'linmalari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning tarkibi xilma-xil: traktor va qishloq xo'jaligi mashinasozligi; oziq-ovqat sanoati uchun uskunalar ishlab chiqarish; qishloq xo'jaligi texnikasini ta'mirlash; mineral o'g'itlar va o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarini ishlab chiqarish; qishloq xo'jaligi uchun torf qazib olish; mikrobiologiya sanoati; qishloq sanoat qurilishi.

O'zbekiston aholisining tez sur'atlarda keskin o'sishi, aksariyat qismining qishloq joylarida istiqomat qilishi, qulay tabiiy-iqlim sharoiti va ish bilan bandlarning chorak qismi qishloq xo'jaligida ekanligi

iqtisodiyotning bu tarmog'ining nechog'lik muhimligi va uni samarali rivojlanishiga bog'liq. Shu bois amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonning noyob tuproq-iqlim sharoiti, quyoshli kunlarning bir yilda o'rtacha 320 kun bo'lishi, barcha to'rt faslning mavjudligi keng turdagi yuqori sifatli meva va sabzavotlarni yetishtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

1990 yillarda paxta yakkahokimligi bo'lgan O'zbekistonga kartoshka, don, sabzavot, go'sht va sut mahsulotlari chetdan olib kelinar edi. Vaholanki, bu mahsulotlarni o'zimizda yetishtirish mumkin edi. Bugungi kunda deyarli barcha oziq-ovqat mahsulotlari o'zimizda ishlab chiqarilmoqda va ortiqchasi eksport qilinmoqda.

2017 yildan qishloq xo'jaligida keng qamrovli islohotlar, jumladan, qishloq xo'jaligida bozor mexanizmlari, ilg'or texnologiyalar joriy etish va klasterli ishlab chiqarish tizimiga o'tishga sharoitlar yaratildi⁸. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish strategik xususiyatga ega bo'la boshladi. Jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash zanjirida qulay agrobiznes muhitini shakllantirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida fermer xo'jaliklarining qayta ishlash sanoati korxonalarini bilan chuqur hamkorligini ta'minlashga asoslangan "agrosanoat klasterlari"ni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Jahonda meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni eksport qilishda tabiiy-iqlim afzalliklariga ega bo'lgan mamlakat bo'lish katta rol o'ynaydi. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlari o'ziga xos ta'm xususiyatlari va ekologik toza mahsulotlar sifatida ajralib turadi va ularning jahon qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorlarida yuqori raqobatbardoshligini ta'minlaydi. So'nggi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni takomillashtirish, meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirishga alohida e'tibor berilmoqda. Meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish nafaqat mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan birga ularni

⁸ 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi

eksport qilish imkoniyatini yaratdi. Chunki mamlakatimizning qulay tabiiy-iqlim sharoiti yuqori sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish imkonini beradi.

Meva-sabzavot mahsulotlarini klaster va kooperasiya asosida qayta ishlash hajmlarini oshirish, bu sohada yangi investision loyihalarni amalga oshirish, ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlari turlarini ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish maqsadida bir qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan⁹.

Agrosanoat kompleksida chorvachilik sohasida mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasi ham iqtisodiyotimizda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish dolzarbdir. Iqtisodiyotning chorvachilik tarmog'i mamlakat aholisiga zarur bo'lgan va yuqori kaloriyali oziq-ovqat mahsulotlari – sut, go'sht, yog', tuxum va hokozolar bilan ta'minlash bilan birgalikda yengil va oziq-ovqat sanoatini xom ashyo bilan, ya'ni jun, teri, mo'yna, qorako'l, go'sht, sut, baliq, tuxum, asal bilan ta'minlaydi. Chorvachilikni samarali tarzda rivojlantirish mamlakat aholisining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

2017 yildan eksport qiluvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportidan tushgan valyuta tushumining 25 foizini majburiy sotishni amalga oshirish to'g'risidagi talab bekor qilindi.

2022 yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 364,5 mlrd so'mni, YAIM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 25,1 % ni tashkil etdi.

Jahon tajribasi klasterlarni shakllantirish uslubiyoti ularning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini, xususan, klasterlarni shakllantirishda ularning tashkiliy-funksional tuzilmasini to'g'ri shakllantirish muhimligini ko'rsatadi.

2022 yilda O'zbekistonda qishloq xo'jaligida **20 mln. gektardan** ortiq, shu jumladan, 3,2 mln. gektar sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan

foydalanib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xom ashyo yetishtirilmoqda. Sug'oriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko'lamli irrigasiya va meliorasiya tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Respublikada yillar davomida irrigasiya va meliorasiya holatining yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yer osti suv zaxiralaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda ichki irrigasiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yo'qotilishini kamaytirish, shuningdek, bu ishlarda salohiyatli investorlar ishtirokini ta'minlash maqsadida 2019 yilda Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi qabul qilindi.

Aholi sonining o'sish sur'atlarining sug'oriladigan yerlarni kengaytirishdan ko'ra ortib ketishi natijasida jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan haydalma yer maydoni yildan-yilga kamayib, 0,35 gektardan 0,16–0,17 gektarga tushib koldi. Bu ko'rsatkich Rossiyada – 0,67, Kozogistonda – 1,54, Kirgizstonda – 0,21 va Ukrainada – 0,59 gektarni tashkil etadi. Kishlok xo'jaligining o'sib boryotgan suvga bo'lgan ehtiyojini to'lik ta'minlash maqsadida respublikamizda kudratli suv xo'jalik majmuasi barpo etilgan: umumiy suv sarfi 2500 m³ /sek. bo'lgan 75 ta yirik kanal, umumiy xajmi 17,8 km³ (foydali xajmi 14,6 km³) bo'lgan 52 ta suv omborlari, 32,4 ming km xo'jaliklararo kanallar (shundan 9,4 ming km. ga beton to'shama yotkizilgan), 176,4 ming km xo'jalik (shu jumladan 133,6 ming km tuprok o'zanli, 37 ming km beton to'shamali, 25 ming km beton novli, 3,7 ming km yopik kuvurli) sugorish tarmoqlari, 31 ming km xo'jaliklararo va 106,3 ming km (67,1 ming km ochiq va 39,2 ming km yopik) xo'jalik kollektor-zovur tarmoklari ishlatilib kelinmokda. 3 mingta sug'orish quduqlari, 4800 dan ortik vertikal zovur quduqlari, 24,6 mingdan ortiq kuzatuv quduqlari faoliyat ko'rsatmokda. Ekin maydonlarining 2,3 mln. gektari (53 foizi) nasos stansiyalari yordamida sug'oriladi.

O'zbekiston suv xo'jaligi kompleks tavsifga ega. Xozirgi kunda respublikamizning suvga bo'lgan umumiy ehtiyoji yiliga 56-60 mlrd. m³ ni tashkil etadi. Uning 92 foizi kishlok xo'jaligi, 5,5 foizi maishiy-xo'jalik va

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 dekabrda PQ-52-son "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori

1,5 foizi sanoat extiyolariga, 0,8 foizi baliqchilikka va 0,2 foizi energetika maksadlariga sarflanmokda.

2023 yil 1 yanvar holatiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) soni – 53 808 tani, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida ko'rsatilgan xizmatlarda – 49 859 tani, o'rmon xo'jaligida – 268 tani hamda baliqchilik xo'jaligida – 3 681 tani tashkil etdi.

Oziq-ovqat sanoati. Sanoatning bu tarmog'i asosan xom ashyoni qayta ishlashga asoslangan. Uning korxonalarida go'sht va go'sht mahsulotlari, yog'-moy, sut va sut mahsulotlari, shakar, non va non mahsulotlari, makaron, meva-sabzavot konservalari, qandolat, choy qadoqlash, uzum va shampan vinosi, spirt, aroq, pivo, chanqoqbosar ichimliklar, tamaki, sovun va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan ko'plab sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda.

2021 yil yakunlariga ko'ra, YAIM YAQQ tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 26,9 % ni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulush Jizzax viloyatiga (53,4 %) to'g'ri kelsa, aksincha kam ulushga ega hududga Navoiy viloyatini (15,0 %) keltirib o'tish mumkin.

O'zbekiston oziq-ovqat ishlab chiqarishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Buning asosiy sabablaridan biri – hosildorlik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning sezilarli darajada oshishidir. Bu yaxshilanishlar qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ya'ni asosiy e'tiborni paxta monokulturasidan ko'proq ko'p tarmoqli ishlab chiqarishga o'tkazish va qishloq infratuzilmasini yaxshilash orqali amalga oshirildi.

Keyingi yillarda bu yo'nalishda ekin maydonlari sezilarli darajada kengaytirilib, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish orqali ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hududlarni meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirish, ishlab chiqaruvchilarni meva-sabzavotchilik klasterlari va kooperasiyalariga birlashtirish hamda hosildorlikni oshirish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati tarkibiga 11800 dan ortiq korxonalar kiradi. Jumladan, yog'-moy sanoatida – 400 ta, meva-sabzavotni qayta ishlashda – 1800 ta, go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlashda – 1150 ta, qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarishda – 1300 ta korxonalar mavjud.

“O'zbekoziqovqatxolding” kompaniyasi 190 ga yaqin korxonalar faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan. Ular mevasabzavot, go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, oziq-ovqat, konserva, o'simlik yog'lari, margarin, shakar, mineral sutlar, ta'm va qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqaradilar.

2021 yilda O'zbekistonda umumiy maydoni 797 gektar bo'lgan 398 ta zamonaviy issiqxonalar barpo etildi va ularni qurishga yo'naltirilgan umumiy investitsiyalar hajmi 2,3 trln. so'mni (212,4 mln. AQSH dollari) tashkil etdi. 2021 yilda qurilgan zamonaviy issiqxonalarning maydonlari bo'yicha 88 foizi mamlakatimizning ikki viloyati – Toshkent (44 foiz) va Surxondaryo (44 foiz) viloyatlarida jamlangan. 2016–2021 yillarda O'zbekistonda umumiy maydoni 3 ming gektardan ortiq zamonaviy issiqxonalar barpo etildi.

2022 yilda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7 994,9 ming t. donli ekinlar, 3 441,7 ming t. kartoshka, 11 163,0 ming t. sabzavotlar, 2 420,7 ming t. poliz, 2 983,5 ming t. meva va rezavorlar, 1 760,6 ming t. uzum (3,9 % ga ko'p) yetishtirildi.

2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, yurtimizda yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 13 857,6 ming, qo'y va echkilarning umumiy soni 23 623,7 mingtani tashkil qildi.

2021 yilda asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan **957,3 mln. AQSH doll. miqdorida 1521,8 ming tonnadan** ziyod meva-sabzavot eksport qilindi. Shu jumladan, 403,6 mln. AQSH dollariga teng 799,2 ming tonna sabzavot 280,6 mln. AQSH dollari qiymatidagi 325,4 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Qishloq xo'jaligi raqobatdoshligini ta'minlashda qo'shilgan qiymat zanjirini, mahsulotlarni daladan yakuniy iste'molchigacha yetkazib berish, ya'ni yig'ish, tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va sertifikatlash zanjirida integrasion aloqalarni rivojlantirish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda yalpi

qishloq xo'jaligi mahsulotida 70 foizdan ortiq ulushga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari bilan tayyorlov, qayta ishlash va eksportyor korxonalar o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish vazifa hisoblanadi¹⁰.

2022 yilda mamlakatimiz YAIM tarkibida **qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining ulushi 25,1 foizni** va unda **band bo'lganlar ulushi 25,2 foizni** tashkil etgan.

2020 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 5 mln. dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari va 27,6 ming birlik qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan.

2022 yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 364,5 trln. so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 352,1 trln. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 9,2 trln.so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 3,2 trln. so'mni tashkil qilgan (13–jadval).

13–jadval

O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi¹¹, trln. so'm

	2018	2019	2020	2021	2022
Jami	195,1	224,3	261,9	317,0	364,5
shu jumladan:					
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar	189,0	217,3	253,2	306,9	352,1
shundan:					
qishloq xo'jaligi mahsuloti	187,4	216,3	250,3	303,4	347,6
O'rmon xo'jaligi	5,1	5,5	6,8	7,5	9,2
Baliqchilik xo'jaligi	1,0	1,5	1,9	2,6	3,2

2022 yilda hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Samarqand (43 933,0 mlrd. so'm), Andijon (37 403,9 mlrd. so'm), Toshkent (35 184,1 mlrd. so'm), Buxoro (34 102,9 mlrd. so'm), Farg'ona (33 395,3 mlrd. so'm) va Qashqadaryo (33 384,6 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etilgan.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari soni keyingi ikki yilda 45 foizga oshib, 75 mingtaga yetdi. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari sonini yanada ko'paytirish ko'zda tutilmoqda, ular qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan bir qatorda uni chuqur qayta ishlash va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadi, bu esa yuz minglab yangi ish o'rinlari, jumladan, chekka qishloqlarda.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni bozorga yetkazib berishni ta'minlovchi klasterli ishlab chiqarish usuli keng joriy etildi. Ekinlarning ayrim turlari uchun klasterlarga ajratilgan qishloq xo'jaligi yerlari maydoni paxta va to'qimachilik sanoatida 67 foiz, chorvachilikda 8 foiz, bog'dorchilikda 7,5 foizni tashkil etdi.

Paxtachilikda erishilgan klaster tizimining muvaffaqiyati ushbu usulni meva–sabzavot va sabzavot mahsulotlarining hosildorligini oshirish va eksport hajmini oshirishga xizmat qiladigan klaster tizimi joriy etilayotgan bog'dorchilik sohasiga ham tatbiq etish imkonini bermoqda. O'zbekistonda yiliga 21 mln. tonna meva–sabzavot yetishtirilmoqda va 31ta agrologistika markazlari tashkil etilganiga qaramay, atigi 1,5 mln. tonnasi eksport qilinmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun respublikada saralash, qadoqlash, qayta ishlash va eksport qilish zarur. Biroq, aylanma mablag'larning yetishmasligi va ta'minotdagi uzilishlar ularning aksariyatini faqat mavsumda ishlashga majbur qiladi, shu bois ularning quvvatdan atigi 10–15% foydalanimoqda.

Bugungi kunda respublikada yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlari dunyoning 66 davlatiga eksport qilinmoqda. Shu bilan birga, keyingi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti tarkibida ham keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Agar 2010 yilda paxta tolasi eksportning 11,3 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2018 yilga kelib bu ko'rsatkich 1,6 foizga qisqardi.

Yurtimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yana bir strategik ustuvor yo'nalishi davlat rolini kamaytirish va xususiy investorlar uchun sohaning investision jozibadorligini oshirish bo'ldi. Shu munosabat bilan, ichki bozorda narx barqarorligini ta'minlashga qaratilgan boshoqli don mahsulotlariga intervensiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hajmlar bundan mustasno, davlat xaridlarini to'liq rad etish katta ahamiyatga ega edi. Mamlakatning oziq–ovqat xavfsizligiga tahdid yuzaga kelgan

¹⁰O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi
¹¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

taqdirda oziq-ovqat zaxiralarini yaratish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shuningdek, Rim deklarasiyasida qayd etilgan "oziq-ovqat xavfsizligi" tushunchasining muhim elementlari sifatida oziq-ovqatga jismoniy (miqdoriy) va iqtisodiy jihatdan erishish, oziq-ovqat mustaqilligi, va barqarorligini ta'minlash O'zbekiston uchun juda muhim vazifa hisoblanadi. 1991-2021 yillarda aholining jadal o'sishi oziq-ovqat xavfsizligi masalasini dolzarb qilib, qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish va aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabining 70 foizdan ortig'ini o'zimizda yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlar bilan ta'minlashni taqozo etadi.

2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida qishloq xo'jaligi sohasida quyidagi maqsadli ko'rsatkichlarga erishish vazifasi belgilangan:

- qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish;

- yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish. 200 ming gektar paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish;

- eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarini 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSH dollariga oshirish;

- ilm-fan va innovasiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish. Agrosanoat korxonalarini xom ashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish;

- suv resurslaridan samarali foydalanish hisobiga kamida 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish;

- chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5 – 2 baravar ko'paytirish.

Xulosa

O'zbekiston iqtisodiyotining agrar sektori ko'p bosqichli bo'lib, uning tarkibiga bir qator tarmoq va sohalar: qishloq xo'jaligi, oziq – ovqat, qayta

ishlash sanoati va boshqa tarmoqlar, shuningdek, agrar bozor, agrosanoat kompleksi, yirik korxonalar kiradi.

O'zbekistonda agrar sektor bir – biriga bog'liq ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan iborat. Makrodarajada birinchi hamda ikkinchi pog'onaga iqtisodiyotning agrar setori hamda agrosanoat majmuini kiritish mumkin. Iqtisodiyotning agrar sektoriga – qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik xo'jaligi, oziq – ovqat va xom ashyoni qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini hamda suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mashinasozligi va qator xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaviy sohalar kiradi. O'zbekistonda oziq – ovqat va nooziq – ovqat tarmoqlari agrar sektor sifatida e'tirof etiladi.

Mikrodarajada oziq – ovqat, xom ashyo ishlab chiqaruvchi korxonalar, ularning birlashmalari hisoblanadi. Ushbu korxonalar yagona tarmoq yoki ko'p tarmoqli tarkibga egadir. Agrosanoat kompleksining rivojlanishi, uning tarmoq va hududiy tuzilmasining takomillashtirilishi ishlab chiqarishni yanada oqilona joylashtirish, resurslardan to'liq va samarali foydalanish, uning faoliyat ko'rsatishining yakuniy natijalarini yaxshilash va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Asosiy atama va tushunchalar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Agrologistika

Agrosanoat

Oziq-ovqat sanoati

Yog'-moy sanoati

Chorvachilik tarmog'i

Fermer xo'jaligi

Klaster tizimi

Nazorat savollari

1. Mamlakat va hududlarning oziq-ovqat salohiyatini shakllantirish va oshirish omillari.

2. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish jarayonida mamlakat va uning hududlari oziq-ovqat salohiyatining o'zini o'zi ta'minlash darajasini baholash mezonlari.

3. Qishloq xo'jaligi aholi hayotini oziq-ovqat bilan ta'minlashning asosiy tarmog'i sifatida.

4. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini baholash.
5. Qishloq xo'jaligida klasterlarning ahamiyati

14. Xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyasi

Xizmat ko'rsatish sohasi sanoat va qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda iqtisodiyotning uchta tarkibiy qismidan biridir. Sohaning YAIMdagi ulushiga qarab, davlat iqtisodiyotining progressivlik darajasini baholash mumkin.

Zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari orasida xizmatlar sohasi ustuvor ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida turli xil xizmatlar ko'rsatish va ularni eksport qilish ko'lamini oshirib bormoqda. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish darajasi jamiyat shakllanishining asosiy mezoniga aylandi.

Xizmat ko'rsatish sohasi – bu iqtisodiyot tarmoqlarining yig'indisi bo'lib, xodimlarning mehnati bevosita uni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinadigan maxsus turdagi mahsulotni yaratishga qaratilgan. Bu murakkab ko'p qirrali mexanizm sifatida zamonaviy iqtisodiyotning eng istiqbolli tarmoqlaridan biri bo'lib, savdo va transportdan ta'lim va sug'urta, dasturlashga qadar keng ko'lamdagi faoliyatni qamrab oladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi – korxonalar, tashkilotlar va shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan har xil turdagi xizmatlarning takror ishlab chiqarilishini o'z ichiga olgan umumlashtirilgan kategoriyadir. Ya'ni, bu savdo, kasbiy va maishiy xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakat iqtisodiyotining tarmog'idir.

Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi. Xizmatning o'ziga xos xususiyati, xizmatni bajarish va uni iste'mol qilish davrining bir xil vaqtga to'g'ri kelishi hisoblanadi.

Bunda tovarlardan farqli o'laroq, xizmatlarni saqlash va to'plash mumkin emas. Aholining hayot darajasi va sifatini yaxshilashda xizmat ko'rsatish sohasining o'rni beqiyosdir. Shu bois ham dunyo mamlakatlari miqyosida xizmat ko'rsatish sohasi muttasil rivojlanib bormoqda.

Nomoddiy va moddiy xususiyatlarning nisbati turli xizmatlar uchun turli diapazonda bo'lishi mumkin. Sof nomoddiy xususiyatga ega xizmatlar mavjud, qoida tariqasida, yuqori ijtimoiy yo'nalishga ega, masalan, ta'lim xizmatlari. Shu bilan bir qatorda, yuqori darajadagi moddiylik bilan ajralib turadigan xizmat ko'rsatish sohalari mavjud, masalan, uy-joy kommunal xo'jaligi, transport xizmatlari. Milliy iqtisodiyot amaliyotida xizmat ko'rsatish sohasini ajratish va uning tarmoqlarini tasniflashning turli mezonlari qo'llaniladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil sifatida aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

Aholi ehtiyojlarini qondirishda tovar va xizmatlar bozorlarining o'rni katta. Iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi tovar va xizmatlar bozori shakllanishi, bu bozorning keng taraqqiy qilinishini taqozo etadi.

Xizmat ko'rsatish narsa yoki shaxsga qaratilgan va u faqat ishlab chiqarish jarayonida mavjud. Xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish narsaning foydaliligini yoki insonning hayot faoliyatini o'zgartirishga imkon beradi.

Xizmat turlari va xillarining turli tasniflari mavjud bo'lib, ularning har biri xizmat ko'rsatish faoliyatini tahlil qilishning o'ziga xos yondashuvini aks ettiradi.

Xizmatlarning beshta umumiy turi mavjud:

- 1) ishlab chiqarish – injiniring, lizing, texnik xizmat ko'rsatish va uskunalarni ta'mirlash;
- 2) taqsimlash – savdo, transport, aloqa;
- 3) professional - bank, sug'urta, moliyaviy, konsalting, reklama;
- 4) iste'molchi – maishiy va o'yin-kulgi bilan bog'liq bo'lgan ommaviy xizmatlar;
- 5) jamoat – televideniye, radio, ta'lim, madaniyat.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmat ko'rsatish sohasi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda u yoki bu darajada xizmat ko'rsatmaydigan korxonalar va tashkilotlar deyarli qolmadi. Odamlar har kuni ushbu sohaga duch kelishadi: uyali telefonlar, Internet, savdo va ko'ngilochar markazlar xizmatlari, ovqatlanish shoxobchalari, go'zallik salonlari, konsalting, tibbiy

va ta'lim muassasalari, turli transport turlarida sayohat va yuklarni tashish. Bu xizmat turlarining barchasi xizmat ko'rsatish sohasini bildiradi.

Bugungi kunda iqtisodiyoni raqamlashtirish sharoitida internet, logistika, elektron to'lov tizimlari va elektron hujjat aylanishining keng tarqalishi natijasida faoliyatning yangi shakli – elektron tijorat faol rivojlanmoqda. Tovarlarini internet orqali xarid qilayotganlar soni ortib bormoqda, tijorat tashkilotlari ham o'z tadbirkorlik faoliyatida u yoki bu tarmoq imkoniyatlaridan foydalanmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi bo'sh vaqtning ko'payishiga yordam berib, odamlar va jamiyat ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish va rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi va zamonaviy hayot sifatini shakllantirishning muhim elementidir.

O'zbekistonda iqtisodiy faoliyat turlarining xalqaro iqtisodiy klassifikasiyaga ko'ra sanoat, qishloq va o'rmon xo'jaligi, qurilish va maishiy xizmatlarning sanoat turlari moddiy ishlab chiqarish sifatida tasniflanadi.

Milliy iqtisodiyotning qolgan tarmoqlari, jumladan, transport, aloqa, axborot va hisoblash xizmatlari, savdo va umumiy ovqatlanish, moddiy–texnik ta'minot, uy–joy kommunal xizmat ko'rsatish sohalari xizmat ko'rsatish sohasiga kiradi.

Iqtisodiy faoliyatning xalqaro tarmoq tasnifi standarti turlari bo'yicha xizmat turlariga quyidagilar kiradi: *quruvchilik; savdo; ovqatlanish; axborot va aloqa; transport; turizm moliya va sug'urta xizmatlari; sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar; fan-ta'lim xizmatlari.*

Xizmatlar sohasining rivojlanishida kichik biznesning hissasi ortishi servis va xizmatlar sohasi tarmoqlari rivojida muhim omilga ega. YAIM tarkibida tadbirkorlikning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, tovar va xizmatlar bozori faoliyatining rivojlanishiga shunchalik ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda tadbirkorlik shakllari bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tovar va xizmatlar bozorida o'ziga xos o'rinni egallab, chakana savdo aylanish hajmidagi hissasi yuqori salmoqqa egaligi bilan ajralib turadi.

Xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiy o'sishi, arzon ish o'rinlarini yaratish, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro mehnat tashkiloti hisob–kitobiga ko'ra, xizmatlar sohasining 1 foizga o'sishi kambag'allikni o'rtacha 1,5 foizga qisqartiradi.

O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning dastlabki yillarida sanoat va qishloq xo'jaligi sohasining rivoji mahsulotlarni yetkazib berish (transport sohasi), kommunal infrastrukturalar (suv, gaz, elektr, kanalizasiya), ishlab chiqarishni moliyalash (banklar), mahsulotlar bozorini kengaytirish (axborot–kommunikasiya xizmatlari) va boshqa muhim xizmatlarga bog'liqligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, mamlakatda mehnat unumdorligini va inson kapitalini oshirish (ta'lim, sog'liqni saqlash), xalqaro savdoni kengaytirish imkoniyatlari ham xizmatlar sohasining rivojlantirishni taqozo etadi.

2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 592 371 birlikni, shu jumladan xizmatlar sohasida 392 787 korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatib, bu ularning umumiy sonining 66,3 % ini tashkil etgan va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,0 % ni tashkil etgan.

2022 yilda bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi 38,4 %, ya'ni 137 358,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan o'sish sur'ati 118,2 % ga yetgan.

2022 yilda mamlakatimizda YAIMning 41,5 foizi va umumiy korxonalarining 66,3 foizi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelgan. Shu jumladan, jami band aholining 50,7 foizi xizmatlar sohasining ulgurji va chakana savdo (10,6 foiz), ta'lim (8,4 foiz), transport (4,8 foiz), davlat boshqaruvi (4,7 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (4,6 foiz) sohaslarida mehnat faoliyati yuritgan (14–jadval).

14–jadval

O'zbekistonda xizmatlar sohasining YAIMdagi ulushi

Yillar	YaIM (trln so'm, joriy narxda)	Xizmatlar (trln so'm)	Xizmatlarning YAIMdagi ulushi, (%)
2000	3,2	1,2	42,5
2005	15,9	5,9	41,4
2010	78,9	31,5	45,3
2015	221,3	86,7	43,1
2020	532,7	192,9	39,7
2021	738,4	284,4	39,6
2022	888,3	357,5	41,5

Masalan, ba'zi davlatlar bilan solishtirganda bu ko'rsatkich Rossiya (56 foiz), Qozog'iston (56 foiz), Belarus (50 foiz) va Koreya Respublikasida (57 foiz) xizmatlar sohasida mamlakat YAIMning yarmidan ko'p ushbu sohaga to'g'ri kelgan.

O'zbekistonda xizmatlar rivoji faqat shu sohani rivojlantiribgina qolmay, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Masalan, moliya, sug'urtalash xizmatlariga talabning 1 mln. so'mga o'sishi iqtisodiyotda qo'shimcha 3,2 mln. so'm qiymat yaratadi. Xuddi shunday katta multiplikativ ta'sirga ega bo'lgan sohalar qatoriga konsalting xizmatlari, yashash va umumiy ovqatlanish, turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash va kommunal xizmatlarni kiritish mumkin.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish har qanday mamlakatning rivojlanishida va iqtisodiyotning "lokomotiv"i sifatida muhim ahamiyatga ega. 2021 yilda xizmatlar sohasida 18 trillion so'mlik 29 ming loyiha amalga oshirilib, xizmatlar sohasi 2020 yilga nisbatan 20 foizga o'sgan. 2022 yilda O'zbekistonda xizmatlar sohasining kamida 50 foizga o'sishini ta'minlash bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy jihatdan muhim qarorlar qabul qilindi. O'zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirish hududlarning nisbiy ustunliklarini hisobga olgan holda ularni mutanosib amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Asosiy xizmatlarga bo'lgan davlat xarajatlarining aksariyat qismi ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoyaga to'g'ri keladi

Milliy iqtisodiyotdagi asosiy tarkibiy o'zgarishlarni tavsiflash uchun jahon statistikasi iqtisodiyotning uch tarmoqli bo'linishini keng qo'llaniladi: birlamchi sektor (qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi), ikkilamchi (sanoat) va uchinchi (xizmatlar). Oxirgi ikki yuz yillik amaliyot esa sivilizatsiya rivojlanishining agrar davrida birlamchi sektor, sanoat davrida – ikkilamchi sektor va postindustrial jamiyat shakllanishi davrida esa uchinchi darajali sektor ustunlik qilganligini ko'rsatdi.

Zamonaviy rivojlangan iqtisodiyotlarda jami YAIMning uchdan ikki qismi va undan ko'prog'i xizmat ko'rsatish sohasida yaratiladi va band bo'lganlarning katta qismini tashkil etadi.

Xizmat ko'rsatish sohasining turli tarmoqlari postindustrial jamiyatning shakllanish dinamikasini turlicha aks ettirganligi sababli, tahliliy maqsadlarda xizmat ko'rsatish sohasi uchta kichik tarmoqqa bo'linadi:

uchlik darajali sektor (moddiy ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish xizmatlari), choraklik sektor (savdo, moliya, sug'urta, ko'chmas mulkka texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha operatsiyalar) va axborot–ilmiy, ta'lim, biznes va boshqaruv xizmatlarini o'z ichiga olgan beshlik sektor, ya'ni ilg'or rivojlanishi kelajakdagi postindustrial jamiyat modelini belgilaydigan sohalar.

2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 357 554,5 mlrd. so'mga yetdi. Jumladan:

– **transport xizmatlari hajmi 81 006,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2021 yilga nisbatan 112,4 % ni tashkil qilgan;**

– **savdo xizmatlari hajmi 88 847,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati 109,0 % ni tashkil qilgan;**

– **moliyaviy xizmatlarning hajmi 80 431,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 20 697,7 mlrd. so'mga oshgan. Jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlar ulushi 22,5 % ni va o'sish sur'ati 129,3 % ni tashkil etgan;**

– **ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 15 395,7 mlrd. so'mni va 2021 yilga nisbatan o'sish sur'ati 115,3 % ni tashkil etgan;**

– **sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi 6 384,2 mlrd. so'mni va 2021 yilga nisbatan o'sish sur'ati 111,5 % ni tashkil etgan;**

– **yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 2 947,4 mlrd. so'mni va 2021 yilga nisbatan o'sish sur'ati 114,7% tashkil qilgan;**

– **aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 22 917,6 mlrd. so'm 2021 yilga nisbatan o'sish sur'ati 125,5 % ni tashkil etgan;**

– **ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi 9 674,3 mlrd. so'mni va 2021 yilga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil etgan (14.1–jadval).**

Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va mavjud korxonalar va tashkilotlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar turini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini 2022 yilda 1,5 baravarga oshirish hamda qo'shimcha 1,5 mln. yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari mavjudligi

qayd etilgan¹². Hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, alohida yondashuvlar asosida xizmatlar sohasini rivojlantirish, tadbirkorlik sub'yektlarini moliyaviy resurslar va infratuzilma bilan ta'minlash hamda ularga qulay soliq rejimini joriy etish vazifasi belgilangan.

14.1–jadval

Iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (mlrd.so'm)

Ko'rsatkichlar	2010	2015	2020	2021	2022
Xizmatlar – jami	27 126,8	78 530,4	219 978,5	284 388,1	357 554,5
axborot va aloqa sohasidagi x.	2 080,2	5 181,5	13 852,3	17 755,1	22 917,6
moliya xizmatlari	2 643,7	8 206,7	45 783,0	59 733,3	80 431,0
transport xizmatlari	10 524,4	26 817,3	53 662,9	67 202,9	81 006,6
shu jumladan: avtotransport xizmati	5 124,0	16 032,1	28 474,1	36 253,3	41 318,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	292,7	890,6	5 431,7	8 375,4	11 322,8
savdo xizmatlari	6 620,8	21 366,9	57 572,7	72 483,2	88 847,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq x.	809,3	2 757,3	6 016,9	8 081,1	9 674,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	763,1	2 681,4	8 539,4	12 102,6	15 395,7
sog'liqni saqlash sohasidagi x.	258,0	1 100,4	3 386,7	5 105,9	6 384,2
ijara va lizing bo'yicha xizmatlar	548,0	1 801,6	4 149,0	5 351,0	6 444,3
kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash x.	624,2	1 724,5	3 347,8	4 680,5	5 842,3
shaxsiy xizmatlar	756,5	2 366,5	5 032,2	6 799,8	8 713,9
me'morchilik, muhandislik, texnik sinovlar va tahlil sohasi x.	299,2	841,0	4 907,5	6 306,8	7 338,2
boshqa xizmatlar	906,7	2 794,7	8 296,4	10 410,5	13 235,7

Xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining hududiy va ijtimoiy, yangi iqtisodiy hududlarni o'zlashtirishni, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni va moddiy ne'matlarni iste'mol qilishni ta'minlaydi.

2022 yilda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 10 030,1 ming so'mga yetgan o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 113,5 % ni tashkil etgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi

hududlar kesimida keskin farq qilishi ular o'rtasidagi rivojlanish va turmush darajasidagi farqlarni ko'rsatadi hamda davlat hududlar orasidagi katta nomutanosbilikni bartaraf etishga qaratilgan choralarni ko'rishi lozim.

Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish borasida 2026 yilga qadar quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan:

- hududlarning muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish;

- xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish;

- respublika hududlarida savdo va yo'lbo'yi xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo'lbo'yi infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko'rsatish ob'yektlarini tashkil etish;

- servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini 3 baravarga qisqartirish. Xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik sub'yektlariga qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish.

Xulosa

Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalar, tashkilotlar va jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning turli turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan jamlangan umumiy kategoriyadir. Boshqacha aytganda, bular mamlakat iqtisodiyotining savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan tarmoqlaridir.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy mobilligini, yangi iqtisodiy hududlarni o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy ne'matlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlarning barcha turlarini quyidagicha guruhlash mumkin: transport, aloqa, ulgurji va chakana savdo, kredit va moliya, sug'urta, shaxsiy xizmatlar, madaniy va rekreasion xizmatlar va ijtimoiy xizmat ko'rsatish guruhi – ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omil ilmiy–texnikaviy inqilob bo'lib, u ilmiy–texnikaviy va texnologik

¹²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-son qarori

taraqqiyotga, aholi daromadlarining oshishiga, odamlarning hayot sifatini yaxshilashga intilishiga, bo'sh vaqtni ko'paytirishga yordam beradi.

Asosiy atama va tushunchalar

Tovar va xizmatlar
Kichik tadbirkorlik sub'yektlari
Transport xizmatlari
Savdo xizmatlari
Moliyaviy xizmatlar
Sug'urta xizmatlari
Ta'lim sohasidagi xizmatlar
Sog'liqni saqlash xizmatlari
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

Nazorat savollari

1. Xizmat ko'rsatish sohasiga qaysi tarmoqlar kiradi?
2. Moddiy va nomoddiy xizmatlarning farqi nimada?
3. Xizmat ko'rsatish sohasida bozor va davlat sektorlarini farqlash uchun qanday asoslar mavjud?
4. Aralash xizmatlarning asosiy xususiyatlari nimada?
5. Iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish tarmoqlarining o'rnini va ahamiyati nimada?
6. So'nggi vaqtda xizmat ko'rsatishning qaysi sohasi ko'proq rivojlanmoqda?

15. Turizm milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i

Turizm ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy daromad manbai hisoblanib, insonlarga esa o'z xalqi va boshqa mamlakatlar xalqlarining madaniy o'ziga xosligini, shuningdek, tabiat boyligini qadrlash imkoniyatini beradi. Ayrim davlatlarda ushbu tarmoqning YAIMdagi ulushi 20 foizdan ortiqni tashkil etadi va umuman olganda, turizm industriyasi jahon iqtisodiyotida yirik eksport tarmoqlardan uchinchi o'rinni egallaydi.

Turizm dunyoning aksariyat mamlakatlari uchun asosiy daromad manbalaridan biri (83% davlatlar uchun 5 ta asosiy daromad manbalaridan

biri, 38% davlat uchun asosiy daromad manbai). Turizm iqtisodiyotning barcha tarmoqlari ichida yaratilayotgan ish o'rinlari soni bo'yicha yetakchilik qiladi va ularning soni doimiy ravishda o'sib bormoqda.

Turizm (turistik sayohatlar) – tashrif buyuruvchilarning doimiy yashash joyidan tashqari boshqa davlatga yoki aholi punktiga mehnat faoliyatidan tashqari har qanday maqsadda jo'nab ketishi (sayohat qilishi).

Jahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, turizmning jahon iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi jahon YAIM ining 10,9 foizini tashkil qiladi. Dunyo bo'ylab harakatlanayotgan ko'plab odamlarga xizmat ko'rsatish uchun turizm industriyasi va infratuzilmasiga qo'shma tarmoqlardan ham ko'plab mutaxassislar jalb qilinadi. Turizm sohasida 130 million kishi mehnat faoliyati yuritadi (har 15 kishidan biri).

Turizm xizmatlari eksporti iqtisodiyotda qo'shimcha talabni yuzaga keltiradi, aholi bandligini ta'minlaydi va valyuta tushumini oshiradi. Ushbu tarmoq iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida muhim rol o'ynaydi.

Turizm iqtisodiy faoliyat sohasi sifatida katta ahamiyatga va bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega hamda shaxs, butun jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Turizm mikro va makroiqtisodiy darajada daromad manbai hisoblanadi. Turizm qo'shimcha ish o'rinlari yaratishning asosiy omillari, yo'l va mehmonxona qurilishini jadal rivojlantirish, barcha turdagi avtotransport vositalarini ishlab chiqarishni rag'batlantirish, xalq hunarmandchiligi va hududlar, mamlakatlar milliy madaniyatini saqlashga xizmat qiladi.

Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha jami 900 mln. xalqaro turistlar sayohat qilgan va bu o'tgan yilga nisbatan 2 marta ko'p bo'lsada ammo COVID-19 pandemiyasi davriga qaraganda 37% ga ozdir.

Butun jahon YAIMining 10,4 foizi, dunyodagi investisiyalarning 7 foizi, soliq tushumlarining 5 foizi, iste'mol xarajatlarining 11 foizi, har 16 ta yangi yaratilayotgan ish o'rnining bittasi aynan turizmga to'g'ri kelmoqda.

Turizmni mezonga ko'ra, ko'plab tasniflarni ajratish mumkin. Sayohat maqsadi bo'yicha: dam olish turizmi; tibbiy turizm; sog'liqni

tiklash turizmi; kognitiv (ekskursiya) turizmi; gastronomik turizm; sport turizmi; ziyorat turizmi; rekreasion va ekstremal turizm.

Turizm iqtisodiy foyda olish bilan birga, aholi dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, dunyoning turli davlatlari va mintaqalari vakillari o'rtasidagi yaqin aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda turizm sohasini tubdan isloh qilish 2016 yilda boshlangan. Xalqaro sayyohlar soni 2016 yildagi 2 mln.dan 2019 yilda 6,7 mln.ga oshgan. Jahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2019 yilda turizm eng faol rivojlanayotgan mamlakatlar beshligiga kirgan

2016–2019 yillarda O'zbekistonga kelayotgan xorijiy sayyohlar soni sezilarli darajada oshdi. Masalan, agar 2016 yilda mamlakatimizga 2 mln. xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2019 yilda ularning soni 3,3 barobarga oshib, 6,7 mln. nafarga yetdi.

Bundan tashqari, 2016–2021 yillarda mahalliy sayyohlar soni 24 mln.ga, xorijlik sayyohlar soni esa 20 mln.ga yaqinni tashkil etgan. 2022 yilda O'zbekistonga 5,2 mln. xorijlik turist tashrif buyurib, bu o'tgan yilga nisbatan 2,8 martaga ko'pdir (15–jadval).

15–jadval

O'zbekistonda turizmning asosiy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar nomi	2017	2018	2019	2020	2021
1.	Turistik xizmatlar eksporti (mln. AQSH doll.)	546,9	1041,0	1313,0	370,0	422,1
2.	O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni (ming kishi)	2690,0	5346,8	6748,0	1504,1	1881,3
3.	Turoperatorlar soni (birlik)	561	983	1482	1158	1483
4.	Ichki turistlar soni (ming safar)	10560	14000	15640	18000	15000
5.	Mehmonxona va shu kabi joylash-tirish makonlari (birlik)	816	914	1188	1226	1442
6.	Joylashtirish makonlarida xonalar soni (ming)	18,6	20,2	26,1	29,2	32,6
7.	Joylashtirish makonlarida o'rin soni (ming)	39,8	41,1	52,5	53,5	71,2

Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilgan choralar natijasida, 2021 yilning 1 iyun holatiga turistik tashkilotlarning soni

1400 taga (2016 yilda 484 ta), joylashtirish vositalari 1061 taga (oilaviy mehmon uyi va xosteldan tashqari), oilaviy mehmon uylari 1729 taga, xostellar esa 257 tani tashkil qildi.

Turizm infratuzilmasini tartibga keltirish, jumladan, turizm ob'yektlarida Wi-Fi nuqtalari va yo'l ko'rsatkichlari tashkil qilinmoqda. 2020 yilda 1 480 ta yangi sanitariya-gigiyena shoxobchasi (SGSH) foydalanishga topshirildi.

2017 yildan turizmni rivojlantirishga oid ko'p huquqiy hujjatlar qabul qilindi, turizmni rivojlantirish, boshqarishning institusional tizimi shakllantirildi, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan samarali foydalanish uchun mamlakatimizning barcha hududlarida turizm boshqarmasining tarkibiy bo'linmalari tashkil etildi. Turizm industriyasini rivojlantirishga yangi tashkilotlar hissa qo'shmoqda: Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi, Turizmni rivojlantirish instituti, PR–Milliy markazi va boshqalar.

2019 yilda respublikamizning 31 ta tuman va shaharlardan o'tuvchi O'zbekiston sayyohlik magistrali bo'yab avtoturargohlar, kempinglar, avtoservislar, umumiy ovqatlanish va yoqilg'i quyish shoxobchalarini tashkil etadigan karvonsaroylar tashkil etishga kirishildi. Mazkur tashabbuslarning hayotga tatbiq etilishi ish o'rinlarini tashkil etish, aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligini yuksaltirish, shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyotida turizm sohasining ulushini sezilarli darajada oshirish, sayyohlar oqimining ko'payishiga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, ichki turizmni jadal rivojlantirishda xususiy sektorning ham o'rni katta. Bu sohada hududda esdalik sovg'alari ishlab chiqarish, mehmonxona biznesi, turistik xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi ko'plab tadbirkor va hunarmandlar faoliyat yuritmoqda.

Jumladan, 1 iyuldan sayyohlik qishloqlarida mehmon uylari, umumiy ovqatlanish va savdo shoxobchalari, ko'ngilochar ob'yektlar ochgan tadbirkorlar aylanma solig'i va ijtimoiy soliqni uch yil muddatga bir foiz stavkada, shuningdek, hisoblangan mulk solig'i, yer va suv soliqlari summaning atigi bir foizi to'lanadi. Har yili turistik qishloqlardan 200 nafar yoshlar turizm texnikumlarida byudjet hisobidan bepul o'qitiladi.

Ko'zlangan maqsadlar, shubhasiz, turizm sohasini jadal rivojlantirishda xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish, imtiyozlar berish, kadrlar

tayyorlash va malakasini oshirish, yangi turizm mahsulotlari turlarini ko'paytirishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini barpo etish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, turizmni strategik soha deb qabul qilish va uni rivojlantirish va hajmini keskin ko'paytirish bo'yicha qator hujjatlar, jumladan 2019–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi, dasturlar, chora–tadbirlar va maqsadli ko'rsatkichlar qabul qilindi¹³.

Bundan tashqari, Ipak yo'li mamlakatlari turizm salohiyati hamda istiqbolli mintaqaviy turizm mahsulotlari va yo'nalishlarini targ'ib qilish maqsadida «Silk Road Project» maxsus platformasi yaratildi.

Jahon amaliyoti turizm sohasini yuqori rentabelli sohaga aylantirish uchun davlat va xususiy sektorning barcha ishtirokchilarining sa'y–harakatlarini birlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Buning uchun xalqaro va hukumat darajasida turizm sohasidagi rivojlanish siyosatini muvofiqlashtirish va rejalashtirishni ta'minlash muhim.

O'zbekistonda 2018 yil 15 iyuldan elektron kirish vizalarini berish tizimi yo'lga qo'yildi va bu tizimdan 57 ta davlat fuqarolari foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. 2021 yilda 90 ta xorijiy mamlakat uchun vizasiz rejim joriy etildi.

O'zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi rolini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda turizm milliy iqtisodiyotning “o'sish nuqtalaridan” biriga aylandi, u boshqa turdosh tarmoqlarni rivojlantirish uchun “drayver” bo'lib, daromadlar o'sishini rag'batlantiradi, yuqori multiplikativ ta'sir ko'rsatadi: turizmdan to'g'ridan–to'g'ri daromadning 1 dollari iqtisodiyotning turdosh tarmoqlarida kamida 5–7 dollar beradi. Turizm xizmatlari va tegishli ovqatlanish xizmatlari bozor xizmatlari va umuman YAIMning o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bugun O'zbekiston xorijlik sayyohlar uchun to'liq ochiq va respublikada turizmni rivojlantirish bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Namangan shahrida “Afsonalar vodiysi” madaniyat va istirohat bog'i, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi «Amirsoy» tog'–chang'i kurorti va boshqa shu kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu majmualarga har kuni minglab xorijiy va mahalliy sayyohlar tashrif buyurishadi.

2022–2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida turizm sohasini rivojlantirishga doir maqsadlar ham o'z ifodasini topgan. Xususan, yaqin kelajakda mahalliy sayyohlar soni 12 mln. va undan ortiq, xorijiy sayyohlar esa to'qqiz mln. nafarga ko'payishi mo'ljallangan. Bunga “O'zbekiston bo'ylab sayohat” dasturining amalga oshirilishi ko'maklashmoqda. Shu bilan birga, yangi «Mo'ynoq» aeroporti imkoniyatlaridan keng foydalangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Orolbo'yida ekoturizmni rivojlantirish ishlari boshlanadi. Xorazm viloyatida sohani ish o'rinlari yaratishning asosiy omiliga aylantirish va Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dasturlar qabul qilinishi ko'zda tutilgan.

Arxitektura durdonalari va ko'p asrlik an'analarga boy O'zbekiston hududida sayyoramizning eng qadimiy shaharlari azaldan o'z tarixini saqlab kelmoqda. Ba'zilarining yoshi 2,7 ming yildan oshgan va noyob obidalar o'zining o'ziga xosligi va go'zalligi, xalqi esa mehmondo'stligi bilan butun dunyoga mashhur. Shuning uchun mavjud salohiyatni rivojlantirish muhim.

O'zbekistonning go'zal tabiati va tarixiy obidalariga egaligi turizm sohasini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Jahon turizm tashkiloti tomonidan Samarqand shahri 2022 yilda butunjahon turizm poytaxti deb e'lon qilishi bu sohani rivojlantirish uchun katta salohiyat

Turizm xizmatlarini ko'rsatishning murakkab tuzilmasidan kelib chiqib, unda sodir bo'layotgan jarayonlarni muvofiqlashtirish va strategik boshqarishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu bilan birga, turizm klasterining qiymat zanjirlarini shakllantirish tizimida qo'llab–quvvatlovchi biznes jarayonlar uning faoliyat yuritishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi:

- turizm va tegishli tovarlar va mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish jarayonlari;

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora–tadbirlar to'g'risida”gi PF-5611-son Fannoni, 2022 yil 30 apreldagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora–tadbirlar to'g'risida”gi PQ-232-son qarori

- asosiy jarayonni ta'minlovchi xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarish;

- turistlarga qo'shimcha va tegishli xizmatlar ko'rsatish jarayonlari.

Shuningdek, ichki turizmni rag'batlantirish maqsadida «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» dasturi jadallashtiriladi, «Ichki turizm oyligi», «Ichki turizm haftaligi», «Ichki turizm kunlari» tashkillashtiriladi, «oilaviy sayohat ta'tili» tizimi orqali tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan xodimlar sayohati tashkil qilinadi, avia va temiryo'l chiptalari 40 foizgacha subsidiyalanadi.

Sayohatni ommalashtirish va sayohat qilishga qulaylik yaratish maqsadida 5 ta rasmiy bayram kunlarini (Mustaqillik kuni, Navro'z umumxalq bayrami, Yangi yil bayrami hamda Ramazon hayit (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayit (Iyd al-Adha) bayramlari) nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlar 3 kundankam bo'lmagan muddatga belgilandi.

Asosiy maqsad – hududlarning turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish va o'sish nuqtalarini belgilashdir.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling» dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln. nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xbrjiy turistlar sonini 9 mln. nafarga yetkazish hamda quyidagi vazifalar belgilangan.

Xulosa

Bugungi kunda turizm kuchli jahon industriyasi hisoblanadi va tez o'sishi tufayli asrning iqtisodiy fenomeni sifatida tan olingan. Ko'pgina mamlakatlarda turizm YAIMning shakllanishida, qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishida, aholi bandligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Turizm iqtisodiyotning transport, aloqa, qurilish, qishloq xo'jaligi kabi asosiy tarmoqlariga katta ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos katalizatori vazifasini bajaradi.

Turizmning valyuta tushumlari va xalqaro aloqalarni kengaytirish manbai sifatidagi ahamiyati muttasil ortib bormoqda.

Turizm, shuningdek, jadal rivojlanayotgan ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy o'sishining eng muhim katalizatoridir, chunki u tovarlar va xizmatlar eksporti (importi) bilan birga bo'lmagan YAIMni mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlash kanali bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda,

turistlar ishlab topgan mablag'larining bir qismini mamlakat tashqarisiga chiqarsalarda, ular boshqa mamlakatlarda ham yangi ish o'rinlarini yaratadilar.

Asosiy atama va tushunchalar

Turizm xizmatlari
Turizm infratuzilmasi
Turizm salohiyati
Turizm industriyasi
Ekoturizm
Hududlarning turizm imkoniyatlari
Ichki va tashqi turizm

Nazorat savollari

1. Turizmni rivojlantirish uchun qanday sharoitlar zarur?
2. Turizmning milliy iqtisodiyotda tutgan o'ri.
3. O'zbekistonda qanday turizm turlarini rivojlantirish istiqbolli?
4. Turizm sohasini rivojlantirishning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan afzalliklari nimada?
5. So'nggi yillarda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun qanday ishlar amalga oshirildi?
6. Turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati nimada?

16. Iste'mol bozori kompleksi va uni tartibga solish

Milliy iqtisodiyotning iste'mol kompleksi (keng ma'noda) – bu aholiga mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishga hissa qo'shadigan tarmoqlar va iqtisodiy faoliyat turlari majmuidir.

Ushbu ehtiyojlarni mehnat moddiy mahsulotlari va xizmatlari bilan qondirish odamlarning hayotiy jarayonining doimiy oqimi va yangilanishini ta'minlaydi.

Iste'mol bozori – bu aholi iste'mol tovarlari va xizmatlarini sotib oladigan va sotuvchi (yoki xizmat ko'rsatuvchi) ularni sotadigan ichki tovarlar va xizmatlar bozori sektorini belgilash uchun ishlatiladigan

iqtisodiy kategoriya. Iste'mol bozori iste'mol majmuasi mahsulotlarini oxirgi iste'molchi – aholiga yetkazishda muhim iqtisodiy funksiyani bajaradi.

Iste'mol bozori infratuzilmasining elementlari chakana sotuvchilar, xizmatlar, kiyim–kechak va oziq–ovqat bozorlaridir. Iste'mol bozori infratuzilmasini rivojlantirish butun mamlakat bo'ylab iste'molchi talabi va iste'mol kompleksi mahsulotlariga taklif mutanosibligini ta'minlovchi muhim shartdir.

Shunday qilib, iste'mol kompleksi – ularda ishlab chiqarilgan mahsulotlardan foydalanishning funksional asoslariga ko'ra birlashtirilgan tarmoqlar guruhi. Bular (asosan) aholi, uning yakuniy iste'moli va uy–joy ehtiyojlari uchun mo'ljallangan mahsulotdir.

Faoliyat turidan kelib chiqib, iste'mol bozori o'z ichiga to'rt turdagi xaridorlarni o'z ichiga oladi:

- iste'molchi – shaxsiy yoki oilaviy maqsadlar uchun xaridlarni amalga oshiradigan yoki xizmatlardan foydalanadigan odamlar bo'lib, ular oziq–ovqat, kundalik foydalanish uchun mahsulotlar, kundalik kiyim sotib olishadi.

-sanoat – o'z faoliyati va ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlash uchun zarur tovarlarni sotib oluvchi tashkilotlar.

- institusional – turli davlat muassasalari: ta'lim, tibbiyot, davlat. Masalan, bunday tashkilotlar maktab va oliy o'quv yurtlari uchun partalar, stol va stullar, ofis uchun qog'oz va kanselyariya buyumlari, tibbiyot muassasalari uchun dori-darmon va tibbiy asbob-uskunalar sotib oladi.

- vositachi – ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi uzatish bo'g'ini bo'lgan tashkilotlar. Ular o'z mahsulotini ishlab chiqarmaydi, balki aholiga ma'lumot yetkazish uchun xizmat ko'rsatadi yoki imkon darajasida ular orqali mahsulot sotib oladi. Bular chakana va ulgurji savdo nuqtalari, yuk tashish, sayyohlik agentliklari, taksi xizmatlari va boshqalar.

Aksariyat yirik sanoat va iqtisodiyot tarmoqlarida asosan aholi uchun mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kichik tarmoqlar mavjud.

Iste'mol kompleksida quyidagi ikkita asosiy sanoat guruhini ajratish mumkin:

• moddiy turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar: iste'mol tovarlari (oziq–ovqat va nooziq–ovqat) va uy–joy;

• maishiy xizmatlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar.

Iste'mol bozorining rivojlanishi jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi – mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liq. Iste'mol bozori muammolarini hal qilish farovonlik va sivilizasiyalashgan jamiyat nazariyasining muhim jihati hisoblanadi. Aholining turmush darajasini oshirish faqat uning pul daromadlarining o'sishi bilan cheklanib qolmagan sharoitda bozorni iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan to'ldirish amaliy vazifaga aylanib bormoqda, bunda savdoning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Iste'molni shakllantirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishning yuqori madaniyati ortib bormoqda. Demak, u o'zgarib borayotgan iqtisodiyot sharoitida bozor iqtisodiyotini rivojlantirish kompleks dasturining muhim tarkibiy qismi bo'lmasdan qolishi mumkin emas.

Iste'mol bozori bozor iqtisodiyoti takror ishlab chiqarish jarayonining eng muhim tuzilmani tashkil etuvchi tarkibiy qismi bo'lib, tovar oqimlari harakatini ta'minlaydi, takror ishlab chiqarish jarayonini tugallaydi. Iste'mol bozori doirasiga iste'mol tovarlari bozori, noishlab chiqarish xizmatlari bozori va shaxsiy ko'chmas mulk bozori kiradi. Iste'mol bozori tarkibida iste'mol tovarlari bozori yetakchi rol o'ynaydi, chunki uning kanallari orqali ishlab chiqarilgan mahsulot shaxsiy iste'molga kiradi, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni tugallanadi va uni yangilash uchun shart–sharoitlar yaratiladi. Iste'mol bozori tartibga solish, rag'batlantirish, vositachilik, narxlash, iqtisodiy samaradorlik, nazorat qilish, ijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

O'zbekiston o'zgaruvchan iqtisodiyot sharoitida iste'mol bozorini rivojlantirishning asosiy tendensiyalari sifatida: savdo, umumiy ovqatlanish va xaridlarning yalpi ichki mahsulotining o'sishi va uning mamlakat YAIM dagi ulushining oshishi, chakana savdo aylanmasining o'sishi va uning tuzilmasini optimallashtirish, iste'mol tovarlari ulgurji savdosini jadal rivojlantirish, umumiy ovqatlanish, chakana iste'mol kooperasiyasida ko'rish mumkin. Shu bilan birga, iste'mol bozoriga kiruvchi tovarlar sifati pastligi, iste'mol tovarlari va xizmatlari narxlarining sezilarli darajada oshishi davom etmoqda; chakana savdoning tovar resurslarida import ulushi yuqoriligicha qolmoqda.

Iste'mol tovarlari (oziq-ovqat va nooziq-ovqat) ishlab chiqaruvchi tarmoqlar guruhida asosiy o'rinlar hayotni ta'minlash tovarlari – oziq-ovqat (oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligi), shuningdek, kiyim-kechak va poyabzal (yengil sanoat) ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tarmoqlarga tegishli.

Iste'mol majmuasining rivojlanishi bilan aholi ehtiyojlarining o'sishi o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud. Bir tomondan, ehtiyojning mavjudligi talabni yuzaga keltiradi, uning ta'sirida ishlab chiqarish rivojlanadi. Boshqa tomondan, moddiy ne'matlar va xizmatlarning yangi turlarini yaratish orqali ishlab chiqarishni hosil qiladi. Masalan, kompyuter va mobil telefonlarga bo'lgan ehtiyoj faqat ularni ommaviy ishlab chiqarishni yaratish va tashkil etish asosida paydo bo'ldi.

Aholi farovonligini o'zida yaqqol mujassam etadigan eng muhim ko'rsatkich – bu oila iste'mol byudjetining hajmi va tarkibidir. Ushbu ko'rsatkich oila yalpi daromadlari hajmi va tarkibiga, iste'mol bozorining zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirilishi hamda oila daromadlarining ana shu iste'mol tovarlari va xizmatlarni xarid qilish imkoniyatlariga bog'liq (16-jadval).

Aholining amalda tovar va xizmatlarni iste'mol qilishi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u aholi turmush darajasida ro'y berayotgan eng sezilarli ob'yektiv o'zgarishlarni, iste'molning real qiymati va tarkibining shakllanishini aniqlash imkonini beradi.

Tovar va xizmatlar iste'moli – aholi farovonligi darajasini belgilab beruvchi muhim tarkibiy qismidir. Iste'mol bilan barqaror iqtisodiy o'sish, iste'mol bozorida talab va taklif muvozanatining ta'minlanishi, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmi, pullik xizmatlar ko'rsatish hamda rasional ovqatlanish strategiyasini amalga oshirish va boshqalar bevosita bog'liqdir.

Rasional iste'mol byudjeti – ijtimoiy-iqtisodiy tahlil vositasi hamda unga intilish kerak bo'lgan oriyentir va maqsaddir. Iste'molning rasional darajasi insonning ma'qul ehtiyojlari qondirilishidan kelib chiqib aniqlanadi. Uning ichiga kiradigan tovar va xizmatlar to'plami shaxsning to'liq va mukammal fiziologik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar¹⁴, ming so'm

Hududlar	2000	2005	2010	2015	2020	2022
O'zbekiston Respublikasi	77,2	349,6	2038,7	5127,5	10734,3	15979,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	48,4	191,7	1389,1	3703,2	8366,5	11869,5
Andijon	91,0	312,8	1717,0	4574,7	9559,5	14128,0
Buxoro	70,5	319,9	2345,9	6094,1	12919,7	19174,9
Jizzax	45,3	205,5	1682,8	4571,0	9717,6	13672,1
Qashqadaryo	58,3	255,9	1764,2	4387,4	8995,4	13204,0
Navoiy	98,8	511,8	3590,0	8314,1	17966,0	24543,9
Namangan	53,3	231,0	1460,4	3905,5	8250,5	12476,0
Samarqand	61,9	229,6	1883,6	4359,8	9441,7	13992,2
Surxondaryo	52,5	257,2	1614,0	4331,6	8726,6	13079,9
Sirdaryo	59,9	261,4	2073,3	5500,9	9666,2	13567,8
Toshkent	70,9	343,6	2256,2	5795,7	11633,4	16284,4
Farg'ona	85,7	291,4	1611,3	4165,9	7845,4	12164,0
Xorazm	61,0	238,6	1960,8	4818,5	10914,0	17617,5
Toshkent sh.	187,6	1190,2	4152,2	10092,6	22079,4	33534,2

Mahalliy va import qilinadigan iste'mol tovarlariga taqdim etilgan samarali talabning umumiy hajmi "chakana savdo aylanmasi" ko'rsatkichi bilan tavsiflanadi.

O'zbekistonda 2016 yilda **chakana savdo tovar aylanmasi** 105 229,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022 yilda 319 288,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 112,3 % ga oshgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Toshkent shahri hisobiga to'g'ri keldi va 25,7 % ni tashkil etdi, Toshkent viloyati 9,9 %, Samarqand viloyati 8,5 %, Farg'ona viloyati 8,1 %, Andijon viloyati 6,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, Sirdaryo viloyati 1,5 % va Qoraqalpog'iston Respublikasi 3,4 % ulush bilan eng past ko'rsatkichlarni qayd etilgan.

2023 yil 1 yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 117 603 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17 052 taga oshgan (o'sish sur'ati 117,4 %).

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

2023 yil 1 yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 33 111 tani va yirik korxonalar soni 63 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 33 049 tani tashkil qilgan.

Respublikada 2022 yilda **ulgurji savdo tovar aylanmasi** 247 076,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Aholi farovonligini o'zida yaqqol mujassam etadigan eng muhim ko'rsatkich – bu oila iste'mol byudjetining hajmi va tarkibidir. Ushbu ko'rsatkich oila yalpi daromadlari hajmi va tarkibiga, iste'mol bozorining zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirilishi hamda oila daromadlarining ana shu iste'mol tovarlari va xizmatlarni xarid qilish imkoniyatlariga bog'liq. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo tovar aylanmasi uning va mamlakat yoki hudud aholisining iste'mol qobiliyati, chakana savdodan xarid qilinayotgan tovarlar hajmini bildiradi.

2023 yil va undan keyingi yillarda iste'mol bozorlarida raqobat muhitining rivojlantirish uchun quyidagi chora–tadbirlarni amalga oshirish mo'ljallangan :

– tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab–quvvatlash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlar hamda mexanizmlarni **xalqaro** konsalting kompaniyalar hamkorligida inventarizasiyadan o'tkazish va **bozor mexanizmlariga hamda raqobat muhitiga zid** bo'lgan normalarni bekor qilish;

– **iste'mol tovarlari importida** tarif va notarif cheklovlarni kamaytirish, sohani liberallashtirish, iste'mol va investision tovarlar tashqi savdosida monopol holatlarni barataraf etish, importyorlar sonini oshirish, import geografiyasini kengaytirish va muqobil yangi marshrutlarni ishlab chiqish;

– **temir yo'l va havo transporti** xizmatlari sohalariga xususiy korxonalarni jalb etish, ushbu xizmatlar bozorida erkin raqobat sharoitlarini yaratish orqali tashish va transport xarajatlarini kamaaytirish natijasida mahsulotlar tannarxiga ta'sirini pasaytirish;

– **monopol xarakterga ega korxonalar** tovar va xizmatlari narxlarini shakllanish mexanizmlarining shaffofligini ta'minlash;

– Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish ishlarini tezlashtirish va mintaqaviy transport koridorlarining muhim tarkibiga aylanish bo'yicha choralarni amalga oshirish.

Aholiga xizmat ko'rsatishni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tarmoqlar guruhi ijtimoiy sohaning eng muhim qismidir.

Moddiy turdagi mahsulotlar va aholi uchun uy–joy ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari. Oziq–ovqat va nooziq–ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tarmoqlar va iqtisodiy faoliyat turlarining yig'indisi “uy–joy qurilishi” sanoati bilan bir qatorda iste'mol kompleksining moddiy tarmoq blokini tashkil qiladi Aholining amalda tovar va xizmatlarni iste'mol qilishi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u aholi turmush darajasida ro'y berayotgan eng sezilarli ob'yektiv o'zgarishlarni, iste'molning real qiymati va tarkibining shakllanishini aniqlash imkonini beradi.

Iste'mol bozori hududning ijtimoiy–iqtisodiy tizimining holatiga birinchi bo'lib munosabat bildiradi, bu rasmiy statistik ma'lumotlar bilan belgilanadi va asosiy konsalting agentliklari va chakana savdo tarmoqlarining tahliliy va hisobot hujjatlarida aks ettiriladi. Hududning rivojlanish darajasini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich YAHM hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichdan foydalanib, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning o'sishini baholash mumkin.

Tovar va xizmatlar iste'moli – aholi farovonligi darajasini belgilab beruvchi muhim tarkibiy qismidir. Iste'mol bilan barqaror iqtisodiy o'sish, iste'mol bozorida talab va taklif muvozanatining ta'minlanishi, oziq–ovqat va nooziq–ovqat tovarlarini ishlab chiqarishni qo'llab–quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmi, pullik xizmatlar ko'rsatish hamda rasional ovqatlanish strategiyasini amalga oshirish va boshqalar bevosita bog'liqdir.

Xulosa

Iste'mol bozori deyarli barcha mamlakatlar uchun iqtisodiy rivojlanishning “drayveri” hisoblanadi. Bugungi kunda sotish bozorlari, jumladan, iste'mol tovarlari uchun raqobat kuchaymoqda.

Iste'mol va farovonlik bir–biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ikkita ijtimoiy–iqtisodiy hodisadir. Iste'mol (shaxsiy), ma'lumki, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ne'matlardan foydalanishni bildiradi. Odamlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirishga, har qanday foyda keltirishga qodir bo'lgan hamma narsani

ne'mat deb hisoblash mumkin. Tovarlarini (xizmat) esa inson ehtiyojlarini qondirish vositasidir.

Iste'mol bozori iqtisodiy foyda, iqtisodiy faoliyat natijalarini, xususan, tovarlar – aholiga sotish uchun mo'ljallangan mahsulotlarni taqdim etiladi. Tovarlariga ommaviy iste'mol tovarlari, shu jumladan hayotiy tovarlar va hashamatli tovarlar kiradi. Tabiiyki, farovonlik darajasi ko'p jihatdan ularning umumiy iste'mol hajmidagi nisbatiga bog'liq.

Asosiy atama va tushunchalar

Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari

Iste'mol tovarlari

Ulgurji savdo

Chakana savdo

Tovar va xizmatlar iste'moli

Iste'mol savatchasi

Rasional iste'mol byudjeti

Nazorat savollari

1. Bozori iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning ijtimoiy siyosati vazifalari nimadan iborat
2. Milliy iqtisodiyotning iste'mol kompleksini ta'riflang.
3. Milliy iqtisodiyot iste'mol majmuasining vazifasi nimadan iborat?
4. Iste'mol majmuasining holati va rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?
5. Milliy iqtisodiyotning iste'mol kompleksi tarmoqlarini tasniflash nimaga asoslanadi?
6. Iste'mol majmuasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida samarali talab qanday o'rin tutadi?
7. Iste'mol kompleksi tarmoqlarini rivojlantirishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
8. Iste'mol bozorining iste'mol kompleksini shakllantirishdagi o'rni qanday?
9. Raqobat muhitining iste'mol bozorining rivojlanishiga ta'siri qanday?

17. Transport infratuzilmasi va axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasini rivojlantirish

Transport milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmog'i bo'lib, u yuk va yo'lovchilarni tashish, aholi ehtiyojlarini qondirish uchun barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va davlat hokimiyati organlarining ishlab chiqarish jarayonlarining normal ishlashini ta'minlaydi.

O'zbekiston iqtisodiyotida transport va infratuzilma muhim o'rin tutadi. Ochiq iqtisodiy siyosat yuritish yangi bozorlarga chiqishni taqozo etadi. O'zbekiston eksportni diversifikasiya qilishga intilmoqda va bunda Markaziy Osiyo va Rossiya kabi an'anaviy bozorlardan tashqari Xitoy, Yevropa davlatlari va Turkiyaga yetkazib berish hajmini oshirmoqda.

Transport kompleksi – yo'lovchilar va yuklarni tashishga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyot tarmoqlari yig'indisi. Transport iqtisodiyotning infratuzilmasini tashkil etuvchi va uning barcha elementlarining o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi asosiy tarmoqlardan biridir.

Transport kompleksi ob'yektlariga transport, transport sanoati (transport mashinasozligi, transport qurilishi, tashish jarayonining moddiy-texnik ta'minoti), transport uchun mutaxassislarni tayyorlash muassasa va idoralari, loyiha hamda ilmiy-tadqiqot institutlari, ta'mirlash korxonalari kiradi.

Globalashuv hamda integrasiya jarayonlarida transport kompleksining ahamiyati tobora oshmoqda. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda transport xizmatlarining YAIM tarkibidagi miqdori 4,3 trln. AQSH dollarini (6,9%) tashkil qilib, yiliga 110 mlrd. tonna yuk va 1 trln. dan ortiq yo'lovchilar tashilmoqda va transport kompleksida band bo'lgan xodimlar soni 100 mln. kishini tashkil qilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda transport-logistika sohasini rivojlantirish hamda uning tranzit salohiyatini oshirish masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Chunki, har tomonlama rivojlangan transport tizimi ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuning uchun mamlakatimiz transport-logistika tizimini jahon standartlariga moslashtirish, xalqaro ahamiyatdagi transport koridorlarining o'tkazish qobiliyatini oshirish, yangi arzon va qisqa transkontinental tranzit

koridorlarini shakllantirish, shuningdek, mintaqa mamlakatlarining jahon transport tizimi bilan o'zaro uyg'unlikdagi rivojlantirish choralar ko'rilmog'ida.

2021 yilda "Transport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunning qabul qilinishi avtomobil, havo, temir yo'l, suv va shahar yo'lovchi transporti faoliyati va hamkorligining huquqiy, iqtisodiy hamda tashkiliy asoslari va tamoyillarini belgilab berdi. Bu Qonun barcha turdagi transportlarning optimal, muvozanatlashgan va uyg'unlashgan o'zaro aloqasini ta'minlaydigan, samarali logistika tizimi, aralash tashishlarni kengaytirish orqali yagona transport tarmog'iga integrasiya qilish mezonlarini taqdim etadi.

Transport qulayliklari mamlakat rivojini ko'rsatuvchi va buni ta'minlovchi omillardan biri. Yurtimizda soha infratuzilmasi yangilanib, sharoitlar kengaytirilayotgani o'z natijalarini bermog'ida. Jumladan, aviasiya bozori erkinlashgani hisobiga so'nggi uch yilda O'zbekistonga parvozlarni amalga oshirayotgan aviakompaniyalar soni 2 baravarga o'sgan. Avtomobilda xalqaro yuk tashishda mahalliy korxonalarining ulushi 62 foizga yetgan. 300 kilometr temir yo'l elektrlashtirilgan, 1 ming 500 kilometr avtomobil yo'li qurilgan.

Transport tizimi sohasi iqtisodiyotning qon tomiri hisoblanadi. Masalan, so'nggi uch yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti 16 foiz o'sgani holda, temir yo'lda yuk aylanmasi atigi 7 foiz oshgan. Aviasiyada raqobat muhiti to'la shakllanmagan, 10 ta aeroportning samaradorligi past darajada. Oqibatda, raqobatdosh narxlarda yetkazib berish qulayligi bo'yicha Xalqaro logistika samaradorligi indeksida mamlakatimiz 160 ta davlat ichida 120-o'rinni egallagan.

Mamlakatda temir yo'l tranziti imkoniyatini keskin oshirish, aviasiyani qulay, tez va sifatli xizmat ko'rsatadigan sohaga aylantirish, xalqaro tranzit yuklari uchun zamonaviy avtomobil yullari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha choralar belgilandi.

2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, transport sohasida 20 666 korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) faoliyat ko'rsatib, 2022 yilning mos davriga nisbatan ularning soni 2 415 taga oshib, 2,4 % ga o'sgan. 2022 yilda barcha transport turlarida yuk tashish hajmi 1 398,9 mln.

tonnani tashkil etib, 2018 yilga nisbatan yuk tashish hajmi 155,9 mln. tonnaga oshgan. (17-jadval).

17-jadval

Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi¹⁵

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2022
Tashilgan yuklar, mln.t	804,6	755,9	763,1	1070,5	1366,7	1398,9
temir yo'l	42,4	45,8	56,9	67,2	70,6	73,6
avtomobil	701,2	638,6	652,5	943,3	1238,2	1261,7
quvur yo'li	61,0	71,5	53,7	60,0	57,9	63,5
havo yo'li, ming	15,2	6,2	29,5	24,6	5,3	10,1
Yuk aylanmasi, mlrd. t-km	54,6	68,9	60,4	65,8	66,9	75185,4
temir yo'li	15,0	18,1	22,3	22,9	23,6	24,9
avtomobil	8,9	13,8	9,1	12,8	16,2	20,2
quvur yo'li	30,6	36,9	28,9	30,0	26,8	29,7
havo yo'li, mln. t-km	120,1	97,8	168,0	131,1	219,0	322,7

2022 yilda barcha transport turlarida yo'lovchi tashish 6 170,8 mln. yo'lovchini tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 2,3 % ga oshgan. 2021 yilda avtomobil transportining ulushi 90,3 % ni, temir yo'l, quvur yo'li va havo transportlarining ulushi esa 9,7 % ni tashkil etgan.

Savdoda temir yo'l va avtomobil transporti ikki asosiy transport bo'lib kelmog'ida. Temir yo'l transporti uzoq masofalarga nisbatan arzonroq, avtomobil transporti esa moslashuvchanligi tufayli qisqa masofalarga nisbatan afzalliklarga ega.

O'tgan yillar ichida O'zbekiston xalqaro yo'laklarni takomillashtirish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. 2030 yilgacha bo'lgan asosiy sarmoyaviy ustuvor yo'nalishlari qatoriga xalqaro ahamiyatga molik yana 8 ming kilometr umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish va qurish, yangi xalqaro yo'laklarni rivojlantirish kiradi. Mamlakatda shimoliy, shimoli-g'arbiy, janubiy, janubi-g'arbiy va sharqiy yo'laklarni rivojlantirish rejalashtirilgan. Bu O'zbekiston uchun Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari, Yevropa davlatlari, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston va Xitoy bozorlariga chiqish imkonini beradi.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Xitoy O'zbekistonning asosiy savdo sherigi bo'lishi sababli mamlakatni Xitoy bilan bog'lovchi Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston temir yo'lini qurish rejalashtirilgan va bu yuklarni tezroq va arzonroq tashishni ta'minlaydi.

2035 yilgacha bo'lgan transport strategiyasida O'rta yo'lak O'zbekistonning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Strategiyaga ko'ra, Xitoy va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi yuk tashishning Markaziy Osiyo bo'limida Qozog'iston O'zbekistonning asosiy raqobatchisi hisoblanadi. Strategiyaning asosiy maqsadi – yaxlit yagona transport tizimini yaratishga qaratilgan amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, transport sohasining raqobatbardoshligi va transport infratuzilmasidan iqtisodiyot, aholi va biznes ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun samarali foydalanish hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlash uchun iqtisodiyotda yaratilgan mahsulot tannarxini pasaytirishda muhim o'rin tutadigan transport tizimini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Transport tizimini rivojlantirish tovarlar va xizmatlar tannarxidagi transport xarajatlarini kamaytirish bilan birga milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va xavfsizligini ham ta'minlaydi. Shu bilan birga, transport turlarining rivojlanish sur'atlari mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlariga mutanosib bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Hisob-kitoblarga ko'ra, transport sektoriga kiritilayotgan sarmoyalarning 1 foizga oshirilishi yuk tashish hajmining 0,94 foizga ortishni ta'minlaydi. Xizmatlar sifatini oshirish hamda tashish uchun transport yo'nalishlarining yanada diversifikasiyalanishini ta'minlash bilan birgalikda iste'molchiga yo'naltirilgan transport logistika tizimi boshqaruvini yanada maqbullashtirish lozim.

Mahsulot tannarxidagi transport xarajatlari ulushini kamaytirish eng muhim vazifalardan biridir, chunki sanoat mahsulotining tannarxida transport xarajatlarining oshishi mamlakatimiz tovarlarining raqobatbardoshligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

Yuk tashishning yuqori narxlari temir yo'l sektoriga ham xosdir. Jumladan, narxlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda ishlab chiqaruvchilar 500 kilometrlik masofaga 1 ta standart vagonda yukni

(60 tonna to'qimachilik mahsulotini) 1 kilometrga tashish uchun temir yo'lchilarga 5,15 dollar to'lamoqdalar. Qozog'istonda bu ko'rsatkich 0,93 AQSH dollarini, Qirg'izistonda 2,65 AQSH dollarini, Tojikistonda 6,83 AQSH dollarini, Turkmanistonda 2,65 AQSH dollarini tashkil etmoqda. O'zbekistonda 500 kilometrda 1000 kilometr gacha masofaga tashish uchun yuk jo'natuvchilar 2,51 AQSH dollari, Qozog'istonda 0,68 AQSH dollari, Turkmanistonda 2,60 AQSH dollari to'laydilar.

Transport sohasi har qanday iqtisodiyotning qon tomiri hisoblanib, uning samarali faoliyat yuritishi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Xususan, O'zbekiston aviasiya sohasida raqobat muhiti to'la shakllanmagan, 10 ta aeroportning samaradorligi past darajada. Oqibatda, raqobatdosh narxlarda yetkazib berish qulayligi bo'yicha Xalqaro logistika samaradorligi indeksida mamlakat 160 ta davlat ichida 120-o'rinni egallagan. 2022 yilda sohada raqobatni oshirish, xususiylashtirish, mahalliy aviakompaniyalarni tashkil qilish va ichki bozorga xorijiy aviakompaniyalarni jalb qilish orqali havo transportini rivojlantirish bo'yicha bir qator qarorlar qabul qilindi.

Shuningdek, temir yo'l tranziti imkoniyatini keskin oshirish, aviasiyani qulay, tez va sifatli xizmat ko'rsatadigan sohaga aylantirish, xalqaro tranzit yuklari uchun zamonaviy avtomobil yullari tarmog'ini kengaytirish, yuk vagonlari parkini yangilash zarur miqdorda har xil turdagi vagonlar ishlab chiqarilishi, ehtiyot qismlar va avtomobil qismlarini mahalliy lashtirishni 60 foizgacha oshirish rejalashtirilgan.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida Transport vazirligi huzurida Transformasiya idorasini tashkil etish va undagi xodimlarning kamida 30 foizi xorijiy tajribaga ega mutaxassislar bo'lishi, Kuzatuv kengashining 30 foizi mustaqil xorijiy ekspertlardan iborat bo'lishi hamda aviasiya va avtotransport sohasiga oid vazifalar belgilangan.

O'zbekiston iqtisodiyotida **transportning YAIMdagi ulushi** – 5,3 foiz, **band bo'lganlarning** 6,1 foizi shu tarmoqda ishlaydi (2021) va u xomashyo, yoqilg'i va sanoat mahsulotlarining ayrim turlarini keng iste'mol qiluvchi hisoblanadi. Transportning asosiy ko'rsatkichlarini 17.1–jadvalda ko'rish mumkin.

17.1–jadval

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish aylanmasi¹⁶, mln.kishi

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2022
Tashilgan yo'lovchilar,	3 595,9	3 962,4	4 072,0	5 380,0	5 295,9	6 170,8
temir yo'li	14.6	15.1	14.5	20.1	6.2	9,0
avtomobil	3 284.7	3 796.4	3 962.6	5 293.2	5 248.5	6 017.5
trolleybus	77.1	16.8	1.6	0.8	0.3	0.6
tramvay	92.4	43.3	25.8	11.4	1.2	2.9
metropolitan	125.7	89.9	65.6	52.3	38.8	136.7
havo yo'li	1.5	0.9	1.9	2.2	0.9	4.1

O'zbekistonda logistika tizimi yetkazib berish zanjirining tarqoqligi, yetkazib beruvchidan qabul qiluvchigacha tovarlarni ortish va tushirish bo'g'inlarining ortiqchaligi xosdir, bu esa ishlab chiqaruvchilarning transport–logistika xizmatlariga bo'lgan xarajatlarning oshishiga olib kelmoqda. Bu transport logistika kompaniyalari va tegishli infratuzilmaning sust darajada rivojlanganligi bilan bog'liq

Yirik transport bog'lamlarida O'zbekiston temir yo'llari tarmog'i bo'yicha multimodal **terminal logistika markazlari** (TLM) tarmog'i sust rivojlangan. Natijada xususan, konteynerlar aylanmasi tezligi, shuningdek, ko'plab yuk tashuvlari aloqasi va xilma–xil transport turlari transport infratuzilmasida yuk oqimlari taqsimotini oshirishning iloji bo'lmaydi.

Transport bu holatda konveyer vazifasini bajarib, u uzluksiz texnologiya jarayonini yakunlaydi hamda hamma yetkazib berish zanjirlariga xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Lekin bunday yondashuv yaxlit transport jarayonini baholash imkonini beruvchi zamonaviy axborot, matematika va dasturiy ta'minotni talab etadi. Yuk jo'natish, yuk qabul qilish, TLM va yuk tashish jarayonlariga yondash axborot almashinuvi standartiga asoslanib, u "raqamli logistika"da ko'chuvchi texnologiya ko'prigi sifatida ko'rib chiqiladi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda ishlab chiqarish, omborlar, iste'molchilarni joylashtirish va sarf–xarajatlar va buyurtmani bajarish muddatlarini maqbullashtirish maqsadida yetkazib berish zanjirini

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

modellashtiruvchi an'anaviy (funktsional) logistika jarayonlarini moslashuvchan usullarga almashtirishni talab etadi. Nafaqat yetkazib berish anjiri, balki intellektual va internet–texnologiyalarda ("ashyolar interneti" singari) integrasiyalashgan boshqaruvning logistika mexanizmiga asoslangan alohida korxonada ham yangi qat'iy yondashuv talab etiladi.

Hozirgi kunda transport–logistika tizimiga integrasiyalanmagan xalqaro korporasiya va xoldinglar tarkibiga kiruvchi, hududlar bo'ylab taqsimlangan zamonaviy ishlab chiqarish va servis tizimlarini tasavvur etish mushkul. Foydalanilayotgan tizimlar, vosita va komplekslar ko'pincha ko'pjabhalilik, amal qilishdagi noaniqlik, iyerarxiya, element va aloqalarning ortiqchaligi, vazifa va jarayonlarni bajarishdagi ko'p variantlilik hamda komponentlar jamligi singari xususiyatlarga ega.

Bugungi kunda transport–logistika infratuzilmasi robotlarga mo'ljallangan yuklash–transport asbob–uskunalari va zamonaviy samarali texnologik yechimlar, shu jumladan xalqaro injiniring va transportli qurilish sohasida talabni shakllantirgan holda innovasion rivojlanish uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashishi mumkin. Masalan, temir yo'l transportida omborxonalar faoliyati, tijoratli foydalanish sohasida logistika injiniringi texnologiyalaridan foydalanmay, tizimli yondashuv prinsipini amalga oshirishni tasavvur qilib bo'lmaydi.

2019 yil 1 fevralda transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston avtomobil transporti agentligi negizida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tashkil etild. Vazirlik avtomobil, temir yo'l, havo, daryo transportlari, metropoliten, shuningdek, yo'l xo'jaligini rivojlantirish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha davlat boshqaruvi organi sifatida yagona davlat transport siyosatini amalga oshiradi.

Bugungi kunda axborot–kommunikasiya texnologiyalari (AKT) sohasi jahon iqtisodiyotida jadal rivojlanib borayotgan va iqtisodiy o'sish mexanizmi sifatida ham, boshqa sohalarda iqtisodiy jarayonlarni sezilarli darajada o'zgartirgan hamda inson bilimiga, axborotdan va intellektual mehnat salohiyatidan foydalanishga asoslangan yangi turdagi iqtisodiyotni shakllantiruvchi sektorga aylandi.

So'nggi tadqiqotlarda AKTning globallashtirishning ikkita ko'rsatkichiga ta'siriga alohida e'tibor qaratilmoqda: xalqaro savdo va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar oqimi.

AKTning jahon savdosini rivojlantirishga qo'shgan hissasi savdo hamkorlarni, shu jumladan xorijda ham izlash tartibining sezilarli darajada soddalashtirilgani bilan bog'liq. Bundan tashqari, xalqaro savdo operatsiyalarini amalga oshirish nafaqat sheriklarni qidirish, balki muzokaralar, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan tranzaksiya xarajatlarini o'z ichiga oladi. AKT rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ta'sirlar majmuasi (elektron birjalarning paydo bo'lishi, Internet orqali yozishmalar imkoniyati, elektron hujjatlarga o'tish, telefon suhbatlari narxining pasayishi va deyarli bepul onlayn aloqa) olib keladi. Tranzaksiya xarajatlarining keskin pasayishiga va bilvosita jahon eksportining o'sishiga. AKT rivoji ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar dinamikasiga yordam beradi.

Bu uchta sababga bog'liq. Birinchidan, AKTning o'sishi ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar shaklida ko'p bilim talab qiladigan tarmoqlarni kengaytirishga yordam beradi. Ikkinchidan, AKTning o'zi bilim talab qiladigan soha bo'lib, uning doirasida to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar dinamikasi uchun zarur shart-sharoitlar mavjud. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar dinamikasi, birinchi navbatda, transmilliy korporatsiyalar tadbirkorlik faoliyati geografiasining kengayishini anglatadi. Investisiyalar ob'yektlari tobora rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashgan korxonalariga aylanib bormoqda. Investisiyalar uchun eng istiqbolli ob'yektlar va hududlarni tanlash ham AKT taqdim etayotgan imkoniyatlardan foydalanishda katta qulaylik yaratadi. Shunday qilib, ba'zi mamlakatlarda AKT rivojlanishi fenomeni nafaqat yakka hodisa sifatida, balki mamlakatning global transaksiyalardagi ishtiroki faolligini tavsiflovchi ma'lum bir parametr sifatida ham qiziqish uyg'otadi.

Zamonaviy insonning hayot sifati tobora ko'proq axborot mahsulotlari va xizmatlarini iste'mol qilish darajasiga, shuningdek ularning mavjudligi va sifatiga bog'liq bo'lib bormoqda. Mobil telefon, Internetga ulangan shaxsiy kompyuterlar, ko'p kanalli raqamli televideniye, bortdagi avtomobil navigasiya sun'iy yo'ldosh tizimlari — bularning barchasi allaqachon

zamonaviy insonning ajralmas atributlari bo'lib, ularsiz uning kundalik hayoti va kasbiy faoliyati yomonlashadi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning ko'plab davlatlari (Avstraliya, Irlandiya, Singapur, Fransiya, Koreya Respublikasi va Yaponiya) internetga keng polosali ulanishni barcha hududlarda rivojlantirishga o'z sarmoyalarini ko'paytirmoqda va buni milliy iqtisodiyotdagi inqirozga qarshi muhim chora sifatida baholamoqda.

Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar, pensionerlar va bolali ayollarni ish bilan ta'minlash muammosini hal qilish uchun axborot jamiyatini rivojlantirish zarur. Bugungi kunda mamlakatda juda ko'p sonli nogironlar bor, ularning aksariyati harakatchanligi cheklangan, ammo uydan ishlashlari mumkin. Buning uchun zamonaviy axborot texnologiyalari yaxshi imkoniyatlar yaratadi, ulardan hali juda kam foydalaniladi. Internetga ulangan shaxsiy kompyuter, printerga ega bo'lgan minglab nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlaydigan kompyuter fanlari vositalarining minimal to'plamidir.

Dunyo "industrial jamiyat"dan "axborot jamiyati"ga o'tish davrini boshidan kechirmoqda. Odamlar "axborot", "axborotlashtirish", "axborot texnologiyalari", "axborot resurslari", "axborot makoni", "axborot jarayonlari" kabi tushunchalardan tobora ko'proq foydalanmoqda. Axborot makonining shakllanishi, rivojlanishi va kengayishining mohiyati. hayotning barcha sohalarida bilim va g'oyalardan foydalanishda shaxs va jamiyatga yordam berishdir.

O'zbekistonda ham, jahon hamjamiyatida ham axborot makonini takomillashtirish, axborot jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish dasturlaridan qat'iy nazar inson bilan bog'liq. Axborot jamiyati odamlarga o'z imkoniyatlaridan kengroq foydalanish va o'z maqsadlarini amalga oshirish imkonini beradi. Shunday qilib, axborot maydoni inson hayoti, uning hayot sifati omillaridan biriga aylanmoqda.

So'nggi yillarda informatika vositalari va yangi axborot texnologiyalari jadal sur'atlar bilan takomillashib bormoqda va bu juda muhim bo'lib, aholining tobora kengroq qatlamlarining foydalanishlari uchun hamyonbop va yengil bo'lmoqda. Ular odamlarga ko'plab maishiy va ishlab chiqarish muammolarini hal qilish uchun sarflanadigan vaqtni tejash imkonini beradi, insonning o'z fuqarolik huquq va erkinliklarini amaliy ro'yobga chiqarishi

uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda ham rivojlangan, ham ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda aholiga bepul axborot xizmatlari ko'rsatilishi tobora ortib bormoqda.

Elektron hukumat – bu davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot–kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy–huquqiy chora–tadbirlar va texnik vositalar tizimidir¹⁷.

Elektron hukumatning vazifalari va xizmatlar ko'rsatishi hamda faoliyatini rivojlantirish uchun AKTdan qo'llaniladi. Elektron hukumat — davlat organlari ko'rsatayotgan xizmatlarning, ochiqligi, shaffofligi, hamda samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalaniladi. Keng ma'noda, elektron hukumatni AKTni qo'llagan holda davlat organlarining yanada samarali faoliyat ko'rsatishi hamda fuqarolar va tadbirkorlik sub'yektlariga sifatli va tez xizmatlar ko'rsatish tizimidir.

E–xizmatlarning yana bir muhim jihati ular davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash bilan birga nafaqat shu tashkilotning, balki butun mamlakatning umumiy imijini oshirishga xizmat qiladi.

- Elektron hukumat atamalarini quyidagi to'rtta asosiy qismlar orqali umumlashtirsa bo'ladi. Elektron hukumat quyidagicha tavsiflanadi:
- AKT dan foydalanish (kompyuter tarmoqlari, internet, faks va telefon);
- Hukumat faoliyatini qo'llab–quvvatlash (axborot bilan ta'minlash, xizmatlar, mahsulotlar, ma'muriy boshqaruv);
- Fuqarolar bilan hukumat munosabatlarini rivojlantirish (yangi aloqa kanallarini yaratish, siyosiy yoki ma'muriy jarayonlarga fuqarolarni targ'ibot va tashviqotlar orqali jalb qilish);
- Belgilangan strategiyalarga mos ravishda ishtirokchilarning gtegishli jarayonlarda qatnashish faolligini belgilash.

O'zbekistonda elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT–parklarni tashkil etish,

shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

2020 yilda "Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasining qabul qilinishi yurtimizda iqtisodiyotni raqamlashtirishni faol rivojlantirish, barcha tarmoq va sohalarda, birinchi navbatda, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot–kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish va uning maqsadli ko'rsatkichlarini belgilab berdi (17.2-jadval).

17.2-jadval

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi¹⁸ (mlrd.so'm)

Ko'rsatkichlar	2015	2017	2019	2020	2021
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori	3 876,3	6 377,8	8 701,4	11 121,8	17 455,5
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori	3 581,7	5 849,0	7 508,4	9 399,3	12 012,8
AKT ishlab chiqarish	141,7	238,3	283,7	551,2	642,0
AKT savdosi	140,8	281,6	299,0	261,8	380,3
AKT xizmatlari	3 299,2	5 329,1	6 925,7	8 586,3	10 990,5
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	294,6	518,7	928,3	1 120,6	1 498,2
Elektron tijorat	-	10,1	264,7	602,0	3 944,5

O'zbekistonda 2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turida 12 204 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. 2021 yilning mos davriga nisbatan ularning soni 1 617 taga ko'payib, 15,3 % ga o'sgan.

2021 yilda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 17 117,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan. 2021 yilda telekommunikatsiya xizmatlari hajmi 11 964,3 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2020 yilga nisbatan o'sish sur'ati 115,1 % ni tashkil etgan. Ushbu xizmatlarning eng katta hajmi Toshkent shahrida – 5 564,2 mlrd. so'm qayd etilgan. Chunki, mazkur faoliyat yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning aksariyati shu hududda joylashgan.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

¹⁷ O'zbekiston Respublikasida "Elektron hukumat to'g'risida" Qonuni, 2015 yil

2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, mobil aloqa bilan ta'minlangan abonentlar soni 31 98198 ming, shu jumladan, aholida 26 950,7 ming va aholining mobil aloqa bilan ta'minlanganligi har 100 kishi hisobiga 75 birlikni birlikni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, internet eng ko'p ma'lumotlarning mavjudligi va ishonchliligini ta'minlaydi. 2022 yilda O'zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 23 mln.kishi, AKT sohasida faoliyat yuritayotganlar 10,6 korxonani tashkil qilib, 95 foiz aholi maskanlari mobil internet bilan qamrab olingan va 54 foiz uy xo'jaliklariga yuqori tezlikdagi internetga ulanish imkoni yaratilgan.

AKT, yuqori tezlikdagi internet va mobil aloqa rivojlanishi qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi mobil telefon ilovalari kichik va o'rtacha kattalikdagi korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi. AKT bo'yicha katta bilim va tajribasi bor odamlar ko'proq imkoniyatga ega hamda shuning uchun ishsiz qolish ehtimoli kamroq. AKT ko'nikmalari ishsizlar maosh miqdori o'rtacha va yuqori bo'lgan raqamli kasblarga o'tishida yordam beradi. Ekspertlar tadqiqotiga ko'ra, optik tolali aloqa liniyalari uzunligining 100 kilometr ga ortishi aholi real daromadlari 1,43 foizga o'sishida yordam beradi. Bundan tashqari, internet foydalanuvchilari sonining 1 foiz punktga ko'payishi aholi real daromadlari 0,9 foizga oshishiga olib keladi. AKT real daromadlar o'sishiga bir necha yo'llar orqali ijobiy ta'sir ko'rsatadi: masalan, ta'lim tizimiga onlayn darslar va kurslarni joriy etish orqali, moliya tashkilotlari faoliyatining kengayishi, ishsizlik qisqarishiga yangi kasblar va ish o'rinlari, jumladan onlayn-makonda tashkil etilishi orqali ta'sir qiladi.

O'zbekistonda 2022-2026 yillarda AKT sohasini rivojlantirish uchun 1,5 mlrd. dollarlik investisiya loyihalari amalga oshiriladi, 2026 yil oxirigacha Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari soni 610 taga yetkaziladi. AKT sohasiga yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish va yaratish maqsadida 2022 yilda xorijiy investorlar uchun shart-sharoitlar, ularga va ularning oila a'zolariga mehnat va investisiya faoliyati uchun vizalar berish va uzaytirishning soddalashtirilgan tizimi joriy etilgan.

2026 yilda O'zbekiston dasturiy mahsulotlar va xizmatlar eksportini 500 mln. AQSH dollariga yetkazish vazifasi qo'yildi. O'rtacha maoshi 2000

AQSH dol. bo'lgan bir dasturchi eksportchi xodim yiliga 24 ming dollar eksport daromad keltirmoqda. Bunday xodimlar soni 40 mingdan oshsa, ularning maoshi hisobiga mamlakat ushbu eksport xizmatidan 1 mlrd. AQSH doll. foyda oladi (17.3-jadval).

17.3-jadval

O'zbekistonda AKT xizmatlari eksporti¹⁹, ming AQSH.doll.

Nomi	2010	2015	2020	2021
Telekommunikatsiya xizmatlari	69 356,9	152 338,5	151 749,6	156 317,1
Kompyuter dasturlash xizmatlari	-	-	5 798,6	4 638,7
Boshqa kompyuter xizmatlari	1 161,5	2 563,0	8 313,6	4 479,0
Axborot agentligi xizmatlari	-	-	-	-
Boshqa axborot xizmatlari	1 910,0	1 987,1	3 648,9	10 830,4

Bugungi kunda yoshlarni AKT sohasiga keng jalb etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Demak, 2000 yillarda O'zbekistonda bir necha yuz AT-mutaxassis bo'lgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 50 mingga yetdi va bu borada 2030 yilga qadar ulkan maqsad qo'yildi.

O'zbekistonda xorijiy AT kompaniyalarga o'z biznesini kengaytirishlari uchun sarmoya kiritish, Toshkent AT parkining rezidenti sifatida ro'yxatdan o'tgan taqdirda ofis va jihozlar ko'rinishida investisiyalar olish imkoniyati berilgan hamda kamida olti oy muddatga ijara to'lovidan, shuningdek, kommunal to'lovlar va Internet xarajatlaridan ozod etildi.

Xulosa

O'zbekiston iqtisodiyotida transport va infratuzilma muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda transportning barcha turlari rivojlangan va 2022 yilda mamlakat temir yo'llarining umumiy uzunligi 7,4 ming kilometrni tashkil etib, shundan 2500 km elektrashtirilgan. Temir yo'l zichligi bo'yicha respublika Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinni egallaydi. Temir yo'lning yillik yuk aylanmasi mamlakatdagi barcha transport turlarining umumiy yuk aylanmasining deyarli 90% ni tashkil qiladi.

Yuk va yo'lovchilarni tashishda avtomobil transporti ham katta rol o'ynaydi. Transport tizimining rivojlanishi iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

barcha boshqa tarmoqlari rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Yo'lovchi va yuk tashish tezligi va sifatining oshishi, transport xizmati bahosining arzonlashuvi iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantiradi hamda aholining mobilligini va turmush sharoitining yaxshilanishiga xizma qiladi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oldi va uning ko'lami borgan sari kengayib bormoqda.

Globalashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat alohida iqtisodiy tizimlar, balki umumdavlat darajasidagi vazifaga aylandi. Shu sababli, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, xususan, davlat boshqaruvi, ta'lim va sog'liqni saqlashda AKTni keng joriy etish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

AKT sohasining o'sishi tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishini va shunga mos ravishda mamlakat iqtisodiyotining jahon hamjamiyatiga qo'shilishi va iqtisodiy integrasiya darajasini tezlashtiradi. O'zbekistonning AKT bozori so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sdi va bu mamlakatimizning turli xalqaro reytinglardagi maqomining ko'tarilishiga olib keldi. O'zbekistonning AKT sohasiga investisiyalari, xususan, iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini raqamlashtirishga yo'naltirilgan investisiyalari ortib bormoqda.

Elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va AKT ning mahalliy bozorini rivojlantirish, mamlakatning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish va sohani malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga qaratilgan 220 dan ortiq ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda.

Asosiy atama va tushunchalar

Transport kompleksi

Logistika tizimi

Transport tizimi

Axborot-kommunikasiya texnologiyalari

Elektron hukumat

E-xizmatlar

Internet va mobil aloqa

Yagona interaktiv davlat xizmatlari
Iqtisodiyotni raqamlashtirish

Nazorat savollari

1. O'zbekiston iqtisodiyotida transportning o'rni.
2. O'zbekistonda yuk aylanmasi tarkibining umumiy tavsifi.
3. O'zbekistonning tranzit mamlakat sifatidagi salohiyati
4. O'zbekistonning transport strategiyasining asosiy maqsadlari
5. AKTning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati.
6. AKTning YAIMga qo'shadigan hissasi va roli.
7. O'zbekistonda AKTni rivojlantirish holati va strategiyasi.
8. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining asosiy vazifasi va maqsadlari
9. Elektron hukumatni rivojlantirishning asosiy maqsadlari
10. Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo'nalishlari

18. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investisiya siyosati.

Qurilish majmui

Investisiyalar – foyda olish maqsadida kapitalni joylashtirish. Agar loyiha foydasiz bo'lsa, investisiyalar to'liq yoki qisman yo'qolishi mumkin. Turli shakllardagi investisiyalar zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismidir. Kengroq ma'noda investisiyalar – foyda olish maqsadida pul mablag'lari, maqsadli bank depozitlari, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, texnika, asbob-uskunalar, boshqa mol-mulk, shuningdek pul qiymatiga ega bo'lgan mulkiy va boshqa pul bahosiga ega bo'lgan huquqlarni tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat ob'ektlariga jalb qilishdir.

Moliyaviy sarmoya – qimmatli qog'ozlarni sotib olish; obligasiyalar, ssudalar, yuridik shaxslarning ustav kapitalidagi ulushlari; boshqa yuridik shaxslarga berilgan kreditlar.

Moliyaviy bo'lmagan aktivlarga qo'yilgan investisiyalar – kapital qo'yilmalar, shu jumladan asosiy kapitalga qo'yilgan investisiyalar, asosiy vositalarni kapital ta'mirlash, nomoddiy aktivlarga qo'yilgan investisiyalar,

tovar–moddiy boyliklarni ko'paytirish xarajatlari, boshqa nomoliyaviy aktivlarni sotib olish.

Asosiy kapitalga investisiyalar – bu asosiy vositalarni yaratish, takror ishlab chiqarish va sotib olish uchun bir martalik xarajatlar: yangi qurish, mavjud korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlash, mashina, asbob–uskunalar, inventar sotib olish, loyiha–qidiruv ishlari, ko'p yillik plantasiyalar va boshqa xarajatlar.

Asosiy vositalarni kapital ta'mirlashga qo'yilgan mablag'lar – bu asbob–uskunalar, mexanizmlar, transport vositalari, binolar va inshootlarni ta'mirlash xarajatlari. Kapital ta'mirlash asosiy vositalar elementlarining iste'mol xususiyatlarini tiklash va biroz yaxshilashda ifodalanadi.

Nomoddiy aktivlarga investisiyalar – patentlar, lisenziyalar, yer uchastkalari va boshqa tabiatdan foydalanish ob'ektlaridan foydalanish huquqi, mualliflik huquqi, tovar belgilari, tovar belgilari, dasturiy mahsulotlar va boshqalarni olish.

Tovar–moddiy zaxiralarning o'sishiga investisiyalar korxonaning barqaror ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tovar–moddiy zaxiralarni shakllantirish xarajatlari bo'lib, zaxiralarga aylanma mablag'larning tushumlari va ularni yo'q qilish o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Boshqa nomoliyaviy aktivlarga investisiyalar – yer uchastkalari va tabiatni muhofaza qilish ob'ektlariga, boshqa nomoliyaviy aktivlarga egalik qilish bilan bog'liq xarajatlardir.

To'g'ridan-to'g'ri chet el investisiyalari – chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investisiyalaridir.

Investisiyalar qatoriga intellektual investisiyalar ham kiradi – mutaxassislar tayyorlashga, patentlar, lisenziyalar, nou–xau, ilmiy–tadqiqot va ishlanmalar olishga bo'lgan investisiyalar.

Jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan xorijiy, shuningdek, davlatlar va xalqaro tashkilotlar investisiya faoliyati ishtirokchilari bo'lishi mumkin.

Investor – investisiya loyihasiga o'zining yoki qarzga olingan pul mablag'larini, shuningdek jalb qilingan boshqa mulk yoki intellektual boyliklarni investisiya qiluvchi va ulardan maqsadli foydalanishni ta'minlovchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Mamlakatning investision salohiyati – bu uning yangi korxonalar va ularning komplekslarini qurishga, mavjud korxonalarni kengaytirish va rekonstruksiya qilishga, inson salohiyatini rivojlantirishga, ishlab chiqarish ob'yektlari, ijtimoiy infratuzilma va muassasalarini yaratishga zarur investisiyalar hajmini o'zlashtirish qobiliyatidir.

Investisiyalar iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashda, uning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishda, yuqori barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy kapitalga investisiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi

Bozor iqtisodiyotiga o'tish milliy iqtisodiyotni boshqarish tizimini jiddiy qayta qurishni taqozo etdi, uning ishlab chiqarish bo'linmalarini ular ilgari duch kelmagan tubdan farqli muammolarning butun majmuasi bilan to'qnashdi. Bu O'zbekistonda iqtisodiy jarayonlarni va mulkchilikning xilma–xil shakllarini tartibga solishning bozor mexanizmlariga asoslangan iqtisodiy tizimning shakllanishi yalpi ichki mahsulotdagi investisiyalar ulushining sezilarli darajada kamayishi bilan izohlanadi. Bu ham samarali yalpi talabning qisqarishi, ham investisiya tovarlari taklifining sezilarli darajada qisqarishi bilan bog'liq.

Oqilona kiritilgan investisiyalar makro, mezo va mikro darajadagi butun iqtisodiy muammolarni hal qiladi, shuningdek, iqtisodiyotni isloh qilish va uni qayta qurish uchun qulay shart–sharoitlarni yaratadi. Shunday qilib, investisiyalar mamlakat moliya–kredit tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi element ekanligini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonning investisiya siyosati mamlakat iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investisiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta'minlashga, investisiya faoliyati sub'ektlarining investisiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo'naltirilgan investisiyaviy faolligini oshirishga doir o'zaro bog'liq tadbirlar majmui hisoblanadi.

O'ylangan investisiyalar makro, mezo va mikro darajadagi butun iqtisodiy muammolarni hal qiladi, shuningdek, iqtisodiyotni isloh qilish va uni qayta qurish uchun qulay shart–sharoitlarni yaratadi. Shunday qilib,

investisiyalar mamlakat moliya–kredit tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi elementi deyish mumkin.

Kapitalning xalqaro harakati turli mamlakatlarning xo'jalik yurituvchi sub'yektlari ishtirokida turli shakllarda rivojlanmoqda. Dunyo mamlakatlari va mintaqalari o'rtasidagi intensiv kapital oqimi deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga xorijiy investisiyalar hajmining oshishiga olib keladi.

Investisiyalar iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashda, uning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishda, yuqori barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarini amalga oshirishga yo'naltiriladi (18–jadval)

18–jadval

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. so'm

Hududlar	2000	2005	2010	2015	2020	2022
O'zbekiston Respublikasi	744,5	3165,2	16463,7	44810,4	210195,1	269857,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	35,9	149,3	496,4	6021,2	7089,8	10099,8
Andijon	36,7	130,4	726,2	1956,5	9622,6	14758,6
Buxoro	31,2	260,7	2147,2	4075,9	12183,9	21138,0
Jizzax	17,4	77,2	440,8	1304,9	12545,4	10763,1
Qashqadaryo	124,3	456,5	1792,8	5894,7	20557,6	16181,5
Navoiy	46,1	229,1	1741,8	1809,1	15688,4	19396,1
Namangan	41,9	107,9	660,6	2227,5	12007,2	14348,2
Samarqand	42,6	203,5	1083,1	3237,2	14656,4	21955,2
Surxondaryo	27,7	170,8	655,3	1843,6	10068,2	11507,3
Sirdaryo	17,1	54,5	406,2	1083,3	7191,9	12574,7
Toshkent	60,5	337,4	1606,1	4428,1	21148,6	34954,7
Farg'ona	52,4	162,3	930,9	2542,3	11040,0	15396,7
Xorazm	25,8	63,3	416,9	1531,5	5391,8	8806,6
Toshkent sh.	182,7	741,8	3309,0	6854,6	50371,3	56725,8

2022 yida asosiy kapitalga investitsiyalarning 59,1 % i yoki 159,6 trln. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 40,9 % yoki 110,3 trln. so'm moliyalashtirilgan.

2022 yilda O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 15,2 trln. so'm investisiyalar o'zlashtirilib, 2021 yilga nisbatan 74,9 % ni tashkil etgan.

Tog'-kon sanoatida jami 21,6 trln. so'm yoki respublika bo'yicha jami investisiyalar hajmining 8,0 % i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 3,6 % i yoki 9,6 trln. so'mi xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarish sohasiga tegishli bo'lgan.

2022 yilda 112,2 trln. so'm (dollar ekvivalentida 10,2 mlrd. AQSH doll.) yoki 2021 yilga nisbatan 99,0 % asosiy kapitalga xorijiy investisiya va kreditlar o'zlashtirilgan. Xorijiy investisiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 41,6 % ni tashkil etgan.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar hisobidan 2022 yilda 97,0 trln. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 15,2 trln. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirilgan.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar hamda O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning jami xorijiy investisiya va kreditlar hajmidagi ulushi mos ravishda 86,5 % va 13,5 % ni tashkil etgan.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 37,0 trln. so'm yoki jamiga nisbatan 38,1 % ni, boshqa investisiya va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 60,0 trln. so'mni yoki jamiga nisbatan 61,9 % ni tashkil etgan.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar – ustav kapitalda 10 foizdan kam bo'lmagan ulushga ega xorijiy investorming moliyaviy va nomoliyaviy qo'yilmalari hisoblanadi.

O'zbekistonda 2022 yilda qayta ishlash sanoatida xorijiy investisiya va kreditlar salmoqli o'zlashtirilib, 4771,7 mlrd. so'mni yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 42,5 % ini, elektr va gaz bilan ta'minlash faoliyatida esa 15820,1 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investisiya va kreditlarning 14,1 % ini tashkil etgan.

2022–2026 yillarda mamlakatda investisiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish va ushbu davrda 120 mlrd. AQSH dollari, jumladan 70 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish rejalashtirilgan. Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, «pastdan–yuqoriga» tamoyili asosida, yangi

tizimni yo'lga qo'yish va 2026 yilgacha xorijiy va mahalliy investisiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish vazifasi belgilangan.

2022 yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga 8 mlrd. AQSH dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar jalb qilingan. So'nggi olti yilda investisiyalar hajmi YAIMning 30 foizidan oshirishga erishilgan. 2023 yilda qariyb 30 mlrd. AQSH dollari sarmoya jalb qilinishi, shundan 25 mlrd. AQSH dollari miqdorida xususiy investisiyalar jalb qilinishi rejalashtirilgan. Jumladan, umumiy qiymati 8 mlrd. AQSH dollarga teng bo'lgan 300 dan ziyod loyiha ishga tushirilib, 40 ta yangi yirik loyihani amalga oshirilgan.

Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 mlrd. AQSH dollarga teng investisiya jalb etish mo'ljallangan.

So'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston jadal iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investisiyalar uchun turli xil to'siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat'iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda.

Respublikamizda qulay investisiyaviy, ishbilarmonlik muhiti yaratilganligiga qaramasdan, ichki va xorijiy investisiyalarni jalb etishda hududlar o'rtasida nomutanosibliklar mavjud. Bu hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasida shu jumladan, sanoat ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlashdagi farqlarning mavjudligi bilan izohlanadi.

2019 yilda O'zbekiston Respublikasining "Investisiyalar va investisiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuninig yangi tahriri qabul qilindi. Jahon amaliyoti va tajribasi shuni ko'rsatadiki, biznesning investisiya va innovasion faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni endi oddiy vositalar bilan, ya'ni imtiyozlar berish yoki yangi deklarativ me'yorlarni nashr etish bilan hal qilishning imkoni yo'q.

Xususiy investisiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni aniqlash va yengib o'tish bo'yicha astoydil ish olib borish kerak. Shu munosabat bilan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faol ish olib borildi.

Birinchiidan, iqtisodiy o'sishning bir maromdagi yuqori va barqaror sur'atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va

raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo'lida bo'lgan modelini shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, investisiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lgan infratuzilmaga yo'naltirilgan investisiyalarining jadal o'sishini ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investisiyaviy faoliyatni rag'batlantirish ham faol tarzda olib borilmoqda.

Uchinchiidan, raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investisiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to'siqlar va cheklovlarni to'liq bartaraf etish uchun investorlar va davlat o'rtasidagi munosabatlar optimallashtirilmoqda. Shaffoflikni maksimal darajada ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va so'rovlari bilan ishlashni tashkil etish sifati yaxshilanmoqda.

To'rtinchidan, ishchi kuchi va kapitalning iqtisodiyotning qonuniy sektorlaridan yashirin iqtisodiyotga oqib ketishiga olib keladigan tranzaksiya xarajatlarining kamayishi kuzatilmoqda.

Investisiya muhiti mamlakatdagi barcha faoliyat sohasiga ta'sir ko'rsatishini inobatga olgan holda, islohotlar ko'lami iqtisodiy, institusional, ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, energetika, transport va boshqa yo'nalishlarni qamrab oldi.

O'zbekiston Respublikasining 2025 yilgacha mo'ljallangan investisiya va sanoat siyosati strategiyasida asosiy vazifalar sifatida uchta yo'nalish belgilangan: investisiya muhitini yaxshilash, investisiyalarning ichki manbalarini faollashtirish va investisiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, samarali operasion chora-tadbirlarni amalga oshirish va xorijiy investisiyalarni jalb qilishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish. Unda quyidagi vazifalar belgilangan:

- har bir hududning ixtisoslashuvi va ularga jalb qilinadigan investisiyalar yo'nalishlari;
- yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni talab etadigan to'g'ridan-to'g'ri investisiya jalb qilinishi lozim bo'lgan sohalarni belgilash va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari;
- jalb etiladigan investisiyalarning soha va hududlar kesimida manbalarini shakllarini belgilash;

– to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiya jalb qilishni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish;

– xorijiy investorlar uchun beriladigan imtiyozlarda yagona siyosat yuritish va ular ro‘yxatini belgilash;

– investorlar bilan ishlash va ularga investisiya faoliyatini samarali tashkil etishda har tomonlama amaliy ko‘mak ko‘rsatish, sohada ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash.

2021 yilda O‘zbekistonga dunyoning 50 dan ziyod mamlakatidan jami 11,1 mlrd AQSH doll. miqdorida xorijiy investisiyalar kiritildi.

Erkin iqtisodiy zonalar – davlatlararo kelishuvlarga yoki maxsus qonunlarga muvofiq, xo‘jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, huquqiy sharoitlar joriy qilinadigan muayyan hududlar. Xorijiy va mahalliy tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida tashkil etiladi va ularda zarur ishlab chiqarish va ish yuritish infratuzilmasi barpo etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar ko‘p hollarda davlatlararo tutash hududlarda (bir necha davlatlarning chegaralari tutashgan hudud), xalqaro aeroportlar, port shaharlarda yoki transport yo‘llari tutashgan hududlarda tashkil etiladi.

Erkin iqtisodiy zonalar ularning ta‘sischilari tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishda muhim bo‘g‘in sifatida qaraladi. Ularning faoliyati tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va faollashtirish bilan bog‘liq. Rezidentlar va norezidentlar uchun maxsus imtiyozli iqtisodiy sharoitlar tashqi savdo, umumiy iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy va texnik muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Mamlakatda erkin iqtisodiy zonalar rivojlantirish mamlakatning makroiqtisodiy ko‘rsatgichlarini ortishiga, shuningdek ishsizlik darajasini kamayishi va aholi turmush darajasini ortishiga olib keladi.

Mamlakatizda 2022–2026 yillarda mamlakatda investisiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 mlrd. AQSH dollari, jumladan 70 mlrd. dollar xorijiy investisiyalarni jalb etish choralari ko‘rish belgilangan²⁰.

Investisiyalar O‘zbekistonni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ta‘minlashda muhim yo‘nalish sifatida belgilangan: ishlab chiqarish quvvatlarini eksport va import o‘rni bosuvchi yuqori ilm–fanni talab qiluvchi va resurs tejovchi texnologiyalar bilan modernizatsiya

²⁰ 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, 26-maqсад

qilish; mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish; oziq–ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va turlarini kengaytirish, ularni saqlash, tashish, qayta ishlash va qadoqlashning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish; texnologiyalarni takomillashtirish va mahalliy dori vositalarini ishlab chiqarish uchun yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish; zamonaviy transport kommunikasiyalari va kommunikasiya tarmoqlarini rivojlantirish.

Bu yo‘nalishlarni amalga oshirish kapital qurilish, ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish yoki modernizatsiya qilish (zamonaviy texnologiyalar, yangi texnika olish yo‘li bilan), kadrlar tayyorlash va ishlab chiqarishni rivojlantirish sohasidagi chora–tadbirlar majmui bo‘lgan investisiya loyihalari asosida amalga oshirilishi kerak. Investisiya siyosati maqsadlariga erishishga qaratilgan.

Qurilish majmui tarmoqlararo tizim, jumladan, faoliyati ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ob‘yektlarini yaratish, rekonstruksiya qilish va rivojlantirishga qaratilgan korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar majmui sifatida qaraladi. Qurilish kompleksi mahsuloti sifatida to‘liq qurib bitkazilgan va foydalanishga topshirilgan bino va inshootlar, ishlab chiqarish ob‘yektlari, ijtimoiy infratuzilma ob‘yektlari hisoblanadi.

Qurilish majmuining tarkibi va tuzilishi. Qurilish kompleksi iqtisodiy tahlil va prognozlash ob‘yekti sifatida kapital qurilishni (qurilish ishlab chiqarishini), shuningdek, asosan qurilish industriyasiga xizmat ko‘rsatish va uni moddiy–texnika resurslari bilan ta‘minlashga yo‘naltirilgan tarmoqlar va alohida faoliyat yo‘nalishlari majmuasini, tadqiqot va loyiha–konstruktorlik ishlari, ixtisoslashgan xodimlar va boshqalar o‘z ichiga oladi.

Qurilish majmui pudratchi va ixtisoslashtirilgan qurilish tashkilotlarini, qurilish materiallari sanoati va qurilish sanoati korxonalarini, mexanizatsiya va transport, loyiha–qidiruv, loyiha–texnologik va ilmiy–tadqiqot tashkilotlarini, qurilish tashkilotlarini, fond birjalarini va qurilish sohasiga ixtisoslashgan boshqa tuzilmalarni (mulk va idoraviy mansubligidan qat‘iy nazar) shu jumladan tarmoq boshqaruv organlarini birlashtiradi. Kompleksning barcha bo‘linmalari iqtisodiy, texnologik va ishlab chiqarish aloqalarini birlashtiradi; majmuada qurilish va yo‘l muhandislik ishlari.

Qurilish majmuining alohida tarmoqlarining rivojlanishi va faoliyat yuritishi mamlakatda olib borilayotgan investisiya siyosati bilan bog‘liq.

Hozirgi kunda investisiya siyosati iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo'lib, kapital qo'yilmalarning hajmi, tarkibi va yo'nalishlarini, asosiy fondlarning o'sishi va ularni tiklashni belgilovchi chora-tadbirlar tizimidir. Uning yordamida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari amalga oshirilishi ta'minlanib, kapital qo'yilmalarni jamlash amalga oshirilmoqda va ularning samaradorligi oshirilmoqda.

Kapital qurilish – bu iqtisodiyotning mavjud asosiy fondlarini – sanoat korxonalarini, elektr stansiyalarini, temir yo'l va avtomobil yo'llarini, elektr uzatish liniyalari va kommunikasiyalarini, turar-joy, kommunal, odamlarning ishlab chiqarish faoliyatini va ularning moddiy va madaniy ehtiyojlarini ta'minlaydigan jamoa va boshqa ob'ektlar, madaniy va boshqa tarmoqlarni yaratish, rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash uchun mo'ljallangan tarmog'i sifatida qaraladi. Ayrim ob'ektlarni qurish maqsadi va xususiyatlariga ko'ra, qurilishning quyidagi turlari ajratiladi: sanoat, uy-joy kommunal, transport, energetika, qishloq xo'jaligi va boshqalar.

Qurilish kompleksini davlat boshqaruvining respublika organi O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi hisoblanadi. U o'z vakolatlari doirasida davlat uy-joy, texnik-iqtisodiy siyosatini kompleksda amalga oshiradi, respublikada arxitektura va shaharsozlik faoliyatini boshqaradi, loyihalash va qurilish ishlarini nazorat qilish sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtiradi.

O'zbekistonda qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning muhim ustuvor tarmog'i sifatida 2017 yildan yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Qurilish sektorini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan jadal sur'atlarda o'sayotganligini ko'rish mumkin. Qurilish hajmi 2017–2020 yillarda 6,0%, 14,3%, 22,9% va 9,2%ga o'sgan. Qurilish tarmog'ining YAIM tarkibidagi ulushi 5,7%ni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda ushbu ko'rsatkich 7,0%ga yetgan.

2009–2016 yillarda qishloq joylarda 1308 turar joy massivida umumiy maydoni 9 million 573 ming kvadrat metr bo'lgan 69 557 ta shinam uy-joy qurildi. Qishloqlardagi 83,5 mingdan ortiq oilaning yashash sharoiti yaxshilandi.

2017 yildan 11 ta hududda "O'zshaharsozlik" va Samarqand shahrida "Toshkentboshplan" loyiha instituti filiallari, shuningdek, 13 ta hududda 26

ta yetakchi loyiha tashkiloti ochildi. Toshkent va Samarqand arxitektura-qurilish institutlari hamda 14 ta qurilish kasb-hunar kolleji Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tasarrufiga o'tkazildi.

So'nggi yillarda yurtimizda 120 turdagi qurilish materiallari ishlab chiqarilgan bo'lsa, bugunga kelib ushbu ko'rsatkich 180 dan ortib ketdi. Sanoat korxonalarining soni 8 yarim mingtani tashkil etgan bo'lsa, hozirda sohada 12 yarim mingdan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ko'rinib turibdiki, qurilish materiallariga bo'lgan talab yil sayin o'smoqda.

2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 41,0 mingtani tashkil etib, 2017 yilga nisbatan 1,7 barobar yoki 17,1 ming birlikka oshgan.

Qurilishda band bo'lganlarning soni 2020 yilda 1,3 mln. nafarni va jami iqtisodiyotda band bo'lganlarning qariyb 10 foizi tashkil etgan.

2017 yilda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 35,0 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 107,5 trln. so'mga yetgan. Shuningdek, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda, bajarilgan qurilish ishlarining asosiy qismi bino va inshootlarni qurish ishlari hajmiga (jami ko'rsatkichga nisbatan ulush 74,5%ga) to'g'ri kelgan. Hududlar kesimida so'nggi besh yilda qurilish ishlarida eng katta o'sish Toshkent shahriga to'g'ri kelgan.

2020 yilda mamlakatimizda shu kungacha ishlab chiqarilmagan: gazobeton bloklari, gulqog'oz, keramogranit, quyma pol, 600 markali syement, geosetka, penoblok, shisha kristallit, kompozit va DSP ishlab chiqarish o'zlashtirildi. 10 mingga yaqin qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat yuritib, 2018 yilda 120 turdagi mahsulot tayyorlangan bo'lsa, 2020 yilda ularning soni 180 tadan oshdi.

Qurilish ishlarida **nodavlat sektorining ulushi** oshib bormoqda, 2017 yilda mazkur ko'rsatkich 95,2%ni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda 95,8%ga yetgan.

2020 yilda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturida belgilangan topshiriqlarga muvofiq 159 ta tumandagi 478 ta qishloqlarning bosh reja sxemalari va batafsil rejalashtirish loyihalari, shuningdek, 41 ta shaharlarda 116 ta mahallalarning bosh reja sxemalari va batafsil rejalashtirish loyihalari ishlab chiqilgan.

Aholi sonining keskin o'sishi uning uy-joy bilan ta'minlash masalasini dolzarb qilib qo'yimoqda. Shu sababli ipoteka krediti bozorini yanada rivojlantirish, aholining uy-joyga bo'lgan yuqori talabini qondirish, bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar qabul qilingan²¹.

2021 yilda aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi shahar joylarida bir kishiga 18,0 kv. metrni va qishloq joylarida 18,5 kv. metrni tashkil qilgan.

2017–2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi doirasida qishloq joylarda arzon uy-joylar toifasiga – hovlidagi imoratlar va obod hovlilar bilan birgalikda ikki, uch qavatli ko'p kvartirali (2–3 xonali) uylar va 0,02 gektar o'lchamli yer uchastkalarida aholi zich tumanlarda joylashtiriladigan hovlisida imoratlari bo'lgan bir qavatli 2 va 3 xonali uylar kiritilgan.

Mazkur uy-joylarga talabgorlarni fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari aniqlaydi. Ular uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan oilalarni dastlabki tanlashni amalga oshiradi. Bunda uy-joyning birinchi va ikkinchi turiga talabgor fuqaroga tavsifnoma berish yo'lga qo'yiladi. Shu orqali tizimning shaffofligi va ishonchliligi ta'minlanadi.

Uy-joy fondi – inson yashashi uchun yaroqli bo'lgan turar joydan, shu jumladan uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylardan (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg'iz qariyalar uchun internat-uyalar, shuningdek bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylardan) iborat bo'lgan fond bo'lib, O'zbekistonda uning hajmi yildan yilga oshib bormoqda.

2020 yilda respublika bo'yicha jami 61,3 ming yoki 12,7 mln. kv.m. turar-joy foydalanishga topshirilgan. Turar-joylarning asosiy qismi, ya'ni 90,3 foizini uy xo'jaliklari tomonidan yakka tartibda qurib foydalanishga topshirilgan uy-joylar tashkil etdi. Namunaviy loyihalar asosida qurilib, foydalanishga topshirilgan turar-joylar ulushi 4,8 foizni, qolgan 4,9 foiz turar-joy boshqa yuridik shaxslar tomonidan qurilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, uy-joy va infratuzilma qurilishi har qanday mamlakat uchun iqtisodiy o'sishning katalizatori hisoblanadi.

²¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrda "Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-33-son Farmoni.

Jismoniy shaxslar tomonidan bunyod etilgan turar-joylarning 68,2 foizi hamda namunaviy loyihalar asosida qurib foydalanishga topshirilgan turar-joylarning 82,3 foizi qishloq joylarda qurilgan.

Qishloq uylari qurilishiga xalqaro moliyaviy tashkilotlarning jumladan, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Kuvayt arab iqtisodiy taraqqiyot fondi, Saudiyaning taraqqiyot fondi va Turkiyaning "Ziroat" davlat banki mablag'lari jalb qilingan.

2020 yilda O'zbekistonda bir necha yo'nalishlardan iborat "Shaffof qurilish" Milliy axborot tizimi ishga tushirildi va natijada qurilish sohasida davlat xaridlari bo'yicha davlat xaridlarining shaffofligini ta'minlovchi elektron tender platformasi, qurilish pudratchilarining elektron reytingi, "Qurilish sifatini nazorat qilish" axborot tizimi, "Davlat shahar kadastri" tizimi orqali barcha ma'lumotlarni elektron shaklda onlayn olish imkoniyati yaratildi.

Xulosa

Investisiya salohiyati vaqt o'tishi bilan barqaror iqtisodiy daromadni ta'minlaydigan mablag'larni (pul va boshqa kapitalar to'plamini) aktivlarga (xo'jalik yurituvchi sub'yektning mulkiy aktivlari to'plami) investisiya qilish imkoniyati darajasini aks ettiradi.

Hudud iqtisodiyotiga investisiyalarni jalb etish doim eng muhim vazifalardan biri bo'lib kelgan. Buni potensial investorlar uchun hududning investision jozibadorligini oshirish orqali eng oqilona hal qilish mumkin.

Qurilish majmui O'zbekistonda iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini ko'rsatayotgan asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda qurilish industriyasining xususiyatlari iqtisodiyotning rivojlanishining holati va tendensiyalari, ijtimoiy taraqqiyoti, mamlakatning geografik o'rni bilan tavsiflanadi. Mamlakatda qurilish sohasining rivojlanishiga bevosita qonunchilik, ijro va sud hokimiyati organlari faoliyatining holati va samaradorligi, davlat organlari faoliyatining ochiqligi ta'sir ko'rsatmoqda.

Qurilish nafaqat jamiyat ehtiyojlarini bevosita qondiradigan moddiy ne'matlar (masalan, uy-joy) yaratadi, balki iqtisodiyotning barcha boshqa tarmoqlari – ishlab chiqarish binolari va inshootlari, yo'llar, jamoat binolari faoliyati uchun moddiy asos ham shakllanadi. Bu ob'yektlar har qanday

ishlab chiqarishning moddiy asosini – uning asosiy fondlarini tashkil qiladi. Qurilish sanoatining iqtisodiyotdagi o'рни qurilish mahsulotlarining mamlakat iqtisodiy o'sishining asosi ekanligi bilan belgilanadi. Iqtisodiy o'sish har qanday zamonaviy davlatning iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishning sharti – takror ishlab chiqarishni kengaytirish, bu qo'shimcha investisiyalarsiz va yangi ishlab chiqarish quvvatlari va ob'yektlarisiz mumkin emas.

Asosiy atama va tushunchalar

Investisiya salohiyati
To'g'ridan-to'g'ri chet el investisiyalari
Mamlakatning investision salohiyati
Xorijiy va mahalliy investisiyalar
Real investisiyalar
Investisiya fondi
Qurilish kompleksi
Kapital qurilish
Uy-joy fondi
Qurilish sanoati

Nazorat savollari

1. Investisiyalarning funksiyalarini ayting. Har biriga qisqacha tavsif bering.
2. Investisiyalar qanday mezonlarga ko'ra tasniflanadi
3. Investisiya ob'yektlari bo'yicha investisiyaning asosiy tarkibiy qismlarini ayting.
4. Davlatning investisiya siyosati maqsadi va uning asosiy vazifalarini ayting.
5. To'g'ridan-to'g'ri va bilyosita investisiyalar farqi
6. O'zbekiston iqtisodiyotining qaysi tarmoqlariga investisiya kiritishning ulushi katta va sababi.
7. Real investisiyalarning kapital qo'yilmalardan farqi nimada.
8. Qurilish sektorining iqtisodiy o'sishga multiplikativ ta'siri.
9. Nima uchun uy-joy qurilishini rivojlantirish ustuvor vazifa deb hisoblanadi?
10. Uy-joy qurilishining iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati.

4-Bob. Milliy iqtisodiyotni tartibga solish

19. O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy tarkibi

Har qanday davlat iqtisodiyotining rivojlanishi nafaqat makro va mikro darajada, balki mezo (hududiy) darajada sodir bo'layotgan jarayonlarga ham bog'liq. Ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'langan va birlashgan holda mamlakatning iqtisodiy makonini tashkil qiladi.

Buning sababi, iqtisodiyotning rivojlanishi mehnat taqsimoti, uning ajralmas xususiyati bo'lgan geografik joylashuv shakliga asoslanadi:

- doimiy bo'lgan (hudud kattaligi, iqlimi, tuproqlari, o'simliklar, rel'yef, va boshqalar);
- cheklangan vaqt oralig'idagi o'zgarishlar (tabiiy resurslar, transport infratuzilmasi va boshqalar);
- ijtimoiy (aholi soni va zichligi, uning etnik tarkibi, shahar va qishloq aholisining nisbati, innovasion salohiyat va boshqalar);

Mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiyot fanining bir tarmog'i sifatida mamlakat va har bir hudud tizimida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ijtimoiy jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishini belgilovchi iqtisodiy va ijtimoiy omillar va hodisalarning yig'indisini o'rganadi. Mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqaruvchi kuchlarni mintaqaviy rivojlantirish uchun iqtisodiy strategik pozitsiyalarni ishlab chiqadi, bu esa mamlakat iqtisodiyotining hududiy tashkil etilishini takomillashtirishni belgilaydi.

Mintaqaviy iqtisodiyotning o'rganish predmeti ishlab chiqaruvchi kuchlarni taqsimlash xususiyatlari va qonuniyatlari hamda hududlarning rivojlanishi, joylashish omillari va hududiy rivojlanishdir. Mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiy geografiya bilan chambarchas bog'liq, ammo fundamental masalalar bilan shug'ullanadigan ikkinchisidan farqli o'laroq, u amaliy, amaliy tadqiqot natijalariga qaratilgan. Ushbu pozitsiyalardan kelib chiqqan holda, mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiy geografiyaga qaraganda ko'proq iqtisodiyotga qaratilgan.

Mintaqaviy iqtisodiyotning fan sifatidagi vazifalari mamlakat hududlarining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, amaliy yechimlari uchun zarur bo'lgan yangi nazariy muammolarni shakllantirish va ishlab chiqishdan iborat. U mamlakat hududlarining tabiiy resurs salohiyati, aholisi, mehnat resurslari va zamonaviy demografik muammolarni

o'rganadi. Shuningdek, u mamlakat hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirish konsepsiyalarini ishlab chiqish, mintaqaviy rivojlanish jarayonlariga iqtisodiy ta'sir ko'rsatish dastaklarini ishlab chiqish bilan ham shug'ullanadi.

Mintaqaviy iqtisodiyotni o'rganish ob'yekti mamlakat, viloyat va tumanlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hisoblanadi. Iqtisodiyotning hududiy tuzilishi tarmoq tuzilmasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, iqtisodiyotning tarmoqlar, kichik tarmoqlar, ishlab chiqarish turlari murakkab ichki va tarmoqlararo munosabatlarga bo'linishini aks ettiradi. Har bir sanoat, korxonalar yoki ishlab chiqarish ma'lum bir hududda joylashgan, o'ziga xos hududiy mahalliylik xususiyatiga ega.

Iqtisodiyotning hududiy tuzilishini shakllantirishni ta'minlovchi omillarga yer osti boyliklari, yoqilg'i-energetika, suv, o'rmon xo'jaligi, yer, mehnat resurslari, iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyat, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma, aholi joylashuvi kiradi.

Hududlar turli tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, resurslar va sharoitlarda sezilarli darajada farqlanadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar va resurslarning kombinatsiyasi har bir hudud uchun o'ziga xosdir. Shuning uchun alohida hudud o'ziga xos iqtisodiy tuzilmasi bilan ajralib turadi va respublika ichidagi mehnat taqsimotida ma'lum o'rinni egallaydi.

Mintaqaviy iqtisodiyot fani predmet, ob'yekt va tadqiqot metodlari jihatidan hududiy boshqaruv (menejment) faniga juda yaqin. Lekin asosiy farq shundaki, hududiy boshqaruv hududni iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarini ma'lum prinsiplar, metodlar, vositalar, shakllar asosida chuqur o'rganib boradi va shu asnoda boshqaruv qarorlari, boshqaruv yechimlari, boshqaruvga oid bo'lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan yechimlar topish usullarini o'rgatadi. Boshqacha qilib aytganda, hududiy menejment – hudud darajasidagi jarayonlarni boshqarish va muvofiqlashtirish asosida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatning ilmiy va amaliy jihatlarini o'rganadi.

Hududiy boshqaruvning davlat boshqaruvi bilan birgalikda qaralishi davlatning asosiy ustuvor vazifalarni amalga oshirishi, ustuvor tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va loyihalarni ro'yobga chiqarishi,

qolaversa, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdagi barcha jabhalar hududda amalga oshiralayotgan chora-tadbirlar bilan bevosita bog'langan bo'lib, hududning salohiyati, imkoniyatlari va resurslari bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak.

Shu sababli hududni rivojlantirishda, albatta, birinchi o'rinda davlatning manfaatlari va siyosatidan kelib chiqiladi va o'z navbatida, bevosita hududni o'ziga taalluqli bo'lgan muammolar, masalalar va ularning yechimlari topiladi. Mana shu jarayonda hududda yashayotgan aholining mafaatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan boshqaruv yechimlari samarali hisoblanadi.

Mintaqaviy siyosatning zaruriyati bir vaqtning o'zida barcha hududlar iqtisodiyotini bir darajada rivojlantirib bo'lmagligidan kelib chiqadi. Binobarin, mintaqaviy siyosat rivojlanishi mumkin va mamlakat uchun muhim bo'lgan ustuvor yo'nalish va tarmoqlarga qaratiladi. Shu mazmunda u mintaqaviy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi, amaliy (konstruktiv) yo'nalishi hisoblanadi; mintaqaviy siyosat hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi vaziyatni dinamik holda muvofiqlashtirish va barqarorlashtirishga harakat qiladi.

Mintaqaviy siyosatning asosiy maqsadi:


- Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni yumshatish va qisqartirish;
- Mahalliy tabiiy resurslardan foydalanish asosida mintaqaviy va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
- Mintaqalar yordamida mamlakatning eksport salohiyatini ko'tarish, iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash;
- Joylardagi ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish;
- Shahar va qishloq aholi manzilgohlarini rivojlantirish, urbanizatsiya hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solish va boshqarish;
- Ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri hududiy tashkil etish;
- Aholi bandligini yaxshilash va h.k.

Hududlarning raqobatga kirishishi va raqobatdoshligi nisbiy tushuncha bo'lib, ko'pgina omillar ta'sirida hamda jarayonlar dinamikasida shakllanib boradi. Mana shu jarayonda hududning joylashuvi, tabiiy-iqtisodiy salohiyati, infratuzilmasi hamda inson kapitali bilan birgalikda, hududda joylashgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobat salohiyati va raqobat ustunliklari hudud rakobatdoshligining tarkibiy qismi

hisoblanadi. Hudud rivojlanishidagi raqobat ustunliklari esa ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ichki omillari, shart-sharoitlari va mexanizmlaridan kelib chikib shakllanadi.

Hududning raqobatdoshligi hududdagi tabiiy resurslar, ishlab chiqarish omillarining (mehnat va kapital) rivojlanganligi, iqtisodiyotning ilmiy-texnik va texnologik darajasi, intellektual salohiyati, shuningdek, iqtisodiyotni boshqarish tizimi, hudud iqtisodiyotining institusional-huquqiy asoslariga bog'liq.

Raqobat salohiyati mintaqaning iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy jihatlarini keng qamrab oladi. Raqobat salohiyati raqobat ustunliklarini yuzaga chikarish uchun imkon yaratadi. Masalan, sanoatning raqobat salohiyati raqobat munosabatlarining tarkibiy elementi sifatida sanoatning samarali rivojlanishini ta'minlaydigan resurslarni o'z ichiga oladi. Hudud ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida ko'p tarkibiy qismlardan tashkil topadi (19-rasm).



19-rasm. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining tuzilishi

Omili yondashuvda mintaqaning raqobatdoshlik salohiyati mintaqaning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va birinchi navbatda, aholining turmush sharoitini yaxshilash uchun mavjud bo'lgan va foydalanadigan turli moddiy resurslar, vositalar va manbalar majmuidan

iborat. Omili yondashuvga ko'ra raqobat salohiyati quyidagi omillar guruhidan iborat bo'ladi:

- moliyaviy salohiyat – korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy holati, mahalliy byudjetning likvidligi va mustaqilligini, moliya-bank sektorining barqarorligini aks ettiruvchi determinantlar;
- tabiiy resurs salohiyati – tog'-kon, qishloq xo'jalik yerlari, suv resurslari va boshkalar;
- ma'muriy-boshqaruv salohiyati – boshqaruv organlarining ish samaradorligi, kadrlar malakasi va ularning sifat ko'rsatkichlari;
- ijtimoiy salohiyat – hudud aholisining turmush darajasini tavsiflovchi sog'liqni saqlash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, o'rtacha ish haqi, aholi daromadlari va xarajatlari tarkibi, aholi jamg'armalari va boshqa ko'rsatkichlar;
- ta'lim salohiyati – ta'lim tizimi, hududni yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash orqali boshqaruv sifatini oshirish hamda inson kapitali sifatini oshirishdagi resurslar;
- infratuzilma salohiyati – hududning muhandislik, kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq resurslar;
- tadbirkorlik salohiyati – hudud iqtisodiyotida tadbirkorlik va ishbilarmonlik muxitini rivojlantirishga unaltirilgan resurslar;
- texnologik salohiyat – hududning imitatsion va innovatsion salohiyati, yuqori texnologiyali tarmoqlarning mavjudligi, asosiy vositalarning eskirganlik darajasi, hududning imitatsion va innovatsion qobiliyati va boshkalar.

Raqobat salohiyatini baholashning omili yondashuvi hududning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlanishini miqdoriy jihatdan baholash imkonini beradi. Lekin hududning iqtisodiy o'sishida mavjud salohiyatdan sifatli va samarali foydalanish imkoniyatlari va zaxiralari yetarli darajada ochib berolmaydi.

Shu sababdan, hududning raqobat salohiyatini natijaviylik nuqtai nazaridan o'rganish hududning raqobat ustunliklari namoyon bo'lishi jarayonida salohiyat elementlarining mavjudligi va o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda uni sifat tomondan aniqlash imkonini beradi. Iqtisodiyot fanida raqobat ustunliklarini aniqlash usullari hamon xalqaro savdning klassik

nazariyasiga (mutlaq va qiyosiy ustunliklar nazariyasi) asoslanadi. Mutlaq ustunliklar nazariyasida Adam Smit²² iqtisodiyotning ixtisoslashuviga asoslangan mehnat taqsimotiga e'tibor qaratgan. Ungako'ra, xalkaro mehnat taqsimotida iqtisodiyotning samaradorligini ta'minlovchi mamlakatning mutlaq ustunliklari hisoblanadi. Bu g'oyalarni takomillashtirgan David Rikardo²³ mutlaq ustunliklar rasional mehnat taqsimoti yoki ixtisoslashuvga umumiy yondashuvning faqatgina bir qismi ekanligini isbotladi. Mamlakat nisbiy (solishtirma) ustunligining yetakchi omili – eksport qilinadigan tovarlar xarajatlarining nisbatan tejashga imkon yaratuvchi qulay shart-sharoitlarning mavjudligidir. Ushbu yondashuvlar Ye.Xeksher va B.Olin tomonidan ishlab chiqarish omillarining nisbati nazariyasida yanada rivojlantirildi.

Raqobat salohiyatining omilli komponentlari majmui hududning global va mintaqalararo bozorlarga (tovarlar, xizmatlar, kapital) integrasiyalashuviga ko'mak beruvchi ichki va tashqi muhitning qulay sharoitlarida qiyosiy ustunliklarni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kelgusida esa ushbu jarayonlarning davomiyligi ichki va tashqi muhit sharoitiga karab qiyosiy ustunliklari hududning raqobatdagi o'rnini (pozitsiyasini) belgilab beradi.

Hududning raqobatdagi o'rnini tasniflashning uchta asosiy, ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik belgilari mavjud. Hududning raqobatdoshligini baholashda M.Porterning biznes raqobatdoshligiga bergan ta'rifiga asoslangan holda mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi (mehnat va kapital unumdorligi), aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi va dinamikasi kabi ko'rsatkichlarni boshqa hududlar bilan taqqoslagan holda xulosalar chiqarish mumkin.

O'zbekistan mustaqillikning boshidanoq hududlarni rivojlantirish borasida sezilarli muammolarga duch keldi va tayyor sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo'lmagan hududlarda texnologik jihatdan ortda kolish holatlari kuzatila boshlandi. Buni birinchi navbatda, hududlar o'rtasida o'rtacha aholi daromadlaridagi tafovutlanishning kuchayishida ko'rish mumkin. Asosan, qishlok xo'jaligi mahsulotlari

²² Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. В2-х т.-М.:Наука, 1993. - 570 с.

²³ Афанасьев В.С. Давид Рикардо. - М.: Экономика, 1988. - 128 с.

yetishtiradigan va qo'shilgan qiymat darajasi past bo'lgan hududlarda aholining yashash darajasining pasayishi kuzatildi.

Biroq sanoat jixatdan rivojlangan hududlarda ham sanoatning pasayish holati qayd etildi. Toshkent, Samarqand va Namangan viloyatlaridagi yengil va ozik-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlari keskin pasayib ketdi.

Hududlarning mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan markazlashtirilgan investisiya mablag'larini taksimlashda ularning o'ziga xos jihatlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy holatlariga yetarli darajada e'tibor berilmadi. Resurslarning samarasiz taqsimlanishi hududlar rivojlanishidagi nomutanosibliklar kuchayishi va hududiy muvozanatning buzilishiga sabab bo'ldi. Natijada, hududlar umumiy iqtisodiy rivojlanishidagi farqlanish (differensiasiya) 2–3 marta, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishdagi tafovut 3–4 marta yetdi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda hududiy muvozanatni saqlash muhimligi va bu borada jiddiy muammolar yig'ilib qolganligi faqat 2017 yildan tan olina boshlandi.

O'zbekistan mustaqilligining dastlabki yillarida hududlar rivojlanishida bir qancha jiddiy muammolar yuzaga keldi. Tayyor sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo'lmagan hududlarda texnologik jihatdan ortda qolish holatlari yaqqol kuzatila boshladi. Bu o'z navbatida, hududlarda o'rtacha aholi daromadlaridagi tafovutlanishni kuchaytirdi. Asosan, qishlok xo'jaligi mahsulotlari yetishtiradigan hamda qo'shilgan qiymat darajasi past bo'lgan ishlab chiqarishga asoslangan hududlarda aholining yashash darajasi pasayib bordi.

Industrial jihatdan rivojlangan hududlarda xam sanoat ishlab chiqarish hajmida pasayishlar kuzatildi. Toshkent, Samarqand va Namangan viloyatlarida mavjud yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlari keskin pasayib ketdi.

O'zbekistonda hududlar rivojlanishiga alohida e'tibor 2017 yildan tegishli tizimli choralar va hududiy boshqaruvning zamonaviy mexanizmlari va usullari orqali amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Xususan, kam rivojlangan hududlar va ayrim tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi hududlarni

(viloyatlar, tumanlar va shaharlar) har tomonlama va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligi vazifasini belgilab berdi. Ushbu strategiya hududlarda sanoatni rivojlantirish va ishlab chikarish salohiyatini oshirishga hamda mahalliy xomashyo, resurslar asosida tayyor mahsulotlar ishlab chikarishga yo'naltirilgan maqsadli hududiy dasturlarni qabul qilishga asos bo'ldi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar sust rivojlangai qishloq hududlarida mahalliy xomashyoni qayta ishlash, qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmasini yaxshilash orqali sanoatlashgan markazlarni tashkil qilish imkonini berdi. Bu esa yetarli darajada iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkoniga (saloxiyat, resurs va zaxiralarga) ega hududlar uchun o'zining hududiy muvozanatini ta'minlashda mavjud muammolarni mustaqil hal qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Hudud (mintaqa) iqtisodiyotini rivojlantirishda omillar alohida ahamiyatga ega va aholining hayot faoliyatini ta'minlash, hududlarning strategik rivojlanish rejalari va dasturlarini amalga oshirishning asosiy resurslari sifatida qaraladi. Hudud iqtisodiyotining rivojlanish jarayoni uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan omillar va shart-sharoitlar tizimining o'zgarishi bilan birga keladi.

Hudud iqtisodiyotining rivojlanish omillari tasnifini quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Hududiy omillar: transport-geografik joylashuvi; tabiiy-resurs; iqlim; tursitik-rekrasion salohiyati.

2. Administrativ (ma'muriy) omillar: Hududda menejment sifati; jamoat tashkilotlari va birlashmalar orqali jamiyat bilan muloqot qilish uchun hokimiyatning ochiqligi, hududda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik; hududiy dasturlarni amalga oshirish.

3. Iqtisodiy omillar: ishlab chiqarish omillari; innovasion; talab va taklif omillari.

4. Institusional omillar: biznes yuritishning rasmiy qoidalari; norasmiy qoidalar – hududni rivojlantirishda ham zaxira, ham cheklovchi omil bo'lishi mumkin; hududda tarkibiy va institusional bozor islohotlarining yakunlanganlik darajasi; in'stitutlar tizimi va ularning holati.

5. Demografik omillar: Aholi (yosh tarkibi, daromadlari, umr ko'rish davomiyligi, tug'ilish darajasi, o'lim darajasi, migratsiya), aholining joylashuvi tizimi, aholi zichligi, sifati, mehnat resurslari tarkibi.

6. Infratuzilma omillari: Har xil turdagi infratuzilmalarning mavjudligi, holati, xavfsizligi, foydalanish imkoniyati.

Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, tuman va shaharlarni ularning sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, davlat ko'magini berish tartibini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida, 2023 yil 1 yanvardan boshlab, respublika tuman va shaharlarini 5 ta toifaga ajratish va tuman va shahar toifasidan kelib chiqib, tadbirkorlik sub'yektlariga-soliq imtiyozlari, subsidiyalar va ularni qo'llab-quvvatlashning boshqa choralarini qo'llash tartibi joriy etildi²⁴.

Mintaka iqtisodiyotini o'rganishda bir kancha tadqiqot metodlari mavjud: ulardan asosiylari sifatida kiyosiy tahlil va tanlanma kuzatishning umumilmiy metodlari, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik metodlar, ko'p omilli ekonometrik tahlillar, funksional tahlil, ekspert baholash metodlari, sosiologik tadkikotlar qo'llaniladi.

Iqtisodiy siyosat aniq iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun ishlab chiqilganligi sababli, bir nechta maqsadlarning mavjudligi zarur deb e'tirof etiladi. Rivojlangan mamlakatlarda quyidagi maqsadlar keng e'tirof etilgan:

- Iqtisodiy o'sish
- To'liq bandlik
- Iqtisodiy samaradorlik
- Barqaror narx darajasi
- Iqtisodiy erkinlik
- Daromadlarni adolatli taqsimlash
- Iqtisodiy kafolatlar
- Savdo balansi

Ushbu maqsadlarning ba'zilari bir-birini to'ldiradi. Ulardan biriga erishilganda, bir vaqtning o'zida bir nechta boshqalariga erishiladi. Ba'zi

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tashkil etilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son Farmoni

maqsadlar bir-biriga zid bo'lishi mumkin. Bu murosaga kelishni talab qiladi. Maqsadlar bir-biriga zid bo'lsa, jamiyat o'z oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirishda ustuvorliklar tizimini ishlab chiqishga majburdir.

Takror ishlab chiqarish jarayonining mintaqaviy nisbatlari, bu nisbatlar o'z-o'zidan yoki davlat tomonidan tartibga solish choralari ta'siri natijasida rivojlanishidan qat'i nazar, har qanday mamlakat iqtisodiy modelining asosiy elementlaridan biridir. Hozirgi vaqtda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan aksariyat mamlakatlarida mintaqaviy iqtisodiy siyosat shakllangan yoki shakllanmoqda.

Hududlarni rivojlantirish strategiyasi – bu hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan maqsad, vazifalar va ustuvor jihatlarini o'zida aks ettiruvchi hujjat bo'lib, mahalliy hokimiyat organlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni belgilashda dastur sifatida xizmat qiladi.

Hududlarni rivojlantirish strategiyasi strategik rejalashtirish orqali shakllantiriladi. Strategik rejalashtirishga ishtirokchilarining strategik rejalashtirishga oid hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan tashabbus ko'rsatishi, ularni ishlab chiqishi va amalga oshirishi bo'yicha kelishilgan faoliyatini tashkil etish orqali mamlakatni barqaror rivojlantirishning, hududlar, tarmoqlar va sohalarni uzluksiz rivojlantirishning ustuvor maqsadlariga erishish uchun davlat siyosatini amalga oshirishga doir faoliyat sifatida qarash mumkin.

Hududlarni rivojlantirish siyosati davlat boshqaruvini markazlashgan tizimdan nomarkazlashgan tizimga o'tkazish tamoyiliga va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish prinsipiga mos kelishi muhim ahamiyatga ega. Bunda hududlarni barqaror rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar, kompleks dastur va loyihalar vositasida amalga oshiriladigan iqtisodiy siyosatning samaradorligi ko'p jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish sifati, mavjud resurslardan oqilonafoydalanishga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida hududlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash vakolati Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari, ya'ni hokimliklar va xalk deputatlari mahalliy kengashlariga yuklatilgan.

Xulosa

Hududlarni rivojlantirishni strategik rejalashtirish bugungi kunda davlat siyosatining eng muhim vositalaridan biri sifatida ko'riladi. Jahon tajribasini tahlil qilish davlat tomonidan rejalashtirish va bozor mexanizmlarining uyg'unlashuvi nafaqat mumkin, balki muqarrar ekanligini tasdiqlaydi. Rejalashtirishning zamonaviy sifatining asosiy xususiyati direktiv usullardan voz kechish, hokimiyat tuzilmalari, jumladan, hududiy hokimiyat organlari, hududdagi turli xo'jalik yurituvchi sub'yektlar bilan, zarur hollarda esa aholi bilan sheriklik munosabatlariga asoslangan rejalashtirishga o'tishdir. Bunday ilmiy prognozlar, maqsadli dasturlar, balans hisob-kitoblari va qarorlarni optimallashtirish usullarini, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sohasidagi maqsad va vazifalarni belgilashda strategik boshqaruv elementlarini, ularni amalga oshirish yo'llari va ularning amalga oshirilishi muddatlarini tizimli qo'llashga asoslanishi mumkin.

Hududiy prognoz va rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqishda raqobat omillarini hisobga olgan holda rivojlanish istiqbollari aniqlashda SWOT (strengths, weaknesses, opportunities and threats – kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar) tahlili elementlaridan foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejaları va dasturlarini amalga oshirish mexanizmlariga loyihalarni boshqarish texnologiyasini joriy etish lozim. Ushbu elementlar bir xil sxema bo'yicha ozgina o'zgartirishlar bilan qo'llaniladi: SWOT tahlili "o'sish nuqtalari"ni aniqlash, ustuvor muammolarni aniqlash, maqsadlarni aniqlash, strategiyani ishlab chiqish va strategiyani amalga oshirishni nazarda tutadi.

Asosiy atama va tushunchalar

Hududlarni rivojlantirish siyosati
Mintaqaviy iqtisodiy
Hududlarni rivojlantirish strategiyasi
Erkin iqtisodiy zonalar
Hududning raqobatdoshligi
Ijtimoiy salohiyat
Ta'lim salohiyati
Infratuzilma salohiyati

Tadbirkorlik salohiyati

Nazorat savollari

1. Tadqiqot predmeti va hududiy iqtisodiyotning asosiy vazifalarini aytib bering.
2. «Hudud», «mintaqa», «makon» tushunchalarining bir-biridan farqi nimada?
3. Hududning investision jozibadorligi
4. Muammoli hududlarga misollar keltiring.
5. Makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot va mintaqaviy iqtisodiyot bir-biri bilan qanday bog'liq?
6. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy kompleksining shakllanishi va faoliyati.
7. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni taqsimlash qonuniyatlari, tamoyillari va omillari.
8. Iqtisodiyot tarmoq joylashuvining tuzilishi

20. Institusional o'zgarishlar va bozor infratuzilmasining shakllanishi

Institusionalizm yoki institusional iqtisodiyot – bu an'analar, axloq, huquq, oila, jamoat birlashmalari, davlat va boshqalar kabi ijtimoiy institutlarning evolyusiyasi va ularning odamlarning iqtisodiy xulq-atvorini shakllantirishga ta'sirini o'rganuvchi iqtisodiy nazariya maktabi.

Institusional o'zgarishlar – institusionalizmning aksariyat sohalarida turli siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy institutlarning miqdoriy va sifat o'zgarishlari va o'zgarishlarining uzluksiz jarayoni. Institusional o'zgarishlar institusional muhitda sodir bo'ladi, lekin ular qoidalarning o'zgarishi darajasida emas, balki ushbu muhitda faoliyat yurituvchi va ushbu muhitni belgilovchi institutlarning o'zgarishi darajasida namoyon bo'ladi.

Institusionalizm asoschisi Torsteyn Veblen bu haqida bunday yozgan: evolyusiya butun jamiyatning omon qolishi va farovonligi uchun eng qulay bo'lgan xatti-harakatlar shakllarini tanlash va mustahkamlash orqali institusional o'zgarishlar bilan birga keladi. Uning ta'kidlashicha, ijtimoiy evolyusiya – bu odamlarning birgalikdagi hayot sharoitlari ta'sirida fikrlash

usullarini tanlash va moslashtirish jarayonidan boshqa narsa emas. Fikrlash shakllarini moslashtirish – bu institutlarning rivojlanishi demakdir.

Duglas Nortning (1993 yilgi Nobel laureati) fikricha, institusional o'zgarishlar murakkab jarayondir, chunki chegaraviy o'zgarishlar qoidalarning o'zgarishi, norasmiy cheklovlar, qoidalar va cheklovlarni qo'llash usuli va samaradorligi natijasida yuzaga kelishi mumkin. U institusional o'zgarishlarni texnologik o'zgarishlar bilan bir qatorda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari hisoblaydi. Institusional o'zgarishlar jamiyatlarning vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanishini belgilaydi va shuning uchun tarixiy o'zgarishlarni tushunishning kalitidir.

Institusional iqtisodiyotni rivojlantirishda institusional innovasiyalar katta ahamiyatga ega; rasmiy va norasmiy qoidalar va ularning o'zaro ta'sirida amalga oshiriladigan innovasiyalar. Y. Shumpeter iqtisodiy rivojlanish nazariyasini asoslab, innovasiyaning quyidagi asosiy turlarini ajratgan: mashhur mahsulot ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini joriy etish, yangi mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulot va resurslarning yangi bozorlarini ochish hamda tashkiliy jihatdan kiritilgan yangilik. Yangi ishlab chiqarish omillarining asosiy yaratuvchisi bo'lib, ma'lum bir faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi tadbirkor hisoblanadi.

O'z manfaatlarini ko'zlab, shaxslar bir-biri bilan to'qnashadi, ba'zan bir-biriga yetarlicha katta zarar yetkazadilar. Odamlarning o'zaro aloqalarining salbiy oqibatlarini bartaraf etish yoki kamaytirish uchun institutlar – odamlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarini belgilab beruvchi cheklovchi tartib-qoidalar yaratiladi. Institutlar ma'lum harakatlar majmui natijalarini, ya'ni ushbu harakatlarga ijtimoiy reaksiya qilish imkonini beradi va shu bilan iqtisodiy tanlov muammosini osonlashtiradi va yuqori darajadagi iqtisodiy barqarorlikni olib keladi. Institutlar ma'lum chegaralarda shaxsning harakatlari erkinligi va xavfsizligini ta'minlaydi. Institutlar bir qator muhim funksiyalarni bajaradi:

1. Iqtisodiy sub'yektlarning bir-biriga zarar yetkazmasliklari uchun xatti-harakatlarini tartibga solish.

2. Axborot uzatish jarayonini tashkil etish (o'rgatish).

3. Ma'lumot qidirish va shartnomalar tuzish bo'yicha harakatlarni minimallashtirish.


4. Mulk huquqlarining o'ziga xosligi va himoyasi.

Institutlar jismoniy shaklga ega emas. chunki ular taqdimat sifatida mavjud bo'lib, odamlarning faoliyati orqali amalga oshiriladi. Odatda, rasmiy (qattiq) va norasmiy (yumshoq) institutlar ajratib ko'rsatiladi. Birinchisi huquqiy tizim shaklida taqdim etilsa, ikkinchisiga an'analar, urf-odatlar, xatti-harakatlarning (xulq-atvor) stereotiplari, ijtimoiy va ishbilarmonlik etikasi me'yorlari, shuningdek, kundalik o'zini tutish tartib namunalari kiradi. Rasmiy va norasmiy institutlar har doim ham bir-biriga mos kelmaydi.

Institutlar avvalgi mavjud bo'lgan tartib-qoidalaridan olinadi va meroslik bo'lish xususiyatiga ega. Ularda rag'batlantirish tizimi ham mavjud. Agar ijobiy va salbiy rag'batlantirish tizimi bo'lmasa, muassasa mavjudligiga qiziqish paydo bo'lmaydi.

Iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan bir qatorda institusional manfaatlarni amalga oshiruvchi institutlarga oid munosabatlar ham mavjud. Institusional manfaatlar ushbu faoliyat natijalarining samaradorligini oshirish maqsadida sub'yektlarning iqtisodiy faoliyatini cheklovchi qoidalar, tartiblar, asoslarni ishlab chiqish bo'yicha harakatlardan iborat (20-rasm).

Ideal institusional munosabatlar tranzaksiya xarajatlarini nolga tushirishdan iborat bo'lib, bu Kouz (Ronald Harry Coase – ingliz iqtisodchisi, yangi institusionalizm asoschilaridan biri, 1991 yildagi iqtisod bo'yicha Alfred Nobel mukofoti sovrindori) teoremasining qoidalariga mos keladi. Biroq, muhim muammo shundaki, institutlar har doim ham mukammal bo'lmaydi. Institusional munosabatlar o'z daromadlarini maksimal darajada oshirishdan manfaatdor bo'lishi mumkin bo'lgan sub'yektlar va umumiy institusional manfaatlarga mos kelmaydigan institutlar o'rtasida yuzaga keladi. Boshqa tomondan, institutlarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayondir – rasmiy institutlarni bir zumda o'zgartirib bo'lmaydi, norasmiy institutlarni esa bir necha avlodlar davomida o'zgartirish mumkin. Institutlarning importi ham har doim kerakli natijani bermaydi, chunki o'zlashtirib olingan institusional asosni mavjud institusional tizimga integrasiya qilish qiyin.




20-rasm. Institusional muhit

Institutlar jismoniy shaklga ega emas, chunki ular faqat faoliyatda mavjud bo'lib, odamlarning faoliyati orqali amalga oshiriladi. Odatda, rasmiy (qattiq) va norasmiy (yumshoq) institutlar ajratib ko'rsatiladi. Birinchisi huquqiy tizim shaklida taqdim etilsa, ikkinchisiga an'analar, urf-odatlar, xatti-harakatlarning (xulq-atvor) stereotiplari, ijtimoiy va ishbilarmonlik etikasi me'yorlari, shuningdek, kundalik o'zini tutish tartib namunalari kiradi. Rasmiy va norasmiy institutlar har doim ham bir-biriga mos kelmaydi.

Institutlar avvalgi mavjud bo'lgan tartib-qoidalardan olinadi va meroslik bo'lish xususiyatiga ega. Ularda rag'batlantirish tizimi ham mavjud. Agar ijobiy va salbiy rag'batlantirish tizimi bo'lmasa, muassasa mavjudligiga qiziqish paydo bo'lmaydi.

Iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan bir qatorda institusional manfaatlarni amalga oshiruvchi institutlarga oid munosabatlar ham mavjud. Institusional manfaatlar ushbu faoliyat natijalarining samaradorligini oshirish maqsadida sub'yektlarning iqtisodiy faoliyatini cheklovchi qoidalar, tartiblar, asoslarni ishlab chiqish bo'yicha harakatlardan iborat (20-rasm).

Ideal institusional munosabatlar tranzaksiya xarajatlarini nolga tushirishdan iborat bo'lib, bu Kouz (Ronald Harry Coase – ingliz iqtisodchisi, yangi institusionalizm asoschilaridan biri, 1991 yildagi iqtisod bo'yicha Alfred Nobel mukofoti sovrindori) teoremasining qoidalariga mos keladi. Biroq, muhim muammo shundaki, institutlar har doim ham mukammal bo'lmaydi. Institusional munosabatlar o'z daromadlarini maksimal darajada oshirishdan manfaatdor bo'lishi mumkin bo'lgan sub'yektlar va umumiy institusional manfaatlarga mos kelmaydigan institutlar o'rtasida yuzaga keladi. Boshqa tomondan, institutlarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayondir – rasmiy institutlarni bir zumda o'zgartirib bo'lmaydi, norasmiy institutlarni esa bir necha avlodlar davomida o'zgartirish mumkin. Institutlarning importi ham har doim kerakli natijani bermaydi, chunki o'zlashtirib olingan institusional asosni mavjud institusional tizimga integrasiya qilish qiyin.



20-rasm. Institusional muhit

Institusional ta'minot milliy o'ziga xoslik masalasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu nemis tarixiy maktabi vakillarining tadqiqotlarida birinchi o'ringa qo'yilgan. Ular barcha mamlakatlar uchun umumiy iqtisodiy qonunlar mavjudligini inkor etganlar va har bir davlatning milliy iqtisodiyotining o'ziga xosligini ta'kidlaganlar. Shu bilan birga, ular «madaniyat» va «sivilizasiya» tushunchalarini bir-biridan farqlash orqali turli mamlakatlarda xo'jalik yuritish faoliyatining o'xshash shakllari va rivojlanishining o'ziga xosligi haqidagi tezislar o'rtasidagi aniq ziddiyatni tushuntirganlar. Ular madaniyatni barqaror ijtimoiy-psixologik xususiyatlar va milliy hayotning "tuproq" asoslari (din, an'analar, san'at, ruh), sivilizasiya esa ijtimoiy hayotning tashkiliy shakllari (siyosiy va iqtisodiy tizimlardan tashkil topishi va insonning texnik vositalari orqali tabiatga ta'siri) deb tushunganlar.

Milliy trayektorianing barqarorligini D.Nort batafsil o'rgangan. Nortning fikricha, rasmiy institutlar har qanday institusional tizimning faqat kichik qismini egallaydi. Institusional tizimning asosiy qismini norasmiy institutlar tashkil etadi va ular barqaror bo'lishga moyildir. Ular juda sekin rivojlanadi va keskin o'zgarishlarga, ayniqsa, begona institutlarning boshqa jamiyat va madaniyatlarning kirib kelishiga qarshilik ko'rsatadi. Umuman olganda, institusional tizim asta-sekin rivojlanadi. Har bir keyingi rivojlanish avvalgi mavjud institutlarga asoslanadi.

Institusional tanlov odatda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar dastagini boshqaradigan ijtimoiy guruhlar tomonidan amalga oshiriladi va bu tanlov har doim ham uzoq muddatli butun jamiyatning iqtisodiy manfaatlariga mos kelmaganidek, har doim ham ishlab chiqarish institutlarini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan bo'lmaydi. Natijada, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari past bo'lgan mamlakatlar uzoq vaqt davomida muvaffaqiyat keltiradigan institutlarni o'zlashtirish orqali vaziyatni tuzatishga intilmaydilar.

Milliy iqtisodiyotning shakllanishi davrida norasmiy normalar institusional ta'minotning asosi bo'lgan. Biroq, aholi sonining ortishi va ijtimoiy aloqalarning farqlanishi bilan qonunchilik rasmiylashtirilgan iqtisodiy amaliyot sifatida paydo bo'la boshladi. Shu sababli, davlat milliy iqtisodiyotda qonun ijodkorligi monopoliyasiga ega bo'lib, milliy iqtisodiyotning institusional muhitini shakllantirishda alohida o'rin tutadi.

Amalga oshirilayotgan institusional islohotlar esa fuqarolik jamiyatini shakllantirish imkonini berdi, jumladan, so'nggi 2017–2021 yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari soni 20,7 foizga ko'paydi. Mahalla instituti mustahkamlandi, uning roli va mavqei kuchaytirildi, mustaqil ommaviy axborot vositalari yaratildi, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarini muhokama qilish va qabul qilishda ta'sir o'tkazish erkinligi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Axborot sohasidagi ishlar jiddiy kuchaytirildi, davlat organlari va tashkilotlari matbuot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining media makonida yuzaga kelayotgan muammolar, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar to'g'risida o'z vaqtida to'liq ma'lumot berishlari, jamiyat talablariga tezkor va munosib javob berish maqsadida ularning faoliyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Ijro hokimiyati, huquqiy islohotlarning amalga oshirilishi, hokimiyat organlarining aholi oldidagi hisobdorligi, inson huquqlariga rioya etilishi ustidan parlament nazorati sezilarli darajada kuchaytirildi.

Xususiy mulk institutini to'liq shakllantirish (shu jumladan, shaxsiy javobgarlikni rag'batlantirish, mehnatga motivasiya, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va boshqalar) huquqiy va auditorlik ta'minoti, axborot xizmatlari va kasbiy tayyorgarlik kabi asosiy infratuzilma elementlaridan foydalangan holda tashkil etish va rivojlantirish zarur.

Haqiqiy bozor institutlari, jarayonlari va mexanizmlari faoliyat yuritadigan eng muhim bozorlar – bu ishlab chiqarish omillari, moliyaviy va tovar bozorlari hisoblandi.

Bugungi kunda davlat rasmiy qonunlarni qabul qilish resursiga ega bo'lgan institusional loyihalash va qurishning asosiy sub'yekti sifatida raqobat muhitining iqtisodiy institutlarini o'zgartirishda bosh rolni o'ynaydi.

O'zbekistonda institusional o'zgarishlar sust kechib, institutlarni o'zgartirish jarayoni qarama-qarshiliklar, manfaatlar to'qnashuviga, fikrlar kurashiga to'la. Ularni amalga oshirish siyosati qanchalik izchil bo'lmasa, O'zbekistonda kapital va aqlli boshlar uchun jozibador bo'lgan raqobatbardosh institutlarni yaratish shunchalik ko'p vaqt talab etadi. Tovar va xizmatlarning global raqobatbardoshligiga erishish vazifasi ham shunchalik qiyin bo'ladi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimini o'zgartirish davrida institusionalizasiya jarayonini o'rganish dolzarb muammoga aylanadi. Boshqa har qanday

murakkab ko'p bosqichli tizim singari, iqtisodiy institutlarning ham turli tasniflari mavjud va **institusional tizimning beshta darajasini** ajratish mumkin.

1) Institusional tizimning xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning (davlat, uy xo'jaliklarining) iqtisodiyotning muayyan sharoitlarga moslashishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan institutlari kiradi.

2) Iqtisodiy institutlarning xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning o'zlari va uy xo'jaliklari shakllantiradi, ular o'z navbatida iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarning murakkab tizimiga ega (doimiy to'lov qobiliyatini saqlab qolish, foydalanilgan kapitalning rentabelligini oshirish, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, xodimlar uchun ish sharoitlari, qulay mikroiklimni ta'minlash va boshqa bir qator normalarni yaratish).

3) Ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy faoliyatning asosiy sub'yektlari (iqtisodiy faoliyat sub'yektlari, bank sektori, davlat organlari) o'rtasida xo'jalik yurituvchi ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydi. Ularning umumiy globallashuv sharoitidagi harakatlari institusional muhitni tashkil etuvchi xalqaro institutlar tomonidan muvofiqlashtiriladi.

4) davlat organlarining turli tarmoq va sohaga tegishi bo'lgan iqtisodiy institutlarning iqtisodiy siyosatini kiritish mumkin.

5) davlat iqtisodiy boshqaruvi organlari, yirik transmilliy korporasiyalar, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar kiradi.

Shu kunga qadar yer uchastkalarini tadbirkorlik faoliyati uchun berish, ya'ni auktsion orqali sotish amaliyoti mavjud edi. Chunki shu paytgacha O'zbekistonda zerni xususiyashtirish mumkin emas edi.

Bugungi kunda O'zbekistonda yer xususiy mulkka aylanmoqda va shu sohaga doir Qonunning qabul qilinishi o'z mohiyati va maqsadiga ko'ra tarixiy ahamiyatga ega hujjat hisoblanadi²⁵. Qonunning maqsadi – jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Jismoniy va yuridik shaxslar o'zlariga tegishli (qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan) yer uchastkalarini xususiyashtirishi mumkin bo'ldi.

²⁵2021 yil 15 noyabrda O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish to'g'risida"gi Qonuni.

Qonunga ko'ra, yer uchastkasini xususiyashtirish – ommaviy mulk bo'lgan yer uchastkasini O'zbekiston fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar va (yoki) O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar mulkiga o'tkazishdir. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish qonuniylik, ixtiyoriylik, haq to'lash, xususiyashtiriladigan yer uchastkalarining va ularda joylashgan ko'chmas mulk ob'yektlarining birligi, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshiriladi²⁶.

Erkin bozor munosabatlari va bozor infratuzilmasining shakllantirishning asosiy sharti bo'lgan mulk daxlsizligini ta'minlash xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti shunday deydi²⁷:

"Odamlarimizni kasb-hunarli qilish, ularning biznesiga keng yo'l ochish, haqiqiy mulkdor bo'lib, daromad topishi uchun zarur sharoitlarni yaratmoqdamiz.

Bundan buyon mulk huquqini cheklashga oid har qanday harakat faqat sud orqali bo'ladi. O'zbekistonda mulk va investisiyaning himoyachisi qaysidir hokim yoki vazir emas, faqat Konstitutsiya, qonun va sud bo'ladi.

Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o'rin egallashi kerak".

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda 2017 yilda boshlangan keskin ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davomida "yo'q bo'lib ketish" arafasida bo'lgan sohalarni "oyoqqa turg'izish" uchun yangi vazirlik va idoralarni tashkil qilishga to'g'ri keldi. Xususan, maktabgacha ta'lim, uy-joy kommunal, "mahallabay" ishlash, investisiya, davlat xizmatlari, davlat-xususiy sheriklik sohaslarida katta natijalarga erishildi.

Xulosa

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va mamlakatni jahon tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan ochiq iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor vazifalardan biridir.

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 fevraldagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish to'g'risida" 71-sen qarori

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o'zining 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi

Bozor munosabatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish va respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirishning asosiy sharti mulkchilik shakllarining xilma-xilligidir. Iqtisodiy tizimni o'zgartirish va bozor iqtisodiyotiga o'tish mulkchilikning butun tuzilmasi va uni amalga oshirish shakllarini tubdan o'zgartirishni talab qildi. Qulay ishbilarmonlik muhitini ta'minlash va har bir shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning samarali mexanizmini yaratish orqaligina respublika bozor iqtisodiyotini shakllantirish sari harakatlana oldi. Shu munosabat bilan O'zbekistonda iqtisodiyotning bozor o'zgarishlarining butun jarayoni ichki bozorni zarur iste'mol tovarlari va xizmatlari bilan to'ldiradigan, yangi ish o'rinlari yaratadigan, kichik biznesni shakllantirish va rivojlantirish, tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish muammosini hal qilish bilan chambarchas bog'liq.

Institusional muhitning yetukligi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlariga erishish, aholi farovonligini ta'minlashga hamda islohotlarning izchil, tizimli amalga oshirish, makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlashga bog'liq.

Asosiy atama va tushunchalar

Institusional iqtisodiyot
Institutlar
Norasmiy institutlar
Institusional islohotlar
Bozor infratuzilmasi
Bozor institutlari
Ishlab chiqarish omillari tasnifi
Iqtisodiy institutlar
Ma'muriy islohotlar

Nazorat savollari

1. Iqtisodiy manfaatlarning mohiyatini ta'riflab bering.
2. «Mulk» kategoriyasiga ta'rif bering, uning iqtisodiy mazmuni va mulkning iqtisodiy hodisa sifatida vujudga kelish tarixini ochib bering.
3. Milliy iqtisodiyot uchun mulk munosabatlarining ahamiyatini tushuntirib bering.

4. Mulkchilikning asosiy shakllarini mazmuni, har birining afzalliklari va kamchiliklari bo'yicha tavsiflab bering.

5. Turli ko'rinishlar bo'yicha mulkchilik shakllarining bir nechta tasniflarini keltiring.

6. Milliy manfaatning mohiyati, mazmuni va amalga oshirish shakllarini aytib bering.

7. Institusional o'zgarishlarning mexanizmlarini tavsiflang

21. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes

Tadbirkorlik va kichik biznes barqaror bozor iqtisodiyotining muhim elementlaridan biridir. U ijtimoiy-iqtisodiy institut bo'lib, usiz tarmoq va mintaqaviy monopoliya va ishsizlikni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish mumkin emas. Bundan tashqari, u sezilarli darajada yangi ish o'rinlarini yaratishda, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan o'rta sinfni shakllantirishga katta hissa qo'shadi hmda jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda ulkan rol o'ynaydi.

Tadbirkorlik – bu mulkka egalik qilish, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishdan muntazam ravishda foyda olishga qaratilgan, o'z tavakkalchiligida amalga oshiriladigan mustaqil faoliyat. Tadbirkor odatda innovator, yangi g'oyalar, tovarlar, xizmatlar va biznes/yoki protseduralar manbai sifatida ko'riladi. Bu yangi g'oya yoki ixtironi muvaffaqiyatli innovasiyaga aylantirishga tayyor va qodir bo'lgan va o'z vaqtini, kuchini va resurslarini boshqalar uchun qiymat yaratish uchun ishlatadigan odam.

Kichik biznesning asosiy funksiyalarini: innovasiyalar, monopoliyaga qarshi kurashish va tabiiy raqobat muhitini ta'minlash, ishsizlikka qarshi kurashish va yangi ish o'rinlari yaratish, aholining umumiy daromadlarini ko'paytirish va shunga mos ravishda iste'mol talabini kengaytirish, kasbiy faollikni oshirish, tadbirkorlik ko'nikmalari va ruhini rivojlantirish, fuqarolik jamiyatining o'ta muhim instituti sifatida, o'rta sinfni millatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini asosi sifatida shakllantirishda ko'rish mumkin.

Innovasiyalarni yaratish va tarqatish qobiliyati zamonaviy kichik biznesning eng muhim funksiyasidir. Postindustrial (industrial–axborot) jamiyatini shakllantirish jarayonlari innovasiyalarga asoslangan bo‘lib, bu o‘z–o‘zidan kichik korxonalarining jahonning yetakchi mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishidagi muhim rolini oldindan belgilab beradi.

1990 yillardan kichik biznes ilg‘or ilmiy–texnik ishlanmalarda yetakchi o‘rinni mustahkam egalladi. Bunday innovasion korxonalar qo‘llashda yangi atama paydo bo‘ldi – venchur (risk) biznes. Uning ma‘nosi ma‘lum bir ilmiy g‘oya yoki loyihani ishlab chiqish uchun tadqiqotchilar, muhandislar, olimlar guruhini kichik korxonalar shaklida tashkil etishdir. Bugungi kunda eng yirik va eng muvaffaqiyatli firmalar, xususan, venchur kichik korxonalaridan tashkil topgan Microsoft, Apple, Xerox va boshqa kompaniyalar keng tanilgan.

Ko‘pincha venchur kichik korxonalar yirik firmalar, konsernlarning moliyaviy ishtirokida tashkil etiladi. Bunday yirik korxonalar rahbariyati bu o‘z tuzilmalarida yillar davomida samarasiz tadqiqot guruhlarini ushlab turishdan ko‘ra ancha foydali deb hisoblaydi. Venchur kichik korxonalar moliyalashtirish (ko‘pincha bepul) ham davlat tomonidan byudjet mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Kichik korxonalar orqali amaliy ilmiy–konstruktorelik ishlanmalarini o‘tkazishning venchur shakli iqtisodiyot uchun o‘zining yuqori samaradorligini amalda isbotladi.

Innovasion komponent kichik biznesning ko‘plab sohalarida mavjud. Xavfsiz, “o‘rtacha” innovasionlikning ma‘nosi turli xil yangi texnologiyalar va materiallarni faol joriy etish, moslashtirish, ularning ishlanmalarini asoslashdir. Kichik biznes sub’yektlari mamlakatda ishlab chiqarish va biznes g‘oyalarini muvaffaqiyatli amalga oshiruvchi va tarqatuvchi o‘ziga xos “shimgich” bo‘lib xizmat qiladi. Bunday faoliyat kerakli ma‘lumotlarni o‘z vaqtida topgan va yangiliklarni birinchi bo‘lib tarqatganlar uchun paydo bo‘ladi. Bunday innovasion faoliyatda kichik korxonalar odatda o‘zlarining moslashuvchanligi tufayli yirik korxonalar ortda qoldiradilar. Kichik biznesning barcha innovasion faoliyati milliy iqtisodiyotlar uchun katta foyda keltirishi rivojlangan mamlakatlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Tadbirkorlik va kichik biznes bandlik muammosini hal etishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Yaponiya (78 foiz) va Italiya (71 foiz) eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jami

bandlar sonidagi ulushi bo‘yicha O‘zbekiston (78,2 foiz) va Rossiyada 25,6 foizga teng.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining umumiy soni juda katta bo‘lib, ular jami korxonalarining 95–99 foizini tashkil etadi (21–jadval).

21–jadval

Ayrim mamlakatlar iqtisodiyotida
kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni

Mamlakatlar	Kichik biznes sub’yektlari soni (ming)	1000 kishiga nisbatan kichik biznes soni	Kichik biznesda bandlik ulushi (%)	Kichik biznesning YAIMdagi ulushi (%)
Buyuk Britaniya	2930	46	56	50–53
Germaniya	2290	37	69,5	50–54
Italiya	3920	68	71	57–60
Fransiya	1980	35	54	55–62
AQSH	19300	74	54	50–52
Yaponiya	6450	50	78	52–55

Ming kishiga to‘g‘ri keladigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari bo‘yicha taqqoslasak, bu ko‘rsatkich bo‘yicha AQSH (ming kishiga – 74 korxonalar) yetakchi o‘rinda. AQSHda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining jami korxonalarining 99 foizini tashkil etadi. Bu korxonalarining asosiy qismi mkiro, kichik korxonalar bo‘lib, oila mehnatiga asoslanadi. Jami kichik korxonalarining 80 foizida ish bilan band bo‘lganlarning soni 10 kishidan oshmaydi.

Turli mamlakatlarda kichik va o‘rta biznes sub’yektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo‘lganlar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va b. ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Masalan, AQSHda ko‘pgina tarmoqlarda bandlar soni 100 kishidan, ishlov beruvchi sanoatda 500 kishidan kam xodimlar bo‘lgan korxonalar kichik biznesga kiritiladi.


Kichik biznesning yana bir muhim ijtimoiy vazifasi shundan iboratki, u ijtimoiy jihatdan zaif aholi qatlamlari – ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, pensionerlar va boshqalarni ham ish bilan ta‘minlaydi hamda ularning

mehnatidan keng foydalanadi. Yosh mutaxassislarni ishlab chiqarish tajribasi bilan ta'minlaydi.

Kichik biznesning rivojlanishi raqobatni kuchaytiradi, bu esa narxlarni pasaytiradi va tovarlar sifatini yaxshilaydi, **ishsizlik muammosini hal qilishga** yordam beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining 50% dan ortig'i ushbu sohada ishlaydi. Kichik korxonalar **milliy mahsulotning 30% dan 60% gacha bo'lgan qismini** ishlab chiqaradi.

Oksford universiteti olimi D.Libert ta'rifi e'tiborlidir: "Tadbirkorlik, shuningdek, biznesni tashkil etish, uni boshqarish va tegishli risklarni qabul qilish jarayoni, shaxs, kompaniya, tarmoq va hatto butun iqtisodiyotning iqtisodiy istiqbollarni o'zgartirishi mumkin".

AQSHning Tadbirkorlik bo'yicha milliy komissiyasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy iqtisodiyotda har qanday mamlakatning YAIMning o'sishi unda rivojlangan umumiy tadbirkorlik faolligi darajasi bilan korrelyasion chambarchas aloqa mavjud (21-rasm).



10-rasm. Kichik biznesning milliy iqtisodiyot rivojidagi roli

Butun dunyoda iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy dvigateli sifatida kichik va o'rta biznesning yetakchi roli butun e'tirof etilgan. Eng

rivojlangan davlatlarda kichik va o'rta biznesning YAIM ishlab chiqarishdagi ulushi 50 dan 70 foizgacha va ish bilan band bo'lganlarning umumiy soniga ham taxminan bir xil nisbatda (21.1-jadval).

21.1-jadval

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIM dagi ulushi, %

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2022
YAIM	31,0	38,2	60,8	64,6	55,7	51,8
Sanoat	12,9	10,0	26,6	40,6	27,9	25,9
Qurilish	38,4	50,9	52,5	66,7	72,5	71,6
Bandlik	49,7	64,8	74,3	77,9	74,5	74,6
Eksport	10,2	6,0	13,7	27,0	20,5	29,5
Import	22,8	33,7	35,8	44,5	51,7	49,4

Kichik korxonalar mahsulotlarining YAIMdagi ulushi 2022 yilda 51,8 foizni, sanoatda 25,9 foizni, qurilishda 71,6 foizni, eksportda 29,5 foizni, importda 49,4 foizni va jami bandlikda 74,4 foizni tashkil etgan. Agar 2000 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIM ulushi 31,0 foizni tashkil qilgan holda 2022 yilda esa ushbu sohani har tomonlama qo'llab-quvvatlash natijasida uning ulushi 51,8 foizga yetgan (21.2-jadval).

21.2-jadval

O'zbekistonda kichik biznes sub'yektlarining 2022 yilda iqtisodiyotdagi ulushi (umumiy hajmga nisbatan, %)

Sanoat	25,9	Eksport	29,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	95,3	Import	49,4
Investisiya	47,6	Yuk aylanmasi	71,1
Qurilish	71,6	Yo'lovchi tashish	93,2
Chakana savdo	79,4	Yo'lovchi aylanmasi	95,9
Xizmatlar	48,4		

O'zbekistonda 2023 yil 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) soni jami 523 556 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 90 177 tani va hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotganlarning eng ko'pi Toshkent shahrida 106 071 tani yoki jamiga nisbatan 20,3 % ni tashkil etgan.

O'zbekistonda 2022 yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 17,9 birlikni tashkil etgan. 2022 yilda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida 35,9 birlik, Navoiy viloyatida 24,8 birlik, Sirdaryo viloyatida 23,0 birlik, Jizzax viloyatida 21,5 birlik va Toshkent viloyatida 19,7 birlikni tashkil etgan.

AQSHda kichik biznes iqtisodiyotning tayanchi hisoblanadi: 30,2 mln.ga yaqin kichik biznes sub'yektlari mavjud bo'lib, bu mamlakatdagi barcha korxonalarining 99,9 foizini tashkil qiladi. Kichik biznes sektorida jami xodimlar sonining 47,5 foizi band bo'lib, yangi ish o'rinlarining 70 foizdan ortig'i va mamlakat YAIMning 62 foizi yaratiladi.

Koreya Respublikasida "**Kichik biznes – iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi**" shiori davlat miqyosida e'lon qilingan chsnki u mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Jumladan, Koreya Respublikasida kichik va o'rta biznesning umumiy korxonalar sonidagi ulushi 99,9 foizni, bandlikda 87,9 foizni va eksportda 37,5 foizni tashkil etadi. Xususan, 38 foiz ish o'rni mikrofirmalarda, 25 foizi kichik korxonalarda, 25 foizi o'rta korxonalarda va 12 foizi yirik va global korxonalariga to'g'ri keladi. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bilan 10 dan ortiq tashkilot shug'ullanadi va ularning aksariyati davlatga tegishli.

Mamlakatimizda 2026 yilga qadar ushbu sohada quyidagi vazifalar belgilangan²⁸:

– tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning YAIMdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish;

– har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan «Ochiq muloqoti»ni o'tkazish;

– hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznesinkubatorlar tizimini rivojlantirish hamda sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shartsharoitlarni yaratish;

– tadbirkorlik sub'yektlariga soliq yukini YAIMning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga tushirish;

– hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish;

– tadbirkorlik sub'yektlarining o'z faoliyatini boshlashlari uchun zarur ma'lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish hamda qurilish faoliyatida mavjud muammolarining oldini olish.

– iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiyl sektorga keng yo'l ochish hamda iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish.

O'zbekistonda kichik biznes barqaror iqtisodiyotning poydevori sifatida qabul qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari esa keng iste'mol tovarlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni qayta ishlash, aholiga xizmat ko'rsatish hamda ilmiy-innovasion faoliyatga yo'nalitirilishi kerak.

Xulosa

Kichik va o'rta biznes barqaror bozor iqtisodiyotining muhim elementlaridan biridir. Kichik va o'rta biznes ijtimoiyl-iqtisodiy institut bo'lib, u sanoat va hududlar rivojlanishida hamda monopoliya va ishsizlikni bartaraf etishda zarur bo'lgan sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda asosiy rol ni o'ynaydi. Bundan tashqari, kichik va o'rta korxonalar sezilarli darajada yangi ish o'rinlarini yaratadi, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan o'rta sinfni shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, jamiyatda ijtimoiyl-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, iste'mol bozorida tovar va xizmatlarning rivoji, sifati va ulkan assortimentini ta'minlaydi.

Kichik va o'rta biznes iqtisodiy rivojlanishga, fan-texnika taraqqiyotini tezlashtiradi, bozorni talab bo'lgan sifatli tovarlar bilan to'ldiradi, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishga katta ta'sir qiladi. Tadbirkorlik ijtimoiyl munosabatlar namoyon bo'lishining o'ziga xos shakllaridan biri sifatida nafaqat jamiyatning moddiy va ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi, balki har bir shaxsning qobiliyat va iste'dodini amaliy ro'yobga chiqarish uchun qulay zamin yaratadi.

²⁸ "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"

Asosiy atama va tushunchalar

Kichik va o'rtta biznes
Tadbirkorlik
Tadbirkorlik sub'yektlari
Korxonalar
Venchur korxonalar
Kredit
Xususiy sektor
Kambag'allikni qisqartirish
Savdo sohasi

Nazorat savollari

1. Kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ahamiyati.
2. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikka yaratilgan shart-sharoitlar.
3. Kichik biznes va tadbirkorlikning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili ekanligini ochib bering.
4. Kichik biznes va tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat.
5. Kichik biznes va tadbirkorlikning xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rni qanday?
6. Ijtimoiy barqarorlik va o'rtta sinfningshakilanishida tadbirkorlikning o'rni.
7. Kichik biznes va tadbirkorlik kambag'allik darajasini qisqartirishdagi roli

22. Raqobat va monopoliya.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi tabiiyki raqobat muhitini yaratishning erkin bozor munosabatlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishning asosiy shartiga aylandi. Raqobat nafaqat bozorning samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi, balki iqtisodiy faoliyatni yuritish natijasida yuzaga keladigan turli xil disproporsiyalarni tabiiy tartibga soluvchi mexanizm hisoblanadi.

Raqobatning kuchayishi sharoitida har bir korxonalar uchun uning raqobatbardoshligini saqlab qolish va oshirish vazifasi birinchi o'ringa chiqadi. Borgan sari ko'p korxonalar samarali raqobatni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishda menejmentning doimiy sa'y-harakatlari natijasida raqobatda g'alaba qozonishga intilmoqda.

Birinchi marta A. Smit "Xalqlar boyligini o'rganish" asarida raqobat tushunchasiga aniqlik kiritishga harakat qilgan shunday deb yozgan: "Agar taklifning qisqarishi bo'lsa, xaridorlar o'rtasida darhol raqobat boshlanadi, bu esa narxlarning oshishiga olib keladi. Biroq taklif juda katta bo'lsa, narx pasayadi va sotuvchilar o'rtasida raqobat kuchayadi".

A. Smit raqobatni bozorning "ko'rinmas qo'li" – bozorning avtomatik muvozanat mexanizmi bilan taqqoslagan. Smit ko'pgina asosiy qoidalar uchun asosli dalillar keltirgan va bu esa keyinchalik "ehtiyotlarni maksimal darajada qondirish" doktrinasining o'ziga xos aksiomasiga aylangan. Raqobat konsepsiyasini ishlab chiqishga katta kuch sarflagan iqtisodchi D. Rikardo shunday ta'kidlagan: "Ular iste'mol mahsuloti, uning ayirboshlash qiymati va uning narxlarini tartibga soluvchi qonunlar haqida gapirganda, u har doim shunday mahsulotni... , ishlab chiqarishga raqobat katta ta'siriga ega". Rikardo tomonidan ko'rib chiqilgan mezon uchun farqlovchi xususiyat shundaki, narxlar faqat raqobat natijasida talab va taklif ta'sirida shakllanadi.

Ma'lumki, bozor munosabatlarining rivojlanishida xususiy mulk vakillari va davlat faol ishtirok etadi. Bunda davlatning bozor iqtisodiyotiga aralashuvi cheklangan bo'lib, u iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi, lekin boshqa ko'plab parametrlarning rivojlanishini belgilamaydi. Bularga, masalan, narx darajasi, ishlab chiqarish tarkibi kiradi.

Raqobat so'zining talqini ko'p qirrali bo'lib, u oldinga intiltiruvchi kuch, bozordagi ishlar va xizmatlarning sifatiga hamda narxiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi tizim hisoblanadi. Raqobatga zid xatti-harakatlar nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga zarar yetkazadi, balki iste'molchilar huquqlarining ham poymol bo'lishiga olib keladi.

Raqobat muhitini ta'minlash qonun ustuvorligi bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiyotni rivojlantirishda samarali raqobat muhitini yaratish – davlatning eng ustuvor vazifalardan biri. Bu maqsadga erishish uchun tovar

va moliya bozorlarida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish, iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish, imtiyoz va preferensiyalar berish tizimi samaradorligini oshirish, narxni ortiqcha tartibga solishdan voz kechishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Bozor mexanizmi ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullari, boshqaruvchilarning tashabbusi, yangi bozorlarni izlash va iqtisodiy integrasiyaning yangi shakllaridan kelib chiqadigan turtki tufayli harakatga keltiriladi va uning rivojlanishi ta'minlanadi. Tadbirkorlar doimiy ravishda bozorni o'rganib, raqobat asosida ishlab chiqarish, mahsulot va xizmatlarning qanday yaxshilanishi yangi mijozlarni jalb qilish mumkinligini aniqlaydi. Xususiy mulk va erkin tadbirkorlik korxonalar menejerlariga tavakkal qilish huquqini beradi va muvaffaqiyatli tadbirkorlar uchun tijorat muvaffaqiyati bunday faoliyat uchun kuchli turtki beradi.

Raqobat – iqtisodiy raqobat, cheklangan resurslardan foydalanishdan ko'proq foyda olishga qaratilgan bozor ishtirokchilari o'rtasidagi kurashdir. Raqobat quyidagilar o'rtasida kuzatiladi:

– sotuvchilar o'rtasidagi raqobat – har kim o'z tovarini qimmatroq sotishni xohlaydi, kim narxini past qilsa, sotish hajmini oshiradi;

– xaridorlar o'rtasidagi raqobat – hamma arzon narxda tovar sotib olishni xohlaydi va kim yuqoriroq bozor narxiga rozi bo'lsa sotib oladi;

– sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi raqobat – xaridor tovarni arzonroq sotib olishni, sotuvchi esa qimmatroq sotishni xohlaydi; oldi-sotdi esa o'zaro manfaatli kelishuv natijasida amalga oshiriladi;

Raqobat funksiyalari:

- 1) tovarning bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi;
- 2) aniq mehnatni ijtimoiy zaruriyatga yo'naltiradi;
- 3) mehnat unumdorligi va ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligiga qarab individual xarajatlar va foydalarni to'g'rilashga yordam beradi.

Monopoliya – bozorda ustun mavqega ega bo'lgan korxonalar yoki korxonalar guruhi. Monopoliyaning maqsadi – o'zining iqtisodiy ustunligidan foydalanib, bozorga o'z shartlari va narxlarini joriy etish va maksimal foyda olishni ta'minlashdir. Dunyoning ko'pgina mamlakatlari antimonopol qonunlar 200 yildan ortiq tarixiga ega.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi ayirboshlash operatsiyalariga asoslangan iqtisodiy munosabatlar majmuini nazarda tutadi. Bularning barchasini bitta tushuncha birlashtiradi – bozor.

Bozor iqtisodiyotining markazlashgan rejali iqtisodiyotga nisbatan afzalliklarini ochib beruvchi o'ziga xos xususiyat bu raqobatdir. Darhaqiqat, bu bozor jamiyati taraqqiyotiga va sivilizatsiya rivojiga hissa qo'shadi.

Raqobat zamonaviy iqtisodiyotda bozor iqtisodiyotining faoliyat yuritishiga yordam beradigan eng muhim mexanizmdir. Bu bozor munosabatlari tizimining asosiy elementidir. Raqobat kurashni ifodalashni o'z ichiga oladi – bozor sub'yektlari o'rtasidagi tovarlarni ishlab chiqarish va sotishda yanada foydali va iqtisodiy natijalar uchun, ayirboshlanadigan tovar va xizmatlar sifati uchun kurash.

So'nggi yillar tajribasi mamlaktimizning aksariyat korxonalari raqobatga tayyor emasligini ko'rsatdi. Bu hozirgi vaziyatni aniqlab beruvchi asosiy omillardan biri, ya'ni raqobat ustunligi nimadan iborat ekanligi, uni qanday yaratish va uni amalga oshirish uchun qanday usullardan foydalanish haqida tizimlashtirilgan tushunchalarning yo'qligidir.

O'zbekiston oldida murakkab, ammo hayotiy muhim vazifa – monopol iqtisodiyotdan real bozor munosabatlariga o'tish vazifasi turibdi. Mamlakatdagi monopoliya asosiy illat bo'lib, aholi adekvat narxlar va iste'mol tovarlarini tanlash erkinligini talab qiladi. Hukumatning ichki bozorni himoya qilish haqidagi argumentlari endi zamonaviy bozor munosabatlariga ziddir.

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishning asosiy rag'bati – raqobatdan mahrum. Iste'mol tovarlarining ichki bozori, jumladan, import ham tarmoq prinsipi bo'yicha to'liq monopol holda. Bu tizimda O'zbekiston iqtisodiyotidan pul mablag'lari – davlat xarajatlari, tadbirkorlik va aholi daromadlari tovar va xizmatlar uchun to'lov ko'rinishida yana monopolistlarning hisob raqamlariga kelib tushadi. Albatta, monopolist maksimal narxni belgilaydi va bu bilan aholining xarid qobiliyatini pasaytiradi, kambag'allikni keltirib chiqaradi va savdo bozorini toraytiradi.

Davlat korxonalarining asosiy egasi bo'lganida, ko'pincha bu kompaniyalarning o'ziga xos samarasizligi bozor jarayonlari va narxlarning shakllanishiga (davlat tomonidan) buzilishlar va aralashuvlarga

sabab bo'ladi. Ya'ni, aralashuv tufayli, hatto bitta kompaniyaning samarasizligi katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Masalan, avtomobil zavodi davlat tasarrufida bo'lsa, ishlab chiqarish jarayonlarining samarasizligi va yuqori xarajatlar korxonaning ma'muriy resurs yordamida bozorga aralashuviga olib keladi.

Dunyodagi globallashuv va O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvi tashqi savdoning erkinlashuvi, ichki bozorda raqobat muhitining shakllanishi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga olib keldi.

Mustaqillikka erishish bilan asosiy vazifa bozor munosabatlarini rivojlantirish va avvalombor, xususiy mulkchilikni shakllantirish yo'li bilan tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish bo'ldi. Shu sababli, antimonopol siyosat davlat tasarrufidan chiqarish siyosatining bir qismi bo'ldi va 1992 yilda mulkchilik munosabatlarini isloh qilishning huquqiy asosini tashkil qilgan "Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Shu bilan birga yangi institutlar – antimonopol tashkilotlar tuzildi. 1993 yilda Moliya vazirligida monopoliyaga qarshi va narx siyosatini olib borish bosh boshqarmasi tashkil topdi. Antimonopol siyosat rolining o'sib borishi bilan 1996 yilda Moliya vazirligi huzuridagi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi tashkil topdi. 2000 yilda Qo'mita Moliya vazirligi tizimidan chiqarilib, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi sifatida qayta tashkil qilindi.

Agar 1996 yilda monopol korxonalarining Davlat reyestrda 828 korxonalar, 5186 tovar va xizmatlar turi bo'yicha kirgan bo'lsa, so'nggi 5 yilda 20 foizga kamaygan va 2022 yilda 90 tani tashkil qilgan. 2020-2022 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalar soni 3,0 mingdan 2,1 mingtagacha yoki 30 foizga qisqargan. Amalga oshirilgan qator islohotlar monopol korxonalar sonini ahamiyatli kamaytirgan bo'lsada, ayrim tarmoqlar va faoliyat turlarida monopoliya saqlanib qolmoqda. Bu esa antimonopol siyosatni amalga oshirishda cheklovlar mavjudligini bildiradi.

2017 yildan boshlab O'zbekiston xalqaro raqobat muhitiga faol integrasiyalashmoqda: JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralar nihoyasiga yetmoqda, strategik ahamiyatga ega sanoat sohasida hamkorlik to'g'risida

bitimlar tuzilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy kapitalning faol qiziqishi kuzatilmoqda.

Ko'pgina transmilliy korporasiyalar mahalliy ishlab chiqaruvchilarni jiddiy ravishda siqib chiqarib, O'zbekiston bozoriga kirib kegan. Global raqobat hozirgacha faqat eng istiqbolli va rivojlangan bozor segmentlariga ta'sir qildi, ammo vaqt o'tishi bilan global biznesning «nafasi» deyarli har bir mahalliy kompaniya ortida seziladi. Biroq, yuqori ichki salohiyat va mukammal mahsulotlarni shakllantirishga e'tibor iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishda muvaffaqiyat kaliti bo'lishi mumkin. Noyob texnologiyalardan foydalanish va raqobatchilarning harakatlarini kutish mamlakatimiz biznesiga mavjud va potensial raqiblarga nisbatan kuchli pozitsiyani egallashga yordam beradi.

2019 yil Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tashkil topdi va u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Prezidentga hisobdordir²⁹. Qo'mitaga 2023 yil 1 yanvardan boshlab "Raqobat rivojlanishi indeksi"ni joriy qilishi belgilangan.

Qo'mita tomonidan yangi tizimning huquqiy asoslarini mustahkamlashga, qabul qilingan hujjatlarning raqobat muhitini rivojlantirishga xizmat qilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda va so'nggi yillarda 42 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalari ishlab chiqildi. Xususan, **2021–2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish va isloh qilish strategiyasida** uning asosiy yo'nalishlari etib davlat ishtirokidagi korxonalar, shu jumladan, DUKlarning asoslantirmasdan tashkil etilishiga, yo'l qo'ymaslik hamda raqobat rivojlangan sohalarda davlat ishtirokini cheklash, «sot yoki tushuntir» tamoyilini joriy etish belgilandi.

Bu va boshqa hujjatlarning ijrosini ta'minlash doirasida so'nggi ikki yilda DUKlar soni 22 foizga, davlat ulushi mavjud MCHJlar soni 23 foizga, jami davlat ishtirokidagi korxonalar esa 35 foizga qisqardi.

2021 yil boshida davlat ishtirokidagi korxonalar soni ikki yarim mingdan ortiqni (2541 ta) tashkil etgan, ularning qariyb yarmi (1210 ta) unitar korxonalar shaklida faoliyat yuritgan. Bu mamlakatimiz iqtisodiyotida davlatning ishtiroki yuqoriligicha qolayotganini va 55 foizga tengligini

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 iyuldagi «Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni

ko'rsatadi. Holbuki, ushbu ko'rsatkich Koreya Respublikasida – 22 foizni, Germaniyada – 18, AQSHda – 11 va Yaponiyada – 5 foizni tashkil etadi.

Ushbu masala bo'yicha mamlakatimizda ham bu borada qat'iy reja ishlab chiqilgan. Davlat ishtirokidagi korxonalar sonini 2025 yilga borib 75 foizga qisqarishi mo'ljallangan. Shuning uchun bu maqsadga erishishda zamonaviy timzimplarni qo'llash vazifasi qo'yilgan.

Monopoliyaga qarshi komplayens – faoliyatning raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash, huquqbuzarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora–tadbirlar va taomillar tizimi hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 martdagi «Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora–tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan bu tamoiilni joriy etish tartibi to'g'risidagi nizom va «Yo'l xaritasi» tasdiqlandi. Unga muvofiq, monopol korxonalarining kamida 80 foizida ushbu tizimini joriy qilish nazarda tutilgan. Bugungi kunda 79 ta, shundan 10 ta davlat ishtirokidagi korxonada, 33 ta monopol, 14 ta mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi va 22 ta davlat boshqaruvi idorasida monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy etildi.

2021 yil 1 yanvardan buyon **1000 ga yaqin belgilangan byurokratik jarayonlar qisqartirildi**. Xususan, 68 ta lisenziyalanadigan faoliyat va 34 ta ruxsatnomalar bekor qilindi hamda tartibga solishning muqobil usuliga o'tkazildi. Natijada, tadbirkorlik sub'yektlarining yiliga qariyb 125 mlrd. so'm mablag'i iqtisod qilinib, o'z ixtiyorida qoladigan bo'ldi.

Davlat ishtirokidagi korxonalariga egalik qilish mezonlarini (tabiiy monopoliya, strategik manfaat sohasida faoliyat yuritadigan va boshqalar) belgilash, har yili ulardan kelib chiqib, “sot yoki tushuntir” tamoyili, ya'ni agar ma'lum bir korxonani davlatda ushlab turishning zarurati asoslab berilmasa, uni sotishga majbur bo'ladigan yangi amaliyot joriy etilyapti.

2020–2024 yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab–quvvatlash, raqobatga zid haraktlarni bartaraf etish vazifalari belgilangan. Ushbu strategiya ijrosi sababli mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ko'plab oziq–ovqat hamda ayrim nooziq–ovqat tovarlar bozorlarida raqobatning rivojlanishi holati, qurilish materiallari, kabel va sim mahsulotlari, pul o'tkazmalari xizmatlari sohasida yirik kompaniyalarning monopoliyasi tugatilganligini ko'rish mumkin.

Bu yo'nalishlarda olib borilgan ishlar qator sohalarda raqobat muhiti paydo bo'lmoqda. 250 dan ortiq tovar va moliya bozorlari hamda Toshkent, Jizzax, Andijon, Namangan, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlarida raqobat muhiti holati diagnostikasi amalga oshirildi. Natijada 17 ta tovar va xizmatlar bozorlariga kirishni erkinlashtirish hisobiga yetarli raqobat shakllandi va monopoliya holatidan chiqarildi, monopol tashkilotlar soni 20 foizga (2017 yilga nisbatan) kamaydi.

Temir yo'l vokzallari binolarida xususiy sektor vakillariga xizmat ko'rsatish uchun sharoit yaratildi. Oldingi davrda tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish nuqtalarini tashkil qilish taqiqlangan edi. Aviatashish bozorida «ochiq osmon» rejimi joriy qilinishi va parvozlarga slot ajratilishidagi sun'iy to'siqlarni bartaraf etishga imkon berdi.

2021 yilda qabul qilingan tovar–xomashyo birjalari savdolarini tartibga solishni takomillashtirish va uni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar asosida yuqori likvidli va monopol mahsulotlar soni kengaytirildi. Birja savdolarida forward va fyuchers shartnomalari joriy etildi, O'zRTXBda Elektron logistika savdo portali ishga tushirildi.

So'nggi 2 yilda birjalar orqali sotilishi ta'minlangan yuqori likvidli va monopol mahsulotlar soni 27 tadan 45 taga yetkazildi (yoki jami savdolarining 87 foizi), natijada tadbirkorlarga qo'shimcha 140,7 trillion so'mlik mahsulotlarni sotib olish imkoniyati yaratildi. Mineral o'g'itlarni to'liq birja savdolariga qo'yilishi tufayli «Dehqonobod kaliy zavodi» AJning sof foydasi 2 barobar, «Navoiyazot» AJda 28, «Farg'onaazot» AJda 20 barobarga oshdi.

Xalqaro tajribani o'rganib, raqobatni olib kirish mumkin bo'lgan monopoliya sohaslariga xususiy sektor uchun yo'l ochish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim. Bu borada tabiiy monopoliya va raqobat to'g'risidagi qonunlarni yangilash hamda Iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish talab etiladi.

Islahotlarimizga jiddiy to'sqinlik qilayotgan “yashirin iqtisodiyot” va korrupsiya kabi salbiy holatlarga barham berilmas ekan, sog'lom raqobat ham, qulay investisiya muhitini yaratib bo'lmaydi. Bunda, tovar va moliya bozorlaridagi raqobat muhiti, tovar va moliya bozorlarga kirish uchun to'siqlarning bartaraf etilganligi, energiya resurslaridan ishonchli va barqaror foydalanish imkoniyati hamda ushbu resurslar bilan

ta'minlanganlik, xususiy mulk daxlsizligi va yer munosabatlarining rivojlanganligi, transport va kommunikasiya tarmoqlaridan (shu jumladan, internet) foydalanish, logistika samaradorligi, muqobil transport vositalarining o'zaro bog'liqligi (connectivity) va rivojlanganligi asosiy baholash mezonlari sifatida ko'zda tutiladi.

Xulosa

Bozorning muhim belgilaridan biri raqobat hisoblanadi. U bozor iqtisodiyoti sub'yektlari o'rtasidagi o'zaro raqobat shakli va ijtimoiy ishlab chiqarishni tartibga solish mexanizmidir. Xaridorlar, xaridor va sotuvchilar o'rtasidagi raqobat natijasida bozor bahosi shakllanadi va sotuvchilar o'rtasidagi raqobat bozorning ajralmas belgisidir. Amalda hamma uchun teng iqtisodiy sharoitlarni nazarda tutuvchi sotuvchilar o'rtasidagi raqobat ko'pincha unga qarshi bo'lgan – monopoliya bilan birga mavjud bo'lib, yakka sotuvchining bozorda hukmronligini bildiradi.

Bozor sub'yektlarining mustaqil bo'lishi, iqtisodiy erkinligi, xususan, ishlab chiqaruvchining mahsulot turini, hajmini, narxini tanlashda erkinligini nazarda tutishi – raqobatning asosidir. Har kim o'z mahsulotini erkin ishlab chiqarish va sotish huquqiga ega bo'lsa, bozorda ko'plab ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) mavjud bo'lib, ular o'rtasida ob'yektiv ravishda raqobat, musobaqa, bellashuv yuzaga keladi.

Raqobat (lot. concurrentia – to'qnash kelmoq) maksimal foyda olish maqsadida tadbirkorlarning tovar ishlab chiqarish va sotish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish uchun kurashidir. Mohiyatan, raqobat jamiyatning cheklangan resurslaridan foydalanish uchun yaxshi sharoitlarga erishish uchun kurashdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat kurashi jarayonida quyidagi savollar hal etiladi: «Nima? Qanday qilib? Kim uchun?» ishlab chiqarilishi kerak. Raqobat jamiyatning cheklangan resurslarini samarali taqsimlash usulidir.

Asosiy atama va tushunchalar

Raqobat

Raqobat muhiti

Raqobatbardoshlik

Demonopolizatsiya

Antimonopol qonunchilik

Monopoliya
Iste'molchi huquqlari

Nazorat savollari

1. Iqtisodiyotda raqobat qanday vazifani bajaradi?
2. Raqobatning asosiy turlari mazmunini ochib bering.
3. Raqobatbardoshlikning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini ochib bering?
4. Iqtisodiyotning globalashuvi sharoitida mamlakat raqobatbardoshligining ustun omillarini ochib bering.
5. Iqtisodiyotni texnologik modernizatsiya qilish uning raqobatbardoshligini ta'minlashda qanday rol o'ynaydi?
6. O'zbekistonda raqobatni oshirish va monopoliyani bartaraf etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
7. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga kirishi mamlakatning raqobat va monopoliya holatiga qanday ta'sir qiladi?

23. O'zbekistonning ijtimoiy rivojlanishi. Inson kapitali sifatini oshirish

Ijtimoiy siyosat davlatning faoliyati sifatida jamiyatning ijtimoiy sohalariga ta'sir ko'rsatishning universal shakli bo'lib, uning asosiy vazifasi jamiyat resurslarini qayta taqsimlashdir.

Ijtimoiy siyosat – ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy ta'minot sohasidagi siyosat; xo'jalik yurituvchi sub'yekt (odatda davlat) tomonidan muayyan ijtimoiy guruhlarining turmush sifati va darajasini oshirishga qaratilgan faoliyat tizimidir. "Ijtimoiy siyosat" davlat tomonidan ko'rsatiladigan institusionallashtirilgan (ya'ni qonuniy va tashkiliy jihatdan mustahkamlangan) ijtimoiy xizmatlarga nisbatan ijtimoiy boshqaruv ma'nosida qo'llaniladi.

Ijtimoiy davlat – siyosati odamlarning munosib turmushini ta'minlash, uning erkin rivojlanishi uchun inson huquq va erkinliklariga rioya qilish orqali jamiyatning ijtimoiy xavfsizligini tashkil etishga qaratilgan davlatdir.

Ijtimoiy siyosat – davlatning ijtimoiy sohaga taalluqli umumiy strategiyasining ajralmas qismidir: shaxsga, uning jamiyatdagi mavqeiga

bevosita daxldor bo'lgan qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha maqsadli faoliyat; unga mamlakat aholisining turli guruhlari xususiyatlarini inobatga olgan holda ijtimoiy kafolatlar berish, keng jamoatchilik ko'magiga tayangan holda hukumat, barcha bo'g'in va hokimiyat organlari tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat jamiyatdagi vaziyatni to'plash, diqqatni jamlash, aks ettirishga qaratilgan mamlakat va jamiyatdagi vaziyat, ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlari va maqsadlari.

Davlat ijtimoiy siyosatining maqsadi aholi salomatligini mustahkamlash, muayyan noqulay hayotiy vaziyatlarda yetarli daromad va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va umuman, jamiyatda aholi uchun qulay ijtimoiy muhit yaratishdan iborat.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish shakllari har xil va asosiy shakllardan biri ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishdir. Ijtimoiy xizmatlarni olish ob'yekti ham ijtimoiy boshqaruv amalga oshiriladigan alohida ijtimoiy guruhlar va butun aholi bo'lishi mumkin.

Masalan, ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi davlat siyosatining ajralmas elementi hisoblanadi. U ikkita tizimni o'z ichiga oladi: ish haqi darajasini hisobga olgan holda bandlik va sug'urta tajribasiga asoslangan ishsizlik sug'urtasi va vositalar sinovidan so'ng taqdim etiladigan turmush darajasini saqlab qolish uchun ijtimoiy ta'minot. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlar uchun eng keng tarqalgan davlat daromadlarini qo'llab-quvvatlash dasturi ishsizlik sug'urtasi hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosat strategiyasi – bu mamlakat rivojlanishining ushbu o'ziga xos tarixiy bosqichida ijtimoiy muammolari tizimining umumiy yechimidir. Ijtimoiy siyosatning **ustuvor yo'nalishlari** quyidagilardan iborat:

- insonni tug'ilgandan boshlab to umri davomida normal hayot va rivojlanish sharoitlari bilan ta'minlash;
- jamiyatning birlamchi bo'g'ini sifatida oilaning faoliyat yuritishi uchun shart-sharoit yaratish, onalarga alohida e'tibor qaratish;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish;

• aholini samarali himoya qilishni ta'minlash: aholini ijtimoiy himoya qilish sifatini oshirish, sog'lig'ini, madaniyatini muhofaza qilish, uy-joy bilan ta'minlash, demografik vaziyatni yaxshilash.

Ijtimoiy siyosatning sub'yektlariga turli darajadagi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlaridagi ish beruvchilar, shuningdek, "davlat ijtimoiy siyosatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari kiradi.

Ijtimoiy siyosatning vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ishlab chiqarishni iste'mol manfaatlariga bo'ysundirish;
- mehnat motivatsiyasi va tadbirkorlikni kuchaytirish;
- aholining munosib turmush darajasini va ijtimoiy himoyasini ta'minlash;
- madaniy va tabiiy merosni, milliy o'ziga xoslik va o'ziga xoslikni saqlash.

Ijtimoiy soha – aholining o'ziga xos bo'lgan intilishi va ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun turli-tuman xizmat ko'rsatadigan muhim tarmoqlar yig'indisidir.

Aholini turmush farovonligi darajasi mamlakatning faqat iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilangina emas, balki ijtimoiy sohalar taraqqiyoti darajasi bilan ham ifodalanadi. Ijtimoiy soha davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning natijasi o'z aksini topadi va amalga oshiriladi. Iqtisodiy siyosati esa barcha aholi manfaatini ko'zlaydi. Aynan ijtimoiy sahada davlatning insonparvarlik darajasi har tomonlama yaqqol namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy soha milliy iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Jumladan, u ta'lim, ma'aniyat, sog'liqni saqlash, aholiga nafaqa to'lash, kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish, fizikultura va sport kabi qator sohalarini o'z ichiga oladi. Bulardan tashqari ijtimoiy soha hayot darajasini yaxshilash, iqtisodiyotda ijtimoiy adolatni o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy sohaning barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirish borasida muhim, diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Aholini ijtimoiy himoya qilish, ularga tibbiy yordam

qo'rsatish, ta'lim-tarbiya, madaniyat, dam olish, uy-joylar sharoitini yaxshilash, maishiy xizmat ko'rsatish kabi qator sohalarni yaxshilash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Ijtimoiy siyosat modellarining eng keng tarqalgan tasniflaridan biriga ko'ra, sosial-demokratik, konservativ, liberal va katolik turlari ajratiladi. Ijtimoiy siyosatda aholining daromadlarini muttasil oshirib borish, shu jumladan ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni oshirish aholining turmush darajasi va sifatini ko'tarishga xizmat qiladi. Shuning uchun O'zbekistonda aholining daromadlarini muntazam oshirib borish ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

2017–2022 yillarda iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoq va sohalarda ish haqining sezilarli o'sishi va insonga bo'lgan e'tiborning kuchayishi qayd etildi. Xususan, 2022 yil 1 iyundan eng kam ish haqi miqdori 920 ming so'm etib belgilandi.

Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish masalasi ustuvor vazifa sifatida 2026 yilga qadar quyidagi maqsadli ko'rsatkichlarga erishish belgilangan³⁰. Jumladan, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, maktablarda ta'lim sifatini oshirish, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish, malakali o'qituvchi va shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish, ijtimoiy siyosatning manzilliligini ta'minlash, pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish va boshqa bir qator muhim aniq maqsadli ko'rsatkichlarga erishish belgilangan.

2017 yildan O'zbekiston jadal iqtisodiy o'sish davrini boshidan kechirmoqda. Birinchi marta kambag'allik mavjudligi rasman tan olindi va uning darajasini kamaytirish maqsadida maqsadli dasturlar qabul qilindi. Ishsizlik, tashqi mehnat migrasiyasi va yangi ish o'rinlarini yaratishda mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mas'uliyati belgilandi. Ijtimoiy barqarorlikni tashqi mehnat migrasiyasi va pul o'tkazmalari ma'lum darajada yumshatdi, biroq uzoq muddatli barqarorlikka erishish iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va takomillashtirish, yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan jadal iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bunday vaziyatda ijtimoiy

³⁰ 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

himoya tizimi eski va yangi muammolarni hal qilish uchun yangi rollarga tayyor bo'lishi va istisnosiz butun aholini tizim bilan qamrab olishi muhim (23–jadval).

23–jadval

O'zbekistonda ijtimoiy himoya dasturi tavsifi

To'lovlarning hissasini nazarda tutuvchi ijtimoiy sug'urtalash	To'lovlarning hissasini nazarda tutmaydigan ijtimoiy yordam	Mehnatga layoqatli shaxslar
	Amalga oshirish; Mahalla va tuman darajasidagi nafaqa fondlari	Amalga oshirish; Tuman darajasidagi bandlikka ko'maklashish markazlari
<p>Amalga oshirish; Tuman darajasidagi nafaqa fondlari</p> <ul style="list-style-type: none"> ➢ Yosh bo'yicha nafaqa ➢ Nogironlik bo'yicha nafaqa ➢ Boquvchisini yo'qotganlik sababli nafaqa ➢ Ishsizlik bo'yicha nafaqa* <p>Amalga oshirish; Ish joyi yoki tuman darajasidagi nafaqa fondi</p> <ul style="list-style-type: none"> ➢ Bola tug'ilganligi sababli nafaqa ➢ Homiladorlik va tug'ish sababli nafaqa ➢ Ishlaydigan onalar uchun (bola 2 yoshga to'lguniga qadar) beriladigan nafaqa ➢ Mehnatdan (ishdan) ozod etish va vaqtincha mehnatga layoqatsizligi tufayli nafaqa 	<ul style="list-style-type: none"> ➢ Kam ta'minlangan oilalarga nafaqa ➢ Bola parvarishi (2 yoshgacha) bo'yicha nafaqa ➢ (2–14 yoshgacha bo'lgan) farzandlari bor oilalar ➢ Nogiron farzandlari bor oilalar ➢ Bolalikdan nogironlik sababli ijtimoiy nafaqa ➢ Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati bo'yicha bir martalik moddiy yordam to'lovi ➢ Yosh bo'yicha (ijtimoiy nafaqa) ➢ Nogironlik bo'yicha nafaqa (ijtimoiy nafaqa) ➢ Boquvchisini yo'qotganligi sababli nafaqa ➢ Dafn qilish sababli nafaqa ➢ Zaif guruhlarga kommunal to'lovlarni amalga oshirish xarajatlari uchun pullik kompensatsiyalar ➢ Natura shaklida qo'llab-quvvatlash, maktab o'quvchilari uchun bepul qishgi kiyim-bosh, jamoat transportidan bepul foydalanish, bepul ovqatlanish, bepul doridarmonlar bilan ta'minlash ➢ Ijtimoiy ta'minlash xizmatlari 	<ul style="list-style-type: none"> ➢ Ishsizlik tufayli nafaqa ➢ Jamoat ishlari (ish beruvchilarga oylik maosh to'lovi uchun subsidiyalar) ➢ Kasbiy tayyorgarlik ➢ Zaif guruxlar uchun oylik maoshini subsidiyalash ➢ Stajirovka ➢ Ish toppish va tanlashda visitachilik xizmati ➢ Ish beruvchilarga ishga qabul qilish va o'qitish uchun (yoki o'rgatish) uchun subsidiyalar ➢ Ma'lum bir guruh uchun, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida, subsidiya dasturlari; ➢ Ayollar qo'mitasi ➢ Tadbirkor yoshlarni rivojlantirish bo'yicha Respublika hayati

qo'rsatish, ta'lim-tarbiya, madaniyat, dam olish, uy-joylar sharoitini yaxshilash, maishiy xizmat ko'rsatish kabi qator sohalami yaxshilash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Ijtimoiy siyosat modellarining eng keng tarqalgan tasniflaridan biriga ko'ra, sosial-demokratik, konservativ, liberal va katolik turlari ajratiladi. Ijtimoiy siyosatda aholining daromadlarini muttasil oshirib borish, shu jumladan ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni oshirish aholining turmush darajasi va sifatini ko'tarishga xizmat qiladi. Shuning uchun O'zbekistonda aholining daromadlarini muntazam oshirib borish ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

2017–2022 yillarda iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoq va sohalarida ish haqining sezilarli o'sishi va insonga bo'lgan e'tiborning kuchayishi qayd etildi. Xususan, 2022 yil 1 iyundan eng kam ish haqi miqdori 920 ming so'm etib belgilandi.

Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish masalasi ustuvor vazifa sifatida 2026 yilga qadar quyidagi maqsadli ko'rsatkichlarga erishish belgilangan³⁰. Jumladan, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, maktablarda ta'lim sifatini oshirish, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish, malakali o'qituvchi va shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish, ijtimoiy siyosatning manzilliligini ta'minlash, pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish va boshqa bir qator muhim aniq maqsadli ko'rsatkichlarga erishish belgilangan.

2017 yildan O'zbekiston jadal iqtisodiy o'sish davrini boshidan kechirmoqda. Birinchi marta kambag'allik mavjudligi rasman tan olindi va uning darajasini kamaytirish maqsadida maqsadli dasturlar qabul qilindi. Ishsizlik, tashqi mehnat migrasiyasi va yangi ish o'rinlarini yaratishda mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mas'uliyati belgilandi. Ijtimoiy barqarorlikni tashqi mehnat migrasiyasi va pul o'tkazmalari ma'lum darajada yumshatdi, biroq uzoq muddatli barqarorlikka erishish iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va takomillashtirish, yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan jadal iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bunday vaziyatda ijtimoiy

himoya tizimi eski va yangi muammolarni hal qilish uchun yangi rollarga tayyor bo'lishi va istisnosiz butun aholini tizim bilan qamrab olishi muhim (23–jadval).

23–jadval

O'zbekistonda ijtimoiy himoya dasturi tavsifi

To'lovlarning hissasini nazarda tutuvchi ijtimoiy sug'urtalash	To'lovlarning hissasini nazarda tutmaydigan ijtimoiy yordam	Mehnatga layoqatli shaxslar
	Amalga oshirish; Mahalla va tuman darajasidagi nafaqa fondlari	Amalga oshirish; Tuman darajasidagi bandlikga ko'maklashish markazlari
Amalga oshirish; Tuman darajasidagi nafaqa fondlari <ul style="list-style-type: none"> ➢ Yosh bo'yicha nafaqa ➢ Nogironlik bo'yicha nafaqa ➢ Boquvchisini yo'qotganlik sababli nafaqa ➢ Ishsizlik bo'yicha nafaqa* Amalga oshirish; Ish joyi yoki tuman darajasidagi nafaqa fondi <ul style="list-style-type: none"> ➢ Bola tug'ilganligi sababli nafaqa ➢ Homiladorlik va tug'ish sababli nafaqa ➢ Ishlaydigan onalar uchun (bola 2 yoshga to'lguniga qadar) beriladigan nafaqa ➢ Mehnatdan (ishdan) ozod etish va vaqtincha mehnatga layoqatsizligi tufayli nafaqa 	<ul style="list-style-type: none"> ➢ Kam ta'minlangan oilalarga nafaqa ➢ Bola parvarishi (2 yoshgacha) bo'yicha nafaqa ➢ (2–14 yoshgacha bo'lgan) farzandlari bor oilalar ➢ Nogiron farzandlari bor oilalar ➢ Bolalikdan nogironlik sababli ijtimoiy nafaqa ➢ Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati bo'yicha bir martalik moddiy yordam to'lovi ➢ Yosh bo'yicha (ijtimoiy nafaqa) ➢ Nogironlik bo'yicha nafaqa (ijtimoiy nafaqa) ➢ Boquvchisini yo'qotganligi sababli nafaqa ➢ Dafn qilish sababli nafaqa ➢ Zaif guruhlariga kommunal to'lovlarni amalga oshirish xarajatlari uchun pullik kompensatsiyalar ➢ Natura shaklida qo'llab-quvvatlash, maktab o'quvchilari uchun bepul qishgi kiyim-bosh, jamoat transportidan bepul foydalanish, bepul ovqatlanish, bepul dori-darmonlar bilan ta'minlash ➢ Ijtimoiy ta'minlash xizmatlari 	<ul style="list-style-type: none"> ➢ Ishsizlik tufayli nafaqa ➢ Jamoat ishlari (ish beruvchilarga oylik maosh to'lovi uchun subsidiyalar) ➢ Kasbiy tayyorgarlik ➢ Zaif guruxlar uchun oylik maoshini subsidiyalash ➢ Stajirovka ➢ Ish toppish va tanlashda visitachilik xizmati ➢ Ish beruvchilarga ishga qabul qilish va o'qitish uchun (yoki o'rgatish) uchun subsidiyalar ➢ Ma'lum bir guruh uchun, tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash maqsadida, subsidiya dasturlari; ➢ Ayollar qo'mitasi ➢ Tadbirkor yoshlarni rivojlantirish bo'yicha Respublika hayati

³⁰ 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

“O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi”da (2022 yil 25 iyul) 2030 yilda davlat byudjetining ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilgan xarajatlari YAIMga nisbatan 1,5 foizga yetkazilishi va boshqa maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish mo‘ljallangan.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitusiyasining (2023 yil) 1-moddasida O‘zbekistonning ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi qayd etilgan bo‘lib, bu mamlakat rivojida ijtimoiy siyosat ustuvor ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi.

Jahonda inson kapitali aholining barcha qatlamlari manfaatlarini ko‘zlab iqtisodiy o‘shishning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida qaraladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, davlat uchun inson kapitaliga investisiyalar qilishi kelajakda katta daromadga aylanadi: bolalar uchun sarflangan har bir million kamida o‘ttiz million beradi. Inson kapitali jismoniy kapitalga qaraganda tezroq o‘shib bormoqda.

Inson kapitali g‘oyasi iqtisodiy fikrning rivojlanish tarixida uzoq ildizlarga ega. Birinchi ta‘riflardan biri U.Petining “Siyosiy arifmetika” asarida, keyinroq A.Smitning “Xalqlar boyligi”, A.Marshallning “Tamoyillar” va boshqa ko‘plab olimlarning asarlarida uchraydi.

Inson kapitali nazariyasi iqtisodiy tahlilning mustaqil bo‘limi sifatida faqat 1950–1960 yillar oxirida shakllandi va bu taniqli amerikalik iqtisodchi, Nobel mukofoti sovrindori T.Shuls amalga oshirdi. Asosiy nazariy model boshqa Nobel mukofoti sovrindori G.Bekkerning “Inson kapitali” kitobida (1964 yil birinchi nashri) ishlab chiqilgan. Ushbu kitob mazkur sohadagi keyingi barcha tadqiqotlar uchun asos bo‘ldi va zamonaviy iqtisodiyotning klassikasi sifatida e‘tirof etildi.

T.Shuls inson kapitaliga investisiyalarning samaradorligini asoslab berdi hamda “inson kapitali” – bu inson va butun jamiyatning turli–tuman ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalaniladigan bilim, ko‘nikma va malaka majmuidir” deb tarifladi.


Inson kapitali – bu iqtisodiy kategoriya bo‘lib, shaxsning investisiyalar natijasida shakllangan va rivojlangan ishlab chiqarish qobiliyatlari, shaxsiy fazilatlar va motivasiyalarining yig‘indisini tavsiflaydi. U aholi, ishchi kuchi yoki shaxsning umumiy salomatligi, ko‘nikma, bilim, qobiliyatlari va mehnat unumdorligiga ta‘sir etuvchi va sifatning iqtisodiy imkoniyatlaridir. Nobel mukofoti sovrindori,

iqtisodchi Pol Krugmanning so‘zlariga ko‘ra, “mamlakatning vaqt o‘tishi bilan turmush darajasini yaxshilash qobiliyati deyarli butunlay bir ishchiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarishni oshirish qobiliyatiga bog‘liq”.

Dastlab, inson kapitaliga insonni ish qobiliyatini oshiradigan, ya‘ni ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalarni oshiradigan investisiyalar majmuasi sifatida qaralgan. Iqtisodiy adabiyotlarda ishchi kuchi, mehnat resurslari, mehnat salohiyati, inson omili va inson kapitali kategoriyalari qo‘llaniladi.

Inson kapitalini ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishning innovasion yechimlarini topish; professionallik darajasi; intellektual mulk, moddiy va ma‘naviy boyliklar ishlab chiqarish imkoniyatlar, inson va jamiyat taraqqiyotini kafolatlovchi kuch va vositalar majmui; aqliy mehnat va yuksak innovasion tafakkur, turmush darajasi va kasbiy karyeraning oshishi, jamiyatdagi mavqei va o‘rnini belgilovchi omil deb qabul qilish mumkin.

Inson kapitali – bu odamlarning jamiyatning samarali a‘zolari sifatida o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan va butun hayoti davomida to‘playdigan bilim, ko‘nikma va sog‘liqdan iborat. Rasional o‘vatlanish, sog‘liqni saqlash, sifatli ta‘lim, ish o‘rinlari va ko‘nikmalar orqali odamlarga investisiya kiritish inson kapitalini rivojlantirishga yordam beradi va bu kambag‘allikka barham berish va yanada inklyuziv jamiyatlarni yaratish kaliti hisoblanadi (23–rasm).



23–rasm. Inson kapitalining tuzilishi

Iqtisodiyotni raqamlashtirish va bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishda inson faoliyatini intellektualashtirish inson kapitalini rivojlantirishni dolzarb qilib qo‘ymoqda. **Iqtisodiy o‘shishning** xom ashyo manbalaridan innovasion manbalarga o‘tish milliy boylik o‘shishini

ta'minlaydigan qo'shimcha qiymat olishda asosiy resurs sifatida inson omilini muqarrar ravishda birinchi o'ringa olib chiqadi.

Investisiyalar inson kapitalining qiymatini oshiradi va kelajakda uning egasiga katta daromad keltiradi. Inson kapitaliga asosiy investisiyalar ta'lim (malaka oshirish kurslari, seminarlar, treninglar), sog'liqni saqlash, tibbiy xizmatlar, mobillik, bolalarni tarbiyalash, ish qidirish va ish haqi, narxlar, daromadlar, to'g'risidagi ma'lumotlarga sarflashni o'z ichiga oladi. Inson kapitali asoschilarining tadqiqotlari milliy iqtisodiyot darajasida ham, korxonaning individual xodimi darajasida ham ta'lim, o'qitish, sog'liqni saqlash va boshqa rivojlanish shakllariga investisiyalar asosiy kapitalga investisiyalarga nisbatan ancha foydali ekanligini isbotlagan.

O'zbekiston innovasiyalar va ilm-fanga asoslangan rivojlanishning sifat jihatidan yangi bosqichiga o'tish jarayonida bo'lib, bunda nomoddiy soha iqtisodiyot raqobatbardoshligining eng muhim omiliga aylanmoqda. Inson kapitalini shakllantirish konsepsiyasi ta'lim, ishga joylashish, malaka va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish kabi vositalardan foydalangan holda shaxsning eng yuqori salohiyatiga erishish g'oyasini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, insonga investisiyalar va uning kasbiy mahoratini rivojlantirish bevosita inson kapitalini shakllantirishga ta'sir qiladi.

Ta'lim – inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omili bo'lib, u bir vaqtning o'zida ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va fuqarolik vazifalarini hal qiladi, jamiyatda uzluksizlikni ta'minlaydi hamda insoniyat tarixi davomida to'plangan usul, bilim va tajribani jamiyatga va har bir shaxsga alohida o'tkazadi. Dunyo tajribasi ta'limning jamiyatni olg'a siljishi, taraqqiyoti, o'zgarishi va yangilanishiga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bu borada shunday deydi³¹: "... birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investisiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz.

"Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi".

Inson salohiyatini ro'yobga chiqarish, texnologiyalarni, iqtisodiy natijalarni va odamlar, butun jamiyat hayotini doimiy ravishda yaxshilash uchun odamlarning bilim va ko'nikmalarini uzluksiz oshirib borish xom

³¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi

ashyoga asoslangan iqtisodiyotga real muqobil model hisoblanadi. Bilimga asoslangan iqtisodiyotga yuqori axborot va intellektual «imkoniyat»ga ega bo'lgan moslashuvchanlik, harakatchanlik va yuqori darajadagi moslashuvga ega bo'lgan mutaxassis kerak. Yangi shart-sharoitlar aholi bandligining doimiy yangilanishi, yangi mazmuni, tarkibi, turlari, shakllarini, inson kapitali sifatini oshirishni, mehnat sohasida aholining intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishni nazarda tutadi.

Ta'limning asosiy afzalliklaridan biri bu odamning ishga joylashish va ish haqi olish imkoniyatlarini oshirishdir. Masalan, korxonada bir xil sharoit va imkoniyatlarda u yuqori ma'lumotga ega bo'lgan ishga da'vogarni yollaydi. Bundan tashqari, yuqori darajadagi ma'lumotga ega bo'lgan xodimlar yuqori maosh olishlari mumkin.

Inson kapitalini shakllantirishning asosi sifatida boshlang'ich bosqich – **maktabgacha ta'limdan boshlash** kerak, chunki sifatli ta'limni ta'minlash milliy xavfsizlik masalasidir.

Boshlang'ich va o'rta ta'limning shaxs kamolotiga ta'siri muhimligini e'tirof etgan holda, hozirgi vaqtda oliy ta'limning mamlakat salohiyatini yuksaltirishdagi ahamiyati qayta ko'rib chiqilmoqda. Bu iqtisodiy o'sishga yordam beradigan va kambag'allikni kamaytiradigan oliy ta'lim siyosati variantlarini izlashga undaydi. Oliy ta'lim boshlang'ich va o'rta ta'limdan tashqari, texnik va kasbiy salohiyatni oshirish, shuningdek, barcha darajadagi malakali o'qituvchilarni tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'limning umuman jamiyat rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ahamiyatini va uni davlat va aholi daromadlari, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar majmuasida o'rganish lozim. Rivojlanayotgan mamlakatlarning oliy ta'lim tizimlari bilimlarni yaratish va ularni kapitallashtirish va ilg'or inson kapitaliga bo'lgan o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob berishi raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantiradi.

Yaqin davrga qadar mamlakatning tabiiy resurslari uning asosiy boyligi va daromad manbai deb hisoblanar edi va bu holat ularga tobe bo'lgan past texnologik jihatdan raqobatbardosh bo'lmagan iqtisodiyotga ega rivojlanayotgan davlatlar uchun xos edi. Zamonaviy axborot jamiyatida bilim tabiiy resurslar, kapital yoki texnologiyadan ko'ra ko'proq iqtisodiy o'sish, rivojlanish omili sifatida doim barqaror innovasion taraqqiyotni

rag'batlantiradi. Insonning intellektual salohiyati esa cheklanmagan resurs sifatida uni rivojlantirishni talab qiladi va bilimlarni kapillashtirish, innovasion ishlanma va nou-xaularni tijoratlashtirish, joriy qilish iqtisodiyotning barqaror o'sishi omili hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi vaqtda oliy ta'limning bilim yaratish, iqtisodiy o'sish va innovasion rivojlanishning asosiy manbai sifatida inson kapitalini shakllantirish dolzarb masala aylandi.

Innovasion rivojlanish shunchaki innovasion usullar yoki vositalarni qo'llash orqali sodir bo'lmaydi balki ijodiy fikrlaydigan, yangi texnologiyalarni yaratadigan, jamiyat hayotida mavjud muammolar yechimini hal qila oladigan oliy ma'lumotga ega inson resurslarini tayyorlashni taqozo etadi. Agar ko'proq aholi oliy ta'limga ega bo'lsa, bilimlarni o'zlashtirsa va undan foydalansa, ularning jamiyat hayoti va taraqqiyotida faol ishtirok etishlari ta'minlanadi. Xuddi shunday, bilim va oliy ta'limga ega bo'lganlar sonining oshishi jamiyatda tengsizlikni va kambag'allik darajasini kamaytirishga va ijtimoiy adolatni o'rnatishga katta hissa qo'shadi.

Yurtimizda oliy ta'limni tizimli isloh qilish, zamonaviy bilimga ega, mustaqil, tanqidiy fikrlaydigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni xalqaro standartlarga moslash, oliy ta'limni modernizasiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish oliy ta'limni 2030 yilga qadar rivojlantirishning aniq, maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan³².

Oliy ta'limga ega bo'lishning yuqori darajasi mehnat bozorida barqarorlikni ta'minlashga va ishsizlik, tashqi mehnat migrasiyasi, norasmiy mehnat bilan bandlik, qonunbuzarlik va kambag'allik ko'lamini (O'zbekistonda kambag'allik ko'rsatkichida oliy ma'lumotga ega bo'lganlar – 6,7 foizni tashkil qilgan) keskin kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiyotda jami ish bilan bandlarning 18,2 foizi oliy ma'lumotga ega bo'lsada, iqtisodiyotni raqamlashtirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida innovasiyalar va AKTning keng, jadal tatbiq etilishi intellektual ish joylarining kengayishiga va natijada oliy ma'lumotga ega mutaxassislarga talabning oshishiga sabab bo'lmoqda (23.1-jadval).

³² O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

23.1-jadval
O'zbekiston mehnat bozorida ta'lim darajasi ko'rsatkichlari³³,
2022 yil (%)

	Jami	shu jumladan		
		o'rta ma'lumot	o'rta-maxsus ma'lumot	oliy ma'lumot
Jami bandlar	100	26,4	55,4	18,2
Chet elga ishlashga ketganlar	100	36,6	60,3	3,1
Ishga joylashishga muhtojlar	100	28,3	58,9	12,8
Norasmiy bandlar	100	35,9	52,2	11,9
Jami bo'sh ish o'rinlariga qo'yilgan talab	100	9,6	41,1	49,3

2022 yilda iqtisodiyotda jami ish bilan bandlarning 18,2 foizi oliy ma'lumotli bo'lgani holda, jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalaridagi transformasiya jarayonlari natijasida mehnat bozorida oliy ta'limga bo'lgan ehtiyoj juda yuqori va 49,3 foizni tashkil qilgan.

Agar 2016 yilda oliy ta'lim muassasalariga jami 57,7 ming nafar yoshlar o'qishga kirgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021 yilda 220,1 ming kishini tashkil qilgan.

Bugun mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish uchun ulkan salohiyat mavjud. Buni O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining ko'pligi, jadal ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va barcha sohalarida mehnat sharoitlari, sog'liqni saqlash tizimini modernizasiya qilish hisobiga tibbiy yordam sifatining yaxshilanishi va o'lim darajasining pasayishiga va o'rtacha umr ko'rish davomiyligining oshishi bilan bog'lash mumkin.

Institusional asosning asosiy komponenti mulkiy munosabatlardir. Iqtisodiyotning butun qiyofasi mulkchilikning tuzilishiga, mulk huquqining iqtisodiyotning butun qiyofasi mulkchilikning tuzilishiga, mulk huquqining davlat tomonidan himoya qilinishining ishonchililigiga bog'liq. Mulk – bu davlat tomonidan himoya qilinishining ishonchililigiga bog'liq. Mulk – bu mulk ob'yektini tasarruf etish, egalik qilish va undan foydalanish bo'yicha mutlaq huquqqa ega bo'lgan sub'yektning tegishlilikini belgilaydigan tovarlar va hayot faoliyati omillarini taqsimlash va o'zlashtirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar. Mulk huquqi jismoniy yoki yuridik shaxslarning cheklangan tovarlarga kirishini tartibga soluvchi qoidalar majmuidir. Rossiya fuqarolik huquqida mulk huquqi sub'yektning vakolatlari – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish sifatida taqdim etiladi. Mulk murakkab toifa sifatida ko'p jihatdan tasniflanishi mumkin. Buning uchun, masalan, "mulkchilik shakli" tushunchasidan foydalaniladi. Bu tushuncha mulkni ma'lum bir mulkdorga mulk huquqi asosida berishni tavsiflovchi qonuniy tartibga solinadigan mulkiy munosabatlarni bildiradi. Mulk predmeti asosida xususiy, jamoa, davlat, jamoat, aralash bo'lishi mumkin.

Keyns makroiqtisodiy nazariyasi yalpi talabni davlat tomonidan tartibga solish g'oyasiga asoslanadi. Davlat va xususiy investisiyalarni rag'batlantirish, davlat buyurtmalari tizimini kengaytirish, ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlarni ko'paytirish orqali real sektor dinamikasiga ta'sir ko'rsatish taklif etilmoqda.

«Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» davlat investisiyalarini masalan, investisiya qurilishi haqida gap ketganda yo'llar, turar-joy binolari va boshqalar orqali aholi bandligini oshirish mumkinligini e'tirof etadi. Chunki davlat shahar infratuzilmasini, shu jumladan ijtimoiy, ishlab chiqarish, qurilish, transport, energetika infratuzilmalarini doimiy rivojlantirmasdan va takomillashtirmasdan turib ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish mumkin emas degan fikrni bildiradi.

Biroq, investisiya qilingan moliyaviy resurslarning nisbatan uzoq muddatda o'zini qoplashi infratuzilma ob'ektlarini rivojlantirishga investisiyalarning xususiy kapital uchun jozibador bo'lishini ta'minlamaydi. Bunday holda, davlat xizmatlaridan foydalanish butun jamiyatning umumiy manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilishi sababli, davlat ushbu sohaga alohida e'tibor berishga chaqiriladi. Bu esa ma'lum davrlarda nafaqat infratuzilmani, balki ijtimoiy va ma'muriy xarajatlarni rivojlantirishga davlat xarajatlarining o'sishiga sabab bo'ladi.

Xususan, davlatning iqtisodiyotni tartibga solish, mamlakatni rivojlantirishdagi rolini quyidagilarda ko'rish mumkin³⁶:

– Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish;

– 2026 yilga qadar O'zbekistonda investisiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investisiyalarni jalb etish choralarini ko'rish;

– davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSH dollarga teng investisiya jalb etish;

– iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish va iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish.

Xulosa

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – bu davlat organlari va ular ishtirokida tuzilgan organlarning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimining faoliyati va rivojlanishi jarayonlarini boshqaruvidir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va jamiyat barqarorligini saqlash uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Xususan, yalpi milliy mahsulotning zaruriy o'sishi, ishsizlikni qisqartirish, narxlarni barqarorlashtirish, qulay tashqi iqtisodiy siyosat yuritish kabi vazifalar.

Kichik biznes iqtisodiyotda alohida o'rin tutadi. Bu bozor sharoitlarining o'zgarishiga javoban harakatchanlik, moslashuvchanlik bilan tavsiflanadi. Kichik biznes ishlab chiqarish cheklangan talab bilan shug'ullanadigan va ishlab chiqarish jarayonlarini standartlashtirish mumkin bo'lmagan afzalliklarga ega. Kichik biznes innovasion faollikka ega.

Asosiy atama va tushunchalar

Iqtisodiy siyosat
Iqtisodiy qonunlar
Fiskal siyosat
Hududiy rivojlanish
Tashqi iqtisodiy siyosat
Investisiya siyosati
Qulay biznes muhiti

Nazorat savollari

1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurati.
2. Hozirgi bosqichda davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifasi
3. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish nimaga asoslanadi?
4. Qanday iqtisodiy dastakdan foydalanish davlatga tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini tartibga solishda imkon beradi

³⁶ 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

Keyns makroiqtisodiy nazariyasi yalpi talabni davlat tomonidan tartibga solish g'oyasiga asoslanadi. Davlat va xususiy investisiyalarni rag'batlantirish, davlat buyurtmalari tizimini kengaytirish, ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlarni ko'paytirish orqali real sektor dinamikasiga ta'sir ko'rsatish taklif etilmoqda.

«Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» davlat investisiyalarini masalan, investisiya qurilishi haqida gap ketganda yo'llar, turar-joy binolari va boshqalar orqali aholi bandligini oshirish mumkinligini e'tirof etadi. Chunki davlat shahar infratuzilmasini, shu jumladan ijtimoiy, ishlab chiqarish, qurilish, transport, energetika infratuzilmalarini doimiy rivojlantirmasdan va takomillashtirmasdan turib ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish mumkin emas degan fikrni bildiradi.

Biroq, investisiya qilingan moliyaviy resurslarning nisbatan uzoq muddatda o'zini qoplashi infratuzilma ob'yektlarini rivojlantirishga investisiyalarning xususiy kapital uchun jozibador bo'lishini ta'minlamaydi. Bunday holda, davlat xizmatlaridan foydalanish butun jamiyatning umumiy manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilishi sababli, davlat ushbu sohaga alohida e'tibor berishga chaqiriladi. Bu esa ma'lum davrlarda nafaqat infratuzilmani, balki ijtimoiy va ma'muriy xarajatlarni rivojlantirishga davlat xarajatlarning o'sishiga sabab bo'ladi.

Xususan, davlatning iqtisodiyotni tartibga solish, mamlakatni rivojlantirishdagi rolini quyidagilarda ko'rish mumkin³⁶:

– Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish;

– 2026 yilga qadar O'zbekistonda investisiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investisiyalarni jalb etish choralari ko'rish;

– davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSH dollarga teng investisiya jalb etish;

– iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish va iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish.

Xulosa

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – bu davlat organlari va ular ishtirokida tuzilgan organlarning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimining faoliyati va rivojlanishi jarayonlarini boshqaruvidir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va jamiyat barqarorligini saqlash uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Xususan, yalpi milliy mahsulotning zaruriy o'sishi, ishsizlikni qisqartirish, narxlarni barqarorlashtirish, qulay tashqi iqtisodiy siyosat yuritish kabi vazifalar.

Kichik biznes iqtisodiyotda alohida o'rin tutadi. Bu bozor sharoitlarining o'zgarishiga javoban harakatchanlik, moslashuvchanlik bilan tavsiflanadi. Kichik biznes ishlab chiqarish cheklangan talab bilan shug'ullanadigan va ishlab chiqarish jarayonlarini standartlashtirish mumkin bo'lmagan afzalliklarga ega. Kichik biznes innovasion faollikka ega.

Asosiy atama va tushunchalar

Iqtisodiy siyosat
Iqtisodiy qonunlar
Fiskal siyosat
Hududiy rivojlanish
Tashqi iqtisodiy siyosat
Investisiya siyosati
Qulay biznes muhiti

Nazorat savollari

1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurati.
2. Hozirgi bosqichda davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifasi
3. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish nimaga asoslanadi?
4. Qanday iqtisodiy dastakdan foydalanish davlatga tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini tartibga solishda imkon beradi

³⁶ 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

5. Iqtisodiy jarayonlarni bilvosita davlat tomonidan tartibga solish usullari qanday dastaklarga asoslanadi
6. Davlatning moliyaviy siyosatining maqsadi

26. Milliy iqtisodiyotni pul–kredit va soliq-byudjet siyosati orqali tartibga solish

Davlat siyosatining eng muhim yo'nalishidir biri mamlakat bank moliya tizimini isloh qilish, liberallashtirish va barqarorligini oshirish hisoblanadi. Uni isloh qilish bo'yicha dasturiy hujjatlarda barqarorlikni ta'minlash, qo'shimcha investisiyalarni jalb etish, ushbu tizim faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish, ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar hajmini kengaytirish, shuningdek, aholining ishonch darajasini oshirish muhim vazifadir.

Markaziy bank pul–kredit siyosati va to'lov tizimining ishlashi, shuningdek, ayrim hollarda milliy iqtisodiyot yoki mamlakatlar guruhida moliya sektorini tartibga solish va nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan tashkilotdir. Markaziy bank pul–kredit hokimiyatining bir shaklidir.

Markaziy bank faoliyatining yakuniy yoki asosiy maqsadi jamiyat manfaatlariga maksimal darajada mos keladigan tarzda belgilanishi kerak. Amalda, markaziy bankning bir qancha asosiy maqsadlari farqlanadi:

- narx barqarorligi;
- muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- valyuta kursini barqaror ushlab turish;
- moliyaviy barqarorlik.

Pul–kredit (monetar) siyosati – moliya organlarining makroiqtisodiy siyosati, pul bozori sharoitlari (qisqa muddatli foiz stavkasi, nominal valyuta kursi yoki bank sektorining joriy likvidligi darajasi) orqali yalpi talabni boshqarishga, narxlar barqarorligi, barqaror valyuta kursini saqlash, moliyaviy barqarorlik va muvozanatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan yakuniy maqsadlar kombinatsiyasiga erishishga qaratilgan chora–tadbirlar majmui.

Eng muhim bilvosita vositalarga quyidagilar kiradi:

- rasmiy qayta moliyalash stavkasini tartibga solish;

- majburiy zahira normasining o'zgarishi;
- tijorat banklarini qayta moliyalashtirish;
- ochiq bozor operatsiyalari.

Odatda, amalda ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishning muayyan bosqichi va mamlakat iqtisodiyotini isloh qilishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ridan–to'g'ri va bilvosita usullarning kombinatsiyasi qo'llaniladi.

Pul massasini tartibga solish, MO, M1, M2, va M3 agregatlari dinamikasi va ularning nisbatlari, shuningdek, pul massasining o'sishi bilan bog'liq holda o'sish mezonlarini (targetlash) aniqlash, makro parametrlar (YAIM va boshqalar), ham bevosita, ham bilvosita vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Bunda pul–kredit organlarining kreditlar ko'rinishidagi tashqi qarzlari va yevroobligatsiyalar kabi xorijiy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish alohida rol o'ynaydi, chunki so'm taklifini kengaytirish uchun ushbu mablag'lar milliy valyutaga konvertatsiya qilinishi kerak.

Bank tizimining rivojlanishi aniq belgilangan maqsad, vazifalar va tamoyillarga asoslanadi. Ushbu maqsad, vazifa va tamoyillar respublika iqtisodiyotini isloh qilish jarayonida umumiy iqtisodiy masalalarni hal etishga qaratilgan.

O'zbekiston bank tizimini keng ko'lamli isloh qilish jarayonida muhim institusional va tuzilmaviy o'zgarishlarga erishdi. Ikki bosqichli bank tizimi ya'ni, Markaziy bank hamda mulkchilikning turli shakllari asosida **tijorat banklari tizimi** tashkil etildi va rivojlanmoqda. Bundan tashqari banklarimizning yetakchi xorijiy banklar bilan hamkorligi yildan–yilga kengaymoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda bank tizimiga katta e'tibor qaratilayotganligi, shuningdek, tijorat banklari kapitallashuvini yanada jadallashtirish borasidagi chora–tadbirlar va sa'y–harakatlar natijasida korxonalar va tashkilotlar tomonidan investitsiyalarga bo'lgan talabning ma'lum darajada o'sishiga erishildi.

Markaziy bankning pirovard maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Bu jarayonda iqtisodiyot pul–kredit mexanizmi orqali tartibga solib boriladi, ushbu mexanizmning asosiy dastagi bo'lgan foiz stavkasidan foydalaniladi.

Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarida Markaziy bankning 2023 yil undan keyingi davrda pul-kredit sohasida amalga oshiriladigan tadbirlar, tashqi va ichki iqtisodiy sharoitlar o'zgarishlariga tezkor munosabati va javob choralari, pul-kredit siyosatini amalga oshirishdagi yondashuvlar va takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishda asosiy e'tibor – **iqtisodiyotda narxlar barqarorligiga** erishishdir. Asosiy maqsad – uyg'un holda mamlakatimizda **inklyuziv iqtisodiy o'sish** va **moliyaviy barqarorlikka** xizmat qiladigan pul kredit sharoitlari ta'minlash hisoblanadi.

Markaziy bank inflyasiya darajasini yalpi talab va iqtisodiy faollik ko'rsatkichlariga **minimal ta'sirlar** bilan pasaytirish maqsadida **muvozanatlashgan choralar** amalga oshiriladi:

Jahon markaziy banklari pul-kredit siyosatini amalga oshirishda tanlangan rejim doirasidagi tamoyillar, umumqabul qilingan uslub va mezonlardan kelib chiqadi. Inflyasion targetlash mexanizmidagi pul-kredit siyosatining quyidagi tamoyillariga asoslanadi:

– **inflyasiyaning maqsadli ko'rsatkichi belgilanadi va pul-kredit siyosati** doirasida ko'rilayotgan barcha choralar ushbu maqsadli ko'rsatkichga erishishga qaratiladi.

– iqtisodiyotning salohiyati, talab va taklifdagi o'zgarishlar, makroiqtisodiy prognozlar va umumiy standartlar asosida aniqlanadigan inflyasiyaning erishilishi kerak bo'lgan maqbul ko'rsatkichi maqsad qilib belgilanadi:

– O'zbekistonda joriy inflyasiyaning erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichi 5 foiz etib belgilangan va Markaziy bank ushbu maqsadli ko'rsatkichga erishish bo'yicha o'z vakolati doirasida barcha choralarni ko'radi.

Pul bozoridagi foiz stavkalarini boshqarishda hamda iqtisodiy o'sish jarayonlarini rag'batlantirish maqsadida pul-kredit siyosatida qo'llaniladigan asosiy instrumentlardan yana biri qayta moliyalash siyosatidir. Qayta moliyalash siyosati bu – Markaziy bankning tijorat banklariga beradigan kreditning foiz stavkasi hisoblanadi.

Markaziy bankning **qayta moliyalash stavkasi** bu uning respublikadagi boshqa banklarga taqdim qiladigan puliga qo'yilgan to'lov foizidir. Masalan, sodda tilda aytilsa, Markaziy bank bizdagi banklarga

kredit beradi, banklar o'z navbatida ushbu kreditni jismoniy va yuridik shaxslarga kredit yoki qarz qilib qayta tarqatadi. Bunda Markaziy bankdan ma'lum bir foizga olingan kreditni ustiga o'z foizini qo'shib tijorat banki aholiga kredit tarqatadi. Masalan, Markaziy bankdan tijorat banki bir million so'm olsa, endilikda yangi stavkaga binoan ushbu summaga 14 foiz qo'shib ya'ni 1 140 000 so'm qilib qaytarish kerak. Ushbu summadan tijorat banki o'z daromadini qo'shib aholiga qarz yoki kredit beradi. Tijorat banki Markaziy bankdan 14 foizlik stavkada olgan bo'lsa, aholiga uni 20 yoki 22 foizlik stavkada sotadi va o'rtadagi foizlar bu tijorat bankining daromadidir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yangi bosqichida pul-kredit siyosati ham muhim o'ringa ega bo'lib, so'nggi yillarda ushbu sohada ham salmoqli o'zgarishlar amalga oshirildi.

Avvalo, Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadi sifatida iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlash zarurligi qat'iy belgilab qo'yildi. Shuningdek, tegishli Prezident Farmoni va xalqaro tajribadan kelib chiqib, pul-kredit siyosatini inflyasion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich muvofiqlashtirib borish vazifasi yuklatildi.

Markaziy bank 2020 yildan pul-kredit siyosati mexanizmlarini inflyasion targetlash rejimi standartlariga bosqichma-bosqich muvofiqlashtirib borishi, inflyasiya uchun oraliq target sifatida 2021 yilda 10 foizdan oshmasligini ta'minlash va doimiy targeti sifatida 2023 yildan uning 5 foizlik darajasiga erishish belgilandi³⁷.

2020 yildan boshlab banklararo pul bozori foiz stavkalarini samarali tartibga solish va ularning Markaziy bankning asosiy stavkasiga yaqin darajada foiz koridori doirasida shakllanishini ta'minlash maqsadida qisqa muddatli pul-kredit operatsiyalari amaliyotga joriy etildi. Inflyasion targetlash rejimiga o'tgan aksariyat davlatlarda operatsion maqsad sifatida pul bozoridagi overnait depozitlar bo'yicha foiz stavkalarni asosiy stavkaga yaqinlashtirish belgilangan.

Davlat moliya siyosatining iqtisodiy asosi va quroli soliqlardir. Soliq – bu davlat yoki mahalliy hokimiyat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslardan majburiy ravishda olinadigan, davlatning o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari. Soliq siyosati milliy

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrda «Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-5877-Farmoni

daromadni taqsimlash, uning uchun majburiy to'lovlar vositalarini(soliqlarni) joriy etish, uni undirish va bu jarayonning borishini tartibga solib turish hamda uni doimtakomillashtirib borish kabi munosabatlarni taqozo qiladi. Bu munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash esa davlatning faoliyatida ma'lum bir yo'nalishdagi jarayonni-soliq siyosatini talab qiladi.

Soliqning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita turi bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri soliq to'lovchining daromadi yoki mulkidan bevosita davlat tomonidan undiriladi. Bilvosita soliq – narx yoki tarifga qo'shimcha haq sifatida belgilangan tovarlar va xizmatlarga soliq (QQS, aksizlar) bo'lib, u iste'molchi mablag'lari hisobidan qoplanadi va soliq to'lovchining xarajatlarini oshirmaydi.

O'zbekistonda 2017 yilga qadar soliq siyosati tadbirkor va korxonalarini ishlab chiqarish hajmini oshirishga rag'batlantirish xususiyatidan ko'ra, ko'proq soliq tushumlari darajasini ko'paytirish va byudjetni to'ldirishga qaratilgan edi. Qo'shilgan qiymat solig'i 20 foiz bo'lib, qo'shni mamlakatlarda esa bu 12 foiz bo'lgani tufayli bizning ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari tannarxi va bahosining oshishiga, ularning raqobatdoshlik darajasini tushirgan holda aholining sotib olish qobiliyatiga salbiy ta'sir qilar edi.

Mamlakatimizda 2017 yildan soliq siyosatining rag'batlantiruvchi xususiyatiga ustuvorlik berish va tartibga soluvchi soliq siyosatining vositalaridan foydalanishi ijobiy samara bermoqda. Jahon tajribasida soliq siyosatining eng samarali turlaridan biri sifatida muvozanatlashgan soliq siyosati ancha keng foydalanilmoqda. Milliy iqtisodiyotda raqobat muhitining chuqurlashuvi, davlatning tadbirkorlik sifatida namoyon bo'lishining ortishi, milliy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni oshib, xalqaro integrasiyalashuv darajasining kengayib borishi davlatlarning kombinasiyalashgan soliq siyosatini faol qo'llashni talab etomqda. Bunda soliq siyosatining boshqa turlarining asosiy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Bu soliq siyosatining afzalligi – fiskal, tartiblovchi, rag'batlantiruvchi soliq siyosatlarining qaysi biriga ustuvorlik berishini tanlash masalasi hisoblanadi.

Shu tufayli kombinasiyalashgan soliq siyosati moslashuvchan xarakterda bo'lishi taqozo etiladi. Soliq siyosatining fiskallik turiga ko'proq

e'tibor berilishidagi yuzaga kelib qolgan salbiy oqibatlarni boshqa qaysi soliq siyosatidan foydalanish orqali bartaraf etishni hal etish bu soliq turining moslashuvchan tarzda mavjud bo'lishligini talab etadi. Demak, kombinasiyalashgan soliq siyosati doim o'zgaruvchan, vaziyatga moslashuvchan xarakterdagi barcha soliq siyosatlarining mazmunini o'zida aks ettiruvchi soliq siyosati bo'lib, uning ishlab chiqilishi va amalga oshirish jarayoni ham davlatning boshqa iqtisodiy sohadagi siyosatlariga ham moslashgan bo'ladi.

O'zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasiga ko'ra, 2019 yil 1 yanvardan mamlakatimiz soliq tizimida qator muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, soliq yuki va turlari kamaytirildi, ayrimlari bekor qilindi, soliq tizimi soddalashtirildi. Xususan, 2019 yildan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining 12 foizli yagona stavkasi joriy etildi va unga qadar 4 ta shkalaga ega (2018 yilda 0; 7,5; 16,5; 22,5 %) va hisoblab chiqarilishi murakkab bo'lgan tizimi mavjud edi.

Natijada, 2019 yil 1 yanvardan boshlab, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining 22,5 foizdan yagona 12 foiz etib belgilanishi fuqarolar daromadlarining ortishi bilan birga, mamlakatda yashirin iqtisodiyot, norasmiy bandlik darajasini qisqartirish va ish o'rinlarini legallashtirishga xizmat qiladi.

2020 yil 1 yanvardan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi amalga kiritildi va soliq imtiyozlari faqat Soliq kodeksi bilan taqdim etilishi va ayrim soliqlar bo'yicha imtiyozlar faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko'pi bilan 50 foizga kamaytirish belgilandi.

Yagona ijtimoiy to'lov o'rniga ijtimoiy soliq, yagona soliq to'lovi o'rniga – aylanmadan soliq, qat'iy belgilangan soliq o'miga – jismoniy shaxslarning daromadlariga, ularga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ilgari berilgan imtiyoz va soliqni hisoblash xususiyatlarini saqlab qolgan holda, qat'iy belgilangan miqdorda soliq joriy etildi.

Soliq siyosati moliya siyosatining boshqa tarkibiy qismlari bilan juda bog'liq va u byudjet siyosati bilan birgalikda ko'pincha byudjet-soliq siyosati ham deb yuritiladi. Shuningdek, soliq siyosati fiskal siyosat bilan o'zaro farqli xususiyatlarga ham ega hamda monetar siyosat bilan ham o'zaro ta'sirda bo'ladi. Chunki, soliq siyosati ishlab chiqilayotganda inflyasiya darajasi, pul agregatlarining hajmi va harakatiga soliqlarning

ta'siri, korxonalarining investision siyosatini qo'llab-quvvatlashda kredit resurslaridan foydalanish kabi masalalar ham kompleks bog'liqlikda ko'riladi.

Rivojlangan mamlakatlarda egri soliqlarning (ularning tarkibi odatda qo'shilgan qiymat solig'i va aksizlar bilan cheklanadi) byudjet daromadlarida, qoida tariqasida, 30% dan oshmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlar soliq tizimlarida egri soliqlar odatda ustun mavqeni egallaydi – byudjet daromadlarining 50 dan 70 foizigacha tashkil qiladi.

Barcha rivojlangan mamlakatlar soliq tizimlarining asosiy farqlovchi xususiyati ularning iqtisodiyotning tuzilishi va natijalari bilan yaqin aloqasi va o'zaro bog'liqligidir. Qo'llaniladigan soliqlarning xilma-xilligi bilan yuqori iqtisodiy o'sishga muvofiqlik prinsipi doimo o'zgarishsiz qoladi. Qolaversa, u soliq to'lovchilarning ayrim guruhlarini manfaatlarini yoki tarmoq sharoitlari va qiyinchiliklarini hisobga olishda emas, balki real yuzaga kelayotgan umumiy iqtisodiy nisbat va bog'liqliklarga e'tibor qaratishda namoyon bo'ladi (26-jadval).

O'zbekistonda soliq huquqiy munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy qonun Soliq kodeksi hisoblanadi. Aynan Soliq kodeksi davlatdagi soliqlar va boshqa to'lovlarni belgilaydi, o'zgartiradi va bekor qiladi. Soliqqa tortish masalalarini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari Soliq kodeksiga zid bo'lishi mumkin emas.

Soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga AKTni joriy etish soliq to'lovchilar va soliq solish ob'yektlari to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni tizimlashtirish va to'plashga, ushbu ma'lumotlarga ishlov berish va ishonchli saqlanishini ta'minlashga qaratilgan. Davlat soliq organlarida AKT ni joriy etish tuzilmasi vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning yaxlit tizimiga asoslangan. Bunda asosiy e'tibor byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga soliq tushumlarini tahlil qilish va prognozlash, naqd pul muomalasini monitoring qilish, bankdan tashqari aylanmalarni kamaytirish choralarini ko'rish, soliq qarzlarini undirish masalalariga qaratilgan.

Natijada soliq organlari xodimlari faoliyati samaradorligi bir necha barobar oshdi, soliqlar va majburiy to'lovlarni undirish, soliq qarzlarini undirish, soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish maqsadida tezkor choralar ko'rish darajasi ortdi.

Davlat soliq siyosatining maqsadlari va amalga oshirish usullari

Fiskal:
Yaratilayotgan milliy mahsulotni boshqaruvning tegishli darajalari bo'yicha o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari uchun yetarli bo'lgan qismini byudjet tizimiga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga qayta taqsimlash
Iqtisodiy:
1. Davlatning iqtisodiyotni samarali tartibga solishda ishtirokini ta'minlash 2. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash 3. Ijtimoiy ishlab chiqarishdagi nomutanosiblikni bartaraf etish 4. Asosiy kapitalga investisiyalar kiritishni rag'batlantirish
Ijtimoiy:
1. Aholining turli ijtimoiy guruhlari o'rtasidagi daromadlar darajasidagi tengsizlikni yumshatish 2. Aholining kam ta'minlangan qatlamining ijtimoiy himoyasini oshirish 3. Inson kapitali salohiyatini oshirishga qaratilgan investisiyalarni rag'batlantirish
Ekologik:
1. Atrof muhitni himoya qilish va tabiatdan oqilona foydalanishni ta'minlash 2. Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun kompensasiya mexanizmini yaratish 3. Kelajak avlod uchun tabiat va tabiiy resurslarni saqlash uchun investisiyalarni rag'batlantirish
Xalqaro:
1. Ikki tomonlama soliqqa tortish amaliyoini bartaraf etish 2. Soliqdan qochish imkoniyatini bartaraf etish 3. Soliqqa tortish tizimini uyg'unlashtirish

Soliq to'lovchi bo'lgan yuridik shaxslar "Shaxsiy kabinet" orqali soliq va boshqa majburiy to'lovlarni onlayn tarzda to'lashlari mumkin. Davlat soliq xizmati organlari soliq to'lovchilarga **40 dan ortiq turdagi elektron davlat xizmatlarini** taqdim etadi, buning natijasida ular:

- kunning istalgan vaqtida ma'lumot olish;
- byudjet xarajatlarini nazorat qilish;
- soliq organiga bormasdan qiziqtirgan savollarga murojaat qilish;
- soliqlarni onlayn to'lash.

Soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish natijasida bir qator afzalliklarga erishildi. Jumladan:

- soliq ma'muriyatchiligi tizimidagi xarajatlarni kamaytirish;
- soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash imkoniyatlarini oshirish;
- soliq to'lovchilarga nisbatan ma'muriy bosim darajasini pasaytirish;
- korrupsiya xavfi darajasini pasaytirish;

– ma'muriy bosim darajasini pasaytirish va biznes ko'lamini kengaytirish hisobiga soliq solinadigan bazani oshirish.

2026 yilga borib tadbirkorlik sub'yektlariga soliq yuklamasini YAIMning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish; pul–kredit, byudjet–soliq siyosatlarini va tarkibiy islohotlarni o'zaro muvofiqlashtirish; sharoiti «og'ir» bo'lgan hududlarda 2025 yil 1 yanvargacha yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik sub'yektlariga aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz stavkada hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i, yuridik shaxslarning mol–mulkiga solinadigan soliqlari hisoblangan summadan 1 foiz stavkada to'lash tizimini joriy etish belgilangan³⁸.

2023 yilda O'zbekistonning soliq siyosatida quyidagi o'zgarishlarni ko'rsatish mumkin:

Qo'shilgan qo'shimcha soliq stavkasi 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirildi. Foyda solig'ining bazaviy stavkasi 15 foiz, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 12 foiz, yuridik shaxslarning mol–mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1,5 foiz miqdorida saqlab qolingan.

2023 yil 1 apreldan byudjet mablag'lari hisobidan ko'rsatiladigan bir qator xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'idan imtiyozlar bekor qilingan.

Shuningdek, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida 2023 yil soliq siyosatini belgilashda bir qator muhim o'zgartirishlarni amalga oshirish, birinchi navbatda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash borasida soliq stavkalarini pasaytirish va unifikatsiya qilish hamda qo'shimcha qulayliklar yaratish, xususan, 2026 yil borib tadbirkorlik sub'yektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish vazifasi belgilangan.

Byudjet – bu bir moliyaviy yil uchun ularni qoplash maqsadida taqdim etiladigan xarajatlar va daromadlarining tizimli ravishda jamlangan to'plami. Byudjet davlat organlarining funksiyalarini, tegishli ma'muriy–hududiy birliklarni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun mablag'larni shakllantirish va ulardan foydalanish rejasini hisoblanadi. Davlat byudjeti davlatning ijro apparatini, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasini tashkil qiladi.

³⁸ 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

Davlat byudjeti mamlakatning moliyaviy hujjati bo'lib, u barcha davlat idoralari, hukumat dasturlari va hokazolarning byudjet smetalari to'plamini aks ettiradi. Unda davlat hisobidan ta'minlanishi lozim bo'lgan ehtiyojlar, shuningdek, davlat g'aznasiga kutilayotgan tushumlarning manbalari va miqdorlari belgilab beriladi.

O'zbekistonda 2016 yil oxiridan buyon amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar mamlakat hayotida tub o'zgarishlarga olib keldi. Shu qisqa davr ichida davlat keng ko'lami islohotlar dasturi orqali fuqarolarning turmush sharoitini yaxshilash borasida sezilarli yutuqlarga erishdi.

O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonunchilik ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi (26.1–jadval).

26.1–jadval

O'zbekistonning davlat byudjeti tushumlari³⁹, %

	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022
Foyda solig'i	3,10	1,52	2,72	4,53	20,21	21,68	37,6
Jismoniy shaxslardan daromad solig'i	9,24	8,08	7,06	5,72	0,55	5,36	24,3
Qo'shilgan qiymat solig'i	14,84	15,51	28,20	15,70	43,79	39,09	52,2
Aksiz solig'i	10,39	8,28	6,61	4,88	6,58	7,85	13,4
Bojxona solig'i	1,20	1,70	0,80	0,90	2,76	3,12	5,7
Yer qa'ridan foydalanishdagi soliq	30,30	30,40	17,34	9,17	15,62	10,75	13,9
Boshqa tushumlar	30,93	34,50	37,27	1,06	5,59	12,18	42,1

O'zbekiston hukumati 2016 yil oxiridan byudjet–soliq islohotlari doirasida oshkoralik, samarali boshqaruv va fuqarolar ishonchini mustahkamlash borasida ham qat'iy chora–tadbirlarni amalga oshirdi. Yaqin vaqtga qadar davlat moliyasi bo'yicha ma'lumotlar shaffof emas edi va bu fuqarolarga soliqlar qanday sarflanayotganini tushunishga imkon bermas edi. Vaziyatni o'zgartirish uchun hukumat Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan qo'llaniladigan Kengaytirilgan umumiy ma'lumotlarni tarqatish tizimini joriy etish bo'yicha tavsiyalariga amal qildilar. Endi davlat moliyasi

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

– ma'muriy bosim darajasini pasaytirish va biznes ko'lamini kengaytirish hisobiga soliq solinadigan bazani oshirish.

2026 yilga borib tadbirkorlik sub'yektlariga soliq yuklamasini YAIMning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish; pul–kredit, byudjet–soliq siyosatlari va tarkibiy islohotlarni o'zaro muvofiqlashtirish; sharoiti «og'ir» bo'lgan hududlarda 2025 yil 1 yanvargacha yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik sub'yektlariga aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz stavkada hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i, yuridik shaxslarning mol–mulkiga solinadigan soliqlari hisoblangan summadan 1 foiz stavkada to'lash tizimini joriy etish belgilangan³⁸.

2023 yilda O'zbekistonning soliq siyosatida quyidagi o'zgarishlarni ko'rsatish mumkin:

Qo'shilgan qo'shimcha soliq stavkasi 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirildi. Foyda solig'ining bazaviy stavkasi 15 foiz, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 12 foiz, yuridik shaxslarning mol–mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1,5 foiz miqdorida saqlab qolingan.

2023 yil 1 apreldan byudjet mablag'lari hisobidan ko'rsatiladigan bir qator xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'idan imtiyozlar bekor qilingan.

Shuningdek, mamlakatning investisiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida 2023 yil soliq siyosatini belgilashda bir qator muhim o'zgartirishlarni amalga oshirish, birinchi navbatda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash borasida soliq stavkalarini pasaytirish va unifikatsiya qilish hamda qo'shimcha qulayliklar yaratish, xususan, 2026 yil borib tadbirkorlik sub'yektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish vazifasi belgilangan.

Byudjet – bu bir moliyaviy yil uchun ularni qoplash maqsadida taqdim etiladigan xarajatlar va daromadlarining tizimli ravishda jamlangan to'plami. Byudjet davlat organlarining funksiyalarini, tegishli ma'muriy–hududiy birliklarni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun mablag'larni shakllantirish va ulardan foydalanish rejasi hisoblanadi. Davlat byudjeti davlatning ijro apparatini, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasini tashkil qiladi.

³⁸ 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

Davlat byudjeti mamlakatning moliyaviy hujjati bo'lib, u barcha davlat idoralari, hukumat dasturlari va hokazolarning byudjet smetalari to'plamini aks ettiradi. Unda davlat hisobidan ta'minlanishi lozim bo'lgan ehtiyojlar, shuningdek, davlat g'aznasiga kutilayotgan tushumlarning manbalari va miqdorlari belgilab beriladi.

O'zbekistonda 2016 yil oxiridan buyon amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar mamlakat hayotida tub o'zgarishlarga olib keldi. Shu qisqa davr ichida davlat keng ko'lamli islohotlar dasturi orqali fuqarolarning turmush sharoitini yaxshilash borasida sezilarli yutuqlarga erishdi.

O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonunchilik ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi (26.1–jadval).

26.1–jadval

O'zbekistonning davlat byudjeti tushumlari³⁹, %

	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022
Foyda solig'i	3,10	1,52	2,72	4,53	20,21	21,68	37,6
Jismoniy shaxslardan daromad solig'i	9,24	8,08	7,06	5,72	0,55	5,36	24,3
Qo'shilgan qiymat solig'i	14,84	15,51	28,20	15,70	43,79	39,09	52,2
Aksiz solig'i	10,39	8,28	6,61	4,88	6,58	7,85	13,4
Bojxona solig'i	1,20	1,70	0,80	0,90	2,76	3,12	5,7
Yer qa'ridan foydalanishdagi soliq	30,30	30,40	17,34	9,17	15,62	10,75	13,9
Boshqa tushumlar	30,93	34,50	37,27	1,06	5,59	12,18	42,1

O'zbekiston hukumati 2016 yil oxiridan byudjet–soliq islohotlari doirasida oshkoralik, samarali boshqaruv va fuqarolar ishonchini mustahkamlash borasida ham qat'iy chora–tadbirlarni amalga oshirdi. Yaqin vaqtga qadar davlat moliyasi bo'yicha ma'lumotlar shaffof emas edi va bu fuqarolarga soliqlar qanday sarflanayotganini tushunishga imkon bermas edi. Vaziyatni o'zgartirish uchun hukumat Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan qo'llaniladigan Kengaytirilgan umumiy ma'lumotlarni tarqatish tizimini joriy etish bo'yicha tavsiyalariga amal qildilar. Endi davlat moliyasi

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

ma'lumotlari milliy statistika idorasi veb-saytida va XVF veb-saytida ham e'lon qilinadi.

2023 yilgi davlat byudjetida O'zbekiston kafolati ostida jalb qilingan davlat qarzining summasi YAIMning yillik prognoz ko'rsatkichiga nisbatan 60 foizdan oshmasligi, O'zbekiston kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi 4,5 mlrd AQSH doll. miqdorida belgilangan.

Qonunda soliq siyosatiga muhim o'zgarishlar kiritilgan. Bunda YAIMda salmoqli ulushga ega ishlab chiqarish sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish nazarda tutilgan. Qonun bilan 2023 yil uchun O'zbekistonning konsolidasiyalashgan byudjetini shakllantirish va ijro etish bilan bog'liq munosabatlar tartibga solinadi.

Jumladan, 2023 yilda mamlakatimiz YAIMning o'sish sur'atlari 5,3 foizni, shu jumladan, sanoatda 5,1 – 6,9 foizni, qishloq xo'jaligi sohasida 3,5 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan (26.2–jadval).

26.2–jadval

2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va 2024–2025 yillarga maqsadli mo'ljallar⁴⁰

T/r	Ko'rsatkichlar	2023 yil uchun prognoz	Maqsadli mo'ljallar	
			2024 yil	2025 yil
1.	YAIM, mlrd so'm	1 068 044	1 235 398	1 411 965
2.	YAIMning o'sish sur'ati, foizda	5,3	5,6	6,0
3.	Iste'mol narxlari indeksi, o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	9,5	5–6	5
4.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	5,1 – 6,9	6,0	7,2
5.	Qishloq, o'rmon va baliqchilik ho'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	3,5	3,7	3,9
6.	Xizmatlar ko'rsatishning o'sish sur'ati, foizda	6,7	6,2	6,0

2023 yil uchun O'zbekiston konsolidasiyalashgan byudjeti taqchilligining cheklangan miqdori yalpi ichki mahsulotning 3 foizi miqdorida belgilangan.

Qonunga ko'ra, jumladan soliqlarning quyidagi turlari tuman va shaharlar byudjetlariga to'liq hajmda o'tkazilishi belgilangan:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol–mulk solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- mol–mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklarasiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek YATTlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

• suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

• noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Byudjet jarayonini takomillashtirish uning barcha asosiy elementlarini isloh qilish, jumladan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlash bosqichi, barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, byudjet ijrosi, buxgalteriya hisobi va nazorati bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Moliyaviy intizom va barqarorlik, resurslarni samarali taqsimlash va byudjet jarayonining texnik samaradorligi prinsiplari asosida byudjet xarajatlarini qisqartirish va samaradorligini oshirish, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, g'aznachilik tizimini takomillashtirish, byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etish vazifalari, xarajatlarni moliyalashtirish manbalari dolzarbligicha qolmoqda.

2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonning tashqi qarzi 33,8 mlrd dollarni tashkil qilgan. Qarz yil boshiga nisbatan 11 foizga yoki 3,7 mlrd dollarga oshgan. Xususan, davlat tashqi qarzi 7 foizga yoki 1,5 mlrd dollarga o'sib 22,9 mlrd dollarni, davlat tomonidan kafolatlanmagan tashqi qarz esa 18 foizga yoki 2,2 mlrd dollarga o'sib 14,7 mlrd dollarni tashkil qilgan.

Xulosa

Pul–kredit (monetar) siyosati (ing. monetary policy) – pul–kredit organlarining makroiqtisodiy siyosati, chora–tadbirlar majmui. Ular pul bozori sharoitlari (qisqa muddatli foiz stavkasi, nominal ayirboshlash kursi yoki bank sektorining joriy likvidligi) orqali yalpi talabni boshqarishga qaratilgan bo'lib, ular yakuniy maqsadlarga erishish uchun narx barqarorligini, barqaror ayirboshlash kursini saqlashni, moliyaviy

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda O'RQ-813-son Qonuni

ma'lumotlari milliy statistika idorasi veb-saytida va XVF veb-saytida ham e'lon qilinadi.

2023 yilgi davlat byudjetida O'zbekiston kafolati ostida jalb qilingan davlat qarzining summasi YAIMning yillik prognoz ko'rsatkichiga nisbatan 60 foizdan oshmasligi, O'zbekiston kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi 4,5 mlrd AQSH doll. miqdorida belgilangan.

Qonunda soliq siyosatiga muhim o'zgarishlar kiritilgan. Bunda YAIMda salmoqli ulushga ega ishlab chiqarish sohaslarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish nazarda tutilgan. Qonun bilan 2023 yil uchun O'zbekistonning konsolidasiyalashgan byudjetini shakllantirish va ijro etish bilan bog'liq munosabatlar tartibga solinadi.

Jumladan, 2023 yilda mamlakatimiz YAIMning o'sish sur'atlari 5,3 foizni, shu jumladan, sanoatda 5,1 – 6,9 foizni, qishloq xo'jaligi sohasida 3,5 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan (26.2–jadval).

26.2–jadval

2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va 2024–2025 yillarga maqsadli mo'ljallar⁴⁰

T/r	Ko'rsatkichlar	2023 yil uchun prognoz	Maqsadli mo'ljallar	
			2024 yil	2025 yil
1.	YAIM, mlrd so'm	1 068 044	1 235 398	1 411 965
2.	YAIMning o'sish sur'ati, foizda	5,3	5,6	6,0
3.	Iste'mol narxlari indeksi, o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	9,5	5–6	5
4.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	5,1 – 6,9	6,0	7,2
5.	Qishloq, o'rmon va baliqchilik ho'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	3,5	3,7	3,9
6.	Xizmatlar ko'rsatishning o'sish sur'ati, foizda	6,7	6,2	6,0

2023 yil uchun O'zbekiston konsolidasiyalashgan byudjeti taqchilligining cheklangan miqdori yalpi ichki mahsulotning 3 foizi miqdorida belgilangan.

Qonunga ko'ra, jumladan soliqlarning quyidagi turlari tuman va shaharlar byudjetlariga to'liq hajmda o'tkazilishi belgilangan:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol–mulk solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- mol–mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklarasiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek YATTLar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

• suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

• noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Byudjet jarayonini takomillashtirish uning barcha asosiy elementlarini isloh qilish, jumladan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlash bosqichi, barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, byudjet ijrosi, buxgalteriya hisobi va nazorati bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Moliyaviy intizom va barqarorlik, resurslarni samarali taqsimlash va byudjet jarayonining texnik samaradorligi prinsiplari asosida byudjet xarajatlarini qisqartirish va samaradorligini oshirish, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, g'aznachilik tizimini takomillashtirish, byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etish vazifalari, xarajatlarni moliyalashtirish manbalari dolzarbligicha qolmoqda.

2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonning tashqi qarzi 33,8 mlrd dollarni tashkil qilgan. Qarz yil boshiga nisbatan 11 foizga yoki 3,7 mlrd dollarga oshgan. Xususan, davlat tashqi qarzi 7 foizga yoki 1,5 mlrd dollarga o'sib 22,9 mlrd dollarni, davlat tomonidan kafolatlanmagan tashqi qarz esa 18 foizga yoki 2,2 mlrd dollarga o'sib 14,7 mlrd dollarni tashkil qilgan.

Xulosa

Pul–kredit (monetar) siyosati (ing. monetary policy) – pul–kredit organlarining makroiqtisodiy siyosati, chora–tadbirlar majmui. Ular pul bozori sharoitlari (qisqa muddatli foiz stavkasi, nominal ayirboshlash kursi yoki bank sektorining joriy likvidligi) orqali yalpi talabni boshqarishga qaratilgan bo'lib, ular yakuniy maqsadlarga erishish uchun narx barqarorligini, barqaror ayirboshlash kursini saqlashni, moliyaviy

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda O'RQ-813-son Qonuni

barqarorlikni va muvozanatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

Moliya tizimining asosiy va muhim tarkibiy qismi davlat byudjetidir. Byudjet iqtisodiyotning kuchli tartibga soluvchisi, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishning eng muhim omilidir. Byudjet mavjud milliy iqtisodiy nisbatlarni sezilarli darajada o'zgartirishi, ijtimoiy ishlab chiqarishning tarmoq va hududiy tuzilmalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Byudjet ijtimoiy ahamiyatga ega islohotlarni (ta'lim, sog'liqni saqlash, harbiy, pensiya va boshqalar) amalga oshirishda davlatga ko'maklashish, fuqarolarning moddiy ahvoriga qarab tabaqalanishining ijtimoiy oqibatlarini tenglashtirish uchun mo'ljallangan.

Davlatning soliq siyosati ham mikroiqtisodiy, ham makroiqtisodiy jihatlariga ega. Makroiqtisodiy jihatlar iqtisodiy faollik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yig'ilgan soliqlarning umumiy miqdoriga taalluqli va fiskal siyosatning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mikroiqtisodiy jihatlar tenglik (kim soliq to'lashi kerak) va taqsimlash samaradorligi (ya'ni, qanday soliqlar turli xil iqtisodiy faoliyatlar miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi) masalalariga tegishli.

Asosiy atama va tushunchalar

Monetar siyosat
Byudjet tizimi
Davlat qarzi
Byudjet profisiti, defisiti
Mahalliy byudjet
Soliq siyosati
Ijtimoiy soliq
Yagona ijtimoiy to'lov
Tadbirkorlik muhiti

Nazorat savollari

1. Mamlakat pul tizimining tuzilishi, Markaziy bankning roli va vazifalari nimadan iborat?
2. Pul-kreditni tartibga solishning bevosita va bilvosita vositalari qanday farqlanadi va ular hozirda qanday kombinasiyada qo'llaniladi?
3. Davlat moliya tizimining tuzilishi va vazifalari nimadan iborat?

4. Soliqlarning qanday turlari bor?

5. Soliy siyosatida qanday islohotlar amalga oshirildi?

6. Soliq tizimini takomillashtirish va yaxshilashdan maqsad nima?

7. Byudjet defisiti, profisiti nima va uni keltirib chiqaruvchi umumiy sabablar?

5-Bob. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi strategiyasi

27. Milliy iqtisodiyot rivojlanishini prognozlashtirish, modellashtirish, strategik rejalashtirish va dasturlash

O'tgan o'n yilliklarda iqtisodiy rivojlanishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan qator mamlakatlar tajribasi, ularning iqtisodiy yutug'i iqtisodiyotni rivojlantirishning uzoq muddatli strategik rejalashtirishga o'tish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni davlat tomonidan boshqarish modelining asosi sifatida iqtisodiy rivojlanishning indikativ rejalarini tayyorlash va amalga oshirishga asoslanganligini ko'rsatadi. Bu yerda so'z amalga oshirilayotgan davlat iqtisodiy siyosatining uzoq muddatli strategik xususiyati haqida bormoqda, bu esa mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning indikativ rejalarini (indikativ ko'rsatkichlarni) izchil amaliy amalga oshirishdir. Shu bilan birga, jahonning iqtisodiy rivojlangan yetakchi davlatlarining aksariyatida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, eng avvalo, ularning iqtisodiy strategiyalari asosiga qo'yildi. Xususan, iqtisodiyotni rivojlantirishning besh yillik indikativ rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, asosan sanoatni rivojlantirishga qaratilganligi Yaponiya va Koreya Respublikasining "iqtisodiy mo'jizasi"ning asosi bo'ldi.

Prognozlash – davlat, boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning mamlakat, hududlar, tarmoqlar, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarining rivojlanish istiqbollari ishlab chiqishga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Prognoz – bu iqtisodiy tizimning kelajakdagi parametrlariga oid ilmiy asoslangan taxminlar (sifat va miqdoriy shakllarda ifodalangan) majmuasidir.


Prognozlash kengroq tushuncha – ko'ra bilish bilan bog'liq. Ko'ra bilish voqelikni aks ettirishdan ustun turadi va tabiat, jamiyat va tafakkur qonunlarini bilishga asoslanadi. Prognozlash jarayonida ikkita yondashuv qo'llaniladi: induktiv va deduktiv. Induktiv yondashuvda qo'llaniladigan induksiya usuli muammolarni xususiydan umumiyga qarab ko'rib chiqishga, ya'ni ob'yekt to'g'risidagi haqiqiy yoki qayd etilgan ma'lumotlarga (tajriba yoki jarayonni ishlab chiqish), rivojlanish tendensiyasiga (yoki muntazamligiga) asoslanadi. prognozni asoslashda foydalaniladigan ob'yektning umumiy rivojlanishi belgilanadi.

Deduktiv usul bilan, ya'ni umumiydan xususiyga yondashish, avvalo, tahlil qilinayotgan texnologiya sohasining umumiy tendensiyalari yoki rivojlanish qonuniyatlari aniqlanadi, so'ngra aniqlangan umumiy istiqbolga asoslanib, individual rivojlanish darajalari va yo'llari aniqlanadi. hududlar, shuningdek, bu holatda prognozlashda qiziqish ob'yektlarining o'ziga xos texnik xususiyatlari aniqlanadi.

Induktiv yondashuv prognozlash usullariga, deduktiv yondashuv esa normativ (maqsadli) prognozlash bilan ko'proq mos keladi.

Rejalashtirish – bu maqsadlar, ustuvorliklarni ilmiy asoslash, ularga erishish yo'llari va vositalarini belgilash jarayoni. Umuman olganda, rejalashtirish kelajakdagi harakatlardan oldin qaror qabul qilish jarayoni sifatida belgilanishi mumkin. Rejalashtirish – bu orzu qilingan kelajakni loyihalash va unga erishishning samarali usullari bo'lib, uning yakuniy natijasi turli darajadagi boshqaruv organlarining maqsadli faoliyati asosida rejalashtirilgan qarorlardir. **Reja** – ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish bo'yicha ko'rsatkichlar tizimi va chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga olgan hujjatdir. U qo'yilgan vazifalarga muvofiq rivojlanish yo'llari va vositalarini belgilaydi, qabul qilingan boshqaruv qarorlarini asoslaydi.

Prognoz va reja bir-birini to'ldiradi. Prognoz va rejaning kombinatsiyasi turli shakllarda bo'lishi mumkin: prognoz rejani ishlab chiqishdan oldin bo'lishi mumkin (ko'p hollarda), unga rioya qilish (rejada qabul qilingan qarorning oqibatlarini prognoz qilish), rejada amalga oshirilishi mumkin (27-rasm).



27-rasm. Rejalashtirish shakllari va prognozlar turlarining umumiy tasnifi

Keng ma'noda prognoz – bu o'rganilayotgan ob'yektning kelajakdagi holati to'g'risida ehtimollik xususiyatiga ega bo'lgan asosli g'oyalar tizimi.

Prognozlash va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish yoki indikativ rejalashtirish asosida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida ham muhim rol o'ynaydi. Fan va amaliyotda rejalashtirishning direktiv va indikativ shakllari g keng tarqalgan.

Direktiv rejalashtirish – majburiy, qat'iy, bajarilishi kerak bo'lgan, belgilangan maqsad va vazifalarni majburiy amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, buyruqbozlik va ma'muriy dastaklardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Rejalashtirishning direktiv shakli doirasida bajarilishi majburiy bo'lgan rejali vazifalar aniq ijrochilar e'tiboriga havola etiladi. Rejalar milliy manfaatlar asosida ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi va qonun kuchiga ega.

Indikativ rejalashtirish – mamlakat iqtisodiyotining holati va rivojlanishini tavsiflovchi parametrlar tizimini shakllantirish jarayoni.

Indikativ prognoz rejasi strategik rejani to'ldiradi va qisqa va o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiyotni rivojlantirishda amaliy vosita sifatida qo'llaniladi. Indikativ reja direktiv xususiyatga ega emas va cheklangan miqdordagi majburiy vazifalarni o'z ichiga oladi, u ko'proq maslahat xarakteriga ega.

Indikativ rejalashtirish uchta muhim funksiyani bajarishga qaratilgan:

1) axborot – davlat rejalar va prognozlar bilan tadbirkorlik sub'yektlarini shu asosda o'z biznes rejalarini shakllantirish imkonini beradigan maqbul bo'lgan iqtisodiy siyosat to'g'risida xabardor qiladi;

2) barqarorlashtirish – hukumatning uzoq muddatli maqsad va vazifalari bo'yicha harakat qilish va ularga muvofiq harakat qilish imkonini beradi;

3) kelishuv – hukumat va nodavlat xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga o'zaro maslahatlashuvlar va kelishuvlar jarayonida iqtisodiy siyosatning asosiy masalalari bo'yicha birlikka erishish imkonini beradi.

Jahonda ro'y bergan turli inqirozlar bozorni davlatning tartibga soluvchi ishtirokisiz o'zini o'zi tartibga solish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda jiddiy deformatsiyalar va muvaffaqiyatsizliklarga olib kelishini ko'rsatdi. Davlat rejalashtirish va davlat tomonidan tartibga solish imkoniyatlariga tayanib, yuzaga keladigan deformatsiyalarni bartaraf etishga

va bu jarayonlarni vaqti-vaqti bilan dinamik muvozanat holatiga qaytarishga mas'ul hisoblanadi.

XX asrning 30 yillaridan boshlab iqtisodiyotni tartibga solish zarurati va YAIM darajasini oshirishga intilish makroiqtisodiy prognozlash vositalarini (modellarini) taxminan bir xil shaklda (1940 yillarning oxirida shakllangan) hozirgi kunga qadar qo'llanilishiga olib keldi.

AQSHda strategik rejalashtirish umuman davlat siyosatining markaziga qo'yilgan. Nafaqat strategik rejalashtirish, balki shuningdek, rejalashtirishning butun tizimini o'z ichiga olgan strategik maqsadlarni belgilash, strategik prognozlash va strategik boshqaruvni ham.

Yaponiya, AQSH va Fransiyada markaz va hududlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga katta e'tibor qaratiladi. Ya'ni, rejani ishlab chiqishning birinchi bosqichi – hududlardan ularning rivojlanishi va ustuvor yo'nalishlari to'g'risida ma'lumot so'rash bo'lib, bu barcha hududlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va amalga oshirish va shu orqali mamlakat yaxlitligini mustahkamlash imkonini beradi.

Dunyoning yetakchi mamlakatlarida birinchi bosqichda uzoq muddatli iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi ishlab chiqilib, u mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyalari bilan bog'liq. Faqat shundan so'ng, ushbu barcha hujjatlarni hisobga olgan holda, o'rta muddatli reja tuziladi.

Ayrim tarmoqlarning yuqori darajadagi o'zaro bog'liqligi bilan ajralib turadigan zamonaviy iqtisodiyotda makroiqtisodiy prognozlash allaqachon davlat tuzilmalari, yirik va o'rta biznesning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi shartiga aylanib bormoqda.

Davlat rejalashtirish yordamida ijtimoiy-iqtisodiy tizimni dinamik muvozanat holatida saqlaydi. Rejalashtirish integral boshqaruv tizimining tarkibiy qismidir. Rejalashtirishni nafaqat boshqaruv qarorlarini qabul qilish me'yori, usuli, vositasi, iqtisodiyot, sosiologiya, ekologiya, demografiya, statistika va boshqa fanlarni birlashtiruvchi integrasiyalashgan faoliyat sifatida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishda zarur bo'lgan institusional tuzilmasi sifatida ham ko'rish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy prognozlashda qo'llaniladigan barcha prognozli va analitik ishlanmalarni quyidagi belgilarga ko'ra shartli ravishda tasniflash

Strategik rejalashtirishning asosiy prinsiplari

Prinsiplar	Mazmun mohiyati
Birlik va yaxlitlik	Strategik rejalashtirishga oid hujjatlarni shakllantirish uslubiyatining, ularni ishlab chiqish hamda amalga oshirish tartibining yaxlitligini anglatadi
Izchillik va uzluksizlik	Strategik rejalashtirishga oid hujjatlarni ishlab chiqish hamda bajarish strategik rejalashtirish ishtirokchilari tomonidan ilgari qabul qilingan strategik rejalashtirishga oid hujjatlarni amalga oshirish natijalari va bosqichlari kisobga olingan holda izchil ravishda amalga oshirilishini anglatadi
Mutansoblik	Strategik rejalashtirishga oid hujjatlarni ishlab chiqish chogida ushbu hujjatlarning ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar, vazifalar, tadbirlar, ko'rsatkichlar, moliyaviy, axborot resurslari va boshqa resurslar bo'yicha hamda ularni amalga oshirish muddatlari bo'yicha kelishilganligi va mutanosibliigi ta'minlanishini anglatadi
Natijadorlik va samaradorlik	Strategik rejalashtirishga oid hujjatlarni amalga oshirish talab qilingan natijalarga resurslardan oqilona foydalanish orqali va eng yuqori samaradorlik bilan erishish zarurligiga asoslangan bo'lishi kerakligini anglatadi
Ilmiy asoslanganli	Strategik rejalashtirishga oid hujjatlarni tayyorlash chog'ida tahlil qilish hamda prognozlashtirishning ilmiy usullari va uslubiyati qo'llanilishi kerakligini anglatadi
Maqsadlarning baholanishi	Strategik rejalashtirishga oid hujjatlarni ishlab chiqish chog'ida maqsadli miqdor va sifat ko'rsatkichlaridan, ularni baholash mezonlari va usullaridan foydalangan holda, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni baholash imkoniyati ta'minlanishi kerakligini anglatadi.
Ochiqlik	Strategik rejalashtirish jarayoni shaffof bo'lishi, shuningdek, mo'ljallanilayotgan chora-tadbirlar va kutilayotgan natijalar jamiyat uchun ochiq bo'lishi kerakligini anglatadi

Qisqa muddatli prognozlar 1–2 yil muddatga ishlab chiqiladi. Ularda vaqt birligi oy, chorak yoki yil hisoblanadi. Qisqa muddatli prognoz ob'yekti joriy biznes jarayonlariga: milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlarida moliyaviy oqimlar va narxlar harakati, byudjet ijrosi, ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va iste'mol talabining o'zgarishi, mavsumiy o'zgarishlar va boshqalar kiradi. Qisqa muddatli prognozning vazifasi, mohiyatan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy hodisalar va jarayonlarga qarshi choralarni ishlab chiqish uchun ishlab chiqarish va bozor kon'yunkturasini prognoz qilishdir.

mumkin: qo'llaniladigan uslubiy yondashuvlarning xususiyatlari; prognoz tuzilgan davrning davomiyligi; prognoz ob'yektining ko'lami va xarakteri.

Prognoz davrining vaqt gorizonti nuqtai nazaridan qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli va qo'shimcha uzoq muddatli prognozlar bilan nafaqat vaqt parametrlari balki mazmuni bilan ham farqlanadi.

Milliy iqtisodiyotni prognozlash jamiyatni rivojlantirish tendensiyasining har tomonlama tahlilini, bu tendensiyani baholashni o'z ichiga oladi va jamiyat boyliklari strukturasi baholab, quyidagilarni nazarda tutadi:

- jamiyat ijtimoiy tuzilishining o'zgarishini, mehnat xususiyatining o'zgarish taqsimoti nisbatlarining prognozlarini hisobga olgan holda, jamiyatni rivojlantirishning umumiy ijtimoiy muammolarini;

- iste'mol, daromad prognozlarini, iste'mol tuzilmasini, tibbiy va ijtimoiy ta'minotni, turmush madaniyatini hisobga olgan holda milliy farovonlik muammolarini;

- milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ijtimoiy muammolarini;

- ijtimoiy–demografik va hududiy ijtimoiy muammolarni;

- fan–texnika taraqqiётini joriy qilishning ijtimoiy samaradorligi prognozlarini hisobga olgan holda tabiatdan foydalanishning ijtimoiy muammolarini;

- ijtimoiy bepul xizmatlarni rivojlantirishni;

- uy–joy bilan ta'minlashni hamda aholining uy–joy bilan ta'minlanish darajasiga qarab tabaqalashtirilishini;

- aholining madaniy ehtiёлarini qondirishning individual shakllari uchun asos bo'ladigan predmetlar bilan ta'minlanish darajasini;

- aholining madaniy ehtiёлarini qondiradigan jamoat tashkilotlarini rivojlantirishni;

Strategik rejalashtirish – bu strategik maqsadlarga erishishga qaratilgan makon va vaqt bilan bog'liq bo'lgan dasturlar va harakatlar rejalarini, tadbirlarni yaratish va amalga oshirish jarayoni.

Xalkaro tajribadan ma'lumki, strategik rejalashtirishga oid hujjatlar yagona prinsiplar asosida shakllantirilishi ularning bir–biri bilan uygunligini ta'minlaydi (27–jadval).

O'rta muddatli prognozlar odatda 7 yilgacha bo'lgan davmi qamrab oladi. Ularning asosiy mazmuni iqtisodiy rivojlanishning yetakchi dinamik va tarkibiy parametrlarini (iqtisodiy o'sish sur'atlari va omillari, ishlab chiqarish va iste'mol tarkibidagi barqaror siljishlar, investisiya jarayonlari va boshqalar) prognozlashdan iborat.

Bunday muddatni tanlash uning investision siklning o'rtacha davomiyligiga to'g'ri kelishi bilan bog'liq: investisiya qarori qabul qilingan paytdan boshlab tegishli yangi ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq o'zlashtirishgacha. O'rta muddatli istiqbolda buning uchun investisiya siyosatining tegishli ustuvor yo'nalishlaridan (mavjud kapital qo'yilma resurslarini taqsimlash) foydalangan holda ma'lum bir maqsadli niyatlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lishi tabiiydir.

Uzoq muddatli prognozlar odatda 20 yilgacha ishlab chiqiladi. Prognoz gorizontining bunday qiymati, bir tomondan, bu vaqt ichida takror ishlab chiqarish mexanizmidagi, iqtisodiyotning ishlab chiqarish va texnologik bazasining tuzilishida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirish va sezilarli ijtimoiy rivojlanishga erishish mumkinligi bilan belgilanadi. Boshqa tomondan, ushbu davrdan keyingi prognozli qurilishlarning noaniqligi sezilarli darajada oshadi.

Kompleks yoki integrasiyalashgan prognozlash (integrated forecasting) – bu rivojlanishning turli tomonlarini hisobga olgan holda iqtisodiy rivojlanish prognozlari tizimini ishlab chiqish. Kompleks prognozlashning asosiy uslubiy prinsipi ijtimoiy, ilmiy–texnikaviy, iqtisodiy, demografik, tabiiy resurslar va tabiiy muhit holatining kompleks prognozlarni ishlab chiqishni, shuningdek, xususiy – tarmoq, mintaqaviy, funksional o'z ichiga oladi. Shu asosda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning jamlangan prognozi tuziladi, bir nechta variantlarda ishlab chiqiladi.

Kompleks ijtimoiy–iqtisodiy prognozlash tuzilmasi o'rganilayotgan parametrlar, hodisalar va jarayonlarning jamlanish darajasi nuqtai nazaridan ham, iqtisodiyotdagi takror ishlab chiqarish jarayonining mazmunini birgalikda tashkil etuvchi turli-funksional elementlar kontekstida ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Kompleks prognozlashda umumlashtirish darajasiga ko'ra, ular odatda quyidagilarga bo'linadi: makroiqtisodiy prognoz, tuzilmaviy (tarmoqlararo)

prognoz, tarmoqlararo milliy iqtisodiy komplekslar va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini rivojlantirish prognozi, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari tarmoqlari prognozi.

Makroiqtisodiy prognozlar, qoida tariqasida, quyidagi prognozlarni o'z ichiga oladi:

- YAIM (milliy daromad, yakuniy ijtimoiy mahsulot va boshqalar) hajmlari va uni iste'mol va jamg'arish ehtiyojlari uchun taqsimlash;
- band aholi soni va uning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasida taqsimlanishi;
- real sektor va uning asosiy tarkibiy qismlari miqyosida mehnat unumdorligi dinamikasi;
- ishlab chiqarish asosiy va aylanma fondlar va umuman milliy iqtisodiyot va asosiy tarmoqlar uchun ishlab chiqarish kapital qo'yilmalar;
- milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlarida kapital sig'im va kapital sig'im dinamikasi;
- mamlakat aholisining turmush darajasi, asosiy noishlab chiqarish fondlari va noishlab chiqarish kapital qo'yilmalari hajmi;
- pul–kredit sohasining makroiqtisodiy parametrlari;
- davlat byudjetining asosiy parametrlari va boshqalar.

Markazlashgan iqtisodiyotni bartaraf qilish ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirishda davlatning rolini mutlaq inkor etishni anglatmaydi. Biroq, rejalashtirishning mazmuni va uni tashkil etilishning o'zi o'zgaradi: qat'iy direktiv rejalashtirish o'rini yo'naltiruvchi, tartibga soluvchi va bozor munosabatlariga eng mos keladigan boshqa turlari egallaydi. Ijtimoiy–iqtisodiy tizimlarga nisbatan rejalashtirish va o'zini o'zi tartibga solishning o'zaro ta'siri antagonizm va inkor pozitsiyasidan emas, balki simbioz va organik birikma sifatida ko'riladi.

Bunday simbiozning asosiy vositasi indikativ rejalashtirish bo'lib, u direktiv rejalashtirish o'rini egalladi va ob'yektiv bozor qonunlarining amal qilishini va davlatning ijtimoiy–iqtisodiy jarayonlarga tartibga soluvchi ta'sirini hisobga oladigan bozorning o'zini o'zi boshqarish mexanizmini oqilona mujassam etadi. Buning yordamida indikativ reja iqtisodiyotni boshqarishning samarali vositasiga aylanadi, bu bozor iqtisodiyotiga ega iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar (Fransiya, Yaponiya) tajribasida o'z aksini topgan.

Hududlar rivojini samarali boshqarish, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning yo'nalishlarini ishlab chiqish, hududiy tengsizlik sabablarini o'rganish uchun hudud iqtisodiyotining rivojlanish omillarini aniqlash zarur. Ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligini baholash bo'yicha ko'plab ishlar mavjudligiga qaramay, umumiy qabul qilingan metodologiya mavjud emas. Hududning rivojlanish ehtiyojlariga eng to'liq va mos keladigan mezon bu moddiy va nomoddiy omillarni ajratishdir. Rivojlanishning ushbu omillarini o'rganish menejment jarayonida hudud hokimiyat organlari tomonidan asoslangan ma'lumotlarni olish, resurslardan foydalanishning ishtiroki va samaradorligini baholash uchun zarur (27.1–rasm).



27.1–rasm. Strategik rejalashtirish

Ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishini belgilovchi omillarning murakkabligi va xilma-xilligi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar parametrlarini shakllantirish balansining kengaytirilgan xarajatlar modelidan foydalanish zarurati va maqsadga muvofiqligini belgilaydi. Ekonometrik yondashuvlardan farqli o'laroq, har bir tenglama va o'zshashlik faqat bitta kerakli ko'rsatkichni aniqlashga imkon beradi.

Milliy hisob tizimida tarmoqlararo balans usuli milliy iqtisodiyotning o'zaro bog'liq bo'lgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va nisbatlari tizimini bir vaqtda hisoblashni nazarda tutadi: tovar va xizmatlarning yalpi ishlab chiqarish hajmi va uning tarmoq tarkibi; YAIM, uning tarmoq, tannarx

tarkibi va yakuniy foydalanish yo'nalishlaridagi nisbatlari; tashqi savdo aylanmasining hajmlari va tarkibi va boshqalar. Tarmoqlararo balans asosida olingan ma'lumotlar milliy iqtisodiyotning samaradorlik ko'rsatkichlarini va uning faoliyatining boshqa nisbiy qiymatlarini hisoblash imkonini beradi.

Muqobil hisoblash usullaridan foydalanganda ko'rsatkichning eng oqilona qiymatini tanlash mezonini uning prognoz maqsadlariga muvofiqligi va iqtisodiy o'sish uchun real resurs imkoniyatlari hisoblanadi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni asoslashda ular o'rtasidagi iqtisodiy o'zaro aloqalarni tahlil qilish va baholashga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Mamlakatimizni 2017–2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo'lgan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi milliy iqtisodiyotni isloh qilish, tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha bir qator muhim vazifa va maqsadlar rejalashtirilgan.

Unda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni, birinchi navbatda, uning sifat parametrlarini yaxshilash, aholi turmush darajasining maqsadli ko'rsatkichlariga erishish orqali iqtisodiyotning barqaror muvozanatli rivojlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Xulosa

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirish, prognozlash va modellashtirish metodologiyasining eng muhim tarkibiy qismi bu boshlang'ich nuqtalar, rejalar va prognozlarni shakllantirish va asoslashning asosiy qoidalari sifatida tushuniladigan uslubiy tamoyillardir. Ular ishlab chiqilgan rejalar va prognozlarning maqsadga muvofiqligi, yaxlitligi, ma'lum tuzilishi va mantiqiylikini ta'minlaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ob'yektivligi va tushunarligi prognoz qilishning nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi. Haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni sifat va miqdoriy tahlil qilish, ularning rivojlanishining ob'yektiv shartlari, omillari va tendensiyalarini aniqlash

asosida prognozlash muayyan yondashuvlar va fundamental tamoyillarga asoslanadi.

Prognozlashning asosiy tamoyili izchillik tamoyilidir. U iqtisodiy tizimlardagi miqdoriy va sifat qonuniyatlarini o'rganishni, tadqiqotning shunday mantiqiy zanjirini qurishni o'z ichiga olib, unga ko'ra har qanday qarorni ishlab chiqish va asoslash jarayoni tizimning umumiy maqsadini aniqlashga va ushbu maqsadga erishish uchun barcha quyi tizimlar faoliyatini bo'ysundirishga asoslanadi. Shu bilan birga, bu tizim kattaroq tizimning bir qismi sifatida ko'riladi va o'zi ham ma'lum miqdordagi quyi tizimlardan iborat. Masalan, iqtisodiyot, bir tomondan, yagona o'rganish ob'yekti sifatida qaralsa, ikkinchi tomondan, nisbatan mustaqil ob'yektlar yig'indisi sifatida qaraladi.

Tizimli yondashuv har bir nisbatan mustaqil ob'yektning mazmuniga mos keladigan indikativ, usullar, modellar tizimini yaratishni o'z ichiga oladi va shu bilan birga milliy iqtisodiyotning mumkin bo'lgan rivojlanishining to'liq holatini yaratishga imkon beradi. Shunday qilib, izchillik tamoyili asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning kompleks prognozini tuzish har bir alohida blokning mazmuniga mos keladigan va shu bilan birga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga imkon beradigan usullar va modellardan foydalanish asosida uning mumkin bo'lgan rivojlanishining to'liq holatini yaratishni o'z ichiga oladi.

Asosiy atama va tushunchalar

Prognozlash
Reja
Rejalashtirish
Qisqa muddatli prognozlar
O'rta muddatli prognozlar
YAIM prognozi
Indikativ rejalashtirish
Iqtisodiy o'sishni modellashtirish
Kompleks prognozlash

Nazorat savollari

1. Prognoz va prognozlash tushunchalarini ta'riflang?
2. Reja va rejalashtirish tushunchalarini ta'riflang?

3. Iqtisodiy prognozlashning mohiyati nimidan iborat?
4. Tuzilish muddatiga ko'ra prognozlash qanday turlarga ajratiladi?
5. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda prognozning roli.
6. Prognozlashning asosiy tamoyillari qanday?
7. Iqtisodiy o'sishni modellashtirish qanday makroiqtisodiy parametrlar asosida quriladi?

28. Milliy iqtisodiyotning boshqaruv tizimi

Iqtisodiyot fanining eng muhim muammosi barcha davrlarda davlatning iqtisodiy faoliyatga ta'siri masalasi bo'lib kelgan. Barcha iqtisodiy islohotlar u yoki bu darajada xo'jalik sub'yektlari faoliyatini tartibga solishda davlatning rolini kuchaytirish yoki zaiflashtirishga qaratilgan. Buni A. Smitning iqtisodiyotga davlatning faol aralashuvini rad etuvchi "bozorning ko'rinmas qo'li" dan tortib, J. Keynsning davlat tomonidan tartibga solish zarurligi haqidagi g'oyalarida ko'rish mumkin.

Keyns ta'limoti iqtisodiyotga davlatning faol aralashuvi zarur, deb hisoblaydi, neoliberalistlar (neoliberalizm – iqtisodiy nazariyaning asosiy yo'nalishi, 1930 yillarda paydo bo'lgan) esa davlatning nisbatan nafaol tartibga solishini qo'llab-quvvatlaydi.

Neoliberalistlar iqtisodiyotni liberallashtirish, erkin narx shakllanishi, iqtisodiyotda xususiy mulkning yetakchi bo'lishini qo'llab-quvvatlaydilar. Davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini "tungi qorovul" yoki "sport hakami" sifatida bo'lishi nazarda tutiladi.

AQSH iqtisodchi olimi Pol Entoni Samuelsonning (1915-2009) fikriga ko'ra, ko'plab muammolarga bozor mexanizmi yechim topa olmaydi deydi. Masalan, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologik muammolarga talab va taklif qonuni ta'sir etmaydi va tabiiyki, davlat iqtisodiy o'sish, rivojlanishning maqsadlarni ko'rsatkichlarini aniqlashni o'z zimmasiga olishi zarur.

Ayniqsa, iqtisodiy, siyosiy sohalardagi tub o'zgarishlar davrida, ya'ni yangi iqtisodiyot, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu davr o'tish davri va iqtisodiy faoliyatning holati esa o'tish iqtisodiyoti deb ataldi.

asosida prognozlash muayyan yondashuvlar va fundamental tamoyillarga asoslanadi.

Prognozlashning asosiy tamoyili izchillik tamoyilidir. U iqtisodiy tizimlardagi miqdoriy va sifat qonuniyatlarini o'rganishni, tadqiqotning shunday mantiqiy zanjirini qurishni o'z ichiga olib, unga ko'ra har qanday qarorni ishlab chiqish va asoslash jarayoni tizimning umumiy maqsadini aniqlashga va ushbu maqsadga erishish uchun barcha quyi tizimlar faoliyatini bo'ysundirishga asoslanadi. Shu bilan birga, bu tizim kattaroq tizimning bir qismi sifatida ko'riladi va o'zi ham ma'lum miqdordagi quyi tizimlardan iborat. Masalan, iqtisodiyot, bir tomondan, yagona o'rganish ob'yekti sifatida qaralsa, ikkinchi tomondan, nisbatan mustaqil ob'yektlar yig'indisi sifatida qaraladi.

Tizimli yondashuv har bir nisbatan mustaqil ob'yektning mazmuniga mos keladigan indikativ, usullar, modellar tizimini yaratishni o'z ichiga oladi va shu bilan birga milliy iqtisodiyotning mumkin bo'lgan rivojlanishining to'liq holatini yaratishga imkon beradi. Shunday qilib, izchillik tamoyili asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning kompleks prognozini tuzish har bir alohida blokning mazmuniga mos keladigan va shu bilan birga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga imkon beradigan usullar va modellardan foydalanish asosida uning mumkin bo'lgan rivojlanishining to'liq holatini yaratishni o'z ichiga oladi.

Asosiy atama va tushunchalar

Prognozlash
Reja
Rejalashtirish
Qisqa muddatli prognozlar
O'rta muddatli prognozlar
YAIM prognozi
Indikativ rejalashtirish
Iqtisodiy o'sishni modellashtirish
Kompleks prognozlash

Nazorat savollari

1. Prognoz va prognozlash tushunchalarini ta'riflang?
2. Reja va rejalashtirish tushunchalarini ta'riflang?

3. Iqtisodiy prognozlashning mohiyati nimidan iborat?
4. Tuzilish muddatiga ko'ra prognozlash qanday turlarga ajratiladi?
5. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda prognozning roli.
6. Prognozlashning asosiy tamoyillari qanday?
7. Iqtisodiy o'sishni modellashtirish qanday makroiqtisodiy parametrlar asosida quriladi?

28. Milliy iqtisodiyotning boshqaruv tizimi

Iqtisodiyot fanining eng muhim muammosi barcha davrlarda davlatning iqtisodiy faoliyatga ta'siri masalasi bo'lib kelgan. Barcha iqtisodiy islohotlar u yoki bu darajada xo'jalik sub'yektlari faoliyatini tartibga solishda davlatning rolini kuchaytirish yoki zaiflashtirishga qaratilgan. Buni A. Smitning iqtisodiyotga davlatning faol aralashuvini rad etuvchi "bozorning ko'rinmas qo'li"dan tortib, J. Keynsning davlat tomonidan tartibga solish zarurligi haqidagi g'oyalari ko'rish mumkin.

Keyns ta'limoti iqtisodiyotga davlatning faol aralashuvi zarur, deb hisoblaydi, neoliberalistlar (neoliberalizm – iqtisodiy nazariyaning asosiy yo'nalishi, 1930 yillarda paydo bo'lgan) esa davlatning nisbatan nafaol tartibga solishini qo'llab-quvvatlaydi.

Neoliberalistlar iqtisodiyotni liberallashtirish, erkin narx shakllanishi, iqtisodiyotda xususiy mulkning yetakchi bo'lishini qo'llab-quvvatlaydilar. Davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini "tungi qorovul" yoki "sport hakami" sifatida bo'lishi nazarda tutiladi.

AQSH iqtisodchi olimi Pol Entoni Samuelsonning (1915-2009) fikriga ko'ra, ko'plab muammolarga bozor mexanizmi yechim topa olmaydi deydi. Masalan, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologik muammolarga talab va taklif qonuni ta'sir etmaydi va tabiiyki, davlat iqtisodiy o'sish, rivojlanishning maqsadlarni ko'rsatkichlarini aniqlashni o'z zimmasiga olishi zarur.

Ayniqsa, iqtisodiy, siyosiy sohalardagi tub o'zgarishlar davrida, ya'ni yangi iqtisodiyot, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu davr o'tish davri va iqtisodiy faoliyatning holati esa o'tish iqtisodiyoti deb ataldi.

Bir iqtisodiy tartibdan ikkinchisiga har qanday o'tish nafaqat mulk shakllarining nisbati, institusional tizim, davlatning iqtisodiy faoliyatga ta'sir ko'rsatish usullari, balki ishlab chiqarish va bandlik tuzilmasi, eng muhimi odamlar psixologiyasida o'zgarishlar bilan kechadi. Bundan tashqari, bu o'zgarishlar iqtisodiyotni markazlashtirilgan boshqarishdan bozor mexanizmiga o'tish davrida ham, aksincha – bozor mexanizmidan markazlashgan boshqaruvga yaqin tamoyillarga asoslangan mexanizmga o'tish davrida ham sodir bo'ladi.

Davlatning tartibga solish funksiyalarini shakllantirishning eng muhim uslubiy yondashuvi tizimli yondashuvdir. Bu xo'jalik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun yaratilgan, ekzogen sharoitlarda maksimal mumkin bo'lgan sinergik samaraga erishishni ta'minlaydigan o'zaro bog'liq elementlar (rasmiy institutlar) tizimi bo'lishi kerak. Bu samara mamlakat aholisining yuqori sifati va umr ko'rish davomiyligida namoyon bo'ladi.

Davlatning yangi iqtisodiy tuzumga o'tish davridagi tartibga solish funksiyalarining o'ziga xosligi, ularni mamlakatda shakllangan iqtisodiy tartib sharoitida bajariladigan funksiyalardan ajratib turadigan xususiyat quyidagilarda ifodalanadi.

Birinchidan, o'tish davrida eski va yangi iqtisodiy tartiblarning elementlari bir qancha vaqt davomida birga bo'ladi. Shuning uchun davlat tomonidan tartibga solish funksiyalari yangi iqtisodiy tartibni qabul qilishda milliy iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha farqlanishi kerak.

Ikkinchidan, jahon tarixiy tajribasi ko'rsatganidek, yangi iqtisodiy tuzumga o'tish jaayonida erishilgan iqtisodiy salohiyatni yo'qotish yoki sezilarli darajada zaiflash xavfi mavjud. Shuning uchun o'tish davridagi davlat tomonidan tartibga solish tizimi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini yo'qotish yoki zaiflashtirish ehtimolining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak.

Uchinchidan, yangi iqtisodiy tuzumga o'tish jarayoni deyarli doimo aholi turmush darajasining pasayishi (ayniqsa, uning birinchi bosqichida) va buning natijasida mamlakatda ijtimoiy keskinlikning kuchayishi bilan bog'liq. Shu bois o'tish davridagi davlat tomonidan tartibga solish tizimi mamlakatning ijtimoiy ta'minoti masalalariga alohida e'tibor qaratilishi

zarur. Davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga barqarorlashtiruvchi ta'sirlarni birlashtirishi kerak.

Yuqorida qayd etilgandan kelib chiqib, milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish maqsadlarini shakllantirish mumkin.

Asosiy maqsad – mamlakatning iqtisodiy qudratini ta'minlash bo'lib, bunda, davlat tomonidan tartibga solish tizimi mamlakatimizning jahon bozorlarida barqaror o'rin egallashini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, odamlarning hayot sifatining yuqori darajasini ta'minlashga qaratilgan.

Iqtisodiyotni tartibga solish sohalari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1) aholining turmush darajasi, ijtimoiy sohaning holati, mehnat munosabatlari, bandlik;

2) iqtisodiy jarayonlarning institusional muhiti;

3) iqtisodiyotning tuzilishi – qayta ishlab chiqarish, soha, texnologik, hududiy, tarmoq;

4) iqtisodiyot davri va makroiqtisodiyotning rivojlanishi, iqtisodiy o'sish sur'atlari;

5) moliya, pul muomalasi, byudjet va byudjetlararo munosabatlar;

6) atrof-muhit va ekologik muvozanat;

7) mamlakatning ilmiy va innovasion salohiyati;

8) kadrlar tayyorlash va tayyorlash;

9) tashqi iqtisodiy aloqalar balansi va boshqalar.

Shuni ta'kidlash joizki, bozor iqtisodiyotida davlat uni boshqarmaydi balki faqat tartibga solish funksiyasini bajaradi. Chunki bozor iqtisodiyotining o'z qonunlari va tamoyillari mavjud bo'lib, ular bozordagi iqtisodiyotning o'z qonunlari va tamoyillari mavjud bo'lib, ular bozordagi asosiy tendensiyalarni belgilab beradi. Biroq, yuqorida aytilganidek, maqsadli makroiqtisodiy ko'rstakichlarga erishish, aholi o'rtasida tabaqalanishni oldini olish, biznes va investision muhitni yaxshilash, aholi daromadlari va farovonligini oshirishga qaratilgan choralarni ko'rish muhimdir.

O'zbekistonda 2017 yildan davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini mumkin qadar kamaytirishi va bevosita strategik rejalashtirishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Xususi sektorini rivojlanishi uchun ko'proq imkoniyatlar yaratilmoqda, monopoliyalar sonini qisqartirish, davlat korxonalari va banklarni xususiylashtirish keskin tus oldi.

Agar ilgari davlat yaxshi menejer degan tamoyil hukm surgan bo'lsa, hozir butun dunyoda boshqacha tendensiyani kuzatish mumkin. Ushbu tendensiyaning mohiyati – davlat bozorlarni tartibga solishi, bozorda asosiy qonun-qoidalarni yaratishi mumkin, ammo hech qachon ushbu bozorda xususiy tadbirkorlarni siqib chiqaradigan davlat korxonalarini yarata olmasligini bildiradi. Chunki ushbu davlat korxonalari bojxona va soliq imtiyozlaridan foydalanadilar, o'z navbatida, bu bozor mexanizmida buzilishlarga olib keladi va haqiqiy raqobatni rivojlantirishda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Butun dunyoda monopoliya tushunchasidan bosqichma-bosqich voz kechilmoqda. O'zbekistonda "tabiiy monopol sub'yektlari ruyxati" juda katta va ularning soni 10-20 ta atrofida bo'lishi lozim. Monopoliyadan imkon boricha voz kechish zarur chunki u doim samarasiz bo'lgan va jamiyat uchun qimmatga tushadi

Bugungi kunda butun dunyoda davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki kamayib bormoqda, bu esa xususiy sektorni rivojlanishiga va o'rta sinf vakillarini paydo bo'lishida hamda ularning sonini ko'payishida katta imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekistonda ma'muriy islohotlarning sezilarli natijasini Harakatlar strategiyasining⁴¹ qabul qilinishida ko'rish mumkin.

Ushbu Strategiyaning asosiy mazmuni yangi g'oyalar va yechimlarni ishlab chiqish maqsadida mamlakatimiz taraqqiyotining to'plangan tajribasini qayta ko'rib chiqish zarurligidan iborat edi. Asosiy vazifa beshta yo'nalishda amalga oshirilishi ko'rsatildi:

• davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizasiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish;

- qonun ustuvorligini ta'minlash;
- iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
- ijtimoiy sohani rivojlantirish;

⁴¹ 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi

• xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vaziflar doirasida boshqaruvi tizimini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamlı ma'muriy islohotlar amalga oshirildi sezilarli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, davlat organlarining sohaga oid bo'lmagan vazifalarini qisqartirish va faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ularning tuzilmasi o'rtacha 15 foizga maqbullashtirildi, shuningdek, 26 ta davlat organlari va tashkilotlarida 40 ta rahbar o'rinbosarlari lavozimlari qisqartirildi.

Davlat organlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruvi tamoyillarini joriy qilish hisobidan byurokratik to'siqlarni qisqartirish va aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini yaxshilash maqsadida 30 ga yaqin turdagi litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi, 70 dan ziyod davlat xizmatlari soddalashtirildi, davlat tashkilotlari tomonidan 60 dan ortiq hujjatlarni talab qilish bekor qilindi.

«Elektron hukumat» tizimining foydalanuvchilari soni 4 milliondan oshib, u orqali davlat idoralarning 130 dan ortiq axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida qariyb 350 turdagi xizmatlar onlayn shaklda ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi.

Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, qaror qabul qilish va masalani ko'rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish orqali davlat organlari rahbarlarining mas'uliyatini oshirish hamda ular faoliyatini natijadorlikka yo'naltirish, shuningdek, Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari dasturi qabul qilindi⁴²

Ma'muriy islohotlar konseptual tushunchani talab qiladi va davlat idoralarning samarali ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun davlat idoralari sonini qisqartirish mantiqan to'g'ri siyosat va bu davlat tomonidan tartibga solish ham kamaytiradi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan davlat boshqaruvi tizimini bosqichma-bosqich nomarkazlashlashtirish masalasiga e'tibor

⁴² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yild 21 dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni

Agar ilgari davlat yaxshi menejer degan tamoyil hukm surgan bo'lsa, hozir butun dunyoda boshqacha tendensiyani kuzatish mumkin. Ushbu tendensiyaning mohiyati – davlat bozorlarni tartibga solishi, bozorda asosiy qonun-qoidalarni yaratishi mumkin, ammo hech qachon ushbu bozorda xususiy tadbirkorlarni siqib chiqaradigan davlat korxonalarini yarata olmasligini bildiradi. Chunki ushbu davlat korxonalari bojxona va soliq imtiyozlaridan foydalanadilar, o'z navbatida, bu bozor mexanizmida buzilishlarga olib keladi va haqiqiy raqobatni rivojlantirishda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Butun dunyoda monopoliya tushunchasidan bosqichma-bosqich voz kechilmoqda. O'zbekistonda "tabiiy monopol sub'yektlari ruyxati" juda katta va ularning soni 10-20 ta atrofida bo'lishi lozim. Monopoliyadan imkon boricha voz kechish zarur chunki u doim samarasiz bo'lgan va jamiyat uchun qimmatga tushadi

Bugungi kunda butun dunyoda davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki kamayib bormoqda, bu esa xususiy sektorni rivojlanishiga va o'rta sinf vakillarini paydo bo'lishida hamda ularning sonini ko'payishida katta imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekistonda ma'muriy islohotlarning sezilarli natijasini Harakatlar strategiyasining⁴¹ qabul qilinishida ko'rish mumkin.

Ushbu Strategiyaning asosiy mazmuni yangi g'oyalar va yechimlarni ishlab chiqish maqsadida mamlakatimiz taraqqiyotining to'plangan tajribasini qayta ko'rib chiqish zarurligidan iborat edi. Asosiy vazifa beshta yo'nalishda amalga oshirilishi ko'rsatildi:

• davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish;

- qonun ustuvorligini ta'minlash;
- iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
- ijtimoiy sohani rivojlantirish;

⁴¹ 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi

• xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vaziflar doirasida boshqaruvi tizimini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamlı ma'muriy islohotlar amalga oshirildi sezilarli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, davlat organlarining sohaga oid bo'lmagan vazifalarini qisqartirish va faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ularning tuzilmasi o'rtacha 15 foizga maqbullashtirildi, shuningdek, 26 ta davlat organlari va tashkilotlarida 40 ta rahbar o'rinbosarlari lavozimlari qisqartirildi.

Davlat organlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruvi tamoyillarini joriy qilish hisobidan byurokratik to'siqlarni qisqartirish va aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini yaxshilash maqsadida 30 ga yaqin turdagi lisenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi, 70 dan ziyod davlat xizmatlari soddalashtirildi, davlat tashkilotlari tomonidan 60 dan ortiq hujjatlarni talab qilish bekor qilindi.

«Elektron hukumat» tizimining foydalanuvchilari soni 4 milliondan oshib, u orqali davlat idoralarining 130 dan ortiq axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida qariyb 350 turdagi xizmatlar onlayn shaklda ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi.

Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, qaror qabul qilish va masalani ko'rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish orqali davlat organlari rahbarlarining mas'uliyatini oshirish hamda ular faoliyatini natijadorlikka yo'naltirish, shuningdek, Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari dasturi qabul qilindi⁴²

Ma'muriy islohotlar konseptual tushunchani talab qiladi va davlat idoralarining samarali ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun davlat idoralari sonini qisqartirish mantiqan to'g'ri siyosat va bu davlat tomonidan tartibga solish ham kamaytiradi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan davlat boshqaruvi tizimini bosqichma-bosqich nomarkazlashlashtirish masalasiga e'tibor

⁴² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yild 21 dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni

qaratildi. Ayniqsa, 2016 yildan keyin 2017 yilda respublikani rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida ushbu soha ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Davlat boshqaruvi tizimini ma'muriy isloh qilishning tasdiqlangan asosiy yo'nalishlari va vazifalari orasida davlat boshqaruvi bosqichma-bosqich nomarkazlashtirishning dolzarbligi va ahamiyati belgilandi.

2016 yildan 2023 yilgacha bo'lgan davrda ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlar O'zbekistonda nomarkazlashtirish masalasida mavjud holatni saqlab qolgan holda ma'muriy va fiskal sohalarda amalga oshirishga harakat qilindi. Mahalliy hokimiyat organlarini mustahkamlashga qaratilgan quyidagi qarorlarni ko'rsatish mumkin:

Hududlarning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, mahalliy byudjetlar daromad bazasining o'sishini qo'llab-quvvatlash va mahalliy davlat hokimiyati organlarining viloyat, shahar va tumanlar darajasida ustuvor xarajatlarni shakllantirish bo'yicha vakolatlarini oshirish.

Qarorlar qabul qilish vakolatlarini markaziy hokimiyatdan mahalliy davlat hokimiyati organlariga o'tkazish va ularning viloyat, shahar va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi mas'uliyatlarini oshirish.

Samarali nomarkazlashtirish mahalliy hokimiyat organlari faoliyatiga nodavlat notijorat tashkilotlarini yanada kengroq jalb etishni taqozo etadi. Nogironligi bo'lgan shaxslar, yoshlar huquqlarini himoya qilish, aholining ijtimoiy himoyaga muhojir qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ta'lim sohasidagi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish uchun ma'lum funksiyalarning o'tkazilishi va nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb etilishi mahalliy ijro hokimiyati tuzilmalarini yengillashtiradi. Shuningdek, bu davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning manzilliligini va muhim muammolarni joylarda hal etishda fuqarolik jamiyatining rolini oshirishga xizmat qiladi.

Nomarkazlashtirish konsyepsiyasi markaziy hokimiyat organlarining rolini bosqichma-bosqich pasaytirishni nazarda tutadi.

Markaziy va hududiy boshqaruv apparatlarining haddan tashqari ko'payishi masalalarning haddan tashqari byurokratlashuviga, hokimiyatning konsentrasiyasiga, qarorlar qabul qilish tartibini murakkablashishiga va boshqaruv tuzilmalarini saqlash xarajatlarining

sezilarli darajada oshishiga hamda boshqaruv samaradorligining tushib ketishiga olib keladi.

Nomarkazlashtirish, birinchi navbatda, ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlarni muhokama qilish va qabul qilishning ko'plab nuqtalarini, hokimiyatning shaffofligi va hisobdorligini, fikr erkinligi va fikrlar palitrasini, ommaviy tashabbusni rag'batlantirish va tajribalarga ochiqlikni nazarda tutadi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida davlat boshqaruvi organlarining "Davlat – inson uchun" tamoyili asosida hududiy masalalarni hal qilishdagi mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yo'nalishlarni rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratish maqsadida quyidagi vazifalar belgilangan:

– mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari tomonidan doimiy ravishda mahallani o'rganish va tahlil qilish natijasi asosida ularni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yish;

– barcha darajadagi davlat boshqaruvi organlarining bir yillik ish dasturlarini, shu jumladan jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqish va ularning ijrosi holatini doimiy e'lon qilib borish;

– davlat organlarida murojaatlarni tahlil qilish, ijtimoiy so'rovlar va jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish natijalari asosida hududlar (tuman, shahar, qishloq va mahalla) kesimida o'z tuzilmalarining faoliyati bo'yicha dasturlar ishlab chiqib, e'lon qilib borish;

– davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning ijro etilishi jarayonini jamoatchilik tomonidan kuzatib borish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida muntazam e'lon qilib borish;

– har bir tarmoq va hudud bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi bo'yicha rahbarlarning hisobot berish tizimini yo'lga qo'yish.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada

takomillashtirish maqsadida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilingan⁴³.

Zamonaviy elektron kommunikasiya texnologiyalarining paydo bo'lishi dunyo mamlakatlari hukumatlari oldiga davlat boshqaruvini samarali va oqilona amalga oshirish imkoniyatini berdi. Ma'lumki, AKT boshqaruv faoliyati sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi, boshqaruv funksiyalarining takrorlanishi va ortiqchaligiga barham beradi, axborotga ega bo'lish imkoniyatini yaxshilaydi, hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni faollashtiradi.

Bugungi postindustrial jamiyatda axborot tobora muhim ahamiyat kasb etib, strategik resurs xususiyatlariga ega bo'lib, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Axborot mahsuloti bugungi kunda moddiy ne'matlar ishlab chiqarishni ko'paytirishning asosi va boshqaruvni demokratik o'zgartirishning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Yuqori samarali qarorlarni tayyorlash va qabul qilishda axborotning roli davlat boshqaruvida axborot texnologiyalari tizimini shakllantirish jarayonida uning sifatiga yuqori talablarni qo'yadi.

Shuning uchun mamlakatimizda davlat organlari faolitiyatining, ochiqligi, shaffofligi, shuningdek, samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalardan keng foydalanishning huquqiy asosi qabul qilindi⁴⁴.

Elektron hukumat – davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimidir.

Elektron hukumatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik sub'yektlari bilan axborot almashishni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida" qonuni, 2015 yil

– ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish;

– o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma'lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reyestrini shakllantirish;

– aholi va tadbirkorlik sub'yektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o'zaro hamkorligi va ularning ma'lumotlar bazalari o'rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida «bir darcha» prinsipini joriy etish;

– tadbirkorlik sub'yektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruv, lisenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o'tkazish;

– tadbirkorlik sub'yektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog'i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;

– naqd bo'lmagan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.

O'zbekistonda iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohaslarida ishlab chiqarish va operasion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026 yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish maqsadi belgilangan.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning yangi vazifalari iqtisodiyotni rivojlantirishni davlat tomonidan boshqarish sifatini oshirish zarurligini ko'rsatmoqda. Buning uchun strategik boshqaruv tizimini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan loyihalarni boshqarish usullaridan foydalanishni talab qiladi. Bu esa boshqaruvning belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan usullarini qo'llashni nazarda tutadi. Bunda loyiha boshqaruvini jarayonlarni makro darajada tashkil etish sohasidagi

transformasiyalar usuli sifatida ko'rish mumkin. Loyihaviy boshqarishning o'ziga xos xususiyati loyihaning maqsadini aniqlash, hajm ko'rsatkichlari va talab qilinadigan sifat, shuningdek resurslar, ish vaqti va xavflar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash bo'lib, bu mamlakat iqtisodiy rivojlanishning yangi modeliga o'tishni hamda yuqori samarali dinamik iqtisodiyotni shakllantirishni ta'minlashi kerak.

Xulosa

Iqtisodiy potensialning muhim elementi bu boshqaruvni tashkil etish hisoblanadi. Bu esa maqsadlarni aniqlash, qarorlar qabul qilish, dasturlarni shakllantirish, funksiyalarni taqsimlash, tashkilotlar va odamlarning o'z vazifalari va funksiyalarini bajarishda faoliyatlarini muvofiqlashtirish, samaradorligini oshirish boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish usullari va qobiliyati bilan ifodalanadi.

Samarali boshqaruv tizimini yaratish umuman iqtisodiyot, tarmoq, sohalar va alohida korxonalar yoki ularning guruhlar uchun ham ham zarurdir. Ishlab chiqarish usulini o'zgartiruvchi yangi texnologiyalar, mulkchilikning xilma-xil shakllari va xo'jalik yuritish turlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p tuzilmali jamiyatning shakllanishi, yangi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, transmilliy kompaniyalarning ko'payishi, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi ham boshqaruv tizimini tashkil etishda sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Asosiy atama va tushunchalar

Davlat boshqaruvi
Elektron hukumat
Ma'muriy islohotlar
Loyihaviy boshqaruv
Yagona interaktiv davlat xizmatlari
Mahalliy davlat hokimiyati
Davlat organlari

Nazorat savollari

1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vazifalari
2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish funksiyalari
3. Davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari

4. Davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullari
5. Institusional asos nima?
6. Institusional asosning o'zagi nimadan iborat?
7. Davlatning iqtisodiy rivojlanishni tartibga solishini takomillashtirish yo'nalishlariga tavsif bering

29. O'zbekistonning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan zamonaviy ko'p tarmoqli iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar va kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Siyosiy, institusional va ijtimoiy-kompleks islohotlarning izchil amalga oshirilishi natijasida huquqiy davlat va iqtisodiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti asoslari yaratildi. Mamlakat aholisining turmush darajasi va hayot sifatini yanada oshirish uchun sezilarli iqtisodiy, infratuzilmaviy va ishlab chiqarish hamda ijtimoiy salohiyat shakllantirildi.

Shu bilan birga, ob'yektiv tarixiy va iqtisodiy sharoitlar tufayli O'zbekiston mintaqalarining ham, butun mamlakatning o'rtacha muddatli va uzoq muddatli rivojlanish asoslarini ishlab chiqishga an'anaviy yondashuvlar (MDHning boshqa mamlakatlarida bo'lgani kabi) sobiq ittifoqning markazlashgan tizimida rejali xo'jalik yuritish negizida shakllandi.

Ayniqsa, dastlabki davrda, bu mamlakatlarning aksariyati ishlab chiqqan va amalga oshirgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ssenariylari tizimlashtirilmagan va tegishli ilmiy o'rganilmasdan qabul qilingan. Bunga o'sha davrdagi makroiqtisodiy sharoit ham, strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ta'lim standartlari bo'yicha tayyorlanadigan milliy mutaxassislarning deyarli to'liq yo'qligi sabab bo'lgan. Shu sababli, ozgina real, ba'zan esa noto'g'ri strategik ko'rsatmalarga qaratilgan hujjatlar ishlab chiqildi.

O'zbekistonda jamiyat va davlat hayotining u yoki bu sohasini rivojlantirish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqishga muayyan

tizimlashtirilgan yondashuvlar shakllanib, faqat 1997 yildan boshlab har yili mamlakat rahbariyati tomonidan e'lon qilingan rivojlanish ustuvor yo'nalishlariga muvofiq joriy (yillik) iqtisodiy dasturlar ishlab chiqila boshlandi. Masalan, 1997 yil Inson manfaatlarini yili, 1998 yil Mustahkam oila yili deb e'lon qilinib, inson manfaatlarini himoya qilish, oila institutini mustahkamlash va hokazolar bo'yicha tegishli davlat dasturlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi.

Biroq yillik dasturlarni amalga oshirishda amaliy tajriba to'plangan sari mamlakatni uzoq muddatli rivojlantirish bo'yicha strategik qarashlarni ishlab chiqish zarurati yaqqol namoyon bo'ldi. Bundan tashqari, mavjud iqtisodiy rivojlanish modelining resurs talab qiluvchi xususiyatini uzoq muddatga saqlab qolishi, eksport tarkibida xomashyoning yuqori ulush, energiya, mineral xom ashyo va suv resurslari taqchilligining jadal o'sishi sharoitida milliy iqtisodiyotning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bozor islohotlarining dastlabki yillarida qo'llanilgan eskirgan vositalar va usullarning iqtisodiy siyosatda saqlanib qolishi tufayli ham amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samaradorligi past bo'lgan. Ishlab chiqilgan davlat dasturlarida real ichki va tashqi xavf va xavflar yetarlicha hisobga olinmagan. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning qo'llaniladigan usullari samarasiz bo'lib chiqdi. Xususan, pul-kredit siyosatida qat'iy ma'muriy usullarning qo'llanilishi mamlakat eksport salohiyatining o'sishini, ishbilarmonlik muhiti va investisiya muhitini yaxshilashni, xorijiy investisiyalarni jalb etishni va hokazolarni to'xtatuvchi omilga aylangan.

O'zbekistonda 1997 yildan milliy, tarmoq va hududiy resurslar salohiyatidan kelib chiqib, ustuvor yo'nalishlariga muvofiq joriy (yillik) iqtisodiy dasturlar ishlab chiqish yo'lga qo'yildi.

Davlat strategik rejalashtirishda kelajakda qanday muammolar hal qilinishi lozimligini oldindan ko'ra bilishga harakat qilishi kerak. O'zbekiston misolida iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik, suv tanqisligi, oziq-ovqat xavfsizligi, demografik holatning o'zgarishi – aholining yosharishi yoki keksayib borishi, mehnat migrasiyasi va shu kabi muammolar yechimi dolzarb hisoblanadi.

Biroq, mamlakatning uzoq muddatli strategiyasini yaratish ilk bor 2016–2017 yillarda asoslab berildi va ishlab chiqildi. Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatuvchi jahon tendensiyalari, yangi innovasion va texnologik imkoniyatlar, mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va boshqa omillar hisobga olindi. Mamlakat rahbariyati birinchi navbatda O'zbekiston aholisining turmush darajasi va hayot sifatini yaxshilashni jadallashtirishi mumkin bo'lgan yangi imkoniyatlarga e'tibor qaratdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ni ishlab chiqishda ana shu milliy manfaatlar hisobga olindi. Ushbu Strategiyada: asosiy maqsad, shu maqsadli ustuvorliklarini batafsil yoritib berish, mamlakatni yanada modernizatsiya qilishning istiqbolli yo'nalishlari va vazifalar belgilandi.

Ushbu Strategiyada O'zbekiston iqtisodiyotiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi jahon bozorlari rivojlanishining eng kuchli tendensiyalari va xalqaro vaziyat prognozlarini, yangi texnologik imkoniyatlar, mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va boshqa omillar hisobga olingan.

Mamlakatni rivojlantirishning strategik ustuvor yo'nalishlarini belgilash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiya tuzilgan bo'lib, u mazkur hujjatni ishlab chiqishda, birinchi navbatda, O'zbekiston aholisining hayot sifatini yaxshilashni jadallashtirishi mumkin bo'lgan yangi imkoniyatlarni aniqlab, hisobga olgan.

Harakatlar strategiyasining asosiy maqsadi amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoit yaratish, mamlakatni modernizatsiya qilish va hayotning barcha jabhalarini liberallashtirishdir.

Har qanday strategiya – strategiyalash ob'yektidan qat'i nazar – umumiy xususiyatga ega va shuning uchun umumiy nazariy asosga ega bo'lishi zarur. Shu bois O'zbekistonni hududiy rivojlantirishning yagona kompleks strategiyasini ishlab chiqish metodologiyasi yirik investisiya loyihalarini joylashtirish va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashning tarmoq va hududiy tamoyillari uyg'unligiga asoslangan edi. Dasturni tayyorlashda aniq dasturiy tadbirlarni ishlab chiqish jarayonida

quyidagi harakatlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni nazarda tutuvchi omil-resurs va maqsadli yondashuvlardan foydalanildi:

- hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining erishilgan darajasini tahlil qilish, eng xarakterli tendensiya va muammolarni aniqlash, ularni keskinligi va ahamiyatiga ko'ra tartiblash;
- asosiy omillar, shart-sharoitlar va shartlarni asoslash, ularning hududlarni barqaror va kompleks rivojlantirishga ta'siri, har bir hudud uchun strategiyaning maqsad va vazifalarini belgilash;
- belgilangan maqsad va vazifalarga erishishga qaratilgan asosiy ustuvor yo'nalishlarni, omil-maqsadli yo'riqnomalarni ishlab chiqish;
- ko'zlangan maqsadlarga erishish bo'yicha aniq batafsil chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va moliyalashtirish manbalarini aniqlash.

Maqsadlarni tahlil qilish va belgilashda qiyosiy baholash usullari, guruhlash va tipologiyalar, hududiy rivojlanish darajasi indeksleri va koeffitsiyentlarini hisoblash, balans hisob-kitoblari, ekspert baholashlari, tarkibiy va tizimli tahlillar va boshqalar qo'llanildi.

Hududiy rivojlanish strategiyasining asosiy maqsadi barcha hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish asosida mamlakat iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari va mamlakat aholisining turmush darajasini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat edi.

O'zbekistonda 2000 yil boshiga qadar mintaqaviy strategiyalarni ishlab chiqish tajribasi va uzoq muddatli hududiy rivojlanish uchun strategik qarashlar mavjud emas edi. Keyinchalik uzoq muddatli hududiy hujjatlarni asoslashga urinishlar bo'ldi va bu faoliyatga mutaxassis va olimlarning yetarlicha jalb etilmaganligi sababli ular aksariyat hollarda, amalga oshirilmay qolib ketdi.

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga birinchi urinish 2008 yilda Qashqadaryo viloyati uchun BMT Taraqqiyot Dasturining texnik va moliyaviy ko'magida xalqaro ekspertlar ishtirokida amalga oshirilgan edi. Strategiyaning asosiy tarkibiy qismlari turmush darajasi bilan bog'liq omillarni aniqlashga qaratilgan edi. Taklif etilayotgan chora-tadbirlar asosan kambag'allikka barham berish bo'yicha xalqaro tashkilotlarning standart tartib-qoidalaridan iborat edi. Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar markazi

tomonidan Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha jabhalarini keng qamrab olgan holda uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi.

Strategiyani ishlab chiqishning uslubiyoti va uslubiy asosi hududiy rejalashtirishga an'anaviy yondashuv bo'lib, ikkita ssenariy variant bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni o'rta muddatli prognozlash elementlari – qulay (iqtisodiy va tabiiy-iqlim sharoitlarini saqlash) va noxush (ularning yomonlashuvi) bo'ldi.

Hududiy tartibga solishning ilg'or xorijiy tajribasi ushbu masalaga yanada kengroq va tizimli yondashishni ko'rsatadi, bunda mexanizmlarni asoslashda quyidagilar ham ko'zda tutilishi lozim:

- hududiy tartibga solishning huquqiy-me'yoriy bazasiga rioya etish va shu asosda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash;
 - hududlarni rivojlantirishning yagona siyosatini amalga oshirishni ta'minlovchi tashkiliy tuzilmalarni baholash, shuningdek, hududlarni kompleks rivojlantirishni muvofiqlashtirish va tartibga solish maqsadida maxsus hududiy organni tashkil etish imkoniyatlarini o'rganish;
 - hududiy va tarmoq dasturlarini, yirik investisiya loyihalarini muvofiqlashtirishning samarali usullarini joriy etish, jumladan, tabiiy, iqtisodiy va resurs salohiyatini hisobga olgan holda ularni hududlarda oqilona taqsimlash;
 - byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, kam rivojlangan hududlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning moliyaviy vositalarini ishlab chiqish;
 - Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar, aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, ularning resurslaridan foydalanish holatini monitoring qilishning doimiy tizimini tashkil etish maqsadida strategiyaning axborot ta'minotini kuchaytirish va hududiy statistikani takomillashtirish; hududlarni, nomutanosibliklarni va hududlarni kompleks rivojlantirish muammolarini o'z vaqtida aniqlash;
 - hududiy boshqaruv, viloyat iqtisodiyoti, hududiy moliya sohalarida talakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash.
- Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning tashkiliy jihatlari bo'yicha Sharqiy Yevropaning bir qator

mamlakatlari tajribasini o'rganish ahamiyatli. Shu nuqtai nazardan, uzoq muddatli istiqbolda mintaqaning belgilangan maqsadli ko'rsatkichlariga erishishga qaratilgan strategiyani shakllantirish va boshqarish jarayonini aniqroq tushunish zarur. Shu bilan birga, hududlarni rivojlantirish bo'yicha tanlangan strategiyani hisobga olgan holda muammolarni tezkorlik bilan hal etish, resurs salohiyatini o'z vaqtida hududni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga yo'naltirish va ulardan samarali foydalanish, mahalliy hokimiyat va mahalliy hamjamiyatning sa'y-harakatlarini jamlash (xalq deputatlari, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlari) hududlarni istiqbolli rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishish bo'yicha strategiyalar muhim ahamiyatga ega.

Markazlashgan iqtisodiyotning tugashi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirishda davlatning rolini mutlaq inkor etmaydi. Bunda, rejalashtirishning mazmuni va tashkil etilishining o'zi o'zgaradi: qat'iy direktiv rejalashtirish o'rnini yo'naltiruvchi, tartibga soluvchi va bozor munosabatlariga eng mos keladigan boshqa turlari egallaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga nisbatan rejalashtirish va bozorning o'z-o'zini tartibga solishning o'zaro ta'sirini qarama-qarshilik va inkor qilish nuqtai-nazaridan emas, balki simbioz va organik birikma sifatida qarash to'g'ri.

Bunday simbiozning asosiy vositasi indikativ rejalashtirish bo'lib, u direktiv rejalashtirish o'rnini egalladi va ob'yektiv bozor qonunlarining amal qilishini va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga tartibga soluvchi ta'sirini hisobga oladigan bozorning o'zini o'zi boshqarish mexanizmini oqilona birlashtiradi. Buning yordamida indikativ reja iqtisodiyotni boshqarishning samarali vositasiga aylanadi, bu bozor iqtisodiyotiga ega iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar (Fransiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi) tajribasi tasdiqlaydi.

Indikativ rejalashtirish uchta muhim funksiyani bajarish uchun mo'ljallangan:

1) axborot – ya'ni davlat reja va prognozlar bilan tadbirkorlik sub'yektlarini shu asosda o'z biznes rejalarini shakllantirish imkonini beradigan ustuvor iqtisodiy siyosat to'g'risida xabardor qiladi;

2) barqarorlashtirish – hukumatning uzoq muddatli maqsad va vazifalari bo'yicha va ularga muvofiq harakat qilish imkonini beradi;

3) murosaga kelish – hukumat va nodavlat xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga o'zaro maslahatlashuvlar va kelishuvlar jarayonida iqtisodiy siyosatning asosiy masalalari bo'yicha yakdilikka erishish imkonini beradi.

Shunga qaramay, to'plangan tajriba uzoq muddatli milliy va hududiy rivojlanish strategiyalari aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiyotning tegishli ustuvor yo'nalishlarini yanada barqaror va maqsadli rivojlantirishni ta'minlash uchun zarurligini ko'rsatadi. Bu tajriba, shubhasiz, O'zbekiston va uning hududlarining o'rta va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda milliy-hududiy strategiyalariga asoslangan va yagona uslubiy yondashuvlar asosida ishlab chiqilishi muhimligini tasdiqladi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh qilishga qaratilgan 300 ga yaqin qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 mingdan ortiq qarori qabul qilindi.

Shu bilan birga, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining mas'uliyati va ochiqligini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish yo'nalishida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini erkinlashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish va eksportni kengaytirish, hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allik darajasini kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari etib belgilanib, aholining ish bilan bandligi va kafolatlangan daromad manbai, malakali tibbiy-ta'lim xizmatlari, munosib turmush sharoiti bilan ta'minlash ishlari sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarildi.

2017 yildan so'ng amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun zarur bo'lgan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy asoslar yaratildi.

Xulosa

Hozirgi shiddatli zamonda mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish modelini belgilash va davlat boshqaruvini isloh qilish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish, innovatsiyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash kabi dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu strategiya aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning o'sishi, makroiqtisodiy barqarorlik, xususiy sektorni rag'batlantirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiyotning "drayver" tarmoqlari va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish masalalarini o'z ichiga oladi.

Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida kelgusi besh yilga mo'ljallangan mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish bo'yicha qator strategik vazifalar belgilangan. Xususan, tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhiti va zarur infratuzilmani yaratish borasidagi islohotlarni davom ettirish, kambag'allikni ikki baravar kamaytirish, hududlar va qishloq xo'jaligini rivojlantirish vazifalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Asosiy atama va tushunchalar

Strategik rejalashtirish
Makroiqtisodiy barqarorlik
Indikativ rejalashtirish
Hududiy rivojlanish
Investisiya dasturlari
Byudjet shaffofligi
Ijtimoiy rivojlanish

Nazorat savollari

1. O'rta va uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqishning dolzarbligi
2. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar
3. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqilishi, ustuvor yo'nalishlari va natijalar

4. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqish asoslari, ustuvor yo'nalishlari va maqsadli ko'rsatkichlar

5. 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar

30. Milliy iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik. Yashirin iqtisodiyot

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati va tarkibiy elementlari. Iqtisodiy xavfsizlik shakllari va asosiy ko'rsatkichlari. Iqtisodiy xavfsizlikka ichki tahdidlar. Iqtisodiy xavfsizlikka tashqi tahdidlar. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari. Oziq-ovqat xavfsizligi. Demografik xavfsizlik. Ekologik xavfsizlik. Axborot xavfsizligi. Hudud iqtisodiy xavfsizligi. Yashirin iqtisodiyot va norasmiy bandlik xavfsizligi. Korrupsiyaga qarshi kurash. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari.

Iqtisodiy xavfsizlik – ilmiy bilimlar sohasi bo'lib, ular doirasida ular iqtisodiy ko'rsatkichlarning yetarlicha yuqori va barqaror o'sishini ta'minlaydigan iqtisodiyotning holatini o'rganadilar; iqtisodiy ehtiyojlarni samarali qondirish; milliy resurslar harakati va ulardan foydalanish ustidan davlat nazoratidir. Milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uni ta'minlashning eng muhim sharti yoki omili, ko'rsatkichi iqtisodiy xavfsizlikdir. "Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi eng umumiy tarzda mamlakatning moddiy va nomoddiy, qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan iqtisodiy salohiyatini ifodalaydi.

"Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasining mazmuni ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Bir guruh olimlar mazkur iqtisodiy tushuncha mazmunini mamlakatning yetarli mudofaa salohiyati, davlat siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligi, milliy manfaatlarini himoya qilishni kafolatlashga qodir bo'lgan iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining holati sifatida ta'riflaydilar. Shuningdek, uni hokimiyat institutlarining iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan milliy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarish hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini

qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratishga qodirligi va tayyorligi deb ham talqin qiladilar.

Taniqli rus iqtisodchisi L.I.Abalkin ushbu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi uchta elementni ko'rsatadi:

– **iqtisodiy mustaqillik.** Hozirgi jahon xo'jaligi sharoitida iqtisodiy mustaqillik absolyut xarakterga ega emas, chunki xalqaro mehnat taqsimoti milliy iqtisodiyotlarni bir-biriga o'zaro bog'liq qilib qo'yadi. Bunday jarayonda iqtisodiy mustaqillik davlatning iqtisodiy resurslar ustidan nazorat o'rnatish imkoniyatini, jahon savdosi, kooperasiya aloqalari, ilmiy–texnika yutuqlarini ayirboshlashda teng ishtirok etish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan ishlab chiqarish, samaradorlik va sifat darajasiga erishishni anglatadi;

– **milliy iqtisodiyotning barqarorligi.** Bu shaklidan qat'iy nazar mulkchilikning himoya qilinishi, tadbirkorlik faolligi uchun ishonchli sharoit va kafolatlarning yaratilishi, mamlakatdagi holatning yomonlashuviga, beqarorlikka olib keluvchi omillarning jilovlanishini (ya'ni iqtisodiyotdagi kriminal tuzilmalarga qarshi kurash, daromadlar taqsimlanishida jiddiy farqlar, tabaqalanishning kelib chiqishi, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashib ketishiga yo'l qo'yimaslikni) taqozo etadi;

– **o'z-o'zidan rivojlanish va taraqqiy etishga qodirlik.** Bu esa investisiyalar va innovasiya uchun qulay muhitning yaratilishi, ishlab chiqarishning muntazam modernizatsiyalashuvi, yangilanishi va takomillashib borishi hamda xodimlarning bilim, kasb–malaka, umumiy madaniy darajalarining o'sib borishi milliy iqtisodiy barqarorlik mavjudligining zaruriy shartiga aylanishini ifodalaydi.


Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning turli sub'yektlariga tegishli bo'lib, ular quyidagilardan iborat: alohida fuqarolar; xususiy tadbirkorlik, biznes; davlat korxonalari; milliy iqtisodiyot; davlat.

Ichki iqtisodiy xavfsizlik tabiiy, texnikaviy–iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makroiqtisodiy rivojlanishning boshqa omillari, shuningdek, beqarorlik, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta'siridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bog'liqdir.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligi, milliy valyutasi barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvoli bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi risk kategoriyasi bilan uzviy bog'liqdir. Uzoq yillar davomida iqtisodiyotni boshqarish nazariyasida amaliyotida, ayniqsa, makroiqtisodiyot darajasida uning rivojlanishiga qat'iy belgilangan jarayon sifatida qaralgan. Ushbu jarayonda xo'jalik qarorlarining ko'zda tutilmagan natijalarga olib kelishi, takror ishlab chiqarish jarayonlari buzilishining u yoki bu salbiy oqibatlari nazarda tutilmas edi. Bu esa iqtisodiy risk omillariga e'tibor bermaslik oqibati edi. Zero, iqtisodiy risk kategoriyasidan foydalanish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllarini uning sub'yektlari va ob'yektlari nuqtai nazaridan turkumlash mumkin (30–rasm).



30–rasm. Iqtisodiy xavfsizlik tasnifi

Iqtisodiyot sub'yektlari nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- shaxsning iqtisodiy xavfsizligi;
- korxonalar (firma) ning iqtisodiy xavfsizligi;
- davlatning iqtisodiy xavfsizligi.

Ekologik xavfsizlik – tabiiy va antropogen ekologik xavf omillarining atrof–muhit va odamlarga salbiy taʼsirining maqbul darajasi. Tashkilotning har bir darajasida ekologik xavfsizlik tizimi funksional jihatdan bir–birini mantiqiy ravishda toʻldiradigan uchta standart moduldan iborat boʻlib, faqat ularning birligida tizimning oʻzini tashkil qiladi, bu hududni kompleks ekologik baholash, atrof–muhit monitoringi va boshqaruv qarorlari (ekologik siyosat)..

Axborot xavfsizligi – bu maʼlumotlarga ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, oʻzgartirish, tadqiq qilish, yozib olish yoki yoʻq qilishning oldini olish amaliyotidir. Ushbu universal kontsepsiya maʼlumotlar qanday shaklda boʻlishidan qatʼiy nazar amal qiladi (elektron yoki, masalan, jismoniy). Axborot xavfsizligining asosiy maqsadi maʼlumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini himoya qilishni muvozanatlashdir, qoʻllashning maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda va tashkilot faoliyatiga hech qanday taʼsir qilmaydi. Bunga, birinchi navbatda, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, tahdid manbalari, zaifliklar, potensial taʼsirlar va risklarni boshqarish imkoniyatlarini aniqlaydigan koʻp bosqichli risklarni boshqarish jarayoni orqali erishiladi. Ushbu jarayon risklarni boshqarish rejasining samaradorligini baholash bilan birga keladi.

Ishlab chiqarish sohasida iqtisodiyotda energetik va texnologik xavfsizlikni taʼminlash muhim hisoblanadi. Energetika resurslari iqtisodiy resurslar ichida muhim oʻrin tutadi. Bu resurslar har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik xom ashyo hisoblanib, uning salohiyatini, mustaqil rivojlanish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Mamlakat iqtisodiyoti energetik xom ashyo resurslarining importiga bogʻliq boʻlib qolsa, u holda iqtisodiy mustaqillikka erishish mushkul muammoga aylanadi. Texnologik xavfsizlikning taʼminlanishi istiqbolda fan, texnika va texnologiya yutuqlaridan oʻz vaqtida va toʻliq foydalanish imkoniyatini, intellektual salohiyatdan xoʻjalik faoliyatida foydalanish darajasini ifodalaydi. Shu boisdan energetik va texnologik xavfsizlikning

taʼminlanishi mamlakat iqtisodiyotining salohiyati, qudrati va mustaqilligini, raqobatbardoshligini ifodalaydi⁴⁵.

Texnologik xavfsizlik mamlakat iqtisodiyotining ilgʻor texnika hamda texnologiya bilan jihozlanganligi va qurollanganligi, boshqa mamlakatlardan keltiriladigan texnologiyaga qaram emasligini ifodalaydi. Shuningdek, fan va texnika yutuqlaridan foydalanish darajasi, intellektual, innovasion va injenerlik salohiyatining himoyalanganligini ham aks ettiradi. Texnologik xavfsizlik mamlakat iqtisodiy qudratini ifodalab, oʻzining yuqori texnologiyasiga asoslangan, jahon bozorlarida oʻxshashi yoʻq, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda oʻz ifodasini topadi. Uning asosiy koʻrsatkichlari ilmtalab va yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarilishi hisoblanadi. Ushbu xavfsizlik fan–texnika sohasidagi tadqiqotlar asosida yangi texnika va texnologiyani rivojlantirishni ham taqozo etadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlashda hech bir iqtisodiyot va jamiyat subʼyekti davlatchalik katta rol oʻynay olmaydi. Davlatning eng muhim vazifasi jamiyat barqarorligi va rivojlanishini taʼminlash, mamlakat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etishdan iborat.

Iqtisodiy xavfsizlikning umumiy koʻrsatkichlari (indikatorlari) quyidagilardan iborat:

- turmush darajasi va sifati;
- inflyasiya surʼati;
- iqtisodiy oʻsish;
- byudjet defisiti;
- davlat qarzi;
- jahon iqtisodiyotiga kirib borganlik;
- «yashirin iqtisodiyot» darajasi;
- norasmiy bandlik darajasi;
- mulk tarkibi;
- soliq tizimi.

Hududiy darajada umumiy koʻrsatkichlardan tashqari yana quyidagi koʻrsatkichlar iqtisodiy xavfsizlikni ifodalaydi:

- aholi daramdlari;
- chakana narxlar darajasi;

⁴⁵ Iqtisodiy xavfsizlik nazariya va amaliyot. Oʻquv qoʻllanma - "Noshirlik yogʻdusi" nashriyoti. T. 2019. 620-bet.

- uy-joy bilan ta'minlanganlik;
- qochoqlar, emigrantlar va boshqalar soni;
- hududning mamlakat YAIMdagi ulushi;
- hududning to'lov balansi;
- eksport–import saldosi

Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasi indikatorlari milliy iqtisodiyot sohalari va ularning har biridagi milliy manfaatlar nuqtai nazaridan turkumlanadi. Jahon miqiyosida qabul qilingan iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralarini 30.1–jadvalda ko'rish mumkin.

30.1–jadval

Iqtisodiy xavfsizlikning quyi xavfli chegaralari⁴⁶

Ko'rsatkichlar	Quyi va yuqori tahlikali chegara mazmuni	Darajasi %
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	YAIMga nisbatan, foiz (quyi chegara)	16
Ishsizlik darajasi	Iqtisodiy faol aholiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	8
Monetizatsiya darajasi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	25
Tashqi qarz	YAIMga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	40
Ichki qarz	YAIMga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	30
Tashqi qarzlarning bo'yicha to'lovlar	To'lovlarning yillik eks port hajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	25
Mudofaaga xarajatlar	YAIMga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	3
Fuqarolik fanlariga xarajatlar	YAIMga nisbatan, foiz (quyi chegara)	1,5
Innovasion mahsulotlar	Sanoat mahsulotlari umumiy hajmiga nisbatan, foiz (quyi chegara)	15
Sanoat ishlab chiqarishda mashinasozlik va metallni qayta ishlash	Sanoat ishlab chiqarish hajidagi ulushi, foiz (quyi chegara)	25
Davlat byudjeti defisiti	YAIMga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	3,0
Davlat qarzini qoplash xarajatlari	Davlat byudjeti xarajatlari xajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	20
Yashash minimumidan past darajada daromad oluvchi aholi	Aholi umumiy sonidagi ulushi, foiz (yuqori chegara)	7,0
Aholi daromadlari bo'yicha taqabalanishi	Desil koeffitsiyenti (yuqori chegara)	8,0

⁴⁶ Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. – М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М, 2009

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari sifatida S.Yu.Glazhev tomonidan taklif etilgan turkumlanishdan ko'proq foydalanilmoqda. Ushbu iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari turkumiga quyidagilar kiradi⁴⁷:

- YAIMning umumiy va aholi jon boshiga hajmi;
- sanoat mahsulotlari umumiy hajmida ishlab beruvchi sanoat mahsulotlari ulushi;
- sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlikning ulushi;
- investitsiyalar hajmining YAIMga foiz hisobidagi nisbati;
- ilmiy tadqiqotlar uchun xarajatlarning YAIMga nisbati (foiz hisobida);
- yangi turdagi mahsulotlarning yalpi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmidagi ulushi;
- yashash minimumi darajasidan past daromad oluvchi kishilar ulushi;
- aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi;
- aholining eng yuqori daromad oluvchi 10% guruhining eng kam daromad oluvchi 10% guruhi daromadlari o'rtasidagi farq;
- qayd etilgan jinoyatlar har 100000 kishi hisobiga;
- Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) metodologiyasi bo'yicha ishsizlik darajasi (foiz hisobida);
- yillik inflyatsiya darajasi (foiz hisobida);
- ichki qarzlarning hajmining YAIMga nisbati, (foiz hisobida, qiyosiy davrda);
- ichki qarzlarni qoplash va ularga xizmat ko'rsatish uchun joriy ehtiyojning byudjetga soliq tushumlari hajmidagi ulushi (foiz hisobida);
- tashqi qarzning YAIMga nisbati (foiz hisobida);
- tashqi qarzning YAIM kamomadini qoplashdagi ulushi;
- xorijiy valyutalar miqdorining milliy valyuta massasiga nisbati (foiz hisobida);
- naqd xorijiy valyuta miqdorining naqd milliy valyuta hajmiga nisbati (foiz hisobida);
- (M2) pul massasining YAIMga nisbati (foiz hisobida);

⁴⁷ Экономическая безопасность: учебное пособие / Авторы-сост. Галузина С.М.; Туровская М.С. – СПб.: МИЭП при МПА ЕвразЭС, 2016. – 183 с.

- uy-joy bilan ta'minlanganlik;
- qochoqlar, emigrantlar va boshqalar soni;
- hududning mamlakat YAIMdagi ulushi;
- hududning to'lov balansi;
- eksport-import saldosi

Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasi indikatorlari milliy iqtisodiyot sohalari va ularning har biridagi milliy manfaatlar nuqtai nazaridan turkumlanadi. Jahon miqyosida qabul qilingan iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralarini 30.1-jadvalda ko'rish mumkin.

30.1-jadval

Iqtisodiy xavfsizlikning quyi xavfli chegaralari⁴⁶

Ko'rsatkichlar	Quyi va yuqori tahlikali chegara mazmuni	Darajasi %
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	YAIMga nisbatan, foiz (quyi chegara)	16
Ishsizlik darajasi	Iqtisodiy faol aholiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	8
Monetizatsiya darajasi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	25
Tashqi qarz	YAIMga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	40
Ichki qarz	YAIMga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	30
Tashqi qarzlarning bo'yicha to'lovlar	To'lovlarning yillik eks port hajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	25
Mudofaaga xarajatlar	YAIMga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	3
Fuqarolik fanlariga xarajatlar	YAIMga nisbatan, foiz (quyi chegara)	1,5
Innovasion mahsulotlar	Sanoat mahsulotlari umumiy hajmiga nisbatan, foiz (quyi chegara)	15
Sanoat ishlab chiqarishda mashinasozlik va metallni qayta ishlash	Sanoat ishlab chiqarish hajdagi ulushi, foiz (quyi chegara)	25
Davlat byudjeti defisiti	YAIMga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	3,0
Davlat qarzini qoplash xarajatlari	Davlat byudjeti xarajatlari xajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	20
Yashash minimumidan past darajada daromad oluvchi aholi	Aholi umumiy sonidagi ulushi, foiz (yuqori chegara)	7,0
Aholi daromadlari bo'yicha tabaqalanishi	Desil koeffitsiyenti (yuqori chegara)	8,0

⁴⁶ Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. - М.: Финансы и статистика, ИНФРА-М, 2009

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari sifatida S.Yu.Glazhev tomonidan taklif etilgan turkumlanishdan ko'proq foydalanilmoqda. Ushbu iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari turkumiga quyidagilar kiradi⁴⁷:

- YAIMning umumiy va aholi jon boshiga hajmi;
- sanoat mahsulotlari umumiy hajmida ishlab beruvchi sanoat mahsulotlari ulushi;
- sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlikning ulushi;
- investitsiyalar hajmining YAIMga foiz hisobidagi nisbati;
- ilmiy tadqiqotlar uchun xarajatlarning YAIMga nisbati (foiz hisobida);
- yangi turdagi mahsulotlarning yalpi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmidagi ulushi;
- yashash minimumi darajasidan past daromad oluvchi kishilar ulushi;
- aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi;
- aholining eng yuqori daromad oluvchi 10% guruhining eng kam daromad oluvchi 10 % guruhi daromadlari o'rtasidagi farq;
- qayd etilgan jinoyatlar har 100000 kishi hisobiga;
- Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) metodologiyasi bo'yicha ishsizlik darajasi (foiz hisobida);
- yillik inflyatsiya darajasi (foiz hisobida);
- ichki qarzlarning hajmining YAIMga nisbati, (foiz hisobida, qiyosiy davrda);
- ichki qarzlarni qoplash va ularga xizmat ko'rsatish uchun joriy ehtiyojning byudjetga soliq tushumlari hajmidagi ulushi (foiz hisobida);
- tashqi qarzning YAIMga nisbati (foiz hisobida);
- tashqi qarzning YAIM kamomadini qoplashdagi ulushi;
- xorijiy valyutalar miqdorining milliy valyuta massasiga nisbati (foiz hisobida);
- naqd xorijiy valyuta miqdorining naqd milliy valyuta hajmiga nisbati (foiz hisobida);
- (M2) pul massasining YAIMga nisbati (foiz hisobida);

⁴⁷ Экономическая безопасность: учебное пособие/ Авторы-сост. Галузина С.М.; Туровская М.С. - СПб.: МИЭП при МПА ЕврАзЭС, 2016. - 183 с.

– ichki iste'molda importning hissassi, shu jumladan, ichki oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli hajmida import oziq-ovqat mahsulotlari ulushi (foiz hisobida);

– aholi yashash darajalari bo'yicha mamlakat hududlari o'rtasidagi farqlar.

Har bir mamlakatda rasmiy tarzda belgilangan quyi va yuqori tahlikali chegara indikatorlari milliy va jahon iqtisodiyotidagi sharoitlarning o'zgarishi natijalari bilan taqqoslanadi. Mamlakatning ichki iqtisodiy sohasidagi xavfsizligi tabiiy, texnik-texnologik, infratuzilmaviy, ijtimoiy hamda boshqa makro va mikroiqtisodiy rivojlanish omillari, ichki immunitet va turli beqarorlik, tangliklar ta'siridan himoyalaniş orqali ta'minlanadi. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ichki omillarga quyidagilar kiradi:

– ilgari tizimdan biryozlama, tarkibi deformatsiyalashgan iqtisodiyotning meros qolganligi;

– ko'pchilik tarmoqlarning qoloq texnologik bazaga, yuqori energiya va resurs sig'imiga egaligi sababli milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining pastligi;

– iqtisodiyotning yuqori darajada monopollashuvi;

– yuqori darajadagi inflyasiya;

– infratuzilma ob'yektlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va mustahkam emasligi;

– mineral-xom ashyo bazalarining kam o'rganilganligi va xo'jalik oborotiga tortilish imkoniyatlarining yetarliemasligi;

– mamlakat ilmiy-texnika salohiyatining yomonlashuvi, fan-texnika rivojlanishining ayrim yo'nalishlarida

ilg'or o'rnlarning boy berilishi, boshqa faoliyat sohalarida intellektual mehnat obro'sining (prestijining) tushib ketishi;

– ichki bozorlardan chet el firmalari tomonidan vatanimizdagi tovar ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining, shu jumladan, iste'mol tovarlarining siqib chiqarilishi;

– hududiy separatizm tendensiyasi va boshqarish qarorlarini qabul qilishda tarmoq lobbizmining yuqori darajadaliği;

– investision faollikning pastligi;

– kapital xarajatlar o'rniga joriy xarajatlarni afzal ko'rish;

– sosial konflikt (ziddiyat) larning kelib chiqish xavfining mavjudligi. Bunday ijtimoiy ziddiyatlar mehnatga haq to'lash mexanizmining takomillashmaganligi, ishsizlik

darajasining yuqoriligi, aholi o'rtasidagi tabaqalanishning keskinlashib ketishi, aholi bilim darajasi va sifatining pasayishi tufayli vujudga keladi;

– qonunchilikning rivojlanmaganligi, bir qancha iqtisodiy sub'yektlarning ichki va tashqi bozorda monopol holatda ekanligi va g'ayriqonuniy faoliyat ko'rsatishi hamda ularning huquqiy intizomlarining pastligi;

– iqtisodiyot sub'yektlarining moliyaviy va shartnomaviy intizomlarining pastligi;

– iqtisodiyotning kriminallasuvi va uni boshqarishda korrupsiyaning kuchayishi;

– daromadlarni yashirish va soliq to'lashdan qochish hollarining ko'payishi;

– moliyaviy mablag'larni chet ellarga noqonuniy tarzda o'tkazish.

Tashqi tahdidlar mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga iqtisodiyotning erkinlashuvi va ochiqiligi bilan bog'liq xavf-xatarlar va tahdidlar mavjud bo'ladi. Ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagilar taqozo etiladi:

birinchidan, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etish bilan milliy ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish;

ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga erishish. Alohida ta'kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta'sirini butunlay yo'q qilish, unga barham berish mumkin emas. Ammo ularning ta'sirini maqbul darajada kamaytirish lozim bo'ladi.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

1) eksport tarkibida xom ashyo tovarlarining ustuvorligi, an'anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlarining yo'qotilishi;

2) mamlakatning ko'p turdagi mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi, bog'liqligi;

3) tashqi qarzlarning o'sib borishi;

4) eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, bojxona chegaralarining yopiq emasligi;

5) raqobatga bardoshli eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarning rivojlanmaganligi hamda import tarkibining rasional emasligi;

6) eksport-import operasialariga xizmat ko'rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivoj topmaganligi.

Eksport tovarlariga narxlarning keskin pasayib ketishi yoki aksincha, import tovarlariga narxlarning keskin ko'tarilib ketishi tashqi bozorga g'oyatda bog'liq bo'lgan iqtisodiyot uchun o'ta xavfli hisoblanadi.

Xavfsizlikni, shu jumladan, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning uchun, avvalambor, uning siyosiy tashkiliy va huquqiy asoslari yaratiladi. Ushbu maqsadda konsepsiya ishlab chiqiladi. Uni ishlab chiqish esa iqtisodiyot holatini ob'ektiv baholash hamda uning rivojlanish tamoyili va tendensiyalarini prognoz qilishga asoslanadi. Buning uchun iqtisodiy xavfsizlikni belgilovchi vaziyat va xolatlardagi sabab-oqibatlari aniqlanadi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni saqlash va mustahkamlashga mas'ul, javobgar davlat organlari, tashkilot va muassasalar belgilanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda davlat iqtisodiy strategiyasining uch jihati va tarkibiy qismlari ajratib ko'rsatilgan:

1. Iqtisodiy xavfsizlik va mamlakat hayot faoliyati muhim sohalarining himoyasini ta'minlaydigan milliy, davlat manfaatlarini aniqlash.

2. Shaxs, jamiyat va davlatning muhim hayotiy manfaatlariga ziyon keltiradigan iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar va xavf-xatarlarni tavsiflash. Bunda qisqa, o'rta va uzoq muddatli davrlarda davlat va ijtimoiy-iqtisodiy tizim barqarorligiga zararli, salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar va sharoitlar aniqlanadi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikning turli tahdidlar, xavf-xatarlardan barqaror himoyalanihini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni shakllantirish, institusional o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish⁴⁸. Ushbu strategiyada iqtisodiy xavfsizlik talablariga javob beradigan iqtisodiyotning mezon va parametrlari ham aniqlanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi muammosi birinchi marta 1974 yilda Rimda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti tomonidan tashkil etilgan Butunjahon oziq-ovqat konferensiyasida iqtisodiy va siyosiy jihatlarga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Buning sababi sifatida ikkita omil qayd etilgan: jahon oziq-ovqat bozorining faol shakllanishi, oziq-ovqat mahsulotlarining mutlaq ortiqcha ishlab chiqarilishiga ta'sir ko'rsatgan rivojlangan mamlakatlarning oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy eksportchilari sifatidagi mavqeining mustahkamlanishi, shuningdek, bu bilan bog'liq o'tkir muammolarning paydo bo'lishi. "uchinchi dunyo" ning ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlarida oziq-ovqat ta'minoti bilan. «Dunyo», bu erda aslida ko'plab insonlar qurbonlari bilan birga katta ocharchilik bo'lgan. Yagona jahon global iqtisodiy modelining mavjudligi sharoitida ushbu muammoni hal qilish uchun FAO doirasida Oziq-ovqat xavfsizligi qo'mitasi tuzildi va dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xalqaro majburiyatlar belgilandi.

Oziq-ovqat xavfsizligi davlatning xalqaro va iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir. Umumiy shaklda u har qanday milliy oziq-ovqat tizimining ideal holatga qarab harakatlanish vektorini tashkil qiladi. Shu ma'noda oziq-ovqat xavfsizligiga intilish doimiy jarayondir. Shu bilan birga, bunga erishish uchun ko'pincha rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari va agrar siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini o'zgartirish zarur.

Oziq-ovqat siyosati nafaqat ishlab chiqarish, tashqi savdo, saqlash va qayta ishlashni rivojlantirish, balki asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini adolatli taqsimlash muammolarini tizimli va samarali hal etish, qishloq hududlarini ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlarini ham o'z ichiga oladi.

Jahonda har 7 daqiqada bir bola ochlik yoki u bilan bog'liq sabablar tufayli nobud bo'ladi. Besh yoshgacha bo'lgan barcha bolalarning uchdan

⁴⁸ Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: Изд-во РАГС, 2001. – С. 96

bir qismi to'yib ovqatlanmaslikdan azob chekadi. Har yili 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning 6 milliondan ortig'i to'yib ovqat yemaslik tufayli dunyodan ko'z yummoqda. 1,3 mlrd. kishi kuniga 1 AQSH dollaridan kam mablag' hisobidan kun ko'radi. Qashshoq kishilarning asosiy qismi Janubiy Osiyoda yashaydi. Ulardan 522 million kishi kuniga 1 dollardan kam mablag'ga hayot kechirmoqda. Afrikaning Sahroi Kabirdan janubida butun mintaqa aholisining deyarli yarmi – 46,3 foizi qashshoqlikda yashaydi. Asosiy xizmatlardan foydalanish va qashshoqlikni kamaytirish uchun atigi 80 mlrd. dollar kifoya. Bu jahondagi umumiy daromadning 0,5 foizidan ham kamrog'ini tashkil etadi. Jahondagi eng badavlat uch oligarxning mablag'i – eng qashshoq 48 mamlakatning jami yalpi ichki mahsulotidan ancha yuqori. Bu esa, jahonda, jumladan, O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini o'zi, mustaqil ta'minlashga qodirligini ifodalaydi. Shuningdek, oziq-ovqat importiga o'ta bog'liqlikdan xalos bo'lganligini anglatadi. Ta'kidlash joizki, oziq-ovqat xavfsizligi faqat ichki o'zini-o'zi to'liq oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bilan cheklanmaydi. Buning uchun oziq-ovqat importi ham e'tiborga olinadi.

Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik – bu mintaqaviy iqtisodiy tizimning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining shunday holati bo'lib, unda u tashqi va ichki muhim xarakterdagi barcha tahdidlarga samarali dosh bera oladi. Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka xalqaro va milliy iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'liq tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mutanosiblikni saqlash, ulardagi farqlarni kamaytirish, imkoniyat va salohiyatlaridan samarali foydalanish hamda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash ularning hududiy va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish zarur⁴⁹.

Yashirin iqtisodiyotning mavjudligi bugungi kunda har qanday iqtisodiy tizim uchun xarakterlidir, farq faqat taqsimlash ko'lamida bo'lib,

⁴⁹ Abulqosimov H.P. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. T.: "Noshirlik yog'dusi" 2019. - 620 b.

bu iqtisodiyotning rivojlanishi va mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladigan asosiy tahdidlardan biridir.

“Yashirin iqtisodiyot” – iqtisodiyotda barcha taqiqlangan faoliyat turlari, shuningdek, qonun bilan tartibga solinadigan, lekin ro'yxatga olinmagan, daromad keltirishi mumkin bo'lgan, shu jumladan, rasmiy statistika hisobga olmaydigan yashirin ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati.

Yashirin iqtisodiyot tuzilmasi iqtisodiyotning norasmiy, soxta va yashirin tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Norasmiy iqtisodiyot ishtirokchilari soliq to'lamaydigan qonun bilan belgilangan faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda norasmiy iqtisodiyot huquqiy iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda band bo'lganlar soni bo'yicha butun yashirin iqtisodiyotning katta qismini tashkil etadi. Xayoliy iqtisodiyot korrupsiya bilan bevosita bog'liq va undan kelib chiqadi. Bu firibgarlik, ko'ptoklar, pora, qo'shimchalar, imtiyozlar va «o'zlarining», shu jumladan filiallar uchun imtiyozlar, noqonuniy imtiyozlar iqtisodiyoti.

Norasmiy bandlik – bu rasmiy ro'yxatdan o'tmagan mehnat faoliyati bo'lib, u mehnat munosabatlari yoki o'zini o'zi ish bilan band qilishning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilmaganligidir. Norasmiy bandlik yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan og'zaki kelishuv bo'yicha mehnat yoki ro'yxatdan o'tmagan tadbirkorlik sifatida namoyon bo'ladi.

Norasmiy bandlik muammosi mamlakatda o'ta salbiy tendensiya bo'lib qolmoqda. Norasmiy bandlik va «konvertida» ish haqi ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlardagi eng dolzarb muammolardan biridir.

